

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

UMUMIY PEDAGOGIKA
FANIDAN MA'RUZALAR MATNI

Hasanova K.

SAMARQAND – 2017

1-Mavzu: O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimi va turlari. Kadrlar tayyorlash milliy modeli.

REJA:

1. Xalq ta’lim tizimi haqida tushuncha.
2. O‘zbekistonda ta’lim tizimi tarixi haqida ma’lumot.
3. Ta’lim tizimining tuzilishi va uning ish mazmuni.
4. Ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari.
5. Kadrlar tayyorlash milliy modeli.

Tayanch so‘z va iboralar. Ta’lim-tarbiya, tizim, tarmoq, tuzilish, ichki va tashqi siyosat, ma’lum qoidalar asosida, muassasalar, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish, maktab, madrasa, masjid, qorixona, diniy va dunyoviy bilimlar, davlat standarti, davlat va nodavlat, faoliyat ko‘rsatishi, ilmiy pedagogik muassasalar, boshqaruv organlari, korxona, uzluksiz, yagona, prinsiplar, dunyoviy xarakteri, majburiyligi, iste’dodni rag‘batlantirish, uzluksiz ta’lim, maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy, maktabdan tashqari, boshlang‘ich ta’lim, bilimlar hajmini beradi, kasbga yo‘naltirish, ixtiyoriy, majburiy, kasb-hunarga moyilligi, uch yillik va hokazo.

Xalq ta’limi tizimi deb muayyan mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga ta’sir ko‘rsatuvchi hamda ma’lum bir qoidalar asosida tashkil etilgan barcha ta’lim-tarbiya muassasalarining tuzilishiga aytiladi. Xalq ta’limi tizimi respublikamizni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishining ustivor sohasi hisoblanadi. U O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi qonunga muvofiq tashkil etildi va nazorat qilinadi. Konstitutsiyaning 18, 41-moddalarida ta’kidlanganidek jumhuriyatimizda yashovchi barcha fuqorolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar bilim olish huquqiga ega.

Sharq xalqlari, xususan o‘zbek xalqi qadimdan ilmga, ma’rifatga chanqoq ekanligi ma’lum. Buni o‘zbek xalqining tarixi bilan qiziqqan tarixshunoslarning esdaliklari, ilmiy mulohazalarida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Jumladan: “Xitoy ta’rifchisi (Syuan, Szyan, 630 yil) ning ma’lumotiga ko‘ra o‘sha zamonda O‘rta Osiyoda bola besh to‘lgach, uni o‘qish, yozishga va hisobga o‘rgatganlar. Eronda savodlilar kamdan-kam bo‘lgani holda, O‘rta Osiyoda hamma yoshlarni savodga o‘rgatish odat bo‘lgan” (40 bet. O‘zbekiston xalq pedagogikasi. 1973 yil).

Umumiy ta’lim maktablari, o‘rta va oliy ta’limda o‘quvchilarga davlat tomonidan g‘amxo‘rlik ko‘rsatiladi.

Yuqorida asoslangan barcha huquqlar yoshlardan Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi “Faqatgina chinakam ma’rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so‘z bilan aytganda, o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib, obro‘li o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin”, -fikri asosida faoliyatlarini tashkil etmoqliklarini talab etadi. O‘zbekiston respublikasi ta’lim tizimi ana shu g‘oyani amalga tadbqiq etishga qaratmog‘i darkor.

Taniqli Venetsiyalik sayyoh Marko Polo uzoq vaqt hozirgi O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston va qo'shni viloyatlar hududida yashagan xalqlarning an'analari, urf-odatlarini o'rganadi. U o'z esdaliklarida yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llanilgan usul va vositalarga tayangan holda "Nur Sharqdan taraladi" degan edi. Qadimgi Ovro'pada keng tarqalgan mazkur xikmatda SHarq xalqlarining insoniyat madaniyat poydevorini yaratishdagi ulkan hissasi g'arb xalqlari tomonidan tan olingani ifodasidir.

Ota-bobolarimizning "O'tmishni unutganning kelajagi bo'lmaydi" degan hikmatli gapi bor. Biz tariximizni qanchalik chuqur o'rgansak, madaniy merosimizga, qadriyat va an'analарimizga qaratsak, kelajak avlodga shunchalik to'g'ri ta'lim bergan bo'lamiz. Sharqda, xususan O'zbekistonda ta'lim-tarbiyaga juda katta e'tibor berilgan edi. Bolalarni kichik yoshidan ilmga qiziqtirish, axloqan pok, vijdonli, mehr-shafqatli qilib voyaga etkazish, el-yurtga nafi tegadigan farzand qilib o'stirish masalalariga ota-bobolarimiz jiddiy e'tibor qilishgan.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, Markaziy Osiyo hududidagi madrasa va masjidlarda, eski usuldagi maktablarda diniy ta'lim-tarbiya, etakchi o'rinni egallagan. Bu bejiz emas albatta. Inson, ayniqsa, yosh bola yuksak axloq va odob mezonini bilmay va uni puxta egallamay turib, boshqa ilmlarni egallashi qiyin. Bu asrlar davomida ota-bobolarimiz tomonidan qancha-qancha tajribalar asosida sinalgan haqiqatdir. Shu o'rinda eski o'quv yurtlarida tillar o'rganishga bo'lgan e'tiborni misol qilib ko'rsatish mumkin. Al-Xorazmiy, Al-Zamaxshariy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, A.Navoiy, Muhammad Solih, Ogohiy kabi ulug' zotlar arab, fors va boshqa tillarni qunt bilan o'rganishgan va o'sha tillarda erkin ijod qilishgan.

Musulmon maktablarida ta'lim-tarbiya tizimi ikki bosqichdan iborat bo'lgani ko'pgina manbalarda qayd etilgan. Chunonchi: ibtidoiy va o'rta asrlar davri madrasalar ta'limi. Shu o'rinda o'z ustida tinmay ishlagan iqtidorli peshqadam mullavachchalar tengdoshlaridan o'zib ketib, ilm cho'qqilarini egallaganini va yuqori darajaga erishganliklarini ta'kidlash lozim.

O'tmishda maktabga qabul qilinadigan o'quvchilarning yoshi aniq belgilanmas, ba'zi ota-onalar farzandlarini 5 yoshda, ayrimlari esa 6-8 yoshda, shaharlarda o'g'il bolalar 15-17 yoshgacha, qishloq joylarda esa 13-15 yoshgacha o'qitilardi.

O'quv dasturlari va dars jadvali muntazam bo'lmasdan, o'quvchilar sinflarga ajratilmas, edi. O'quvchilar o'qitilayotgan fanning xarakteri va sohasiga qarab guruhlanadi. Masalan: "taxtaxonlar" domla tomonidan taxtachaga yozilgan harflarni yozishni o'rganar edi va hokazo.

VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyoni arablar fath etgach, islom dini asosidagi sifat jihatidan yangi tizimga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya muassasalari vujudga keldi. Arab bo'lmagan bolalarga islom dini asoslarini o'rganish maqsadida Markaziy Osiyo maktablarida "Haftiyak", "Chor kitob" kabi darsliklar keng tarqaldi. XII asrdan boshlab islom dinini turkiy tillarda yozilgan asarlarda ham ommalashtirish boshlandi. Masalan, A.YAssaviyning "Xikmat" asari.

Maktab, madrasa, masjidlar faqat ibodatxona emas, tarbiya o'chog'i vazifasini bajargan. U davrda savod chiqarish harf va so'zlarni yozishni

o'rganishdan boshlanar edi. Maktab so'zi arabcha "yozuv o'rgatadigan fan" deb nomlanishi ham ana shundandir.

Maktablarda bolalarga yozish va hisoblash o'rgatilgan, yana o'smirlarga savdo san'ati, arab tili, mantiq, nomaqlik, husni xat va arifmetikadan savod berilgan. Har bir maktabda talabalar soni 30-40 tadan oshmagan, bundan tashqari masjid qoshidagi maktablarda ham 15-20 talaba o'qigan.

Maktab, madrasalar bilan birga qorixonalar ham mavjud bo'lib, ularda yozuv o'rgatilmagan. "Qur'on" ni yod olishgan xolos.

"Madrasa" so'zi - arabcha "dars o'qitiladigan joy", "ma'ruza tinglanadigan joy" ma'nosini bildiradi. "Mudarris" - dars beruvchi o'qituvchidir.

Madrasalar 15-20, 30-40 va xatto 100-150 talabani o'qitgan bo'lib, diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham berilgan. Qobiliyati, qiziqishi bo'lmagan bolalar shogirdlikka tushish, dehqonchilik bilan shug'ullanishini maslahat bergan.

1917 yilgacha har bir musulmon farzandini savodli qilishni savod deb bilgan.

Bulardan tashqari 6154 masjid mavjud edi. Bizning xalqning 2% gina savodli degan fikr bo'htondan boshqa narsa emas. Fikrimizning isboti uchun Turkiston o'lkasidagi xalq bilim yurtlari 3-inspektori V.Navkinning chor xukumatining maorif vaziri D.A.Tolstoyga 1896 yil 8 mayda yo'llagan maktubdan ayrim satrlarini keltiramiz: "E'tiboringiz uchun ushbu xabarni etkazishni lozim deb bilamanki, ayni paytda Turkiston o'lkasidagi oliy maktab madrasalargina xalq bilim yurtlari 3-inspektorning rahbarligidadir. Quyi maktablar bu inspektorning rahbarligi doirasidan tashqarida, ularning nihoyatda ko'pligi sababli hali sonini olishga muvaffaq bo'linmadi, menga topshirilgan inspeksiya ishlarida maktablarning soni haqida aniq ma'lumot yo'qligining boisi shunda". S.Gramenitskiy ta'kidlaganidek: "O'lka bosib olingach ruslar bu erda juda ko'p maktablar kitoblar borligini ko'rdilar, ularda arab alfavitida ona tili o'qitilishiga, xat-savodni egallash musulmon dini bilan uyg'unlashib ketishiga guvoh bo'ldilar"

Ta'lim tizimi deb muayyan mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi hamda ma'lum bir qoidalar asosida tashkil etilgan barcha ta'lim-tarbiya muassasalarining tuzilishiga aytiladi. O'zbekistonda ta'lim tizimi mamlakatning barcha fuqarolariga ta'lim, tarbiya berish kasb-hunar o'rgatishning asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan.

Ta'lim tizimi asosida barcha fuqarolar o'zlarining xohishlariga qarab, umumiy, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim va mutaxassisliklarni egallashlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Davlat ta'limi standartlariga muvofiq ta'lim dasturini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

Ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishini va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy pedagogik muassasalar;

Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

I. Barcha ta'lim muassasalari davlat ta'lim standartlari asosida tashkil etiladi va nazorat qilinadi. Ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat muassasalari shaklida olib boriladi. Davlat muassasalari O'zbekiston xukumatining mablag'i hisobidan tashkil qilinadi ya'ni barcha amalga oshiriladigan o'quv ishlari, amaliyotlar, o'quv-moddiy baza, kadrlarga tulanadigan va boshqa mablag'lar davlat tomonidan ta'minlanadi. O'qiydigan o'quvchi talabalarga stipendiya, yotoqxona va boshqa tomondan ijtimoiy himoyalanaadi.

Nodavlat ta'lim muassasalari esa nodavlat tashkilotlar, xo'jaliklar, dehqon-fermer, qo'shma korxonalar, fuqaro, homiylar yoki xorijiy tashkilotlari tomonidan tashkil etaladi. Barcha o'quv-tarbiyaviy ishlar, kadrlar tayyorlash o'sha homiylarning mablag'i hisobidan tashkil qilinadi. Ammo ta'lim mazmuni davlat ta'lim standartlari talabalariga javob berishi talab etiladi.

II. Ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatish va rivojlanishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarga esa quyidagilar: ta'lim tizimining rivojlanishini ta'minlovchi ilmiy tadqiqot institutlari, laboratoriyalar, oliy o'quv yurtlarining ilmiy ishlarini muvofiqllovchi xodimlar, ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi pedagoglar, professorlar va boshqalar kiradi. Masalan, Pedagogika, psixologiya, kimyo, matematika, fizika va hokazo. Bu muassasalar xalq xo'jaligining qaysi sohalari bo'lishidan qat'iy nazar shu sohalar bo'yicha tadqiqot ishlari bilan shug'ullanadi. Oqibatda ta'lim tizimi rivojlanadi va davlatga, jamiyatga naf keltiradi.

III. Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga esa quyidagilar kiradi: Tarmoq sohalaridagi vazirliklar, viloyat xokimiyat boshqaruv organlari, tuman xalq ta'limi bo'limi, maktablarning rahbarlari, maktablar, bolalar bog'chalari, uylari, dam olish sanatoriyalar, kutubxona, texniklar, tabiatshunoslar, temiryo'l stansiyalar va hokazo.

IV. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir talabi esa O'zbekistonda ta'lim tizimi bitta, o'ziga xos, mos shuning uchun u yagona degan ma'no tushunilishi kerak. O'zbekiston ta'lim tizimi boshqa davlatlardan nusxa olmasdan, o'z tajribasi va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda ishlab chiqilgan va hayotda qo'llanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining uzluksizligi deyilganda barcha fuqarolarga ma'lumot ixtisoslik berilishida uzluksizlik, o'zaro bog'liklik saqlangan bo'lib u darajasiga qarab biror mutaxassislikni tayyorlashni nazarda tutadi. Barcha ta'lim muassasalari o'zaro uzviy uyg'unlikda bog'langan. Masalan, Umumiy o'rta ta'lim bilan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limning bog'lanishini ko'rsatish mumkin. O'quvchi avval umumiy o'rta ta'limni oladi, so'ng esa o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida davom ettiradi va hokazo.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari

- Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustvor deb e'lon qilinadi.

- Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishini: akademik litsey yoki kasb-hunar kollejdagi o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'limi standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

O'zbekistonda ta'lim O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi ustvor sohasi deb e'lon qilingan. Haqiqatan ham davlatning rivojlanishida ta'lim sohasi ustuvordir. Chunki O'zbekistonning jahon hamjihatida o'z obro'li o'rnini egallash vazifasini faqat ta'lim sohasi hal etadi. Xalq xo'jaligining qaysi yo'nalishida faoliyat ko'rsatuvchi kadr ta'lim olmoq'i shart. SHuning uchun u kim, qaerda, qanday sohada ishlashidan qat'iy nazar ta'lim olish orqaligina shunday mutaxassislikni egallashi mumkin. SHuning uchun hukumatimiz ta'lim tizimiga milliy daromadning 10% ni sarflamoqda. Bu haqda bobomiz M. Behbudiyning "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga paymol bo'lur", - deb aytgan so'zlari bag'oyat qimmatli. Ta'limning inson, jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati haqida Imom Al-Buxoriy "Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmag'ay", - deb bejiz ta'kidlamagan.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining har bir prinsipi barkamol insonni shakllantirishda ta'lim xodimlari, muassasalar oldiga oshirilgan talablar quyiladi, oqibatda malakali kadrlar tayyorlash maqsadi uchun xizmat qiladi. Ularning har birini qisqacha tahlil qilib o'rganamiz.

Birinchi prinsipda ta'lim-tarbiyada insonparvarlik ya'ni u odamning manfaati uchun tashkil qilinadi, uning huquqlarini demokratik qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshirilish nazarda tutiladi.

Ikkinchi prinsipda barcha ta'lim turlarining uzluksizligi va izchil olib borilishi nazarda tutilgan. Ta'limda maqsad asosida o'zi tanlagan sohani u yoki bu darajaga erishishda bu prinsipga amal qilib erishish mumkinligi nazarda tutilgan.

Uchinchi prinsipda har bir fuqaroning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishda majburiyligi qonun bilan asoslangan va uni bajarishi ta'minlangan.

To'rtinchi prinsipda yuqoridagi ta'limda ta'lim olishni tanlashning ixtiyoriyligi belgilangan. Hech kim bironing qistovi bilan emas, balki o'z ixtiyori bilan tanlash huquqi kafolatlangan.

Beshinchi prinsipda ta'lim tizimining dunyoviy bilimlarni o'qitish, o'rgatish g'oyasi ilgari surilgan. Faqat inson manfaati uchun kerakli dunyoviy bilimlar o'quvchilarga o'qitilishi asoslangan.

Oltinchi prinsipda o'rgatiladigan ta'lim davlat standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi huquqiy kafolatlangan. Fuqarolarga foydasi tegmaydigan bilimlar o'qitish cheklangan.

Ettinchi prinsipda o'quvchilarga ta'lim berishda dasturlarni tanlashga yagona yondashuv nazarda tutilgan. Masalan, umumiy o'rta ta'lim yoki oliy ta'lim dasturlari bir yagona maqsadni nazarda tutadi, ya'ni o'qish vaqti, mazmuni, soatlari, yagona tarzda belgilangan. Yana mazkur ta'limni amalga oshirishda tabaqalashtirilgan yondashuv deyilganda ba'zan o'quvchilarning xohishlari hisobga olinib kuchaytirib o'qitiladigan muassasalar faoliyati asoslanib shunday imkoniyat yaratish nazarda tutilgan. Yuqoridagi har ikki talab O'zbekistonning barcha shu tipdagi muassasalarida yagona tartibda amalga oshirishi ta'minlanadi.

Sakkizinchi prinsipda ta'lim olishda qatnashuvchi o'quvchilarning bilimli bo'lishi va iste'dodini taraqqiy ettirishi, rag'batlantirishi nazarda tutilgan. Masalan, a'lo bahoga o'qiydigan o'quvchilar, talabalar xukumat tomonidan moddiy va ma'naviy rag'batlantirishi amalga oshirilishi belgilab berilgan. Stipendiya, yo'llanmalar va boshqa mukofot shakllari asoslab ko'rsatilgan. Uni bajarishi davlat siyosatligi belgilangan.

To'qqizinchi prinsipda tizimini boshqaruvining davlat va jamoat tajribasi uyg'un uzviy bog'liq holda joriy etilishi nazarda tutilgan. Bu prinsip o'z navbatida davlatni demokratik tamoyillar asosida huquqiy boshqarishga fuqarolarni tayyorlashni nazarda tutadi.

Umuman, ta'lim sohasidagi barcha prinsiplar inson, jamiyat, umumbashariy manfaatlarini birlashtirib, barkamol malakali mutaxassislarni tayyorlashni nazarda tutgan. Bunday kadrlar O'zbekistonning bundan keyingi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan deb xulosalash mumkin.

Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajadagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi turlarini o'z ichiga oladi:

Maktabgacha ta'lim;

Umumiy o'rta ta'lim;

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;

Oliy ta'lim;

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

Maktabdan tashqari ta'lim;

Biz faqat ta'lim turlarinigina bilib qolmasdan, balki har bir turining mazmuni, maqsadi va vazifalari haqida ilmiy pedagogik ma'lumotga ega bo'lishimiz darkor.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rtamaxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy o'rta ta'lim dasturidan o'rta maxsus, kasb-hunar dasturlariga izchil o'tilishini ta'minlaydi. Umumiy ta'lim dasturlari: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar), umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinflar), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini qamrab oladi.

Kasb-hunar ta'limi dasturlari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy (bakalavriant, magistratura) ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni qamrab oladi.

Maktabgacha ta'lim.

Mazkur ta'lim bola shaxsini sog'lom va etuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. U o'quvchilikka intilish hisi uyg'otiladi va uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'limga oilada, bolalar bog'chasida, mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va hayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar va har qanday jismoniy shaxslar faol ishtirok etishi mumkin.

Maktabgacha ta'limi yaxshilash uchun tarbiyachi, pedagog kadrlarni tayyorlash, maktabgacha ta'limning samarali pedagogik - psixologik uslublarini izlash, bolani oilada tarbiyalashda psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash; zamonaviy o'quv uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar maydonlar yaratish va hayotga tadbiq qilish; maktabgacha yoshdagi bolalarni halqning boy madaniy - tarixiy merosi asosida tarbiyalashga shart-sharoit yaratish hamda ularning sog'ligini ta'minlash va chiniqtirish bo'yicha qulay sharoit yaratish kabilarni nazarda tutadi. Eng asosiy vazifasi bolalarning hayotini rejimga solish, axloq-odob xulq-atvor tarbiyalash, rasm chizish, harf elementlarini mashq qilish, sanash, hisoblash, nutq, organizmni chiniqtirish, dam olishlarni tashkil etish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Ulardan madaniy xulq-atvor, sodda mehnat ko'nikmalari, gigiena qoidalari o'rgatiladi.

Umumiy o'rta ta'lim.

Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagilar:

Boshlang'ich ta'lim(I-IV sinflar). Umumiy o'rta ta'lim(I-IX sinflar). Bu ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma asoslarini, savodxonlik tartib toptirishga qaratilgandir. Boshlang'ich ta'limga bolalar 6-7 yoshdan qabul qilinadi. Bu masalani tibbiyot, ruxshunos va o'qituvchilardan tashkil topgan hay'at hal qiladi. Agar bolaning jismoniy, aqliy va ruxiy tomondan rivojlanishi o'qish faoliyatini davom ettirishga imkoni bo'lsa, unday bolani 6 yoshdan qabul qilinadi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarni maktabda o'qishning ilk tayyorgarligini amalga oshiradi.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning zarur hajmini (boshlang'ich ta'limda o'qish, yozish, hisoblash, hikoya qilish, rasm chizish, ko'nikmalarini bajarishga o'rgatish bilan umumiy ta'limda o'qishga tayyorlaydi) beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastabki tarzda kasbga yo'naltirishda va talimning navbatdagi o'rta maxsus, kasb-hunar bosqichini tanlashga yordam beradi. To'qqiz yiliik (I-IX sinflar) o'qishdan iborat umumiy o'rta ta'lim majburiydir.

Bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin. Masalan: sport, san'at, musiqa va boshqa fanlar bo'yicha ham maktablar tashkil etilish mumkin.

Umumiy o'rta ta'limning vazifalari:

O'quvchilar tomonidan muntazam bilimlar olinishini ta'minlash, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirish, tarbiyalash, kasb tanlashga va atrof-olamga ongli munosabat hosil qilish;

milliy va umubashariy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida o'quvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, o'z Vataniga va xalqiga sodiq fuqarolarni shakllantirish;

ta'limning uzluksizligini va izchilligini, maktab o'quv dasturining keyingi bosqichdagi o'quv dasturlari bilan uzviy o'zaro bog'lanishni ta'minlash va hokazo.

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash hamda shaxsning ta'lim olish huquqini ro'yobga chiqarish umumiy o'rta ta'limning maqsadi hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlar zarur hajmiga asos soladi, o'quvchilarda tashkilotchilik qobiliyatlari va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki kasb yo'nalishiniva ta'limning keyingi bosqichini tanlashga ko'maklashadi. Umumiy o'rta ta'lim tugallagandan keyin ta'lim fanlari va ular bo'yicha olgan baholar ko'rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

Umumiy o'rta ta'limning yangi tizimi va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

yuqori malakali pedagogik va kadrlar tayyorlash;

hududlarning jo'g'rofiy va demografik xususiyatlariga mos ta'lim muassalari tarmoqlarini rivojlantirish;

o'quvchilarning qobiliyat imkoniyatlariga muvofiq ravishda tabaqalashtirilgan yondoshuvni joriy qilish;

ilg'or pedogog texnologiyalarini, o'quv-uslubiy majmualarni didaktik talablar asosida yaratish;

o'quvchilar kasb-hunar tanlaydigan va psixologik-pedagogik maslahatlar oladigan markazlar tarmog'ini tashkil etish va hokazo.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limning navbatdagi bosqichida davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi.

Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini o'stirshni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir. Akademik litsey davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olib, ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlagan yo'nalishi bo'yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda

fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim muassalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-hunar kolleji davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining vazifalari quyidagilardan iborat:

davlat ta'lim standartlari doirasida umumta'lim va kasb-hunar dasturlarini bajarish;

o'quvchilarning uzluksiz ta'limining keyingi bosqichida o'qishni davom ettirishni tanlagan mutaxassisliklar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi uchun zarur va etarli bo'lgan bilimlar hamda kasb tayyorgarligi darajasini chuqurlashtirish;

respublika iqtisodiyotining malakali kichik mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. U ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish va egallagan kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

Oliy ta'lim

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim ikki bosqichga bo'linadi: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan o'qish muddati kamida 4 yil bo'lgan tayanch oliy ta'limidir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriyat negizida kamida 2 yil davom etadigan oliy ta'limdir. Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

Oliy o'quv yurtlariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat dasturi tugallangandan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb bo'yicha "bakalavr" darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistr darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi magistrlik dasturining intihosidir.

Oliy ta'limni rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:
bakalavr va magistr darajasi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish;
professor-o'qituvchi kadrlar tayyorlashni chet ellardagi etakchi o'quv yurtlarida tashkil etish;

oliy ta'limda tarkibiy o'zgarishlar o'tkazish;

oliy ta'lim boshqaruvini takomillashtirish, mustaqilligini kuchaytirish, jamoat nazorat kengashlari shaklidagi jamoat boshqaruvini tashkil etish;

ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta'minlash va joriy etish;

o'qishni individuallashtirish va distansion ta'lim texnologiyasi vositalarini ishlab chiqish;

xalqning boy ma'naviy va intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ta'limning insonparvarlik yo'nalishini ta'minlash va hokazo.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni ta'minlashga qaratilgandir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot muassasalarida (aspirantura, adyunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

U jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Oliy o'quv yurtidan keyinga ta'lim bosqichlari (aspirantura, doktorantura) dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi.

YAKuniy davlat attestatsiyasi natijalariga ko'ra fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar topshiriladi. Bu ishni takomillashtirish uchun: kasb ta'limi tizimi uchun oliy malakali ilmiy pedagogik kadrlarni ustivor tayyorlash; chet ellar tajribasidan foydalanishga sharoit yaratish; fan, texnologiya va ta'lim sohasida rivojlangan mamlakatlar bilan halqaro hamkorlikni chuqurlashtirish va hokazo.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarining kasb bilimlarini va ko'nikmalarini yangilash va chuqurlashtirishga qaratilgan. Uni bitirganlarga guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi. Uni rivojlantirish uchun:

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatida yangicha tarkib, mazmun va boshqarishni shakllantirish;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o'tkazish;

iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlarida kadrlar tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha raqobat muhitini yaratish va joriy etish va hokazo.

Maktabdan tashqari ta'lim

Bolalar va o'smirlar yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim

muassasalarini tashkil etishlari mumkin. Maktabdan tashqari muassasalariga bolalar ijodiyoti saroylari, uylar, klublar, markazlar, bolalar o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

Bolalar va o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibda talab ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar, madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etadilar. Uni takomillashtirish uchun:

ta'lim berish va kamol toptirishga yo'naltirilgan xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar tarmog'ini kengaytirish va bunday xizmat turlarini ko'paytirish;

o'quvchilar bo'sh vaqtini tashkil etishning; ommaviy sport, sog'lomlashtirish tadbirlarining, bolalar turizmining, xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini takomillashtirish, milliy turlari va shakllarini tiklash hamda amaliyotga joriy qilish va hokazo.

Oilada ta'lim va mustaqil ravishda ta'lim olish.

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ravishda ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarni oilada o'qitish va mustaqil ravishda ta'lim tegishli ta'lim muassasalarining dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy, maslahat va boshqa yo'sinda yordam ko'rsatiladi.

Bo'lajak bakalavr va magistr mutaxassislar O'zbekistonda ta'lim tizimi turlari va ularning ish mazmuni haqida ilmiy ma'lumotga ega bo'lishlari darkor. Chunki bo'lajak mutaxassislar har bir ta'lim turining tuzilishi, mazmuni, maqsad va vazifalarini aniq tasavvur etishlari shart. Bunday mas'uliyat egallayotgan ixtisosligi bo'yicha kasb ko'nikmalarini o'z vaqtida tarkib toptirishga yo'naltiradi. O'z ixtisosliklari yuzasidan chuqur ilmiy pedagog ma'lumot olishga da'vat etadi. Eng muhimi har bir ta'lim tizimi haqida ilmiy ma'lumotga ega bo'lmay shu sohadagi vazifalarni bajarish mumkin emasligini tushunib etmoqlari lozim. Shuning uchun bo'lajak mutaxassislar ta'lim tizimi va uning ish mazmuni to'g'risida ham nazariy, ham amaliy bilimlar zahirasini o'zlarida shakllantirmog'i zarur bo'ladi.

Tavsiya etiladigan o'quv adabiyotlar ro'yxati

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustuvor maqsadimizdir". –Prezident Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent, O'zbekiston, 2011.
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun//Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T, "Sharq" nashriyot-matbaa konserni, 1998.

4. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi/ Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T, "Sharq" nashriyot-matbaa konserni, 1998.

Asosiy adabiyotlar:

1. Pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi) O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani sohasi: bakalavriat yo'nalishi uchun darslik//prof.M.X.Toxtaxadjaevaning umumiy tahriri ostida, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" nashriyoti, 2010.
2. Pedagogika. O'quv qo'llanma//A.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. Toshkent "O'qituvchi", 1996.
3. Mavlonova R. va boshqalar. "Pedagogika", -Toshkent, "O'qituvchi", 2001.
4. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati / Talabalar uchun darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy ko'tubxonasi nashriyoti, 2007.
5. Munavvarov A. Pedagogika. Darslik. 1996.
6. Ochilov M. Muallim qalb me'mori / Saylanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2000.
7. G'aybullaeva va boshqalar. Pedagogika. O'quv qo'llanma, 2005.
8. Hasanboyev J., H.To'raqulov, Haydarov M., Hasanboeva O., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. –Toshkent "Fan va texnologiya", 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – Toshkent: "Istiglol" nashriyoti, 2004.
2. Pedagogika fanidan izohli lug'at / J.Hasanboyev va boshq. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010.

Elektron ta'lim resurslari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.tdpu.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.istedod.uz

Mustaqil ta'lim mavzulari:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni
2. Uzluksiz ta'lim tizimi
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim
4. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining maqsadi
5. Kadrlar tayyorlash milliy modeli
6. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiyaning mazmuni
7. Hozirgi davrda ta'limning ahvoli: muammo va yechimlar

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Ta'lim tizimi nima?
2. O'zbekistonda ta'lim tizimi qaysi muassasalardan tashkil topgan?
3. Ta'lim tizimi qanday maqsad va vazifalarni amalga oshiradi va u sohada qanday pedagogik muammolar mavjud?
4. Ta'lim to'g'risidagi Qonunda ta'lim tizimi nimalardan iborat?

5. Ta'lim tizimining rivojlanishini ta'minlovchi ilmiy-pedagogik muassasalarga qaysilari kiradi va ular faoliyatida qanaqa muammolar mavjud?
6. Nima uchun ta'lim tizimi yagona va uzluksiz?
7. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining qanday asosiy prinsiplari mavjud va ularni qanday tushunasiz?
8. Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limlarini amalga oshirishda qanday pedagogik muammolar mavjud? Sizningcha bu muammolarni qanday hal etish mumkin?
9. Maktabgacha va umumiy o'rta ta'limi qanday maqsad va vazifalarni nazarda tutadi?
10. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni nimalardan iborat va u qaysi shakllarda hamda qanday maqsad va vazifalarni amalga oshiradi?
11. Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limlarining uzviyligi va aloqadorligini qanday asoslaysiz?
12. Oliy ta'lim ta'lim tizimida qanday o'rin egallaydi?
13. Oliy ta'lim mazmuni, maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
14. Oliy ta'limdan keyingi kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash nima maqsadda va nima uchun tashkil qilinadi?
15. Maktabdan tashqari ta'lim qanday maqsadda va nima uchun tashkil qilinadi?

Test topshiriqlari:

1. Ta'lim tizimi deb nimaga aytiladi?

- A) Muayyan mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi hamda ma'lum bir qoidalar asosida tashkil etilgan barcha ta'lim-tarbiya muassasalarining tuzilishiga aytiladi.
- B) Davlat va nodavlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlariga aytiladi.
- C) Ma'lum bir qoidalar asosida tashkil etilgan barcha ta'lim-tarbiya muassasalarining faoliyatiga aytiladi.

2. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi turlari nechta?

- A) 10 ta
- B) 7 ta
- C) 9 ta

3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qachon qabul qilingan va u necha bosqichda amalga oshiriladi?

- A) 1998 yil, 5 bosqich
- B) 1995 yil, 4 bosqich
- C) 1997 yil, 3 bosqich

4. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari nechta va u "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning nechanchi moddasida qayd etilgan?

- A) 9 ta, 3 modda
- B) 11 ta, 7 modda
- C) 7 ta, 10 modda

5. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun necha bo'lim va moddadan iborat?

- A) 3 bo'lim, 35 modda

- B) 5 bo'lim, 34 modda
C) 7 bo'lim, 26 modda

2-mavzu. Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari.

REJA:

1. Pedagogika fanining maqsadi, predmeti va vazifalari.
2. Umumiy pedagogika fanining asosiy kategoriyalari.
3. Umumiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari.

“Pedagogiya” - ya'ni bola tarbiyasi haqidagi fandır deb ta'riflaydi A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud ahloq asarida.

Pedagogika “paydogogos-grekcha” “bola” va “etaklash” ma'nosini bildiradi. Insonni shakllantirishga qaratilgan muayyan tizimli faoliyat hamda ta'lim-tarbiyaning mazmuni, shakli va usullari haqidagi fan. U yosh avlodni va kattalarni tarbiyalash haqida bahs qiladi. U ta'lim-tarbiyaning umumiy qonunlarini ishlab chiqib, hayotga tadbiq qilish masalasini o'rganadigan fan deb ta'riflash mumkin. Kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan odamlarda mehnat qurollarini ishlata bilish qobiliyati, mehnat malakalari, nutq va tafakkur o'sib, kamol topib boradi.

Pedagogika avval tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini o'rganadigan falsafa fani tarkibidan ajralib chiqib fan sifatida taniladi.

Hozirgi davrda inson faoliyati bilan shu qo'llanadigan fanlar juda ko'p. Pedagogika fanining o'zi o'rganadigan mavzu ya'ni inson, odam, bola va uning shakllanishi haqida tadqiq qiladi, hamda fan sifatida tan olindi va rivojlanib bormoqda. Juda qadimgi davrda jamiyatning inson zotini qo'llab - quvvatlash va saqlab qolish ehtiyojidan kelib chiqqan holda tarbiyalash jarayoni avvalo u ijtimoiy-tarixiy tajriba jarayonida to'plangan va to'planayotgan ijtimoiy tajribani bir-birining o'rniga kelib turadigan avlodlarga etkazib berishi bilan xarakterlanadi.

Yangi avlod o'zidan oldingi keksa ajdodning ijtimoiy turmushdagi tajribasini (fan, san'at, ahloq) xulq, atvor sohalarini o'zlashtira borib uni boyitadi. Bu haqda A.R.Beruniy “jamlangan tajribani har bir avlod o'zidan keyin kelayotgan, o'zidan keyin uni taraqqiy ettiradigan va boyitadigan navbatdagi avlodga etkazib beradi” deb o'rinli ta'kidlagan. Ijtimoiy tajriba, tabiat, jamiyat, texnika va voqealarni qayta o'zgartirish uchun zarur bo'lgan faoliyat usullari haqidagi bilimlar, ko'nikma va malakalar: insonning dunyoga, odamlarga, o'ziga nisbatan munosabatining alohida tizimi sifatidagi tarbiyalanganliklari tarkib topgandir. Ijtimoiy tajriba moddiy va ma'naviy qadriyatlarning yig'indisi sifatida ijtimoiy ongning turli shakllarida shuningdek, ijtimoiy munosabatlar, hulq atvor tizimida mujassamlashgan tarbiya muayyan ijtimoiy funksiyalarni bajarishga tayyor bo'lgan shaxsni voyaga etkazadi.

Inson egallab olishi lozim bo'lgan ijtimoiy tajriba qanchalik murakkab bo'lgani sari, bu tajribani etkazish yuzasidan maxsus tashkil etilgan faoliyatga ya'ni (biror ishlab chiqarishni o'rgatishga) ehtiyoji paydo bo'la boshladi. Tarbiya mohirlik va ishning ko'zini bilishni talab eta boshladi. Tarbiyani amalga oshirish, anglash va bu sohadagi tajribalarni o'rganishga ehtiyoj tug'ilishi natijasida pedagogika fani yuzaga keldi. Agar insoniyat tarixining ilk bosqichlarida bolalar va kattalar bilan birgalikda mehnat qilish jarayonida tarbiya olgan bo'lsa, jamiyatning, hayotning rivojlanib borishi bilan bilim va tajribani o'rganishning bunday yo'li hayot talablariga javob bermay keldi. Bular esa o'z navbatida o'qitishni, tarbiyalashni taqozo etar edi. Bu vazifa pedagogika fanining alohida bir fan sifatida shakllanishiga imkon berdi. Bu hayotning ob'ektiv talabi natijasida ro'y berdi. "Taraqqiyot tasodif emas, balki zaruratsidir" deb ta'kidlagan fransuz olimi Viktor Gyugo.

Hayotning barcha yo'nalishlaridagi tajribalar maktabning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Maktab so'zi yunon tilida "dam olish, mehnatdan so'ng hordiq chiqarish" degan ma'noni anglatadi. JQadimgi Gretsiyada maktab deb tajribaliroq, bilag'onroq odamlarning bolalari va usmirlar bilan suhbatlashishini aytishgan.

Keyinchalik "maktab" termini maxsus o'quv-tarbiya muassasalari sifatida ishlatila boshlagan va hozirgi vaqtda ham shu ma'noda ishlatiladi. Tarbiyaning takomillasha borishi natijasida jamiyat tuzilishida faoliyatning yangi turi yuzaga chiqdiki, u yoshlarni maxsus ijtimoiy pedagogik dasturlar asosida hayotga ongli va maqsadga muvofiq tayyorlashga mo'ljallangandir. Bu masala pedagogik kasbning bo'lishini taqazo etardi. Uni amalga oshirish uchun maxsus tayyorlangan mutaxassislariga ehtiyoj tug'dirdi. Pedagogik bilimlar inson faoliyatining maxsus yo'nalishlarida yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlashda va tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun ham pedagogika fani jamiyatning rivojlanishida, odamlarning ijtimoiy ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy tajribalarini keyingi avlodga etkazishini hal qiluvchi va jamiyatning rivojlanishini ta'minlovchi fan deyish mumkin. Bu haqda AQSHning buyuk pedagogi Bendjamin Spok "Mening oldimda ikki asosiy vazifa aniq bo'la boshladi. Bu bir tomondan, pedagogikani asrimizning ma'naviy darajasiga ko'tarish bo'lsa, ikkinchi tomondan men tarbiyaning psixologik-pedagogik qonuniyatlarini falsafiy anglab etish bilan birga ota-onalarga aniq tavsiyalar berish, ularnig savollariga aniq javob berishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim" - degan edi. Haqiqatan ham pedagogika fani inson shaxsini ma'naviy kamolotini ta'minlaydigan fan bo'lmog'i darkor.

Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida etakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyatini muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqlool g'oyasi asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini ijodiy

rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda muayyan vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi. Pedagogika fani oldidagi vazifalar:

1. Ma'naviy-axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.
2. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish.
4. Ta'lim muassasalari hamda ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.
5. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
6. Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish.
7. Ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish.
8. O'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.
9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Pedagogikaning asosiy kategoriyalari va ularning o'zaro aloqadorligi

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida pedagogika fanining asosiy tushunchalari o'zaro o'zviy bog'langan bo'lib, yagona pedagogik jarayonni tashkil etadi. Ular asosan quyidagilardan tashkil topadi: bilim, ko'nikma, malaka, tarbiya, ma'lumot va shaxsni shakllantirishi singarilardan iborat. Bularning har biriga alohida tuxtalamiz:

Bilim – odamlarning ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida to'plangan, umumlashgan tajribasidir. Yoki bilimlar bu ijtimoiy tarixiy ong, insoniyatning ijtimoiy tarixiy amaliyoti hosilasidir. Bilimlar insoniyat tomonidan ishlab chiqarish faoliyatini faol o'zlashtirishi jarayonida to'plangan, amalda sinovdan o'tgan va ob'ektiv dunyoni chuqurroq anglashga hamda o'zlashtirishga yo'naltirilgan tabiat, jamiyat, tafakkur va faoliyat usullari qonuniyatlari haqidagi ilmiy tushunchalarning yaxlit asoslangan majmuasidir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimlar tizimini egallabgina qolmaydilar, balki bir qancha ko'nikma va malakalarni hosil qiladilar. (Davidov V.V)

Ko'nikma – maktab o'quvchilarining olgan bilimlariga asoslanib, quyidagi vazifalarni va shartlarga binoan, bajariladigan harakatlarning yig'indisidir. Ko'nikmalar:

1. O'quv ko'nikmalari
2. Nutqiy faoliyatga oid ko'nikmalar
3. Badiiy faoliyatga oid ko'nikmalar
4. Muomila va o'zini tutish ko'nikmalari
5. Mehnat ko'nikmalari
6. Kasbga oid ko'nikmalarga bo'linadi.

Malaka – ongli, xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi. YOki malaka – faoliyat jarayonida uning biror bir elementini (ongning eng kam nazorati ostida) bajarish qobiliyatidir. Ko‘nikma, malakalar maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonida shakllanadi.

Ta’lim jarayonida bilimlar, ko‘nikma va malakalar bog‘lansada,avvalgiday bilimlar etakchi rol uynayveradi. CHunki o‘quvchilar bilimlar asosidagina ko‘nikma va malakalarining ma’lum darajasini egallaydilar.

Inson ishi bilim bilan boshlansa,

Nainki ish qilsa tilakka etadi degan **Yu.X.Xojib**

Muqaddas “Avesto” da: odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradigan ta’limni amalga oshirsinar deb ta’kidlangan. Demak jamiyatni yosh avlodga ta’lim berish ilgaridan hal qiluvchi omil hisoblangan.

“Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas fazilatdir”. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir deb ta’kidlaydi A.Avloniy. “Beshikdan qabrgacha ilm izla”, “Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidir” deyilgan hadislarda. Ilmni avval o‘rganib, so‘ng boshqalarga o‘rgatmaslik go‘yoki molu dunyoni yig‘ib, uni sarf qilmay, ko‘mib qo‘yish bilan barobardir.

Ta’lim – maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o‘tkaziladigan, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma, malakalar bilan qurollantiriladigan, shuning bilan ularning bilish qobiliyatlarini o‘stiradigan, dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Tarbiya esa bola tug‘ilgan vaqtdan boshlanib, maktabni bitirgandan keyin ham davom etadigan adabiy jarayondir. Tarbiya deganda olingan bilimlar, hayotiy tajribalar asosida kishida dunyoqarash va shu asosda xulq-atvorning tarkib topishiga tushuniladi.

Ma’lumot – ta’lim-tarbiya natijasida olingan va sistemalashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarashlar majmui.

SHunday qilib, inson haqidagi fanlar tizimida pedagogikaning tutgan o‘rni shu bilan belgilanadiki, u shaxsni rivojlantirish, shakllantirish, tarbiyalash, ma’lumotli qilish va o‘qitish qonuniyatlarini tadbiq qiladigan fan deb ta’riflash to‘g‘ri bo‘ladi.

Pedagogika fanidagi asosiy tushunchalar, ularda aks etadigan hodisalar kabi, bir-biridan ajralmasdir, ular bir-biri bilan chirmashib ketgan, qisman bir-biriga mos keladi hamda yagona va bir butun pedagogik jarayonda o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Har qanday fanning ajralib turishi va normal faoliyat ko‘rsatishi uchun uning o‘zida xususiy tushunishi apparati mavjudligi, muqarrar shart bo‘lib hisoblanadi. Tarbiya, ta’lim va o‘qitish fani sifatidagi pedagogikaning asosiy tushunchalaridir. Tarbiya ijtimoiy munosabatning shunday bir turiki, unda shaxsni yo‘naltirilgan holda shakllantirish maqsadida bir xil toifadagi boshqa birovlariga ta’sir o‘tkazadi.

Pedagogika – tarbiya nazariyasi va san’ati haqidagi fan. YAngi kishining dunyoga kelishi faqat tug‘ilishdan iborat. Jismoniy hodisa emas. Bola tug‘ilgandan keyin o‘z zamonasining ijtimoiy taraqqiyot darajasiga ko‘tarilishi, mavjud ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashi, ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘z o‘rnini belgilab olishi, tarixiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi, ya’ni tarbiya olishi kerak. Demak, tarbiya hamma vaqt mavjud bo‘lgan jamiyatning (hayotning)

doimiy va eng zarur funksiyasidir. U qiyin va murakkab maqsadga faqat tarbiya bilangina erishish mumkin. Mazkur muammoni ilmiy hal qilish uchun shu davrgacha yashab ijod etgan buyuk pelagoglarning shu sohadagi ilmiy merosiga tayanishimiz shart. Tarbiyaning jamiyat va har bir inson hayotidagi ijtimoiy ahamiyati haqida buyuk o'zbek pedagogi A.Avloniy "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun – yo hayot, - yo mamot, - yo najot, - yo halokat, - yo saodat, - yo falokat masalasidir" tarzida ta'riflangan. Demak, tarbiya biz uchun hamma narsaga erishishini ta'minlovchi qudratli kuch ekan. Bunda tarbiyachining o'z oldiga qo'ygan maqsadi hal qiluvchini anglash darkor. "Tarbiya ishida o'z-o'zini takomillashtirish jarayoniga katta o'rin berilmog'i lozim. Insoniyat faqat mustaqil o'rganish tufayligina taraqqiy etgan" – degan G.Spenser. "Tarbiya avvalo o'qituvchi bilan bolalarning doimiy ma'naviy munosabatidir" – degan Suxomlinskiy.

Qadimgi sharq maqollaridan birida shunday deyilgan: "Agar o'zingni bir yilga ta'minlamoqchi bo'lsang sholi ek, o'n yilga ta'minlamoqchi bo'lsang daraxt ek, yuz yilga ta'minlamoqchi bo'lsang odam tarbiyala"

Mashhur pedagog K.D.Ushinskiy "Tarbiya san'ati shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba'zilar esa juda oson ish bo'lib tuyuladi – odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo'lsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson bo'lib ko'rinadi. Deyarli hamma tarbiya sabr-toqatni talab etishni e'tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug'ma qobiliyat va malaka ya'ni ko'nikma kerak deb uylaydilar: lekin juda kam odam sabr-toqat tug'ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilishadi" – deb juda o'rinli ta'rif bergan edi. Haqiqatan ham tarbiya jarayoni sabr-toqat, ba'zilar tug'ma qobiliyat, ko'nikma va malakadan tashqari maxsus bilimlar kerakligini ko'pchilik bilishmaydi. Buning uchun oliygohda ana shu maxsus bilimlarni egalash nihoyatda muhimdir. "Insoni inson qilib etishtiruvchi narsa tarbiyadir" – degan Demokrit.

Tarbiya shaxsni shakllantirish omillaridan biridir. U shundan iboratki, kishilar turli vositalar bilan ma'lum bir maqsadga o'z tarbiyalanuvchilarida ma'lum holatni hosil qilish va rivojlantirishni hoxlaydi. Tarbiya shaxsni shakllantirishning boshqa omillaridan sifat jihatdan shu bilan farq qiladiki, tarbiyachi o'z oldiga ongli suratda ma'lum bir maqsad qo'yadi va shu maqsadiga erishishi uchun intilib, uni amalga oshirish vositalarini topadi. SHunday qilib, tarbiya shaxsning muayyan yo'nalishida shakllantirish maqsadi bilan turli odamlar bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy munosabatlardir.

Tarbiyaning negizini tashkil etadigan qonuniyatlarni bilish bugungi kunda odamlar bilan (yashaydigan) ishlaydigan har qanday mutaxassisning ishchanlik malakasini bildiradigan belgilaridan bo'lib qolmoqda.

Tarbiya hamma narsa tarbiyachining shaxsiga asoslanishi kerak. "SHaxsning rivojlanishi va shakllanishiga faqat shaxs ta'sir ko'rsata oladi, xarakterni faqat xarakter vositasi bilan vujudga keltirish mumkin" – degan edi Ushinskiy. Haqiqatni ham odam odamga qo'ygan maqsad asosida o'quvchilarga, yoshlarga o'z xakteri bilan, xakterni shakllantiradi.

YUqorida asoslangan pedagogika fanining asosiy kategoriyalari o‘zaro uzviy bog‘liq holda olib borilib barkamol insoni shakllantiriradi. Demak, tarbiya jarayoni umuminsoniy miliy va har bir shaxsning o‘ziga xos qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ijtimoiy jarayonlardir deb xulosa chiqarish mumkin.

Шахс – психологик жihatдан тараққий этган, шахсий хусусиятлари ва хатти-ҳаракатлари билан бошқалардан ажралиб турувчи, муайян хулқ-атвор ва дунёқарашга эга бўлган жамият аъзоси

Тарбия – муайян, аниқ мақсад ҳамда ижтимоий-тарихий тажриба асосида ёш авлодни ҳар томонлама ўстириш, унинг онги, хулқ-атвори ва дунёқарашини таркиб топтириш жараёни

Таълим – ўқувчиларни назарий билим, амалий кўникма ва малакалар билан куроллантириш, уларнинг билиш қобилиятларини ўстириш ва дунёқарашларини шакллантиришга йўналтирилган жараён

Билим – шахснинг онгида тушунчалар, схемалар, маълум образлар кўринишида акс этувчи борлиқ ҳақидаги тизимлаштирилган илмий маълумотлар мажмуи

Кўникма – шахснинг муайян фаолиятни ташкил эта олиш қобилияти


Малака – муайян ҳаракат ёки фаолиятни бажаришнинг автоматлаштирилган

Маълумот – таълим-тарбия натижасида ўзлаштирилган ва тизимлаштирилган билим, ҳосил қилинган кўникма ва малакалар ҳамда таркиб топган дунёқараш

Ривожланиш – шахснинг физиологик ва интеллектуал ўсишида намоён бўладиган миқдор ва сифат ўзгаришлар моҳиятини ифода этувчи мураккаб жараён

илми
нар
hod
ang'
naz
(1-г

hiyatini
vatlarda
lagogik
laqonli
nuqtai
mavjud



1. *Falsafa* – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g‘oya, qarash hamda ta’limotlarning falsafiy jihatlarini kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

2. *Iqtisodiyot nazariyasi* – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, o‘quv binolarini qurish, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

3. *Sotsiologiya* – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma’lumotlarga ega bo‘lish asosida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. *Etika(axloqshunoslik)* – shaxs ma’naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma’naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o‘rin tutuvchi nazariy g‘oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o‘rin tutadi.

5. *Estetika* – shaxs tomonidan go‘zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

6. *Fiziologiya* – o‘quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang‘ich asoslarni beradi.

7. *Gigiena* – o‘quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiyjihatdan to‘g‘ri shakllantirishda nazariy va amaliy g‘oyalari bilan yordam beradi.

8. *Psixologiya* – shaxsda ma’naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.


9. *Tarix* – pedagogika fani taraqqiyoti, ta’lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g‘oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo‘naltiriladi.

10. *Madaniyatshunoslik* – o‘quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy, madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

11. *Tibbiy fanlar* – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to‘g‘ri rivojlanishini ta’minlash, uning organizmida namoyon bo‘layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash muammolarini o‘rganishda ko‘maklashadi.

12. *Ma’naviyat asoslari* – jamiyat, inson va ma’naviyat o‘rtasidagi munosabatlarni, ma’naviyatning shakllanishi, rivojlanishi, jamiyat taraqqiyoti va inson ongining rivojlanishida ma’naviyatning roli, fuqarolarni ma’naviy jihatdan tarbiyalash omillarini o‘rganadi.

Pedagogik fanlar tizimi. SHaxs kamolotini ta’minlash, uning intellektual, ma’naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. SHu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o‘rganiladi. Ular quyidagilardir (2-rasm):



1. *Pedagogika nazariyasi* – ta’lim yoshidagi bolalar, o’smirlar va o’spirinlarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish masalalarini o’rganadi.

2. *Pedagogika tarixi* – ta’lim-tarbiyaga oid pedagogik fikrlarning rivojlanish, taraqqiy etish tarixini, shaxsni o’qitish va uni tarbiyalashning tarixiy shakllarini, shuningdek, asrlar davomida pedagogik jarayonda qo’llanilib kelingan metod va vositalarni o’rganadi.

3. *Maktabgacha ta’lim pedagogikasi* – maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o’rganadi.

4. *Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi* – boshlang’ich sinflar o’quvchilarini tarbiyalash, ularga ta’lim berish, ularning o’ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o’rganadi.

5. *Korreksion (maxsus) pedagogika* – rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo’lgan bolalarni tarbiyalash va o’qitish bilan bog’liq muammolarni o’rganadi. O’z navbatida korreksion pedagogika tarkibiga maxsus pedagogika va psixologiyaning turli sohalari kiradi. Ular quyidagilardir:

A. *Surdopedagogika va surdopsixologiya* – eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o’qitish va tarbiyalash masalalarini o’rganadi.

V. *Oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya* – aqli zaif bolalarni rivojlantirish, o’qitish va tarbiyalash masalalarini o’rganadi.

S. *Tiflopedagogika va tiflopsixologiya* – ko’rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o’qitish va tarbiyalash masalalarini o’rganadi.

D. *Logopediya va nutqiy buzilishlar psixologiyasi* – nutqi, shuningdek, motorli-harakatlanish doirasida murakkab nuqsonlar bo’lgan bolalar (ko’r, soqov va kar bolalar)ni rivojlantirish, o’qitish va tarbiyalash masalalarini o’rganadi.

6. *Metodika* – xususiy fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi

7. *Pedagogik mahorat* –bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o‘rganadi.

8. *Pedagogik texnologiya* – ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi.

9. *Ijtimoiy pedagogika* – shaxsni ijtimoiylashtirish jarayonida uning kamolotiga ta’sir etuvchi salbiy ijtimoiy ta’sirlar, ularni bartaraf etish yo‘llarini, shuningdek, ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslar toifalariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy-pedagogik yordam mohiyati, turlari, shakl, metod va vositalarini o‘rganadi.

10. *Kasbiy pedagogika* – ta’lim oluvchilarga muayyan kasb yoki hunar yo‘nalishida maxsus bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish, kasbiy faoliyatni malakali tashkil etish, kasbiy mahoratni takomillashtirish masalalarini o‘rganadi.

11. *Ta’lim menejmenti* – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o‘rganadi.

12. *Qiyosiy pedagogika* – turli xalqlarning shaxsni tarbiyalashga oid pedagogik qarashlari, ta’lim-tarbiya tizimi, pedagogik ta’limotlarning mohiyati, shuningdek, jahon ta’limiga xos bo‘lgan samarali shakllar, metodlar, vositalar va innovatsion yondashuvlar qiyosiy-genetik jihatdan o‘rganadi.

Demak, kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyotida bolalar tarbiyasini tashkil etish (tarbiya jarayoni) keksa avlod vakillari tomonidan orttirilgan hayotiy tajribalarning yosh avlodga uzatilishi tarzida ham tushunilgan. Insoniyat tomonidan asrlar davomida o‘zlashtirilgan bilim, orttirilgan ko‘nikma, malaka va sifatlarning yig‘indisi bo‘lgan ijtimoiy, pedagogik bilimlar “Umumiy pedagogika” fanining nazariy va amaliy asoslarini tashkil etadi. Insoniyat tarixining so‘nggi yuz yilligida qo‘lga kirilgan ilmiy-pedagogik bilimlar ham “Umumiy pedagogika” fani asoslarini metodologik va nazariy jihatdan boyitdi. Ular haqida talabarga ma’lumotlar berish orqali ularni kasbiy yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy tadqiqot metodlari

Har bir predmet uning metodlari bilan chambarchas bog‘langan.

Pedagogika yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o‘qitishning real jarayonlariga xos bo‘lgan ichki aloqa va munosabatlarini tekshirish hamda bilish usullari va vositalari majmuini tushunamiz.

Fan metodlari uning metodologiyasiga mohiyati va prinsiplariga bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogikaning bunday mustahkam va ishonchli falsafiy asosi dialektik metoddir.

Pedagogikaning hodisalarini o‘rganish va ularning qonuniyatlarini aniqlash masalasida bir-biriga qarama-qarshi ikkita yo‘nalish metofizik va dialektik yo‘nalish mavjuddir.

Metofiziklar pedagogikaning hodisalari va faktlarini o'zgarmas, vaqt, joy va konkret sharoitlardan tashqari boshqa ijtimoiy hodisalar bilan aloqasi bo'lmagan hodisa sifatida olib qaraydilar.

Dialektik metod esa metofizika talqiniga qarama-qarshi o'laroq, o'qitish, bilim berish, tarbiyalash jarayonlarini va ularning mohiyatlarini quyidagicha o'rganishni talab etadi:

1. Ularning umumiy aloqasi bir-birini taqozo etishi va o'zaro ta'sir jarayonida bolalarni tarbiyalash, o'qitishning turmush, siyosat, ideologiya, madaniyat, fan, ahloq, san'at, ta'lim-tarbiya muassasasi tarmoqlarining va ijtimoiy, maktab va oilaviy tarbiyalarini o'zaro bog'liqligi va boshqa.

2. Ularning to'xtovsiz harakati, o'zgarishi va taraqqiy etishi jarayonida ijtimoiy va ilmiy vazifalarining tug'ilishi natijasida kelib chiqadigan o'qitish va tarbiyalash vazifalari, forma va metodlarining o'zgarishi; tarbiyalash qisqa muddatli va tez olib boriladigan ish emas, balki qiyin va murakkab jarayondir, bolalarni andoza, universal sxema asosida o'qitish va tarbiyalash mumkin emas.

3. Bolalarning o'sishida miqdor va sifat o'zgarishlari jarayonida har bir maktab yoshining o'ziga xosligi, tarbiya va ta'lim bola shaxsining sifat jihatidan o'sish va tarkib topishi ekanligi, ong va ahloqning, so'z va ishning birligi va boshqa mezonlar.

4. Qarama-qarshi tomonlarni, an'analarni, qarashlarni va fikrlarni aniqlash va ochish jarayonida tarbiya va ta'limda turmush dialektikasida, yangi va eski o'rtasidagi kurash, shaxs va jamoa o'rtasidagi qarama-qarshiliklar va hokazo.

5. Pedagogikaning qonuniyatlarini ob'ektiv o'rganishda dialektika kategoriyalari hodisa va mohiyat, sabab va natija, zaruriyat va tasodif, mazmun va shakl, tarixiy va mantiqiy, umumiy va shaxsiy, asosiy va xususiy, aniq va abstrak kabi kategoriyalar muhim ahamiyatga egadir.

Dialektikaning yuqorida ko'rsatilgan prinsiplari asosidagi pedagogika hodisalari, faktlari va jarayonlarini ilmiy tekshirish, ularning taraqqiy etish qonuniyatlarini bilish mumkin.

Binobarin, pedagogik tadqiqot metodlariga ob'ektivlik o'qituvchilik pedagogik faoliyatini oshirishga qaratilgan tadqiqot vazifalarining aniqligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, bolalar psixologiyasi qonuniyatlarini hisobga olish kabi talablar qo'yiladi. Lekin, bolalarni o'qitish va tarbiyalash amaliyotining o'zi hamma vaqt pedagogik tadqiqotlarning manbai hisoblanadi. Faqat maktab tajribalarigina har bir ilmiy nazariyaning haqqoniyligi hisbolanadi.

Tadqiqot metodlarining tanlash fanning o'zi uchun muhim ahamiyatga egadir, uning metodlari qanchalik mukammal bo'lsa, shu fan oldida turgan aktual vazifalar shunchalik muvaffaqiyatli hal etiladi. Hozirgi pedagogik tadqiqotlarning metodlar tizimini to'la hal etilga deb bo'lmaydi.

"Pedagogika tajribasini o'rganishda quyidagi metodlar: kuzatish, eksperiment, suhbat, o'quvchilar ijodini o'rganish, tarbiya muassasalarini hujjatlarini o'rganish turli xilda qo'shib olib borilishi mumkin".

1. "Ilmiy - pedagogik tadqiqotning asosiy metodlari kuzatish, suhbat, tekshirish, eksperiment metodlari singari faoliyat natijalarini o'rganishdan iborat"

2. Hozirgi vaqtda quyidagi metodlar asosida ishlaydi. Bular: pedagogik kuzatish, soʻrash, oʻquvchilar faoliyati natijalari va oʻquv -tarbiya muassasalari hujjatlarini oʻrganish, pedagogik eksperiment, modellash, ilgʻor tajribalarni oʻrganish va yoyish, sotsiologik, matematika va statistika materiallarini ishlash kibernetika, anketa, intervyu olish va tasvirga olish singari metodlardan foydalaniladi.

Pedagogik kuzatish murakkab va maxsus xususiyatga egadir. Bunda kuzatilayotgan pedagogik hodisaning mohiyatini koʻra bilish, oʻqituvchi va oʻquvchi harakatlarning oʻzaro aloqasi dialektikasini, ulardan har birining individualligini aniqlay olish lozim. Har pedagog kuzatuvchan boʻlishi ayrim hodisa va dalillarning tavsilotlarini payqay olish, ularni tahlil qila bilish qobiliyatiga ega boʻlishi lozim. Kuzatishlar biror maqsadga qaratilgan holda amaliy va sistemali yoʻlga quyilgan boʻlsa, eng kerakli dalillarni, mazkur kuzatishdan oʻz vaqtida chiqarilgan pedagogik - psixologik xulosalarni hisobga olgan holda tashkil qilinsa, samarali boʻladi. Kuzatish taʼlim-tarbiya jarayonini yaxshilash va takomillashtirish maqsadida olib borilishi mumkin. Masalan, oʻqitish jarayonida bolalarning qanday oʻsayotganligi, darslar jarayonlarida bilim berish va tarbiyalash vazifalari birligi qanday amalga oshirilayotganligi; fan asoslarini oʻrganishda oʻquvchilarning tafakkuri qanday faollashayotganligini va boshqalar aniqlanadi.

Ilmiy kuzatishda baʼzan tadqiqotchi chidamsiz, shoshqaloq va sistemali ish koʻrmasligi singari holatlarga yoʻl quyilsa uning samaradorligi pasayadi.

Suhbat metodi. Ilmiy maqsadda olib boriladigan suhbatning aniq maqsadi, vazifasi, shakli va ularni oʻtkazish metodikasi mavjud. Suhbatlar individual, guruhli va jamoa turlari bor. Tadqiqotchi suhbat olib borishni va uni kerakli maqsadli tomonga yoʻnaltira olishi gʻoyat muhimdir. Suhbat olib boruvchi quyidagi pedagogik qoidalarga rioya qilishi shart:

- a) suhbat savollarini oldindan belgilash;
 - b) vaqti va joyini belgilash;
 - v) suhbat ishtirokchilarini belgilash (soni, miqdori);
 - g) qulay sharoit yaratib ochiq suhbatlashish;
 - d) suhbatdoshga oʻz fikrini aytishga imkon berish;
 - e) sergak va bachkana boʻlmaslik;
 - j) suhbatdosh haqida biografik maʼlumotga ega boʻlish;
 - z) olingan materialni oʻz vaqtida ishlab chiqish va qoʻshimchalar qilish.
- Suhbatdan ilmiy xulosa chiqarish.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi. Maktab hujjatlarini tahlil qilish davlat qonunlarining amalda bajarilish darajasini, har bir xodimning faolligini aniqlash, ularning amaliy hayotdagi faoliyatidagi kamchilik va xatolarni aniqlashga va ularning topshirilgan ish uchun masʼuliyatini oshirishga imkon beradi. Maktab hujjatlarini; rejalashtirishning barcha turlari; umumiy taʼlimga doir hisob va hisobot; dars jadvali; oʻquvchilar tarkibi soni; sifati; taʼlim-tarbiya ishlarini taqsimlash; oʻquvchilarning delolari; sinf jurnallari; oʻquvchining kundalik daftarlari; buyruqlar daftarlari; pedagoglar kengashi qarorlari daftari; maktab smetasi; maktab pasporti; inventarlar daftari va hokazolar.

Hujjatlarni tahlil qilishda o'quvchilar kontingentining o'sishi va kamayishi tavsifiga, bolalarning maktabga ketib qolishiga, ularning ayrimlari va sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasiga, rag'batlantirish va jazolash choralari to'g'ri tashkil qilinishiga, maktab pedagoglar tarkibiga va maktabning o'quv - moddiy bazasiga alohida e'tibor beriladi.

Bolalar ijodini o'rganish metodi. O'quvchilar ijodini hamda ularning turli faoliyatini (xatlari, kundaliklari, insho, bayon solgan suratlari, bajargan amaliy ishlari, namunalari, rajalari va hisobotlarini) o'rganishi va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir. Bolalar ijodining ahamiyati shundaki, unda yosh avlodning tipik layoqati va xususiyatlari aniq ochib beriladi.

Bu metodni qo'llashdan asosiy maqsad hozirgi yosh avlod ijodining manbalari va faktorlarini chuqur bo'lishiga hamda rivojlantirish va takomillashtirishning to'g'ri yo'llarini ko'rsatib berishga qaratilgandir. Bizda bolalar ijodi shakllari turlichadir: olimpiadalar, tematik konkurslar, maktab ko'rgazmalari, turli xil musobaqalar, poxodlar, quvnoq startlar, ziyraklar va topqirlar, iste'dodlar va hokazolar.

Eksperiment metod. Bu so'z lotincha sinab tekshirib ko'rish, ilmiy maqsadga qaratilgan tajriba ma'nosini anglatadi. Ta'lim-tarbiya ishlarida qo'llaniladigan biror shakl, metod va vositaning foydaliligini aniqlash va tekshirish uchun o'quv yurtlarida o'tkaziladi.

Eksperiment metodlari sharoitiga qarab turli xil qo'llaniladi.

1. Tabiiy eksperiment (yaratuvchi, ixtiro qiluvchi eksperimentlar. Asl holicha ta'lim-tarbiya muammolari ma'lum, suhbat, kuzatish va anketa asosida o'quvchining o'qish jarayonida, o'z-o'zini nazorat qilish singarilar) aniqlanadi

2. O'quvchilarning ongliligini yaratuvchi eksperiment. (tadqiqotchi biror ma'no bo'yicha taxminiy reja asosida o'quvchi faoliyatining o'quv jarayonida o'zini-o'zi nazorat qilish usullarini, yo'llari tekshirilib ma'lum bir ilmiy pedagogik xulosa chiqariladigan tajriba deyish mumkin). Bu metoddan chiqarilgan xulosalar boshqa hamma maktablar hayotiga tadbiiq qilinishi uchun nazorat eksperimentidan o'tkazdiriladi. CHiqarilgan pedagogik xulosa esa o'z navbatida mazkur masalani hal qilishning nazariyasi va metodologiyasi bo'lib pedagogika yutug'i hisoblanadi.

3. Tabiiy eksperiment buning asoschisi rus psixologi A.F.Lazurskiy hisoblanadi. Bu metodda maktab faoliyati asl holda o'rganiladi. Masalan, maktab internatining tarbiyachilari o'quvchilarning o'zlari haqidagi g'amhurligini tabiiy tekshirishda pechda yoqadigan ho'l va quruq o'tin vositasida aniqlangan. Bolalar yashaydigan binoda yaqin joyda ho'l o'tin borligi, uzoqroq joyda quruq o'tindan foydalanishning samarasini tekshirishni ko'rsatish mumkin. SHunday qilinsa natija haqiqiy bo'ladi.

Eksperiment metodlari o'z mazmuni, turi va xarakteriga ko'ra quyidagi turlarga bo'linish mumkin: didaktik, tarbiyaviy, maktabshunoslik, chog'ishtirma pedagogika va hokazo.

Ilg'or tajribani o'rganish va yoyish metodi. Maktab ta'lim-tarbiyasida nazariy asoslanib, tajribada ilg'or o'qituvchilar faoliyatida sinalib o'rganishga tavsiya qilingan pedagogik xulosa deyish mumkin. Buyuk rus pedagogi K.D.Ushinskiy bu metod haqida "o'tkazilgan, xulosa qilingan asl tajriba

to‘Qhg‘risida emas, balki kelingan, uzatilgan, qilingan fikrdadir” - degan edi. “Peredaetsya mysl, vyvedennaya iz opytı, -no ne samyy opyt”.

Statistika ma‘lumotlarini analiz va sintez qilish metodi.

Pedagogik tadqiqot kerakli statistika ma‘lumotlarini ma‘lum bir maqsad bilan sistemali o‘rganish va umumlashtirishsiz amalga oshmaydi. Chunki bu ma‘lumotlar jamiyatimizda madaniyat, fan, tarbiya va ta‘limning barq urib taraqqiy etish qonunlarining rivojlanishida muhimdir. Xalq maorifi byudjetining oshishi, o‘quv yurtlarida bolalar sonining ko‘payishi, maktabdan tashqari tarmoqlarning kengayishi, darsliklar, ko‘rgazmali qurollar, texnika vositalarining ortishi, o‘qituvchi kadrlar tayyorlashi kabilar statistika ma‘lumotlari bilan isbotlanadi.

Anketa metodi. Anketa fransuzcha so‘z bo‘lib, tekshirish degan ma‘noni anglatadi. Anketa metodi o‘quvchilardan so‘rash metodi bo‘lib, u o‘quvchilar tarkibining sifati to‘g‘risida kerakli ma‘lumotlarni olish uchun, ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun, shuningdek kasbga yo‘llashni belgilash uchun ma‘lum bir shaklda o‘tkaziladi. Bu metodni qo‘llashda quyidagi talablarga amal qilish kerak:

1. Anketalar o‘quvchilarning pedagogik va ruhiy tavsifini tuzishning manbai va universal vositasiga aylantirmasligi kerak.
2. Anketalar juda katta va noaniq bo‘lmasligi kerak.
3. Anketani o‘tkazishda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish va vaqt normada berilishi kerak va hokazo.

Kibernetika metodi. Kibernetika grekcha so‘z bo‘lib, rolni boshqaraman, idora etaman, boshqarish san‘ati degan ma‘noni anglatadi. Kibernetika ishlab chiqarishni, texnikani, tirik organizmlarni, kishilik faoliyatini boshqarishning umumiy prinsip va vositalarini ishlab chiqadi. Kibernetika mazmunini informatsiya, dasturlashtirish, boshqaruvchi tizimlar, model yasash singari asosiy nazariyalar tashkil etadi.

Pedagogika kibernetika o‘quv jarayonini, o‘qitish va bilim berish jarayonlarini boshqarishning alohida shakli sifatida o‘ziga xos xususiyatga ega, chunki pedagogik jarayon bilan ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish o‘rtasida juda katta farq bor.

Sotsiologik metod. Yuqoridagi sanab ko‘rsatilgan metodlar qo‘llashda tadqiq qilinayotgan o‘quvchilar soni chegaralangan ularning kamchiligi ham shunda ekanligini bilishimiz darkor. Bunday paytda o‘quvchilarning ko‘pchiligi bilan ommaviy ravishda pedagogika fanining u yoki bu muammosini hal etishda sotsiologik metodini qo‘llash talab qilinadi. Misol uchun maktab o‘quvchilari o‘zlarining bo‘sh vaqtlardini qanday o‘tkazishini aniqlash uchun tezlikda anketa savollari asosida so‘rash ko‘plab o‘quvchilardan o‘tkaziladi va aniq bir xulosaga kelinadi.

Keyingi yillarda pedagogika fanida matematik metod va xususan statistika materillarini ishlash metodlari keng qo‘llanilmoqda. Masalan; maktablarning birida matematika fani bo‘yicha o‘quvchilarning uy ishlarini bajarilishi o‘rganilganda IV sinfda uy vazifalarini mustaqil bajarish -80%, VI sinfda-75%, VIII sinfda-55% tashkil qilganligi aniqlangan. Buning asosiy sababi nimaligi aniqlash darkor. Buning sababi ikki tomonlama yuz berishi mumkin. Birinchidan ,

mazkur matematika fanining o'qua dasturi murakkablashganligidan yoki shu fanni o'qitish sifati pastligidan izlash kerak .

Pedagogika ilmiy tekshirishlari metodlaridan biri nazariy pedagogik g'oyalarni tahlil qilish metodidir. (Metod teoreticheskogo analiza pedagogicheskix idey). Bu metod ta'lim-tarbiyaning chuqur muhim masalalarini ilmiy umumlashtirish bilan emas. Balki uni amalga oshirishda yangi qonuniyatlarni tajribaga asoslangan(empirik metod) yordamida amalga oshiriladi.Buni quyidagi misol bilan isbotlash mumkin. SHaxsni umumiy maqsadli rivojlantirish, shaxsni har tomonlama rivojlantirish bilan o'zaro aloqadorlikda amalga oshadi. A.S.Makarenko ta'kidlaganidek, odam organizmi alohida-alohida holda rivojlanmaydi, balki barchalari o'zaro uzviy bog'liqlikda bir vaqtda rivojlanadi degan xulosaga kelgan.

Bundan shunday xulosa chiqarish to'g'ri bo'ladi. Tarbiya jarayoni shaxsni har tomonlama rivojlantirishini ta'minlamog'i kerak.

Modellashtirish - bu real mavjud pedagogika tizimiga aynan o'xshash maxsus andoza (model) ni yaratib, unda bu tizimni tashkil qilish va faoliyat ko'rsatish prinsiplarini takrorlagan holda uning moddiy yoki hayoliy tarazda ishlab ko'rish demakdir. Modellashtirish yordamida tizimning ushbu aniq holatda muhim bo'lmagan xususiyatlaridan chetga chiqish mumkin. Tadqiqotchi pedagog bu metoddan foydalanarkan, ayrim xususiyatlar, shakllari va jarayonlarni analitik tarzda o'rganish o'rniga nazort qiladigan sharoitlardagi yaxlit tizimlarni sintetik tarzda bilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. "Pedagogika" tushunchasi qanday mazmunni anglatadi?
2. Didaktika (ta'lim nazariyasi) nima?
3. Tarbiya nazariyasi nimalarni o'rganadi?
4. Pedagogika fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini ayting va mohiyatini yoriting.
6. Qanday fanlar pedagogik fanlar tizimiga kiradi?
7. Pedagogik tadqiqotlarni olib borishda qanday metodlar qo'llaniladi?
8. Mutaxassislar nima uchun ilmiy tadqiqot metodlarini bilishlari kerak?
9. Pedagogika fani nima uchun ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanadi va u qanday muammolarni hal etadi? Uning qanday metodologik asosi mavjud?
10. Fanning qanday ilmiy tadqiqot metodlari mavjud va ularni pedagogik asoslab tahlil qiling?
11. Har bir ilmiy tadqiqot metodi qanday maqsadni nazarda tutadi va uning boshqa metodlardan farqi nimada?
12. Ilmiy tadqiqot metodlaridan qanday foydalaniladi va ularga quyiladigan talablarni asoslang?
13. Ilmiy tadqiqot metodlarining pedagogikaning rivojlanishdagi amaliy ahamiyati qanday?

3-mavzu: Yagona pedagogik jarayon. Didaktika-ta'lim nazariyasi sifatida

Reja:

1. **Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning predmeti va vazifalari.**
2. Ta'lim mazmuni haqida tushuncha va uning ilmiy pedagogik asoslari.
3. O'quv reja, o'quv dasturi, darsliklar mazmuni. Ularning tuzilish prinsiplari va unga qo'yiladigan pedagogik talablar.
4. Ta'lim qoidalari va qonuniyatlari.

Tayanch so'z va iboralar:

Didaktika, "didasko", "didaskae", ta'lim jarayoni, saboq berish, o'rganish, qoida, rivojlanish, o'quvchi, umumiy, xususiy, ilm, ko'nikma, ta'lim, ta'lim qonuni, milliy dastur, istiqbol, ehtiyoj, fan, texnika, madaniyat, texnologiya, ta'lim mazmuni, ijtimoiy taraqqiyot, O'quv dastur, ilmiy bilim, ko'nikmalar hajmi, izchillik, bog'liqlik, ketma-ket, konsentrik, (markazlashgan), uqtirish xati, internet, qoida, qonun, o'qish, o'qitish faoliyati, tarbiya, ta'lim maqsadi, vazifasi, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, zo'rlab o'qitish va h.k.

1.

Didaktika pedagogikaning ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganadigan bo'limdir. Didaktika grekcha so'z bo'lib, "didasko"- o'qitish, "didaskal" - o'rgatuvchi, degan ma'noni bildiradi. Didaktikaning so'zma - so'z tarjimasi ta'lim, o'qitish nazariyasini anglatadi. Ta'lim nazariyasi quyidagi masalalarni: ta'lim jarayonining mohiyati, ta'lim mazmuni, ta'lim qoidalari, ta'lim metodlari, ta'limni tashkil etish shakllari hamda ta'limda o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini hisobga olish va baholash kabilarni o'z ichiga oladi. Didaktikaning asosiy maqsadi, vazifasi o'qituvchini o'qitishga doir ma'lumot, mahorat bilan, o'quvchilarni esa ilmiy bilimlar ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iboratdir.

Didaktika termini qadimgi Gretsiyada Afina va Sparta shaharlarida eramizdan avvalgi IV - V asrda paydo bo'lgan. Keyinchalik Xitoy, Misr va Markaziy Osiyo davlatlarida rivoj topgan.

O'zbek didaktikasiga Al-Xorazmiy, A.R.Beruniy, Ibn Sino, A.Navoiy, M.Ulug'bek, A.Avloniy, M.Behbudiy, Muhammadrasul Rasuliy, Q.Niyoziy va boshqa mutafakkirlar hamda hozirgi mashhur pedagoglar, olimlar munosib hissa qo'shmoqda.

Didaktikaga oid materiallar mashhur pedagog YA.A.Komenskiy, Ushinskiy va boshqalar tomonidan boyitildi.

Didaktikaning asoslari hikmatlar, hadislar va xalq og'zaki ijodining boshqa manbalarida o'z aksini topgan. Ayniqsa vatandoshimiz B.Zarnudjiyning "O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma" asari bag'oyat qimmatlidir.

Men ushbu kitobni "O'quvchiga bilim olish yo'lida qo'llanma" deb atab, uni quyidagi bo'limlardan iborat deb tuzdim. Ular: "Bilimning mohiyati va ularni takomillashtirish haqida", "Ta'lim yo'lida ongli istaklar haqida", "O'qituvchi, o'rtoq, fanlarni tanlash haqida", "Olimlar va fanning sharafi haqida", "Dars vaqti

haqida qo‘llanma”, “Bilimlarni egallash haqida”, “O‘lohdan qo‘rqish va ta‘lim olish”, “Bilimlarni xotirada saqlash, esdan chiqarish turlari”, “Umrni uzaytiruvchi va qisqartiruvchi kuchlar haqida va boshqalardan iborat”. Inson tarbiyasida va shakllanishida bilim, ta‘lim, ma‘lumot eng muhim rol o‘ynaydi. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning bilish qobiliyatlari o‘qituvchi rahbarligida zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini egallash bilan ularda ilmiy dunyoqarash va shaxsning asosiy sifatleri: axloq, estetik qarashlar hamda kasb - hunarga bo‘lgan qiziqishlar tarbiyalanadi.

Ma‘lumot va ta‘lim o‘zaro yaqin aloqada bo‘ladi. Ma‘lumot - bu ta‘limning natijasi ta‘lim esa ma‘lumot olishning asosiy shartlaridan biridir.

Didaktika ma‘lumotning ilmiy asoslanishi bilan shug‘ullanish bilan birga yuksak darajada bilimlar zarur bo‘lgan ko‘nikma, malakalarni tarixiy bir jarayonida beradi va hozirgi fan, texnika taraqqiyoti davrida o‘quvchilarni muayyan darajada shaxsni tarkib topdiradi.

Didaktika faqat ma‘lumot mazmunini belgilabgina qolmay, balki qanday o‘qitish kerakligini ham belgilaydi.

Didaktika pedagogikaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lish bilan birga boshqa bir qancha fanlar bilan uzviy bog‘langan: Filosofiya, sotsiologiya, logika, psixologiya, fiziologiya oliy nerv faoliyati, kibernetika, matematika va h.k.

Hozirgi zamon didaktikasining taraqqiyoti ijtimoiy hayot, fan va texnikaning ishlab chiqarish darajasi bilan asoslanadi. Didaktikaning hozirgi davrida vazifalaridan biri oldingidek har tomonlama kamol topgan barkamol shaxsni shakllantirish bo‘lib qolmoqda va shunday bo‘lib qolaveradi.

Didaktika oldidagi eng muhim vazifalardan biri o‘z ma‘lumotini keng yoyish, shu asosda shaxsning eng asosiy sifatlarini ya‘ni ilmiy bilishini ta‘minlash, ijodiy fikrlashga o‘rgatish hamda doimiy ravishda o‘z ma‘lumotini takomillashtirib borish kabilarni talab etmoqda.

Ta‘lim va ma‘lumotning birligi asosida ta‘limning tarbiyalovchi metodikasini takomillashtirish, bilish qobiliyatlarini, dunyoqarashni va yuksak ma‘naviy - axlaqiy sifatlarni tarkib toptirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Didaktika asosan pedagogika fanining ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanadi.

Bular: 1. Ilmiy kuzatish:

2. Ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va yoyish.

3. Didaktik eksperiment.

4. O‘quv hujjatlarni o‘rganish va h.k.

Pedagogika fanida didaktika ikki turga ajratilib o‘rganiladi. Birinchisi umumiy didaktika ya‘ni o‘qitishning umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Ana shu o‘rganish asosida o‘qitish jarayonining yangi - yangi qirralari ochiladi va amaliyotga tadbiq etiladi. Masalan EHM yoki ta‘limning texnika vositalari yordamida o‘quvchilarning bilish qobiliyatlari o‘stiriladi. YUqoridagi o‘qitish sohasida yutuqlar umumiy didaktikaning rivojlanib borayotganligi ko‘rsatadi.

SHu bilan bir qatorda xususiy didaktika ya‘ni bir fanni o‘qitishining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadigan tarmog‘i hisoblanadi. Fanda xususiy didaktikani

metodika ham deb yuritiladi. Masalan, ona tili o'qitish metodikasi, ximiya o'qitish metodikasi, boshlang'ich ta'lim metodikasi singarilar.

Umumiy didaktika bilan xususiy didaktikalar o'zaro uzviy aloqadorlikda, bog'liqlikda ish olib boradi. Ular bir - birlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi va yagona maqsadni ya'ni barkamol insonni shakllantirish vazifasini amalga oshiradi.

Xususiy didaktika rivojlanib qo'lga kiritgan yutuqlari umumiy didaktikaning hamda xususiy didaktikaning, vazifalarini hal qilishga yo'naltiradi. Yoki aksincha. SHuning uchun ular o'zaro hamkorlikda, aloqadorlikda bir - biriga tayangan holda ish tutadi.

Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmag'ay. imom Al Buxoriy. Muhammad payg'ambar:

"Ilm egallang! Ilm - sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'izlik damlarida yo'ldosh, baxtli daqiqalarda rahbar, qayg'uli onlada madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir".(Axloq odobga oid hadislardan).

O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar. Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lar. YUSuf Xos Xojib.

Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir. Abdullo Avloniy.

Didaktikaning maqsadi va vazifasi haqida "Avesto"da: odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradigan ta'limni amalga oshirsinlar hamda tarbiya hayotning eng muhim tirgagi (tayanchi) bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash kerakki, u avvalo yaxshi o'qishni va so'ngra esa yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin, deb ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi Qonun 3-moddasida: "Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustivor deb e'lon qilinadi". (20 - bet) Barcha turdagi ta'lim muassasalarida o'quvchilarga beriladigan ta'lim ana shu hujjat asosida tashkil etiladi.

O'qituvchi didaktikani ilmiy o'zlashtirmasdan, o'quvchilarni talab darajasida o'qita olmaydi. Buning uchun didaktika haqida maxsus ilmiy didaktika ma'lumotiga ega bo'lishi shart.

Didaktikaning tushunchasi, kategoriyasi ya'ni predmeti bilim, ko'nikma, malaka va ma'lumotlarni tashkil etadi.

Bilimlar-odamlarning ijtimoiy-tarixiy amaliyoti jarayonida to'plangan, umumlashgan tajribasidir. Yoki Bilimlar-bu ijtimoiy-tarixiy ong, insoniyatning ijtimoiy-tarixiy amaliyoti hosilasidir. Bilimlar, insoniyat tomonidan ishlab chiqarish faoliyatini faol o'zlashtirish jarayonida to'plagan, amalda sinovdan o'tgan va ob'ektiv dunyoni chuqurroq anglashga hamda o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiat, jamiyat, inson tafakkuri va faoliyat usullari qonuniyatlari haqidagi ilmiy tushunchalarning yaxlit va tizimlangan majmuasidir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimlar tizimini egallabgina qolmaydilar, balki bir qancha ko'nikma va malakalarni hosil qiladilar. Kishida bilim qanchalik boy va muntazam tarzda olingan bo'lsa, uning kelajakda mustaqil bilim olish imkoniyati ham shuncha katta bo'ladi. (V.V.Davidov va boshqalar)

Ko'nikmalar maktab o'quvchilarining olgan bilimlariga asoslanib (qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan) bajariladigan harakatlarning yig'indisidir.

Ko'nikma bilimlar kabi harakatda, kishi biror harakatga erishish uchun har xil faoliyat turida izchil bajariladigan uslublar tizimi kabi belgilanadi. Ko'nikmalarni kishi faoliyati turlariga ko'ra bir necha turlarga ajratib ko'rsatish mumkin.

1. O'quv faoliyatiga oid ko'nikmalar - bular o'qituvchini tinglash va eshitganini tushunish, uning ko'rsatmalariga qarab harakat qilish, kuzatish, idroki yo'naltirilgan narsalarni ko'ra olish: turli masalarni echa olish; sanay, o'qiy, yoza olish va h.k.

2. Nutqiy faoliyat ko'nikmalari - nutqni tinglash, uni tushunish, o'z fikrini aniq bayon qilish, leksik, fonetik va grammatik normalarga amal qilish.

3. Badiiy faoliyatga oid ko'nikmalar - musiqiy, rang-tasvir, harakatli.

4. Kishining jamiyatda muomala va o'zini tutish ko'nikmalari.

5. Mehnat ko'nikmalari.

Malaka-ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi. YOki Malaka - bu faoliyat jarayonida uning biror bir elementini (ongning eng kam nazorati ostida) bajarish qobiliyatidir.

Ko'nikma va malakalar maqsadga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida shakllanadi. Ularni mutahkamlash uchun uzoq vaqt bilim olish bilan bog'liq bo'lgan maxsus mashqlar talab qilinadi.

Ta'lim mazmunidagi asosiy narsa-zarur bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallash, egallangan bilimlar haqida avval hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida vujudga keladigan amaliy va nazariy masalalarni hal etish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

Ta'lim jarayonida, bilimlar, ko'nikma va malakalar bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'lansada, avvalgidek bilimlar etakchi rol o'ynayveradi. CHunki o'quvchilar bilimlar asosidagina ko'nikma va malakalarning ma'lum doirasini egallaydilar. Bolalarga matematikaning to'rt amalini mashq qildirishdan oldin ularga sanoqni o'rgatish lozim. Lekin ko'nikma va malakalar ham o'z navbatida bilimlar egallash jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumot - olingan, hosil qilingan bilimlar, tarkib topgan ko'nikma, malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarashlar majmuasi.

Didaktikaning dolzarb muammolari:

1. Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va rivojlantirish.

2. Lotin alifbosi asosida o'zbek tiliga o'tish.

3. Mukammal o'quv darsliklari yaratish.

4. Ta'limning texnika vositalari. O'quv - moddiy baza, kompyuter bilan ta'minlash, ta'limda internet tizimini joriy etish.

5. Malakali ilmiy va pedagogik xodimlar tayyorlash.

6. Ta'lim jarayonida ommaviy axborot vositalarining mavqeni oshirish, televideniya va radioning ta'lim dasturlari intellektuallashuvini ta'minlash.

Haqiqatdan ham ta'lim, o'qish va mustaqil bilim olish inson shaxsini tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilgan bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayondir. Inson shaxsini shakllantirish uchun unga ta'lim ya'ni ilm, bilim, saboq berish

darkor. Ilmsiz bu jarayonni ro'yobga chiqarish mumkin emas. Inson shakllanishi, rivojlanishi uchun esa o'qishi, o'rganishi, mustaqil harakat qilishi shart. Buning uchun o'qituvchi insonning rivojlanishini ta'minlash uchun unga ta'lim berish, o'qitish, mustaqil harakatni amalga oshirish zarur. Bu vazifa pedagog tomonidan o'quvchining rivojlanish davrining ma'lum yillarida amalga oshirilib uning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini hosil qilishi, kerakli ko'nikma, malakalar bilan qurollantirishi va nihoyat uning mustaqil bilim olishini tashkil etishi talab etiladi. Bu mas'uliyatli vazifa o'qituvchi tomonidan mohirona olib boriladi. SHuning uchun ta'lim, o'qish va mustaqil bilim olish o'quvchi shaxsini tarbiyalash va rivojlantirishga, kamol toptirishga qaratilgan ijtimoiy jarayondir. Bu ishlarni tashkil qilmasdan hayotni, jamiyatni rivojlantirish mumkin emas. SHuning uchun ta'lim, o'qish va mustaqil bilim olish o'quvchi shaxsini rivojlantirishning ob'ektiv zaruriy sharti hisoblanadi. Buni har bir o'qituvchi bilishi va amalda qo'llashi shartdir.

2.

O'zbekiston Respublikasida milliy dasturning maqsadi va vazifalarida:

- Kadrlar tayyorlash tizimi va mazmuni mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish zarurligi alohida ta'kidlangan. SHunga asosanib maktab ta'limining mazmuni jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning talabalardan kelib chiqqan holda tashkil etiladi. Yuqoridagi ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishlari shu jamiyat uchun qanday tarbiyalangan mutaxassislariga bo'lgan talablarga asoslanadi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin: jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, shu jamiyat a'zolarini tarbiyalashning maqsadini, tarbiyaning maqsadi esa o'z navbatida maktab ta'limining mazmunini belgilashga asos bo'ladi. Buni sodda etib tubandagicha izohlash mumkin:

jamiyatni ijtimoiy rivojlantirish → tarbiyaning maqsad va vazifasini va u o'z navbatida → maktab ta'lim mazmunini belgilashga asos bo'ladi.

Yoki bu tuzilishning aks holda ko'z oldimizga keltirib tasavvur etsak yanada ravshanroq anglaymiz.

Maktab va ta'limi (ma'lumot) mazmuni → tarbiyaning maqsadi va vazifasini u o'z navbatida → jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini jadallashtiradi, takomillashtiradi.

Maktab ta'limining mazmuni deganda, o'quvchilarning o'qish jarayonida barcha o'rganiladigan fanlardan egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilimlar, ko'nikmalar va dunyoqarashlarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi. Bu jarayon maktab o'quv rejasida ko'rsatilgan har bir o'quv dasturida asoslangan barcha o'rganiladigan fanlari asoslari asosida tarkib topadi.

Ta'limning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

a) ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlari ijtimoiy tuzumning xususiyatlari, yo'nalishlari;

b) davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad va vazifalari;

v) o'qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o'quvchilarining imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlari, rivojlanish darajasi, tarbiyalanganligi va boshqalar) e'tiborga oluvchi didaktik talablar.

Maktablarda beriladigan ta'limning mazmuni tarixiy va ijtimoiy xususiyatga egadir. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining hamma bosqichlarida maktablarda yoshlarga beriladigan ta'limning mazmuni, hajmi ijtimoiy tuzumning iqtisodiy talab va ehtiyojlari fan va texnika taraqqiyoti darajasi bilan belgilab kelingan. Inqilob to'ntarishgacha bo'lgan davrida O'zbekiston xududida VII -VIII asrlardan beri kelgan eski - "usuli qadmiya", XIX asr oxiri va XX asr boshlarida paydo bo'lgan - "usuli savtiya" maktablari, xad - savod o'rgatadigan diniy maktablar bo'lgan. 1905 yildan so'ng, o'lkaning ba'zi yirik shaharlarida "jadid" maktablari paydo bo'lib unda savdo - sotiq ishlari uchun zarur bo'lgan ayrim fanlar (hisob, tibbiyot, geografiya va boshqa) o'qitilar edi.

Hozirgi bizning maktablarimizda yoshlarga quriq ilmiy bilimlar berilmasdan ularga turmushda zarur bo'lgan xalq hunarmandchiligi tabobat asoslari, iqtisod asoslari, odobnoma "Konstitutsion huquq asoslari, kabi fanlari o'qitilishi ma'kul".

Hozirgi bizning maktablarimizda ta'lim mazmuni O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi singari xujjatlarida ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar bilan belgilanadi. Bular quyidagilardir:

7- modda. Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb - hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Uni bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir deb qayd etilgan.

YUqorida asoslangan talablardan kelib chiqib umumiy o'rta maktablarda o'quvchilarga umumiy ma'lumot amalga oshiriladi. Albatta u mehnat ta'limi, kasb ta'limi bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi. Bu qoida o'quvchilarni ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishga bevosita yordam beradi.

Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash hamda shaxsning ta'lim olish huquqini ro'yobga chiqarish umumiy o'rta ta'limning maqsadi xisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim bilimlar zarur hajmiga asos soladi, o'quvchilarda tashkilotchilik qobiliyatlari va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, kasb yo'nalishini va ta'limning keyingi bosqichini tanlashga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlashning Milliy Dasturi 4 Kadrlar tayyorlash tizimi rivojlantirishining asosiy yo'nalishlari 4,3. Ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilishda kadrlarni o'qitish va tarbiyalash milliy tiklanish prinsiplari va mutaqqillik yutuqlari, xalqning boy milliy, ma'naviy intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlariga tayangan, insonparvarlikka yo'naltirilgan ta'limning mazmuni davlat ta'lim standartlari asosida isloh qilinadi deb takidlanadi.

YUqoridagi pedagogik g'oyalar turli shakldagi ta'lim muassasalari ta'lim mazmunini belgilashning asosiy yo'nalishlarni belgilab beradi.

3.

II. O'quv reja

Maktablarning o'quv rejasi davlat - hujjatidir. O'quv rejasi - barcha tipdagi maktablarda amal qilinishi lozim bo'ladigan davlat hujjatidir. Unda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va o'sha fanlar uchun ajratilgan barcha o'quv soatlari miqdori ko'rsatilgan bo'ladi. Maktablarning o'quv rejalari xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv rejasi deb, o'qitiladigan fanlar, o'qitilish uchun ajratilgan o'quv soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatiga aytiladi. O'quv reja tuzishda quyidagi omillarga asoslanadi:

1. O'quv rejasi o'quv - tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asoslanadi. Maqsad - ilmiy bilimlar berish, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga va mutaxassisliklarni mukammal egallashga o'rgatishdan iboratdir.

2. Maktablarning birligi ya'ni uzluksiz ta'lim qoidalariga asoslanadi. Bular: (quyi ta'lim, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, kasb hunar ta'lim, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim, maktabgacha ta'lim va oilada ta'limning o'zaro bog'liqligi) tarzda amalga oshirishni ko'zlaydi.

3. O'quv rejasiga kiritilgan fanlarning hajmi, qaysi sinfda o'qitilishi, ajratilgan soati, bolalarning yosh va bilim saviyasiga qarab belgilanadi. Fanning hajmi, og'ir-engilligi, didaktik ahamiyati ham e'tiborga olinadi. O'quv rejasiga kiritilgan fanlar, birinchi navbatda, umuminsoniy, milliy tarbiyaning maqsadi va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgandir. Unda ta'limning ilmiyligi, g'oyaviyligi, amaliy qimmati hamda O'zbekiston kelajagiga munosib barkamol insonni tarbiyalab, voyaga etkazish nazarda tutiladi. SHuning uchun ham unda tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy bilimlar, ishlab chiqarish asoslari, san'at va jismoniy tarbiya, sog'lom avlodning ma'naviy qiyofasi asosiy o'rinni egallaydi. O'quv rejasida tabiiy fanlar - tabiiy jo'g'rofiya, biologiya, fizika, astronomiya, ximiya, matematika va informatika markaziy o'rinni egallaydi. Ijtimoiy fanlar - tarix, til haqidagi ilmiy bilimlar - ona tili, xorijiy tillari, badiiy va san'at asoslari - adabiyot, tas'viriy san'at, musiqa va ashulla; jismoniy tarbiya asoslari bilan bir qatorda mehnat ta'limni o'qitish uchun soatlar ajratiladi. Bulardan tashqari, o'quv rejasida ayrim tabiiy fanlar, ayniqsa matematika, informatika, fizika fanlari, ayrim gumanitar fanlar bo'yicha ham o'quvchilarning qiziqishlarini qoniqtirishi, qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladigan fakultativ mashg'ulotlar ko'rsatilgan bo'ladi

O'quv rejasi bazi bir maxsus o'quv maktablarida o'ziga xos ixtisoslikni mukammal o'rgatishga yo'naltirilgan fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, ajratilgan soatlarning faqlanishi bilan ajralib turadi. O'quv rejasida amaliy mashg'ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti va boshqa amaliy faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan o'quv - tarbiyaviy ishlar o'z aksini topadi. O'quv rejasi o'quv yilini choraklarga bo'ladi va ular orasidagi ta'til muddatlarini belgilovchi hujjatdir.

O'quv dasturi.

Dasturda o'quv yili davomida har bir sinfda alohida fanlar bo'yicha o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda har bir fanning mazmuni izchillik bilan yoritiladi va ma'lum mavzular orqali ko'rsatiladi.

O'quv dastur quyidagi bir qator qoidalarga amal qilgan holda tuziladi.

1. Dasturning qat'iyligi. Jamiyat taraqqiyotini ilmiy asoslab beradigan ya'ni fan, texnika, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy munosabatlar sohasida erishgan darajani aks ettirgan, uzoq vaqtga mo'ljallangan darsliklar yaratishni nazarda tutadi.

2. O'quv dasturida ilmiylik.

3. O'quv materiallari mazmunini to'g'ri tanlashda unda isbot, mantiqiy umumlashmaga alohida e'tibor beriladi.

4. Nazariyaning amaliyoti bilan birligi qoidasi.

5. Dastur ikki usul bilan, ketma-ket (muntazam) konsentrik (markazlashgan) tarzda joylashtirilishi mumkin.

Markazlashtirilganda o'quv materiali o'qitishning keyingi bosqichida murakkablashgan ko'rinishda takrorlanadi.

Dastur uch bo'limda iborat:

1. Uqtirish xati. Yo'l - yo'riqlar.

2. O'quv materiallarining mazmuni.

3. Asosiy va qo'shimcha ravishda o'rganiladigan adabiyotlar ro'yxati.

III. Darslik

Darslik o'quv jarayonining zarur qismidir. U o'qitishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

Darslik - o'quvchilarning ikkinchi "muallimi". Chunki u, avvalo, o'quvchi uchun zarar qo'llanmadir.

Har bir o'quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talabalariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir.

Darsliklar bilan bir qatorda, ayrim o'quv fanlari yuzasidan o'quv qo'llanmalari ham tuziladi. Masalalar va mashqlar to'plami, xrestomatiyalar, atlaslar, lug'at kitoblari va h.k.

O'quvchilar darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ham darsda, ham uy sharoitlarida mustaqil ish olib boradilar. U bilan ishlash o'quvchilarning aqliy tarbiyasiga, ularda ilmiy dunyoqarashning, axloq-odobning shakllanishiga, tafakkuri va nutqining, ishdagi mustaqilligining rivojlanishiga yordam beradi.

Darslikka quyidagi pedagogik talablar qo'yiladi:

1. Darslik ilmiy bilimlar tizimi va uning mazmuni, hajmi dastur talablariga va shu sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos kelishi.

2. Darslikda ilmiy bilimlarning nazariy asoslari va g'oyaviy yo'nalish tizimi izchil bo'lishi, dalillarning ishonchli bo'lishi, ular to'g'ri tahlil etilishi, aniq ta'rif etilishi, tegishli xulosalar chiqarilishi va shu orqali o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va insoniy fazilatlar tarbiyalanadi.

3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'langan bo'lishi.

4. Darslikda bayon qilinayotgan materialning harakteriga bog'liq holda tegishli qoida va ta'riflar berilishi, dalillar keltirilishi, yaxshi bezatilgan bo'lishi, ba'zi materiallar rasm, sxema, diagramma va boshqa illyustratsiyalar bilan boyitilishi talab etiladi.

5. Darslik o'quvchilar tushunishi oson bo'lgan jonli tilda yozilishi va fikrlar aniq va qisqa bo'lishi kerak.

6. Darslikning tashqi ko'rinishi, bezagi o'sha sinf o'quvchilari estetik didlariga mos kelishi lozim.

Darsliklar bilan bir qatorda maktab ta'limi jarayonida o'quvchilar o'quv materiali ustida tizimli, uzluksiz, maqsadli ishlashlari hamda o'zlarida ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda quyidagi kitob va qo'llanmalardan ham foydalanadi. Bular: badiiy, ilmiy, ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-ommabop adabiyotlar, lug'atlar, atlaslar va kartalar, masala va mashqlar to'plami xrestomatiyalar, kundalik axborot, ensinlopediya, kinofilmlar hamda internet axborotlari va h.k.

Boshqa kitoblarga qaraganda darslikka oshirilgan talabalar qo'yiladi. Darslikdagi fikrlar lo'nda qilib ifodalanishi, material esa tushunish uchun oson shaklda bayon qilinishi kerak. Darslik har doim yaxshi qog'ozda bosiladi, uning shrifti etarlicha katta, bosmasi aniq bo'lishi lozim. Quyi sinflarga mo'ljallangan darsliklarda rangli illyutratsiyalardan foydalaniladi. Eslab qolishi talab etiladigan asosiy o'rinlar va qoidalar qalin shrift bilan ajratiladi yoki ramka ichiga olinadi. Har bir mavzu va bobning oxirida takrorlash uchun savollari beriladi.

Darsliklar o'quv materialini tezroq, to'laroq va chuqurroq egallab olishga yordam beruvchi o'quv qo'llanmalari bilan to'ldiriladi.

Yo'nalishi va hal qilinadigan vazifalarga ko'ra o'quv qo'llanmalarni quyidagilarga bo'lish mumkin.

- o'quv materialini chuqurlashtiruvchi va uning eslab qolishiga yordam beruvchi qo'llanmalar (xrestomatiyalar, mashqlar to'plami, ma'lum predmet bo'yicha o'qish kitobi, kontur kartalar);

- o'rganilgan masalalarni illyustratsiyalovchi va bu bilan ancha aniq tasavvur hosil qilishga yordam beruvchi qo'llanmalar: (mulyajlar, rasmlar, plakatlari, diogrammalar, atlaslar),

- ko'nikma va malakalarni hosil qilishga yordam beruvchi ko'lanmalar (Bosma asosdagi daftarlar, topshiriqlar kartochkasi);

- ma'noni tushunishni engillashtiruvchi qo'llanmalar (lug'atlar);

- ko'p maqsadda ishlatuvchi qo'llanmalar: kinofilmlar, ensiklopediyalar va h.k.

Hozirgi davrda umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar tayyorlashda anchagina muammolar mavjud. Bu muammolar O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi» hamda uzluksiz ta'lim dasturi mazmuni tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi talablaridan kelib chiqib hal etishni taqozo etadi. Davlat ta'lim standartlari asosida ilmiy, o'quv darsliklar, o'quv qo'llanmalar hamda zamonaviy elektron darsliklar, masofaviy o'qitish, internet tizimi bilan bog'liq axborot texnologiyalarini yaratish, tayyorlash

kabi pedagogik muammolar amalga oshirilishi darkor. Darsliklar yaratishda mualliflararo raqobat sog'lom muhitni yuzaga keltirish ularning sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ta'limning o'quv moddiy, nashriyot bazasini rivojlantirishda muammolar hal etilsa, darsliklarning barqaror tizimi yaratiladi. Oqibatda barcha tipdagi ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning bilim darajalarini takomillashtirib borishga erishiladi.

4.

Ta'lim qoidalari - o'qituvchining darsdagi faoliyatini va o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirishini, tegishli ko'nikma va malakalar, dunyoqarash, mafkura hosil qilishning asosiy qonun va yo'l - yo'riqlarini o'z ichiga oladi. Ta'lim qoidalari o'qitishning, o'rgatishning eng muhim masalalarini nazariy jihatdan hal qilishning asosiy qonuniyatlaridir. Dars jarayonida o'quvchilarning bilish ehtiyoji va sharoitlar o'quv jarayonining xarakterini, maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakllari, usullari va vositalarini belgilab beradi. O'qituvchi ta'lim jarayonining qoidalari, qonuniyatlarini qancha ilmiy asosda bilsa, uning samarasi shuncha yuqori bo'ladi. Ta'lim qoidalarini ham nazariy bilish, hamda amalda qo'llay bilish juda muhim. SHuning uchun o'qituvchi ta'lim qoidalarini bilishi shart. CHunki, o'qituvchi ta'lim qoidalarini bilmasdan turib ta'limning maqsad va vazifalarini amalga oshira olmaydi.

Ta'lim qoidalari deb, barkamol inson ta'lim - tarbiyasining maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonining umumiy yo'nalishi, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlar, ko'nikmalar hosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig'indisiga aytiladi. Sodda etib aytganda ta'limning samarali natijalarini ta'minlaydigan qoidalar majmuini tushunamiz. Pedagogika fanida olimlar, buyuk pedagoglar tomonidan asoslangan va yaratilgan pedagogik adabiyotlarda didaktik qoidalar turlicha guruhlanmoqda. Ana shularga asoslanib ta'lim qoidalarini ko'rsatib o'tish mumkin.

1. Ta'limning ongli, faollik va mustaqillilik.
2. Ta'limning ilmiy, izchil va muntazam bo'lishi.
3. Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan birligi.
4. Ta'lim va tarbiyaning birligi.
5. Ta'limda ko'rsatmalilik.
6. Ta'limni tushunarli, puxta va mustahkam o'zlashtirish.
7. Ta'limda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish hamda ta'limning mos bo'lish va hokazo qoidalari mavjud. Ularning har biriga alohida to'xtalamiz.

Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik qoidasi.

Maktab ta'limi tizimida onglilik, faollik, mustaqillilik qoidalari muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan sinf o'quvchilarning faolligiga bog'liq.

“Tarbiyachi shuni unitmasligi kerakki, o'quvchilarini qiziqitmasdan, ularni quriq majburiyat va zo'rlash yo'li bilangina o'qitishdan hech qanday natija chiqmaydi qoidasi ilgari suringan. Biroq bu o'rinda o'quvchilar faoliyatini o'qituvchi tomonidan bayon qilinayotgan tayyor va yaxlit o'quv materialini faolsiz

tinglovchi harakterdagi faoliyat deb tushunish yarmaydi. Ta'limda o'quvchilarning tafakkurini aktivlashtirish ularning mustaqilligini taraqqiy ettirishga yordam beradi, mustaqil ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi esa ularning fikr qilish faoliyatlarini o'stiradi va takomillashtiradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligi, dastavval ularning aktiv faoliyati - tafakkur qilish faoliyatidir.

Materiallarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi ularning fikr qilish faoliyatiga ta'sir qilish jarayonida yuzaga keladi. SHunga asosan ta'limni ongli o'zlashtirish prinsipi bir tomondan o'quvchilarning mustaqil, aktiv fikr qilishlarini nazarda tutsa, ikkinchi tomonidan ularning mustaqillik va faolligini takomillashtirib borishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar faolligi ta'lim jarayonidagi emas, balki o'zlashtirilgan ilmiy bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalarni hayotga qo'llay olish faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Tafakkur qilish fikrlash operatsiyalarida, ya'ni taqqoslash, analiz, sintez qilish, abstraksiya va umumlashtirishda ko'rinadi. Ongli o'zlashtirish prinsipi. ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil olib boradigan ishlari bilan bevosita bog'liqdir. O'qish jarayonida mustaqil ishlar: kitob, gazeta, jurnal materiallari, spavochniklar, tablitsalar, kartalar ustida ishlash, tabiiy fanlar ya'ni matematika, fizika, biologiya bo'yicha mustaqil amaliy ishlar va laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'limning ilmiy, tizimli va izchil bo'lish qoidasi.

Maktabda o'quvchilarga beriladigan bilimlar, hozirgi zamon bilimlar darajasida bo'lishi, o'quvchilarga ularni ma'lum tizimda berishni talab qiladi. A.R.Beruniy Bilish cheksiz, uzluksiz davom etadigan jarayon, ta'lim jarayonida o'quvchidarga muayyan ilmiy bilimlar berish, ularni yangi - yangi bilimlar olishga undosh kerak deb xisoblagan.

A.N.Farobiy "Inson hayvonlardan aqli bilan ajralib turadi. Inson aqli bilan atrofni o'rab turgan dunyoni anglaydi, buyum va hodisalarga ilmiy baho beradi", - degan.

"Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmag'ay"- degan Imom Al Buxoriy

Maktab ta'lim - tarbiya jarayonining hamma zvenosida izchillik katta ahamiyatga egadir. Kundalik ta'lim jarayoni ham, sinf va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar ham izchillaik prinsipiga amal qilingan taqdirdagina, kutilgan natijani berishi mumkin.

Maktab o'quv fanlari tizimi bir qancha didaktik qoidalarga asoslanadi. Bu didaktika qoidalarda, birinchidan, umumiy ta'lim maktablarida o'qitilayotgan fanlarni ma'lum fan tizimi bilan o'zaro mustahkam, ilmiy bog'liq. Ikkinchidan fanlar asosida o'quvchilarning bilish qobiliyatlari hamda ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish nazarda tutiladi. SHunga ko'ra tizimlilik qoidasi o'rganilgan fan asoslari va o'rganilayotgan fan asoslari bilan egallagan ko'nikma va malakalar bir - birlarining davomi bo'lmog'i kerak. Bu bog'lanish predmetlar o'rtasida ham tizimlilikning bo'lishini talab qiladi.

Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi.

Bu qoida ta'limning ilmiylik qoidasi bilan mustahkam bog'langandir.

Ishga yarab qolsa ilming bir muddat,

Yana oshirmoqqa aylagil shiddat, - degan M.Ulugʻbek.

Oʻquvchilar bilim bilan qurollanar ekan, ilmning amaliy ehtiyoj tufayli boʻlganini, ishlab chiqaruvchi kuchlarining qanday taraqqiy etganini, texnika va iqtisod sohasidagi yangiliklar, ilmning borgan sari rivojlantira borishni, ilm esa oʻz navbatida hayotni yaxshilashga yordam berishini biladilar. Ilmning rivojlanishida tajribaning roli kattadir. Ilmiy nazariyalarning haqqoniyligi amaliyotda sanaladi: uni tajriba yo tasdiqlaydi yo inkor qiladi. Mana bu nazariya bilan tajriba oʻrtasidagi murakkab munosabatlarni oʻquvchilar ilm asoslarini oʻrganish jarayonida fahmlab olishlari lozim. Ulugʻlik gapda emas boshdan - oyoq, yarti ish ham yuzta gapdan yaxshiroq degan Abdulqosim Firdavsiy.

Oʻquvchilar tomonidan matematika, fizika, biologiya, ximiya, astromiya va boshqa tabiiy fanlardan oʻzlashtirilgan nazariy bilim, hosil qilingan koʻnikma va malakalar oʻquv - tajriba kabineti va laboratoriyalari, tajriba er uchastkalari va ishlab chiqarish mehnati jarayonida qoʻllaniladi.

Saʼdiy SHeroziyning fikricha:” Ikki toifa odam behuda ishlab, behuda harakat qilgan boʻladi: biri mulk yigʻib foydalanmagan va ikkinchisi esa ilm olib, amal qilmagan odam.

Harchand oʻqibsang, bilimdonsang,

Agar amal qilmasang, nodonsang.

Taʼlim va tarbiyaning birligi qoidasi.

“Taʼlim bilan tarbiya bir - biri bilan bogʻliq bir butun jarayon ekanligini taʼkidlaydi, A.Avloniy. U yana dars va tarbiya orasida bir oz farq boʻlsa ham, ikkisi bir - biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga bogʻlangan jon ila tan kabidir”.

Maktabda oʻquvchi yolgʻiz bilim, koʻnikma va malakalarni egallabgina qolmaydi, balki har jihatdan mukammal tarbiyalanadi. Maktab oʻquv fanlarining har bir mavzu va temachalar ham shubhasiz tarbiyalovchi harakterga ega. SHunga koʻra, maktab taʼlimi umuman har qaysi dars jarayoni alohida ikki muhim vazifani:

1. Taʼlim jarayonida oʻquvchilarni yangi-yangi ilmiy bilimlar bilan qurollanadi.

2. Oʻzlashtirilgan ilmiy bilimlar asosida oʻquvchilarda dunyoqarash va maʼnaviy - axloqiy tirbiya tarkib topishini oʻz ichiga oladi.

Taʼlim va tarbiyaning birligi: a) oʻzlashtirilayotgan ilmiy bilimlar orqali oʻquvchilarda ilmiy materialistik asosda dunyoqarash tarkib toptirish;

b) taʼlimda oʻquvchilarga muayyan maʼnaviy - axloqiy sifat normallarini singdirish;

v) oʻquvchilarning aqliy kamoloti hamda bilish qobiliyatlarini yanada rivojlantirib borishni nazarda tutadi.

Oʻquvchilarda ilmiy dunyoqarash tarkib toptirish murakkab va koʻp qirrali jarayonidir. Maktab taʼlimida tabiiy fanlarni - matematika, fizika, ximiya, biologiya va astronomiya kabi fanlarni oʻzlashtirish orqali dialektik materializm asosida dunyoqarashlar tarkib topadi.

“Xotirada dalili bor hamma narsalarni yaxshiroq, tezroq va oʻngay eslab qoladi” degan A.R.Beruniy.

“Birdaniga ko‘p sezgilar yordamida idrok etish mumkin bo‘lgan narsalarni iloji boricha bir necha sezgilar ishtirokida idrok etish lozim”, deb ko‘rsatgan YA.A. Komenskiy. Mashhur pedagog K.D.Ushinskiyning quyidagi fikri ta’limda qimmatlidir. “Siz bolaga qandaydir bir nechta noma’lum so‘zni o‘rgating, u bu so‘zlarni bilib olguncha uzoq vaqt ketadi va behuda bosh qotiradi, lekin suratlar vositasida o‘rgatilganda, yigirma so‘zni o‘quvchi hash-pash deguncha o‘rganib oladi”.

Ko‘rsatmalilik qoidasi ta’limning etakchi qonun - qoidalarini ham amalga oshirishda juda muhim didaktik masalalarni o‘z ichiga oladi, ayniqsa:

1. Bayon qilayotgan temaning harakteriga mos keladigan ko‘rsatma materiallardan to‘g‘ri foydalanish.

2. Ta’limda qo‘llanilayotgan ko‘rsatma materiallar o‘quvchilarning yaqqol va kokret obrazli idrok qilishini ta’minlashi.

3. Ko‘rsatma materiallar orqali o‘quvchilar ob’ektiv borliqdagi narsa, xodisa va voqealar bilan, ularning xususiyati, belgilari va bir - biri bilan bog‘lanish vositalari bilan tanishadilar.

4. Ko‘rsatma materiallarining ko‘rsatmali bo‘lishi ilmiy bilimlarni mustahkamlashini ta’minlab qolmay, o‘quvchilar diqqatining barqarorligini oshiradi, ijodiy tashabbuslarining rivojlanishiga yordam beradi.

Ko‘rsatma qurollar o‘tilayotgan mavzuning hajmi, harakteri, mazmuni va sinf o‘quvchilarining saviyasiga qarab xilma - xil bo‘lishi mumkin. Maktabda qo‘llaniladigan ko‘rsatma materiallarni ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Buyum va narsalarni aslicha tabiiy holicha ko‘rsatuvchi materiallar: o‘simliklar, hayvonlar, gerbariyalar.

2. Tasviriy ko‘rgazma qurollar: rasm, surat, fotosurat, kinofilm, diafilm.

a) Simvolik tasvirlanishni ko‘rsatuvchi materiallar: geografiya va tarix qartalari.

b) Sxematik materiallar: sxema, tablitsa, diagramma.

O‘qituvchining ta’limni muammoli tashkil etishda ko‘rsatmalarining o‘rni va amaliy ahamiyati beqiyosdir. Ammo ba’zi o‘qituvchilar ta’limda ko‘rsatmalilikdan foydalanishda nuqsonlarga yo‘l qo‘yishadi. Masalan, tayyorlangan ko‘rsatmali qurollardan aniq ta’limiy maqsadni nazarda tutmaydi. Yoki ko‘rsatiladigan rasm sxema va boshqa tasviriy materiallar kichkina barcha o‘quvchilar yaxshi ko‘rib idrok qila olishmaydi. SHuning uchun ko‘rsatmali materiallar chiroyli, chizmalari aniq va o‘quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda ta’limni muammoli o‘zlashtirishga amaliy yordam bermog‘i darkor. Darsda ta’limning ko‘rsatmali tashkil etilishi o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilayotgan materiallarning qiziqarli, tez va ongli o‘zlashtirishga hamda mustaqilligini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bilimni puxta va mustahkam o‘zlashtirish qoidasi.

A.R.Beruniy o‘qitish jarayonida bolalarga tushunarli bo‘lmagan so‘zlarni quruq yodlashga asoslangan ta’limni qattiq qoralaydi.

Puxta o‘zlashtirishning harakterli belgisi bilimni mustahkam esga (xotirada) saqlab qolinishdadir. Puxta o‘zlashtirish uchun qaytarish (takrorlash) va mashq g‘oyat katta ahamiyatga ega. Qaytarishda faqat ilgari o‘zlashtirilgan

materiallarga esga tushurilmay, o'zlashtirgan bilimlarning noaniq, tumanli bo'lib qolgan tomonlari oydinlashadi va to'ldiriladi. O'tilgan materialni qaytarish-xotirada qayta tiklash bir necha yo'l bilan olib boriladi. Qaytarishning ahamiyati haqida A.R.Beruniy "Bilim takrorlash va qaytarish mevasidir".

Qaytarish turlari darsning qaysi bosqichida qo'llanishi mumkinligi va o'tilayotgan mavzuning harakteriga bog'liqdir.

O'tilgan mavzularni asosiy va markaziy masalalar yuzasidan qaytarishning ahamiyati katta. Odatda bunday takrorlashlar bir qancha mayda temachalarni o'tib bo'lgach, temachalar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash, umumlashtirish maqsadida qaytariladi.

Kudalik takrorlash. Har kuni har bir dars yuzasidan olib boriladigan takrorlashdir.

Takrorlashning ikkinchi turi maxsus takrorlashdir. Odatda bunday takrorlash katta temalarni o'tib bo'lgach, shuningdek, ma'lum bir chorak ichida o'tilgan materiallar yuzasidan olib boriladi. Maxsus takrorlashning keng tarqalgan turi o'quv yili oxirida alohida ajratilgan soatlarda o'tkaziladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini xisobga olish va tushunarli qilib o'qitish qoidasi.

Ta'lim jarayonida har bir sinf o'quvchilariga xos umumiy xususiyatlarni ham shu sinfdagi har qaysi o'quvchining individual xususiyatini xisobga olgan holda ish ko'rish muhim didaktik ahamiyatga egadir. Ibn Sino, Beruniy o'qitish jarayonida bo'lgan tushunarli bo'lmagan so'zlarni quruq yodlashga asoslangan ta'limni qattiq qoralaydi. Beruniy yozadi: "Tushunish yodlashdan yaxshiroq va afzaldir". Beruniy pedagogik g'oyalaridan eng muhimi bilimni puxta va mustahkam egallash zarurligidir. "Bilimning shunday bo'lishi kerakki, u yalang'ochligingda ham o'zingda qolsin, bilimingni hammomdagi qo'llik ham yuvolmasin". Bilimlarning o'quvchilarga tushunarli bo'lishi ta'limda samarador bo'lish uchun Beruniy quyidagilarga amal qilishni tavsiya etadi:

- sezgi organlarning ma'lumotlariga ko'ra... bilishni davom ettirish;
- fanni o'rganayotganda fikrlash, xotiralar esga olish zarur;
- o'rganayotgan ilmlarni to'la bilib olish uchun, o'sha ilmni tashkil etib turgan elementlarini puxta o'rganib chiqish;
- bilishda oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, osondan qiyinga, dalillardan xulosalarga qarab borish;
- uzoq o'tmishga oid bilimlarni o'rganishda shu ilm, fan tarixini o'rganish;
- hodisalarni, fan asoslarini bir-birlariga taqqoslashtirib, solishtirib har tomonlama chog'ishtirib o'rganish va h.k.

O'quvchilarga ta'lim berishda bayon qilinayotgan bilim bolalarga tushunarli bo'lish kerak. SHu bilimlarning tushunarli bo'lishi uchun ularning yosh va individual xususiyatlari hisobga olinadi. Ana shuning uchun ham yangi bilimlarni bayon qilish, o'tilgan materialni mustahkamlash, uyga vazifa toptirish ham, mustaqil ish va qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish paytida bolalarning yosh va individual xususiyatlarga amal qilinadi.

O'qitishning bolalarga tushunarli bo'lishi qoidasida ta'limning ikki tomoniga e'tibor beriladi.

1. O'quv materiallarining harakteri-mazmuni va hajmi shu sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos bo'lishi.

2. Sinf uchun belgilangan bilim hajmi shu sinf o'quvchilarining saviyalariga mos bo'lishi.

Darsda berilayotgan bilimlarning bolalar tomonidan puxta o'qib olinishga erishish uchun mustahkam rejaga amal qilinishi, mazmuni va hajmi to'g'ri belgilangan bo'lishi, materiallardan lo'nda xulosalar chiqarishi materiallarning ishonchli bo'lishi uchun fakt, misol, dalillar keltirish – ko'rsatmali qurollardan foydalanish, nutqning ravon va tushunarli bo'lishi, materiallarning turmush bilan, o'quvchilarning shaxsiy tajribalari bilan bog'lab olib borish talab qilinadi.

Ta'limni tushunarli bo'lish qoidasi o'quv ishlarini osonlashtirib, soddalashtirib yuborishni rad etadi.

Mashhur pedagog Burxoniddin Zarnudjiy "O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma" asarida "Har biringiz muruvvatni egallashga hayrixohlik bilan intiling, biroq bulardan eng dolzarbi, bu - kishilarda bilimlarni takrorlashdir. Sen bilimlarni faqat mana shu olti holatda, o'zlashtirishining zarur bo'ladi". Bular: aql - farosatlilik, kuchli istak, chidamlilik, ozgina eyimlik va ichimlik, o'qituvchi ta'limi va bilim olish uchun etarli vaqt.

Klassik pedagogik namoyondalar ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi yuzasidan bir qator qoidalarni ishlab chiqqanlar. Ular "didaktik qoidalar" deb yuritiladi:

1. Osondan qiyinga qarab borish.
2. Ma'lumdan noma'lumga borish.
3. Soddadan murakkabga borish.
4. YAqindan uzoqqa qarab borish.

Ya.A.Komenskiy mazkur qoidaga ta'raf berib bunday deb yozgan edi: "O'quv materiallarini shunday taqsimlab chiqish lozimki, avval bola juda yaqin va aniq narsalarni, so'ngra uncha uzoq bo'lmagan narsalarni, keyin uzoqroq va nihoyat, eng uzoq narsalarni bilib olsin".

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Didaktika nima haqida bahs qiladi, maqsadi va vazifasi nimalardan iborat hamda biz didaktikani nega o'rganamiz?
2. Didaktika qachon va qaerda paydo bo'lgan hamda qanday rivojlanmoqda?
3. Didaktika qanday turlarga ajratib o'rganiladi va ularni izohlang.
4. Didaktikaning asosiy kategoriyalari nimalardan tashkil topgan va ta'limning qanday muammolarini hal etishda yordam beradi?
5. Hozirgi davrda didaktikaning qanday dolzarb muammolari mavjud?
6. Nima uchun ta'lim, o'qitish, mustaqil bilim olish maktab o'quvchilar shaxsini tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilgan bir - biri bilan bog'liq jarayon?
7. O'zbek didaktikasi g'oyalarini darsliklarga kiritish bo'yicha qanday muammolar mavjud va ularni qanday hal etish mumkin?
8. Nima uchun amaliyotchi o'qituvchilar didaktika nazariyasini ilmiy bilishmaydi va bu sohada qanaqa muammolar mavjud?

9. Maktab ta'lim mazmuni nima va u qanday asoslarga ko'ra belgilanadi hamda amaliyotga joriy qilishda qanaqa muammolar mavjud?
10. Nima uchun umumiy, mehnat va kasb ta'limlari o'zaro bog'liq olib boriladi hamda ularning aloqalarini yaxshilash sohasida qanday muammolarni hal etish darkor?
11. Maktabning o'quv rejasi nima va uning mazmunini qanday tushunasiz?
12. O'qituvchilarning o'quv rejani o'zlashtirishida qanday muammolar mavjud va ular qanday hal etilishi mumkin?
13. Maktabning o'quv dasturini qanday tushunasiz?
14. Dastur tuzishda qanday qoidalarga amal qilinadi?
15. Dastur necha qismdan tashkil topgan?
16. Darsliklarga qanday pedagogik talablar qo'yiladi?
17. Darsliklar deb nimaga aytiladi va ularni tayyorlashda qanday muammolar bor?

4-mavzu: O'qitish metodlari va vositalari. Ta'limni tashkil etish shakllari

REJA:

1. O'qitish metodlari haqida tushuncha.
2. O'qitish metodlariga qo'yilidigan pedagogik talablar va ularni guruhlash.
3. Ta'lim olganlikni tashxis etish
4. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini hisobga olish va baholash
5. Ta'lim jarayonining shakllari. Dars tiplari va tuzilishi.

Tayanch so'z va iboralar: Metod, usul yo'l, ikki yo'l, ilhomlashtiruvchi so'zlar, majbur etish, og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, mustaqil, mantiqiy, nazorat va o'z - o'zini nazorat qilish, muammoli, dasturlash metodlari, Amaliy, mashq, laboratoriya, tajriba, frontal, guruhli, individual, muammoli o'qitish, fikrlash, qidirishga o'rgatish mustaqil. Bilim, ko'nikma, malaka, baholash tizimi, reyting, joriy, oraliq, bosqichli, yakuniy nazorat, sifat mezonlari, davlat ta'lim standartlari va hk.

1.

Keng ma'noda metod yunoncha "**Metodost**" so'zidan olingan bo'lib, "yo'l", "usul", "ish uslubi" degan ma'noni anglatadi. Qo'llaniladigan (o'qitish) "metod" - termini kishilarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish, ma'lum ob'yektni o'zlashtirish borasidagi nazariy va amaliy faoliyatlari usullarini anglatadi. ***O'qitish metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi usullari tushuniladi.***

Ba'zi didaktik metodistlar ta'lim metodlarini o'quvchilarni bilmaslikdan bilishga borish yo'li, ayrim olimlar esa, ularni o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'zaro bog'lovchi metodlar, deb qarashadi. Ta'lim metodlarini o'quv ishlari majmui, shuningdek, ta'lim mazmuni shaklida qarash g'oyasi ham bor. Bu qarashlarning qay biri asosida ta'lim metodlarining mohiyati, o'quv-tarbiya

jarayonidagi funksiyalarini batafsilroq tasavvur etish mumkin? Didaktikada hali ham eng munozarali muammolardan biri ta'lim metodlari tasnifi masalasidir.

Ularni ta'lim manbalari, didaktik vazifalar, mantiqiy fikrlash shakllariga qarab tasnif etish moyilligi mavjud. Ta'lim metodlarini tasnif etishda shu yo'nalishlardan qay biri ma'qul? Yoki ta'lim metodlarini tasnif etishning boshqa mezonlari ham mavjudmi? Adabiyotlarda «o'qitish metodlari», «o'qish metodlari» kabi terminlar qo'llanadi. Shunday bo'lgach, «ta'lim metodlari» iborasini ishlatishga ehtiyoj bormi? Metod termini yunonchadan tarjima qilinganda ma'lum bir maqsadga erishish yo'li, faoliyat usuli ma'nolarini anglatadi. Ta'lim metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyat usullari tushuniladi. Ularga ko'ra ta'lim mazmunini o'zlashtirishga mos faoliyat tanlanadi.

Ta'lim metodlari o'quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, ularsiz ta'lim maqsadi, vazifalarini amalga oshirish, o'quv materiallari mazmunini o'zlashtirish mumkin emas.

Ta'lim metodlari ham o'quv material mazmuniga, binobarin, bolalarning ma'lumoti, taraqiyoti, tarbiyasiga, shuningdek, o'qitish, o'qish faoliyatlarining bir-biriga kirishuvi va shu asosda o'zaro ta'sirning yuzaga chiqishiga yo'nalgan. Ta'lim metodi vositasida o'qituvchi va o'quvchining faoliyati o'zaro muvofiqlashadi. Ta'lim metodi-o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lumot mazmuniga yo'nalgan faoliyatini tartibga solish yo'lidir. Ta'lim metodlari tarkiban o'qitish metodlari va o'qish metodlaridan iborat.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida: "Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi. Ta'lim jarayonida ommaviy axborot vositalarining maqsadi oshib boradi, televideniya va radioning ta'lim dasturlari intellektuallashuvi ta'minlanadi", deb ta'kidlangan.

Amaliy fazilatlar va amaliy san'at (kasb - hunar)lar va ularni bajarishga odatlantirish masalaga kelganda, bu odatda ikki yo'l bilan hosil qilinadi: bularda birinchisi - qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, qasd-intilish-harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi (usul) yo'l - majbur etish yo'li, bu usul gapga ko'nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Chunki ular o'z istaklaricha so'z bilan g'ayratga kirishadiganlardan emas, deb ta'kidlagan **A.H.Forobiy**.

Yu.K.Babinskiy tahriri ostida nashr qilingan «Hozirgi zamon umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish metodlari» (1990 yil) kitobida o'qitish metodlari quyidagicha turkumlanadi.

1. O'qitishning og'zaki metodlari.
2. O'qitishning ko'rgazmali metodlari.
3. O'qitishning muammoli - izlanishlar va reproduktiv metodlari.
4. O'qitishning mantiqiy metodlari: induktiv, deduktiv va asoslash mantiqiy metodlari.

5. O'quvchilarning o'quv faoliyatlarini rag'batlantirish va asoslash metodlari:

a) *Bilimga bo'lgan qiziqishni shakllantirish metodlari.*

b) *Bilim berishdagi burch va mas'uliyatni rag'batlantirish metodlari.*

6. O'qitishdagi nazorat va o'z - o'zini nazorat qilish metodlari:

a) *Og'zaki va yozma nazorat metodlari.*

b) *O'quvchilarning tayyorgarliklarini laboratoriya va amaliy yo'llari bilan nazorat qilish metodlari.*

c) *Mashina vositasida nazorat qilish metodlari.*

d) *O'z - o'zini nazorat qilish metodlari va h.k.*

Ya.A.Komenskiy "O'qitish metodlarining o'chi bolada qiziqish uyg'otishi uchun uni jonli qiziqarli qilish zarur, o'qitish har qancha jiddiy ish bo'lsa ham, darsni do'stona, qiziqarli vaziyatda, suhbat, musobaqa, topshiriqlarni topshirish shaklida yoki hikoya va masala shaklida o'tish lozim". O'qitish metodi san'at darajasiga ko'tarilishi uchun uni shunday puxta asoslarga qo'yish kerak, "o'qitish hech og'ishmay olg'a qadam tashlasin va o'z natijalarida aldanmasin" - deb yozgandi.

I.G.Pestalossi metodik tanlashda bolaning o'z ichki tabiatini hisobga olgan holda tabiatning adabiy qonunlariga asoslanishi kerak deb hisoblaydi. "Faqat bitta metod, ya'ni tabiatning abadiy qonunlariga to'la asoslanadigan metodgina yaxshidir".

A.Disterveg o'qitishning ikki asosiy metodini bayon qiluvchi va o'stiruvchi metodlarini ajratadi: "Tashqi tomondan farq ikki metod mavjuddir. Biri shundan iboratki, unda o'quvchilarga predmet aytib beriladi: ikkinchisi shundan iboratki, unda o'quvchilar predmetning o'zini yaratishga va shu bilan bir qatorda o'qitishning dogmatik va o'stiruvchi (evristik) metodlarini yaratishga majbur qiladi".

U ta'lim metodlariga taaluqli ikki qoidani, ya'ni: "Metod tanlashda predmet xususiyati bilan hisoblashmoq kerak" va "O'qitish metodi o'qituvchi shaxsining o'zi bilan bog'langan", - degan qoidalarni ifodalaydi.

2.

Hozir o'qitish metodlarining samaradorligini oshirish eng dolzarb masalalardan biridir. O'qitish metodlarining muvaffaqiyati, samarasi, natijasi ko'proq, o'quvchilar faoliyatining faolligi va mustaqilligini tarkib toptirishga ko'p jihatdan bog'liq. Bu yo'l o'qitish metodlarini takomillashtirishning eng samarali shaklidir. Metod shunday vaqtda samarali bo'lishi mumkinki, o'qituvchi darsda shunday vaziyat, sharoit yaratishi kerakki, ularning mustaqilligini oshirish bilan birga, olayotgan bilimlarni o'zlashtirishda va fikrlashga o'rgatishi zarur.

O'qitish metodlarini takomillashtirish o'quvchi shaxsini, uning dunyoqarashiga, uning pedagogik-psixologik, metodik va maxsus ilmiy jihatidan tayyorgarligiga bog'liq. Ana shunday omillar o'qitish metodlarining samaradorligini oshirish omillari hisoblanadi.

Yaxshi tayyorgarlik ko'rgan o'qituvchida ma'lum tanlangan metodlarning ustunligini ko'rinadi. Tayyorgarligi kam o'qituvchida buning aksi bo'lishi mumkin.

Maktab ta'lim tizimida o'qitish metodlari bilan birga "metodik usul" va "vosita"lar ham ishlatiladi. Usul - metodning bir qismi bo'lagidir. Masalan, o'quvchining bilimini yozma tekshirish metodiga xatolarni tuzatish usuli kiradi.

Vosita - ma'lum bo'lgan yordamchi o'quv material - asbob, qurol va apparatlardan foydalanishdir. O'qitish metodlari dars xarakteriga qarab turli - tuman bo'lishi mumkin. Lekin har bir fanni o'qitishda o'ziga xos umumiy talablarni hisobga olishi kerak. Masalan, fizika, ximiya, biologiya fanlarini laboratoriya mashg'ulotisiz o'qitish mumkin bo'lmaganidek, matematika, ona tili grammatikasini mashq qilmay, misol va masalalar yechmay turib kutilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Aksincha tarix, geografiya darslarida misol va masalalar yechishga hech qanday zaruriyat yo'q.

Ta'lim jarayonida xilma-xil ta'lim vositalaridan foydalaniladi. Ularni foydalanish maqsadi nutqai nazaridan bir qancha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Ko'rgazmali qurollar
2. Ta'lim ashyolari (daftar, ruchka, parta, doska, bo'r va hokazo).
3. Ta'limning texnik vositalari (audio, video universal ham ovozli ham tasvirli).
4. O'quv xonalari.

Ta'lim usul va vositalarini tanlash me'yorlari.

O'qituvchi ta'limning usul va vositalari arsenalidan o'z faoliyatida samara beradiganlaridan foydalaniladi, albatta. Buning uchun u ta'lim jarayonining ko'p qirrali va o'qitayotgan predmetining o'ziga xos tomonlarini hisobga olishi lozim. Shu bilan birga usul va vositalarni samarali tanlash va foydalanishning uslubiy shart-sharoitlari, me'yorlariga amal qilgan holda faoliyat ko'rsatadi.

1. Har bir darsda qo'llaniladigan ta'lim usuli va vositasi o'sha predmetning asosi fanning tadqiqoti usullaridan kelib tanlanadi.

2. Mashg'ulotlarda usul va vositalar majmuidan foydalaniladi.

3. O'quvchilarning yosh va bilish imkoniyatlarini mos tushadigan usul va vositalaridan foydalaniladi.

4. O'qituvchining pedagogik mahorati, tajribalik darajasiga bog'liq.

O'qitish metodlariga quyidagi pedagogik talablar qo'yiladi:

1. Tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirilishga qaratilishi.
2. Metodning ilmiyligi.
3. Metodning ommabopligi, metod o'quvchilar rivojlanishining psixologik - pedagogik imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi.
4. O'quv materialini mustahkam egallashga qaratilganligi.
5. O'z ishida ilg'or metodlarni muntazam o'rganish, boshqalar tajribasidan foydalanish zarurligidan iborat.
6. O'qitish metodlari o'quvchilarning yosh xususiyatlariga va ularning samarali o'zlashtira olishlariga imkon berishi.
7. O'qitish metodlari butun sinf o'quvchilar faolligi va mustaqilligini oshirishga qaratilmog'i kerak va h.k.

Maktablarda qo'llanilayotgan o'qitish metodlari xilma - xil bo'lib, ularning keng tarqalganlari quyidagilar:

1. O'quv materiallarini og'zaki bayon qilish metodi.

O'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi maktab ta'limi tizimida eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib, uni hamma fanlardan, hamma sinflarda qo'llash mumkin. Bu metodda o'qituvchi bilimlarni to'g'ridan - to'g'ri jonli nutqi bilan bayon qiladi va o'quvchilar esa idrok qilishi bilan xarakterlanadi. Hikoya, suhbat, ma'ruza ta'limning bilimlarni og'zaki bayon qilish metodlari sanaladi. Bu metodlar evristik suhbatni hisobga olmaganda, asosan, o'quvchilarning xotirasiga mo'ljallab tashkil etiladi, tuzilish jihatidan ularning tarkibi bir xil: o'qituvchi tushuntiradi, bolalar tinglaydi.

Hikoya qilish - o'qituvchi tomonidan yangi o'tilayotgan mavzuga doir hodisa va voqealarning yaxlit qismlarga bo'lib, izchil bayon qilinishidir. Hikoya qilish davomida o'quvchilar faolligini oshirish, diqqatini bir yerga to'plash, ularning voqea ustida fikr yuritish va almashinishlariga erishishi uchun ayrim savollar berib borish ko'rsatma materiallardan foydalanish kerak. Hikoya qilishning muvaffaqiyatli bo'lishi o'qituvchi nutqining ravonligi, tushunarli va emotsional bo'lishiga bog'liq. Hikoyaning bir necha xil turi mavjud: kirish hikoyasi- o'quv materialini o'rganishga bolalarni tayyorlash maqsadida o'tkaziladi. Kirish hikoyasi badiiy asarlar bilan tanishtirish, yangi mavzuga oid omillarni eslash, ularni dastlabki tahlil etish bilan daxldor metoddir; bayon shaklidagi hikoya- yangi o'quv materialini bevosita idrok etish bilan aloqador metodi sanaladi. Bayon shaklidagi hikoyada o'qituvchi o'quv materialini mazmunini turlicha aytadi, uning asosiy va ikkinchi darajali xususiyatlarini izohlaydi; yakunlovchi hikoya-undan darsning oxirida o'rganilgan mavzuga yakun yasash maqsadida foydalaniladi.

Tushuntirish - o'qitishning o'qituvchi tomonidan o'tilayotgan mavzuning mazmunini xarakterlaydigan tushuncha, qonun va qoidalarining bayon qilinishidir. O'quvchi ma'lum bir fanning biror mavzusiga doir qonun- qoidalarini qanchalik asosli ekanligini faktlar, misol va masalalar yechish bilan isbotlab beradi.

Ma'ruza - Ma'ruza o'rta umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida, kollejlarda, oliy o'quv yurtlarda foydalaniladigan ta'lim metodi bo'lib, unda o'zaro ta'sir o'qituvchining bayoni va bolalarning tinglashi, ayrim omillar, asosiy g'oya va bog'lanishlarni yozib olish shaklida amal qiladi. Ma'ruza uchun vaqt bolalarning tayyorgarlik darajasi, o'quv materialini xajmiga ko'ra belgilanadi.

Ma'ruza jarayonida o'quvchilarning faolligi, tashabbuskorligini oshirish maqsadida o'qituvchi o'z nutqini ko'rgazmali qurol, muammo va topshiriqlar bilan uyg'unlashtiradi. O'quv materialiga oid iboralarga izoh berish, ayrim o'rinlarda o'quvchilarning o'zlariga xulosa chiqarishni taklif etish talabalarning o'quv-biluv faoliyatining samarasini oshiradi.

Suhbat - bu metod ko'p qo'llaniladigan samarali metodlardan biridir. Bu metod savol - javob metodi deb ham yuritiladi. Chunki dars jarayonida savollar bilan butun sinfga murojaat qiladi, o'quvchilar javob qaytaradilar. O'qituvchi tomonidan berilayotgan ta'lim mazmuni hajmi va shakliga bog'liq.

Suhbat o`qituvchi o`quvchining o`zaro ta`siri dialog shaklidagi ta`lim metodidir. Unda mavzu mazmuniga xos, atroflicha o`ylangan, bir-biriga bog`liq savollarni qo`yish va savollarga javob izlash hamda javob qaytarish yo`llari bilan o`qituvchi va o`quvchi faoliyati o`zaro muvofiqlashadi.

Suhbat mohiyati jihatidan ikki turli bo`ladi: evristik suhbat; katoxezistik suhbat. evristik suhbat o`quvchilarning tafakkuriga mo`ljallangan metod bo`lib, unda o`zaro ta`sir o`qituvchi savollari bolalarning javoblari shaklida amal qiladi. evristik suhbat uzoq tarixga ega bo`lib, undan qadimgi Gretsiyada Suqrot mohirona foydalangan.

U hozirgi ilmiy-didaktik tadqiqotlarda «izlanish suhbat» ham deb yuritaladi. Evristik suhbatning qator ijobiy tomonlari mavjud; ijodiy yo`l bilan o`quv materialini o`rganish; o`zlashtirishning individual harakter kasb etishi.

Katoxezistik suhbat o`quvchilarning xotirasiga, binobarin, qayta esga tushirish faoliyatiga mo`ljallab o`tkaziladi. O`tkazish maqsadiga ko`ra katoxezistik suhbatning quyidagicha turlari mavjud:

Yakunlash suhbat. Bunday suhbatda mashg`ulotda qilingan ishlar bo`yicha umumiy va yakuniy xulosa chiqariladi.

Mustahkamlash suhbat-yangi mavzu tushuntirilgandan keyin o`tkaziladi, so`ngra yangi mavzu intellektual va amaliy topshiriqlar bajariladi.

Takrorlash suhbat ikki yoki undan ortiq mavzu bo`yicha o`tkaziladi. Takrorlash yo`li bilan malakalar takomillashtiriladi. Umumlashtiruvchi suhbat katta bo`lim o`tilgandan so`ng, o`quv boshida, oxirida tashkil etiladi.

Kirish suhbat yangi mavzuni o`rganishdan oldin o`tkaziladi. Nazorat suhbat bilimlarni sinab ko`rish maqsadida tashkil etiladi.

2. Mustaqil ishlar metodlari

Mustaqil ishlar ta`limning barcha bosqichlarida o`tkaziladigan, o`qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko`rsatmalari, rahbarligida bajariladigan intellektual va amaliy topshiriqlardir. Hozirgi paytda mustaqil ishlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi.

Darslik va kitob bilan ishlash metodi. Bu metod ham maktabda muhim o`rin tutadi. Kitobsiz undan foydalanish madaniyatiga ega bo`lmay turib, fan-texnika sirlarini egallab bo`lmaydi. O`quv amaliyoti bilan ishlash psixik jarayonni o`z ichiga oladi. O`qitish jarayonida o`qituvchining bayon qilayotgan bilimlarini o`quvchilar faqatgina eshitib qolmasdan, shu bilan birga uni kitob matnidan ko`rib, ongli idrok qilishi muhim rol tutadi. Darslik va kitob bilan ishlash metodi ikki shaklda olib boriladi:

1. Dars jarayonida darslik va o`quv adabiyoti bilan ishlash;
2. Sinf va maktabdan tashqari darslik va o`quv adabiyoti bilan mustaqil ishlash.

**Darslikdagi qoidalar va ta`riflar ustida mustaqil ishlash:** darslikdagi qoida va ta`rifni o`qish va ularga oid omillarni ajratish; o`qituvchi topshirig`iga ko`ra to`plangan omillarni tahlil etish va xulosa chiqarish; darslikning ayrim sahifalarini tanlab o`qish va shu bilimlardan amaliyotda foydalanish yo`llari to`g`risida qisqacha xisobot tayyorlash; qoida, ta`riflarni mantiqiy qismlarga ajratish va terminlarga qo`shimcha adabiyotlardan o`rganilgan mavzu doirasida

material to'plash; ma'ruza, hikoya, suhbat paytida o'qituvchi chiqargan xulosalarni darslikdagi qoida, ta'riflarni solishtirish.

Darslikdagi amaliy materiallar ustida mustaqil ishlash: darslikdagi mashq, misol va masalalar variantlarni o'zaro musobaqalashib bajarish; darslikdagi amaliy materiallar asosida turli diagramma, jadval, chizmalar tayyorlash; laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish rejasini tuzish.

Mashg'ulotlarda turli mustaqil ishlarni bajarish bolalarda mustaqillikni tarbiyalaydi. Mustaqillik esa shaxsiy sifat hisoblanadi. Mustaqil ishlash metodlaridan foydalanishda qator qoidalarga rioya qilinadi; o'quvchilarni mustaqil ishlashga tayyorlash; mustaqil ishlarning tushunarli bo'lishi; mustaqil ish uchun yetarli vaqt ajratish; mustaqil ish natijasini tekshirish.

3. Namoyish qilish va illyustratsiya o'quvchilar tomonidan materiallarni aniq obrazlar orqali bevosita idrok etish jihatidan muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilar o'rganayotgan buyum va hodisalarni konkret va aniq tasavvur etgan taqdirdagina ularning olgan bilimlari chuqur va puxta bo'ladi.

Ko'rgazmalilik didaktikada eng asosiy qoida bo'lib, uning yordamida ko'ruv o'quvi va tafakkur o'zaro uyg'unlashadi. Ko'rgazmali metodlarning quyidagicha turlari mavjud:

-Ilyustratsiya metodi og'zaki bayon qila turib, rasmlar, chizmalar, jadvallar, doskadagi yozuvlarga diqqatni tortish.

Demonstratsiya metodi-kinoapparat, LETI kabi texnik vositalar asosida, shuningdek, televizor ko'rsatuvlaridan, videotasvirdardan foydalanib, turli tasvirlarni namoyish qiladi.

Tabiiy ko'rgazmalar-narsalarning o'zi, predmetlar, turli jonivorlarning mul'ajlarini ko'rsatish. Ko'rgazmali metodlar eshitish va ko'rishni o'zaro uyg'unlashtirish vositasi hisoblanadi. Shu tufayli ulardan bilimlarni og'zaki bayon qilish metodlari bilan yonma-yon foydalansh ta'limning samaradorligini oshiradi.

Ta'limda namoyish qilish metodi keng qo'llaniladi. Bu metoddan darsda ko'pincha fizika, ximiya, biologiya fanlariga alohida tabiiy narsa va buyum ko'rsatiladi. Ta'lim jarayonida namoyish qilish metodidan foydalanish juda ko'p jihatdan namoyish qilish materiallarining xarakteriga, mazmuniga, shakli va hajmiga bog'liqdir. Ko'rsatma materiallari o'z mazmuni va xarakteriga ko'ra 2 turga bo'linadi:

1. *Tabiiy ko'rsatmali materiallar:* o'simlik, hayvonlar, foydali qazilmalar, ularning kolleksiyalari va boshqalar.
2. *Tasviriy ko'rsatma materiallar.* Tasviriy ko'rsatma materiallari ham mazmuni va tizimi shakliga qarab 2 turga bo'linadi.

a) Buyum, narsa, hodisa va voqealarning tasvirini ifodalovchi rasmlar-rasm, surat, fotosurot, diafilm, kinofilm va h.k.

b) Buyum, narsa, hodisa va voqealarning biror shartli belgisi orqali simvolik yoki grafik materiallar – geografiya va tarix kartalari va chizmalar, jadvallar va boshqalar.

Ilyustratsiya-og'zaki bayon qila turib, rasmlar, chizmalar, jadvallar, doskadagi yozuvlarga diqqatni tortish.

Demonstratsiya metodi-kinoapparat, LETI kabi texnik vositalar asosida, shuningdek, televizor ko'rsatuvlaridan, videotasvirdardan foydalanib, turli tasvirlarni namoyish qiladi.

Namoyish qilish va illyustratsiya metodlar eshitish va ko'rishni o'zaro uyg'unlashtirish vositasi hisoblanadi. Shu tufayli ulardan bilimlarni og'zaki bayon qilish metodlari bilan yonma-yon foydalansh ta'limning samaradorligini oshiradi.

4. Ekskursiya metodi

O'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan buyum va hodisalarni jonli kuzatib, idrok etish yo'li bilan ilm asoslarini egallashga **ekskursiya metodi** deyiladi. Sa'diyning "Guliston" asarida "safarning foydasi ko'pdir: bag'ri diling ochiladi, foyda topasan, ajoyibotlarni ko'rasan, g'oyibotlarni eshitasan, shaharlarni tomosha qilasan, do'stlar bilan suhbatda bo'lasan, bilim orttirasan, molu-mulk, davlatingni ko'paytirasan, do'stlaringni yaqindan tanib, taqdirni imtihon qilasan" deyilgan. Ekskursiya zavodlarga, fabrika, qo'shma korxona kabilarda o'tkaziladi. Ekskursiya o'tkazishda bir qancha talablarga amal qilish lozim. Ekskursiya to'rt yo'nalishda bo'lmog'i lozim:

1. Tabiatni kuzatish va o'rganish maqsadida;
2. Sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga doir;
3. Ijtimoiy va maishiy mazmundagi;
4. San'at va adabiyot materiallari bilan tanishishga oid ekskursiyalar.

Ekskursiya quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Ekskursiya haqida ekskursovodning muqaddama suhbat;
2. Marshrut bo'yicha ob'yektni kuzatish;
3. Ekskursiya davomida yoki oxirida zarur materiallarni to'plash.

5. Mashq metodi-quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Og'zaki, yozma mashq va grafik ishlari metodi.
2. Amaliy, laboratoriya mashg'uloti metodi.
3. Tajriba yer uchastkasida mashg'ulot.
4. Muammoli o'qitish metodi.

Bu metodlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, hamma sinflarda, o'quv fanlari bo'yicha keng qo'llaniladi. Mashq metodi o'quvchilar o'zlashtirgan bilim hosil qilingan ko'nikmalarni mustahkamlash va ularni hayotda qo'llay olish qobiliyatini o'rgatish maqsadida tashkil etiladi. O'quvchilar mustaqil ishlarning xususiyatlari va mazmuniga qarab og'zaki, yozma, grafik va amaliy turlarda olib boriladi:

1. og'zaki mashq;
2. yozma mashq;
3. grafik ishlar (metod);
4. amaliy ishlari.

Yozma ishlar: ona tili va adabiyot, matematika, shuningdek, tarix va geografiya fanlarini o'qitishda qo'llaniladi. O'quvchilarning yozma mashqlari asosan ko'chirib olish, bayon, yozma ish qog'ozlari, matematikadan misol va masalalar yechish kabilardan iborat.

Grafik ishlar: yozma ishlar jumlasiga kirib, o'quvchilarning o'zlashtirgan yoki o'zlashtirmagan, bilimlarni ongli va mustahkam esda saqlab qolishlariga hamda shu sohada ko'nikma, malakalar hosil qilishlariga yordam beradi.

O'quvchilarning grafik ishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: rasm chizish (yoki asliga qarab chizish), geografiya va tarix fanlaridan unchalik murakkab bo'lmagan kartalar chizish, chizma va sxemalar chizish, jadval, diagramma va grafiklar, plakat, albom, stendlar tayyorlash va boshqalar. Grafik ishlarni o'quvchilar bajarganda, o'qituvchilar kamchiliklarni o'z vaqtida ko'rsatishlari kerak.

Laboratoriya mashg'ulotlari metodi. Laboratoriya ishlari deb o'quvchilar tomonidan maktab sharoitida narsa va hodisalarni maxsus jihozlar vositasida (mikroskop, o'lchov asboblari, tajriba jihozlari va shuningdek kabilarda) bevosita o'rganishga aytiladi. Bu metod asosan V-IX sinflarda fizika, ximiya, biologiya va tabiiy geografiya fanlarini o'qitishda qo'llaniladi. Laboratoriya mashg'ulotlari maxsus jihozlangan laboratoriya, kabinet hamda tegishli apparat, mikroskop, lupa, kolba, o'lchov asboblari yordamida oddiy sinf xonalarida, maktablarning yer uchastkalarida olib boriladi. Laboratoriya mashg'ulotlari o'qituvchi tomonidan ilgari bayon qilingan materiallarni aniqlash, isbot qilish va mustahkamlash maqsadida olib boriladi. Yuqori sinflarda yangi bilimlarni berishda ham ishlatish mumkin. Laboratoriya darsi mashg'ulotlari ko'pincha 3 turda bo'ladi:

1. Kuzatish;
2. Tajriba yoki eksperiment o'tkazish;
3. Tegishli asbob-uskunalar yordamida, vositada ma'lum obyektni o'lchab, ko'rishda ishlatiladi.

Laboratoriya mashg'ulotlari xarakteriga qarab turli tipda tashkil qilinadi: 1. Sinf o'quvchilari bilan frontal ravishda olib boriladigan mashg'ulotlar. 2. Sinf o'quvchisining alohida-alohida olib boriladigan tajriba mashg'ulotlari.

Amaliy ishlar metodi – umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnika va mehnat malakalari bilan qurollantirish maqsadida amaliy ishlar olib boriladi. Fizika, ximiya, biologiya, chizmachilik fanlari o'quvchilarga texnika ta'limini berishda muhim rol o'ynaydi. Texnik ta'limi o'quvchilardan bevosita ishlab chiqarishning dastlabki mehnat ko'nikmalari bilan qurollanishni ham talab qiladi. Shuning uchun ham umumiy o'rta ta'lim maktablarining V-IX sinflarida o'quv ustaxonasi va tajriba yer uchastkasida bir qancha amaliy tajriba ishlari olib boriladi. Masalan: yog'och va materiallar bilan ishlash.

Yuqori sinflarda maktab yer uchastkasida amaliy tajriba olib boriladi. Amaliy mashg'ulotlarni olib borishda shu mashg'ulotlarning xarakteriga qarab xilma-xil metod va usullar qo'llaniladi. Amaliy ishlar oxirida o'qituvchi o'quvchilar ishini tekshiradi, baholaydi, amaliy ishlarga yakun yasaydi.

Tajriba yer uchastkasida amaliy mashg'ulotlar. O'quvchilarning amaliy tajriba mashg'ulotlari maktab jonli burchagi va tajriba yer uchastkasida olib boriladi. Amaliy ishlar o'quv fanlari, fizika, ximiya, biologiya, tabiatni o'rganish darslarida ilmiy bilimlar asosida olib boriladi. Maktab yer uchastkasidagi ishlarni asosan o'quvchilar jamoalari amalga oshiradi. Maktab yer uchastkasida asosan ish turi ekin maydonlarini haydash, ekish, o'g'itlash, sug'orish kabilar hamda otaliq tashkilotlari ish uchastkalarida, parrandachilik, sut-tovar fermalarida ham o'tkazishlari mumkin.

«Tarbiyachi o'z shogirdlarining mustaqil ishlashiga ko'proq imkoniyat yaratib bermog'i lozim. O'quvchini tayyor xulosalar bilan qurollantirishdan ko'ra

uning o'ziga to'g'ri xulosalar chiqarishni o'rgatmog'i lozim», - deb ta'kidlagan K.D.Ushinskiy. Shveysariya pedagogi I.G.Pestoljka: «Mening o'quvchilarim yangilikni mendan olmaydi: ular bu yangilikni o'zlari kashf etadilar. Mening asosiy vazifam-ularni o'zlarini namoyish etishga, mustaqil g'oyalarini rivojlantirishga yordam berishdan iborat» degan.

Muammoli o'qitish. Maktabda ta'limning muammoli o'qitishsiz tasavvur etish mushkul. Uning asosiy maqsadi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish orqali bilish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Har qaysi fanni o'qitishda muammoli ta'lim shu fanning o'ziga xos xususiyat va mazmunidan kelib chiqib tashkil etiladi. Muammoli ta'limda muammoli vaziyatni yuzaga keltirish, o'quvchilarni mazkur vaziyatni qidirib topishga, ixtiro qilishga o'rgatishni vazifa qilib oladi. Albatta, o'qituvchi yo'naltiruvchi shaxs hisoblanadi. Bunda o'quvchilarning o'zlari mavjud bo'lgan bilimlarga tayanib ish tutadi. Eng muhimi o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga va ularni amalda qo'llashga o'rgatadi

Muammoli izlanish turidagi metodlar o'quvchilarning tafakkuriga, binobarin, ularning ijodiy faoliyatiga yo'nalgan ta'lim metodidir. Bu metodlar asosida o'quv-tarbiya ishlari tashkil etilganda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri quyidagicha umumiy ko'rinishga ega bo'ladi.

O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
- turli topshiriqlar muammoli asosida holat yaratish; - muammoni hal etishga oid farazlarni aytishni taklif etish; - farazlardan mosini muammoni bajarishga tatbiq etish, so'rash; - xulosalar chiqarishga ko'maklashish; - chiqarilgan xulosalarni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatish	- muammoli holatda ishtirok etish va muammoni qabul qilish; - farazlarni aytish; - tanlangan farazni muammoni bajarilishiga tatbiq etish; - xulosalar chiqarish; - xulosalarni amaliyotga tatbiq etish.

Muammoli izlanish metodlari ham maktab tajribasida sof holda qo'llanilmaydi. Muammolarni qo'yish, ularni izohlashda suhbat, hikoyadan ham foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruza o'qib turgan paytda turli o'quv topshiriqlari, muammolar ham hal etiladi. Ko'rgazmali qurollar vositasida bolalarga eksperimental (sinov) topshiriqlar beriladi. Ana shularga ko'ra muammoli-izlanish metodlarining quyidagi turlari farqlanadi.

Muammoli hikoya o'rganilayotgan mavzu doirasida hikoya boshida, hikoya davomida, hikoya oxirida bolalar oldiga muammolar qo'yib, ularning mavzuga qiziqishlarini oshirish yo'lidir.

Muammoli ma'ruza: ma'ruzadan oldin o'quvchilarni mavzuga qiziqitirish maqsadida yoki ma'ruza oxirida o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish yo'li bilan ta'lim maqsadiga erishishdir.

6. Didaktik o'yin metodi. Keyingi yillarda ilg'or o'qituvchilar tajribasida didaktik o'yinlardan ta'lim metodlari sifatida foydalanish odat tusini olib bormoqda. Didaktik o'yinlarning samaradorligi shundaki, ular vositasida o'quv-tarbiya ishlari hayotga yaqinlashtiriladi, shuningdek, ularning har birida bilimlarni og'zaki bayon etish, ko'rgazmali, amaliy metodlarning elementlari

qo'llaniladi. Shu hususiyatlariga ko'ra didaktik o'yinlar sintetik harakterga ega. Ularning quyidagicha turlari mavjud:

Simulyativ o'yin-ta'limni hayotda bo'lib o'tgani ijtimoiy voqealarga tenglashtirish, ularni qiyosiy tarzda tashkil etish va boshqarish metodidir. Bu o'yindan tarix, geografiya darslarida unumli foydalaniladi; bir o'qituvchi Amir Temur, boshqasi Boyazid, qolganlari sarkardalar, askarlar rolida ishtirok etadi, shu yo'l bilan ta'lim bo'lib o'tgan tarixiy voqeaga qiyoslab tashkil etiladi.

Simulyativ o'yinlarning bir ko'rinishi insenirovka (rollarga ajratib o'qish) metodidir. Boshlang'ich sinflarda badiiy matnlar, yuqori sinflarda badiiy asarlarni rollarga ajratib o'qitish an'anasi maktablarimiz tajribasida uzoq tarixga ega. Adabiyot o'qituvchilari «Tuya bilan bo'taloq» asarini o'qitganda bir o'quvchi yozuvchi, ikkinchi o'quvchi tuya, uchinchi esa bo'taloq so'zlarini o'qib ishtirok etishadi.

Situativ o'yinlar ham asta-sekin maktab tajribasida o'z o'rnini olib bormoqda. Mehmon kutish, kasalni davolash, harid qilish kabi turli haetiy vaziyatlar mohiyatidan kelib chiqib, ta'limni tashkil etish va boshqarish situativ o'yinlar sirasiga kiradi.

4.

Yoshlarni tarbiyalash jarayonida ma'naviy-intellektual rivojlantirish sifatlarini aniqlashning aniq maqsadi va vazifalari ishlab chiqilgan.

O'quvchi va talabalarning bilimini, aqliy kamolotlarini nazorat qilish va baholash davlat miqyosidagi muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, nazorat va baholash jarayonini o'quvchi bilimini boyitishga, ular shaxsini rivojlanishiga va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Bilimlarni nazorat qilishda qo'yilgan ball va baholar o'quvchi va talabada qanday taassurotlar qoldirganini, ular o'rtoqlarining o'qishdagi yutuq va kamchiliklariga qanday munosabatda bo'lishlarini doim kuzatib borish lozim. O'quvchi va talabalar bilimini nazorat qilish va baholash o'quv yili davomida muntazam amalga oshirilishi uchun reyting tizimi joriy qilinib, ba'zan, tasodifan tekshirishlarning oldini oladi va tartibli, doimiy baholash uchun imkoniyatlar ochib beradi.

Pedagogika fani bilimlarni o'z vaqtida nazorat qilish va baholashning uchta vazifasi borligini alohida uqtiradi.

1. O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash natijalariga qarab Davlat ta'lim standartlari qanday bajarilayotganligini nazorat qilinadi va vazifalar belgilanadi.

2. Bilimlarni nazorat qilish va baholash natijasida o'quvchi, talabalarda bilimlar yanada kengayadi. Bu bilan o'quv yurtlari oldida turgan ta'limiy maqsad bajariladi.

3. Ta'lim sohasidagi yaxshi natijalar yoshlar tarbiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ularda ko'tarinki rux, o'z kuchiga bo'lgan ishonch va qiziqishlar paydo bo'ladi. Shuning uchun ham o'zlashtirishni nazorat qilish ta'lim tizimining ajralmas qismidir. Nazorat jarayonida uning yozma, og'zaki va amaliy metodlaridan keng foydalanilmoqda. O'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, metod, o'qitish shakllari va vositalarini takomillashtirib boradi. Shu boisdan ham, «pedagogik texnologiya», «didaktik texnologiya», «ta'lim

texnologiyasi» atamaları qatoridan «pedagogik innovatsiyalar» atamasi mustahkam o`rin olmoqda.

Vaqtga ko`ra nazorat metodlari

O`zaro ta`sir natijasida nazorat etish vaqt nuqtai nazaridan uch turli bo`ladi.

Joriy nazorat-har bir darsda uzoq va yaqindan o`tilgan o`quv materialining o`zlashtirilishini tekshirish demakdir.

Unda nazorat savollar berish, qoidalar, ta`riflarga oid ma`lumotlar keltirish, berilgan materiallarni tahlil etish, mavzularning mazmunini ochib berish, qisqa muddatli munozaralar tashkil etish, o`quv topshiriqlarini bajartirish kabi metodlardan foydalaniladi. Joriy nazorat qisqa muddatda o`tkazilishi bilan karakterlanadi.

Oraliq nazorat-o`quv fanining bir bo`limi, katta qismi o`tib bo`lingandan keyin tashkil etiladigan tekshirishdir. Unga alohida o`quv soati ajratiladi. Oraliq nazoratda o`rganilgan bo`lim mazmuniga mos savollar tizimiga javob olinadi, o`quv tizimi topshiriqlari bajartiriladi, uzoq muddatni oladigan munozara o`tkaziladi. Savollar, o`quv topshiriqlar tizimi, uzoq muddatli munozara, og`zaki yoki yozma hisobot kabilar davriy nazorat metodlari hisoblanadi.

Yakuniy nazorat - o`quv fani to`liq o`rganilgach, chorak oxirida, o`quv yili so`ngida tashkil etiladi. Unda o`quv fani mazmunini o`ziga to`liq qamrab oladigan metodlardan foydalaniladi. O`quv fani doirasida qo`llangan termin va tushunchalarga (og`zaki yoki yozma) izoh yozish, o`quv faniga oid yetakchi g`oyalarni hayotga, ishlab chiqarish, amaliyotga tatbiq etish, o`quv fanining inson hayotida tutgan o`rnini baholash, o`quv fani doirasida o`rganilgan nazariy va amaliy bilimlariga o`z munosabatini bildirish kabi metodlar nazoratning samaradorligini oshiradi.

O`quvchilar miqdoriga ko`ra nazorat metodlari

O`quvchilar mikdoriga ko`ra nazoratning uch xil ko`rinishi farqlanadi:

Individual tekshirish-alohida o`quvchiga mo`ljallangan nazoratdir. A`lochi o`quvchiga mo`ljallangan o`quv topshirig`i o`rtacha tayyorgarlikka ega bo`lgan bola uchun qiyin bo`lganidek, o`rta o`zlashtiradigan o`quvchi uchun tuzilgan o`quv topshirig`i a`lochi o`quvchi uchun juda ko`p sanaladi. Ko`rinadiki, individual nazorat har bir o`quvchining bilimi, tayyorgarlik darajasiga qarab tayerlanadi. Demak, individual nazorat metodi sifatida tanlangan suhbat, savol, topshiriq, mustaqil ish, laboratoriya mashg`uloti va Shu kabilarning bajaruvchisi-ijrochisi oldindan belgilanadi.

Tabaqalashgan nazorat-sinf jamoasini bilim, malakalarni o`zlashtirish darajasi, real bilish imkoniyatlariga qarab kichik jamoalarga ajratish va jamoalarning har biriga mos metod, vosita tanlab tekshirishni o`tkazishdir. Sinf o`quvchilari, ularning individual xususiyatlari asosida kichik jamoalarga ajratiladi. Eng yuqori o`zlashtiruvchi bolalar o`ta murakkab, yaxshi o`qiydigan o`quvchilar jamoasi nisbatan oson, past o`zlashtiruvchilar jamoasi esa yanada osonroq topshiriqlarni, mustaqil ishlarni bajaradi.

Yalpi nazorat- sinf jamoasining barchasiga mo'ljallangan tekshirishdir. Masalan, diktant shunday metodlar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomning (1995 yil 5 yanvar) 4 o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni bo'limi 4,4 bandida o'quvchilar bilimi sifatini va o'qitish natijalarining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini nazorat qilishni ta'minlash uchun shu quyidagi nazorat tartibotlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

Joriy nazorat – so'rovlar, kollektivumlar, seminarlar, nazorat ishlar, testlar tarzida o'quvchilarning bilimlari, malaka va ko'nikmalari muntazam nazorat qilinadi;

Oraliq nazorat – chorak tamom bo'lganda va o'quv dasturlarining tegishli bo'limlari, malaka va ko'nikmalarini baholash uchun amalga oshiriladi. U imtihonlar, testlar, sinovlar va malakaga doir ishlar shaklida o'tkaziladi;

Bosqichli nazorat – o'quv yili tamom bo'lganidan keyin imtihonlari, test sinovlari shaklida amalga oshiriladi. Uning asosida reyting aniqlanadi va o'quvchini navbatdagi sinfga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinadi;

Yakuniy nazorat – o'qish tugatilganidan keyin davlat attestasiyasi shaklida o'tkaziladi.

4,5 umumiy ta'lim dasturlarini davlat ta'lim standartlarini doirasidan mustaqil o'zlashtirgan o'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan Eksternat to'g'risidagi Nizom asosida, eksternat tartibida attestasiyadan o'tish huquqi beriladi.

Imtiyozli attestasiya 5-9 sinflarda o'qish davrida o'zlashtirish (reyting) bo'yicha faqat a'lo ko'rsatgichlarga ega bo'lgan bitiruvchilarga beriladi.

O'rta maxsus kasb-hunar kollejlari bosqichli nazorat o'tkazilmaydi. Oraliq baholashda kurs ishi va bosqichli nazoratda u imtihonlar, testlar, malaka ishlar va diplom himoyalari himoya qilish shaklida amalga oshiriladi.

Maktabda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hisobga olish, tekshirish va ularga baho qo'yish ta'lim tarbiyaning zarur va muhim qismidir. Bu ishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi davlat uchun, maktab, o'quvchilar va ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish asosida davlat ta'lim-tarbiya sifatini, bu sohada yuz bergan kamchiliklarga o'z vaqtida barham berish, maktab, o'qituvchi va o'quvchi ishini har tomonlama yaxshilashga kerakli tadbirlar belgilaydi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olish, o'quv metodlarining va zaif tomonlarini o'quvchilarning dars materiallarini qanday o'zlashtirayotganligini aniqlab olishga imkon beradi. Har bir o'quvchini har tomonlama yaxshi bilishga yordam qiladi. O'qituvchi o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini tekshirish asosida o'quvchilarning o'quv dasturi hajmida bilim, ko'nikma, malakalarini puxta o'rganib olishlarini ta'min etish uchun dars materiallari ustida yana qanday ishlash kerakligini ko'rsatadi, darsdan ulgurmayotgan o'quvchilarni o'z vaqtida tezda tegishli choralar ko'radi. Shu bilan birga tekshirish o'qituvchining ham o'quvchining ham o'ziga talabchanligini kuchaytiradi. Har bir o'quvchining o'qishda o'zining yutuq va kamchiliklarini, o'quv materialining qaysi qismi puxta, qaysi qismini bo'sh o'zlashtirganligini aniqlashga yordam

beradi. O'z-o'zini tekshirib borishga o'zi o'zini tanqid qilishga odatlantiradi, intizomlikka va qunt bilan o'qishga o'rgatadi, ularda kuchli iroda hamda ijobiy xarakter vujudga keltiradi va tarbiyalaydi. Maktab, ota-onalarni esa davlat oldida o'z mas'uliyati va vijdon burchini tushuntirishga o'rgatadi.

O'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olish va tekshirish ota-onalarning o'z bolalari qanday o'qiyotganliklarini, darsdan ulgurish ulgurmasliklaridan xabardor bo'lib turishlariga yordam beradi. Ularning o'z bolalarining o'qishlari va tarbiyasi uchun javobgarligini oshiradi. Masalan, ayrim ota-onalar bolalarining o'qishlaridan xabardor bo'ladilar. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olish va tekshirish ishi avvalo o'quvchilarni kunsayin o'rganib borish va ularning darsdan ulgurishlarini tekshirishni o'z ichiga oladi. O'qituvchi o'qitish jarayonida har bir o'quvchini diqqat bilan o'rganib borishi lozim. O'qituvchi ana shu o'rganish asosida har chorak oxirida, har bir o'quvchining ma'lum bir fanni qanchalik o'zlashtirganligi haqida xarakteristka berishga majbur.

1. O'qituvchi o'quvchilarni rejali va tizimli suratda kuzatish yo'li bilan o'rganadi, o'qituvchi o'quvchilarni darsda va darsdan tashqari vaqtlarda kuzatib boradi. Kuzatish unga o'quvchining ishiga, o'qishga munosabatini, o'quvchining qiziqishlari va nimalarga moyil bo'lganligini uning individual xususiyatlarini va qobiliyatini bilib olishga yordam beradi.

2. O'quvchilar suhbat yo'li bilan ham o'rganiladi. Suhbat sinf jamoasi yoki ayrim o'quvchilar guruhi bilan, shuningdek yakka-yakka ham o'tkazilishi mumkin. O'quvchilar haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lish uchun o'qituvchilar, maktab vrachi, ayniqsa, ota-onalar bilan fikr almashishi katta ahamiyatga ega.

3. Yana ularning shaxsiy hujjatlarini diqqat bilan ko'rib chiqish orqali ham o'rganiladi. O'qituvchi o'z o'quvchilarini qancha aniq va har tomonlama yaxshi bilsa, ta'lim-tarbiya ishlari shuncha muvaffaqiyatli bo'ladi. O'quvchilarni bilish o'qituvchining butun sinfga, har bir o'quvchiga ta'lim va tarbiya berishning eng yaxshi usul va vositalarini tanlab olib, ulardan samarali foydalanishga imkon beradi. O'quvchilarning zaif tomonlari va nuqsonlarini yo'qotishga ijobiy tomonlarini o'stirish va mustahkamlashga yordam beradi. O'quvchilar bilimlari, ko'nikmalarini hisobga olishning eng muhim qismi ularning bilimni o'zlashtirishlarini tekshirishdir. Maktabda o'quvchilarning bilimni tekshirishning quyidagi turlari – dastlabki taxminiy tekshirish, kundalik tekshirish, mavzular bo'yicha tekshirish va yakuniy tekshirishdan iborat.

I. Dastlabki taxminiy tekshirishning asosiy vazifasi o'quvchilarning yangi o'quv materialini ongli idrok qilishi va muvaffaqiyatli egallash uchun kerak bo'lgan tayyorgarlik darajasini aniqlashdan iborat. Odatda tekshirishning bu xili o'quv yilining boshida yoki o'quv dasturining navbatdagi bobini o'tishiga kirishish oldidan o'tkaziladi.

II. Kundalik tekshirish – har kuni, har dasrda muntazam ravishda, rejali tarzda o'tkaziladigan tekshirishdir. Bu tekshirishning asosiy vazifasi o'tilgan materialni qaytarish bilan birga, yangi o'quv materialini o'zlashtirilish darajasini aniqlashdir. Kundalik tekshirish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Darsda har kuni o'tkaziladigan bu tekshirish, o'quvchilarni tizimli puxta ishlashga o'rgatadi.

Shuningdek, bu tekshirish o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarni singdirib borishga va irodasini o'stirishga yordam beradi.

III. Yakuniy tekshirish – o'quv choragi va o'quv yilining oxirida o'tkaziladi. Uning asosiy vazifasi o'quvchilarning o'quv choragida yoki o'quv yilidagi materialning egallash darajasini aniqlashdan iborat. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirishda maktabda qo'llaniladigan asosiy usullar – o'quvchilarning ishlarini kuzatish, darsda va darsdan so'ng kuzatish, og'zaki so'rash, nazorat ishlar o'tkazishdir.

Og'zaki so'rash tekshirishning eng ko'p qo'llaniladigan usullaridan biridir, uning quyidagi turlari bor:

- a) O'quvchini sinf doskasi yoki o'qituvchi stoli yoniga chaqirib so'rash.
- b) Sinfdagi o'quvchilarning ko'pchilikdan sidirgasiga so'rash.
- c) Ayrim o'quvchilardan doskaga yoki stol yoniga chaqirmasdan so'rash.

Ayrim o'qituvchilar o'quvchilarning bilimlarini tekshirishda mavzular yuzasidan tekshirish usulini qo'llaydi. Bu usulning yaxshi tomoni bunda har bir o'tilgan mavzudan shu mavzuni o'zlashtirish darajasi sinfdagi o'quvchilarning har biriga nisbatan tekshiriladi. Mavzu materialini o'zlashtirmagan o'quvchilar aniqlanadi va ulardan shu materialni o'zlashtirish talab qilinadi.

Nazorat ishlar – yozma ishlar (diktant, insho, masalalar yechish, grafik ishlar, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tadbiq qilishni talab etadigan amaliy vazifalarni (laboratoriyada analiz qilish, ustaxonada tegishli buyumlar yasash) bajarish kabilar kiradi. Nazorat ish bir vaqt ichida sinfdagi hamma o'quvchilarni tekshirishga imkon beradi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish ishlari quyidagi talablarga javob berishi lozim. Sinfdagi hamma o'quvchilarning bilimlarini tekshirish kerak. Tekshirishda o'qituvchida reja bo'lishi kerak. Reja asosida o'rta, kuchli va bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilimlari tekshirilishi kerak. Tekshirishni shunday olib borish kerakki, sinfdagi hamma o'quvchilar o'qituvchi savoliga javob bera olsun.

O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalariga baho qo'yish baho o'quvchilarning o'quv dasturlarida ko'zda tutgan bilim, ko'nikma va malakalarni qanday egallaganligini ko'rsatadi. Baho qo'yish katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki o'quvchilarni u qunt bilan o'qishga majbur etadi. Maktab o'quvchilarga baho qo'yishda quyidagi asosiy talablar qo'yiladi.

1. Bilimlarga ob'yektiv va haqqoniy baho qo'yilishi lozim.
2. Baholashda ko'zbo'yamachilikka mutloq yo'l qo'ymaslik kerak.
3. O'quvchining bilimiga o'quv dasturining talablari asosida baho qo'yilishi lozim.

Bu talablarni ta'min etish uchun bilimga baho berishning umumiy mezonlari bo'lishi shart.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasida "Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi", - deb ta'kidlangan. Bu talablar jamiyatning ob'yektiv rivojlanishini taminlaydigan ehtiyojlar va bozor munosabatlari umumiy raqobatidan kelib chiqadi. Mazkur talablar umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlari, darsliklarida o'z ifodasini topmog'i darkor. Bular har bir

fanning o'ziga xos ta'lim mazmuni, xususiyatlaridan kelib chiqadi. Maktablarda o'quvchilar bilimi, ko'nikmalariga baho berishning quyidagi umumiy mezonlari qo'llaniladi:

1. Bilimning ilmiy bo'lishi.
2. Bilimning ongli o'zlashtirilishi.
3. Bilimning hajmi.
4. Bilimning mustahkam o'zlashtirilishi.
5. O'quvchi nutqining mazmuni va bajargan ishining sifati va h.k.

O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirishda va baholashda o'quvchi o'quv dasturi materialini to'la biladimi, ularni tushunadimi yoki uni quruq yodlab olganmi, bilimlarni amaliy masalalarni yechishga va ishlarni bajarishga tadbiq qila oladimi va boshqalar.

Hamma o'quv fanlari va barcha sinflarda ana shu mezon qo'llaniladi. Biroq ayrim o'quv fanlaridan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baho qo'yishda shu fanlarning xususiyatini hisobga olishi kerak. Masalan, mehnat darslarida o'quvchilarning bajargan buyumlarni tekshirish va baho qo'yishda mustaqillik, buyumning texnik talablarga muvofiqlik darajasi va sifati hisobga olinishi lozim. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga baho qo'yish uchun umumiy ta'lim maktablarida besh darajali raqamli baho tizimi qo'llaniladi.

O'quvchi dastur materialini to'la va mufassal bilgan, uni chuqur tushungan va puxta egallagan, dasturga kiritilgan hamma masalalarni to'g'ri, ongli va dalillar bilan so'zlab bergan, amaliy ishlarni bajarishda va masalalar yechishda egallagan bilimlarni mustaqil tadbiq qilgan, og'zaki javoblarda va yozish ishlarida to'g'ri adabiy tildan foydalana bilgan va xatolarga yo'l qo'ymagan holda "5" baho qo'yiladi.

O'quvchi dastur materialining hammasini bilgan, uni yaxshi tushungan va puxta egallagan, dastur hajmidagi savollarga qiynalmasdan javob bergan, bilimlarni amaliy ishda tadbiq qila bilgan, og'zaki javoblarda to'g'ri tildan foydalana olgan, yozma ishlarda esa kichkina, ahamiyatsiz xatolargagina yo'l qo'ygan taqdirda "4" baho qo'yiladi.

O'quv dasturiga kiritilgan asosiy o'quv materialini bilgan, egallagan bilimlarni amaliy ishlarda bir muncha qiynalib va o'qituvchining bir oz yordamida bajara olgan, og'zaki javoblarida materialni bayon qilganda, yozma ishlarda bir muncha xatolarga yo'l qo'yilgan taqdirda "3" baho qo'yiladi.

O'quvchi o'tilayotgan o'quv materialining ko'pchilik qismini bilmagan, o'qituvchining yordamchi savollari orqaligina javob bergan, yozma ishlarida ko'p va qo'pol xatolarga yo'l qo'ygan taqdirda "2" baho qo'yiladi.

O'quvchi o'tilgan materialni butunlay bilmagan taqdirda "1" baho qo'yiladi.

O'quvchilarga qo'yilgan baholarni ularga izohlab tushuntirish kerak. Bu esa bilimga baho qo'yishning ahamiyatini oshirish hamda o'quvchining o'qishdagi yutuq va kamchiliklarini bilib olishga yordam beradi. Har bir chorakda o'quvchiga bir nechta baho qo'yilishi kerak. Aks holda chorak oxirida o'qituvchi qiynalib qoladi. Chorak va yillik bahoni qo'yishda o'rta arifmetik usul bilan baho qo'yish

mutlaqo yaramaydi, chunki bunday yakuniy baho o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarini to'g'ri aks ettirmaydi.

Ba'zi bir o'qituvchilar darsga tartib-intizom buzgan o'quvchilarga o'z fanlaridan yomon baho qo'yadilar. Bunday baholash butunlay yaramaydi, chunki baho o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladi, shuning uchun uni o'quvchining xulqiga qo'yiladigan bahoga aralashtirish noto'g'ridir.

Mashhur rus pedagogi **Ostrogorskiy** shunday yozadi "Javobga ball olgan inson avvalo o'zidan-o'zi unga haqqoniy baho qo'yishdimi deb so'raydi, agar u bunga nohaqdek tuyulsa, u ranjiydi, go'yo unga tegishli narsa tortib olingandek yoki berilmagandek bo'ladi. Dangasa xafa bo'lmaydi, u mehnat qilgani yo'q, mehnat qilgan esa mehnatning qadrini biladi va mehnatning natijalarini istaydi".

Shuning uchun barcha o'qituvchilar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda, ularning reytingini aniqlashda ob'yektiv asoslarga tayanishi shart. Sir emas ba'zi o'qituvchilar baholashning mohiyati, mazmunini o'zlari yaxshi o'zlashtirmaganlar. O'qituvchining bunday nuqsonlari maktab amaliyotida yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar reyting tizimini mukammal o'zlashtirib, amaliyotda xatolarsiz tadbqiq etishlari barkamol o'quvchilarni tayyorlashning zarur sharti ekanligini anglashlari juda muhim.

Hozirgi davrda o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirishda test usuli qo'llanilmoqda. "Test" inglizcha so'z bo'lib, "topshiriq", "tajriba" degan ma'nolarni anglatadi. Bilish xususiyatini o'lchash usuli sifatida unga ingliz psixologi **D.Kattel** asos solgan. Boshqacha aytganda test qisqa muddat ichida bilimni sinashning eng maqbul usuli bo'lib, bir qator rivojlangan davlatlarda xalq ta'limi bilan bir qatorda turli sohalarida ham test sinovidan foydalangan.

Jumhuriyatimizda ilk bor 1992 yilda bir qator oliy o'quv yurtlariga qabul imtihonlari shu asosda o'tkazildi. Endilikda test sinovi ta'lim-tarbiya tizimining barcha sohalariga kirib bormoqda.

"Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining bilim darajalarini nazorat qilishning reyting usuli to'g'risidagi Nizom" loyihasida alohida o'qtirganidek, bu usul davlat ta'lim standartlarining tarkibiy qismi bo'lib, uni barcha ta'lim muassasalarida (maktablarda) bajarishi majburiydir.

Hozirda fanlar bo'yicha reyting ballari quyidagi tartibda belgilanadi:

1. Kundalik nazorat (KN) – 50 ball. Jumladan, a) kundalik so'rov (KS) – 40 ball, b) erkin faoliyat (EF) – 10 ball.

2. Oraliq nazorat (ON) – 20 ball.

3. Yakuniy nazorat (YaN) – 30 ball.

Reyting natijasi besh balli bahoga ko'chirilganda quyidagicha bo'ladi:

100 – 86 ball – "a'lo";

85 – 71 ball – "yaxshi";

70 – 55 ball – "qoniqarli";

55 balldan past – "qoniqarsiz".

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyotida (dastlabki davrda) o'qitish ishi odamlarning mehnat faoliyati bilan uzviy bog'langan edi. Bolalar katta yoshdagilarga taqlid qilib, ularning ish usullaridan namuna olib, qo'llaridan keladigan unumli mehnatda va uy ishlarida qatnashib, shu yo'l bilan kattalar tajribasini o'rganar edilar.

Mehnat faoliyati va bilimlar murakkablasha borishi bilan bolalarning o'tmish ajdodlar tajribasini o'zlashtirish vazifasi o'qitishning maxsus tashkiliy shakllarini taqozo qilardi. Natijada maktab vujudga keldi. Bolalarni guruh qilib o'qitish (to'plab) paydo bo'ladi. Qadimgi Xitoy, Misr, Yunoniston maktablarida, o'rta asr maktablarida bolalar guruhlab o'qitiladi. Bu guruhlab o'qitishning dastlabki shakli edi. Guruhlar o'zgaruvchan edi, bilim darajasi, yoshi va aqli har xil darajada o'sgan bolalar bir guruhda o'qitilar edi.

Qadimgi dunyoda va o'rta asrda o'qitish ko'proq individual shakli keng rivojlangan edi. Bu keyinchalik o'zini oqlamadi.

Maktab ta'lim ishlari har xil shakllarda olib boriladi. Maktabning tarixiy taraqqiyoti bilan ta'limni yo'lga qo'yish shakllari ham o'zgarib boradi. Ya.A.Kamenskiy tarixda birinchi bo'lib maktab ta'lim tizimida sinf - dars tizimini yaratdi. Lekin sinf-dars tizimi O'rta Osiyodagi, jumladan eski o'zbek maktablariga inqilobgacha ta'sir qilmadi. Bu maktablarda o'qishga o'quvchilar qabul qilishning ma'lum vaqti yo'q edi. Shuning uchun 20 - 30 o'quvchining bilim darajalari ham turlicha bo'lar edi.

Maktab barpo qilinishining dastlabki kunlaridan boshlab sinf- dars tizimi yangi taraqqiyot darajasiga o'tdi. Maktabning dushmanlari XX asrning boshlarida AQShda paydo bo'lgan Dalton - plan asosidagi ta'limni hech o'zgarishsiz, faqat nomini o'zgartirib, "laboratoriya - birgada metodi" deb atab, uni maktabga tadbiiq qila boshladilar.

Milliy dastur "Ta'lim o'z ichiga maktabgacha tarbiya, umumiy, o'rta, o'rta maxsus, kasb - hunar ta'limini qamrab oluvchi yangi uzluksiz izchil tizimi barpo etiladi va yana ilg'op pedagogik texnologiyalar, ta'limning yangi shakllari va uslublari amaliyotga joriy etiladi", - deb ta'kidlangan.

Dars – o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir. **Sinf** – yoshi va bilim jihatdan bir xil bo'lgan, ma'lum mikdordagi o'quvchilar guruhidir. **Dars** – o'qituvchining rahbarligida muayyan vaqtda sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan mashg'ulot. Hozir maktablarimizda sinf - dars tizimi asosan quyidagi shakllarda olib boriladi:

1. *Yoshi va saviyasi bir xil bo'lgan bolalarning doimiy guruhi bilan;*
2. *Dars mashg'uloti 45 daqiqaga mo'ljallangan bo'lib, qat'iy jadval asosida o'tada;*
3. *Dars o'qituvchi va o'quvchilar aktivligida asoslanib bevosita o'qituvchining rahbarligida o'tadi;*
4. *O'tiladigan materialning mazmuniga qarab turli metodlar qo'llaniladi. Darsda bir narsa haqida tugal bilim berilishi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirishga zamin yaratishi kerak.*

Biroq maktablarda hozir faqat mashg'ulotlar sinf-dars tizimida olib borilmaydi. Shuning uchun maktabda ta'limni yo'lga qo'yish shakllari ikki turga ajratiladi:

1. Sinf - dars tizimida olib boriladigan mashg'ulotlar;
2. Amaliy va tajriba ishlar shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar.

Hozirgi zamon darsiga qo'yilgan talablar quyidagilardir:

1. *Har bir dars ma'lum bir maqsadni nazarda tutishi va puxta rejalashtirilgan bo'lishi lozim.*

2. *Har bir darsda mustahkam g'oyaviy-siyosiy yo'nalish bo'lishi lozim. Dars o'quvchilarni siyosiy tarbiyalashni, jamiyat va tabiatning taraqqiyot qonuniyatlarini, bilimning turlari bilan bog'lanishini ta'minlashi darkor.*

3. *Har bir darsda xilma-xil metod, metodik usul, vositalardan keng va unumli foydalanish lozim.*

4. *Darsga ajratilgan har bir soatni tejash, undan samarali foydalanish kerak.*

5. *Darslikda yuksak darajada intizom bo'lishi kerak.*

6. *Har bir darsda xalqning boy pedagogik merosi, urf-odati va qadriyatlaridan keng foydalanmoq kerak.*

7. *Dars nazariy bilimlarni amaliyotida tadbiq qilishga o'rgatishi kerak.*

8. *Har bir dars o'qituvchi va o'quvchilarning aktiv faoliyat birligini ta'minlamog'i kerak.*

9. *Har bir dars o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyati birlashgandagina qo'yilgan maqsadga erishishi mumkin. Buning uchun: o'qituvchining darsga pyxta tayyorlangan bo'lishi bilan birga, uni amalga oshirish uchun qanday dars tipi va o'qitish metodlaridan foydalanishni aniq belgilash;*

- vositalarni to'g'ri tanlashi va ishlatishi;

- sinf jamoai va har bir o'quvchi bilan mos muamolada bo'lishi;

- sinf o'quvchilarining darsdagi aktivligi va mustaqilligini ta'minlash choralarini rejalashtirish (og'zaki, yozma, grafik shaklidan) unumli va samarali foydalanish va h.k.

10. *Dars mashg'uloti butun bir sinf o'quvchilari diqqatini, bir yerga to'plagan holda olib borilishi va ayni vaqtda har bir o'quvchining individual va yosh xususiyatlarini hisobga olishi kerak va h.k.*

Hozirgi maktablarda darslar uchta vazifani bajaradi: **Birinchi vazifasi** qanaqa fan bo'lishidan qat'iy nazar o'quvchilarga ta'lim beradi. Ya'ni mazkur fanga mos ilmiy bilimlar, saboqlar beradi. **Ikkinchi vazifasi** mazkur fanning o'z mazmuni va xususiyatlaridan kelib chiqib o'quvchilarni tarbiyalaydi. Ya'ni o'quvchining mafkurasi, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy, vatanparvar, insonparvar kabi fazilatlarini shakllantiriladi. **Uchinchi vazifasi** birinchi va ikkinchi vazifalari natijasi hisoblanib o'quvchi shaxsini rivojlantirish. Sodda qilib izohlasak, o'quvchining olgan ta'lim-tarbiyalarini amalda qo'llashga o'rgatish vazifasidir. Ta'limning umumiy vazifasi o'quvchi shaxsini shakllantirishdir.

Dars tiplari va strukturasi. O'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda mashg'ulotlarning asosiy qismi dars tipini tashkil qiladi. Maktab ta'limi tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars tiplari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni berish darsi.
2. O'tilgan materialni mustahkamlash darsi.
3. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish darsi.
4. Takrorlash-umumlashtirish darsi.
5. Aralash dars (yuqoridagi dars tiplarining bir nechitasi bir vaqtda qo'llaniladi).

Maktabdagi eng ko'p qo'llaniladigan dars tiplaridan biri – yangi bilimlar berish darsidir. Odatda bu dars tipi quyidagicha tuziladi:

- yangi bilimlarni bayon qilish;
- yangi bilimlarni mustahkamlash;
- yangi bilimlar ustida mashq qilish;
- yangi bilimlarga bog'liq holda uy vazifalari topshirish va h.k.

Har bir sinfda har bir fanga oid dars turlicha tuziladi. Dars qanchalik xilma-xil tuzilmasin, unda umumiylik shunchalik ko'p bo'ladi. O'rta maktablardagi darsning tuzilishi asosan quyidagilardir:

1. O'tgan darsda o'tilgan materiallarni so'rash, o'quvchilar bilimini tekshirib ko'rish darslari.
2. Yangi materialni bayon qilish darslari.
3. Yangi materialni mustahkamlash va takrorlash.
4. Tekshirish darslari va h.k.

Dars tiplari.

Bilimlarni mustahkamlash darsining tuzilishi:

1. Tashkiliy qism.
2. Darsning maqsadini belgilash.
3. Uyga berilgan topshiriqlarning bajarilishini tekshirish va o'rganilgan materialni mashqlar, amaliy laboratoriya va boshqalar yordamida esda yaxshi qoldirish.
4. Darsni yakunlash va uyga bajarish uchun topshiriq berish.

Tekshirish darslarining tuzilishi:

1. Tashkiliy qism.
2. Darsning maqsadini tushuntirish.
3. Nazorat ishlari.
4. Darsni yakunlash.

Dars jarayoni frontal, guruhli, individual tashkil etiladi. Laboratoriya ishlari mashg'ulotning xarakteriga qarab turli tipda tashkil qilinadi:

1. Sinf o'quvchilari bilan frontal ravishda olib boriladigan mashg'ulot.
2. Guruh, ya'ni 6-7 o'quvchi bilan olib boriladi.
3. Sinf o'quvchilarining har qaysisi bilan alohida-alohida olib boriladigan tajriba mashg'ulotlari.

Frontal ravishda olib boriladigan mashg'ulot tipi o'qituvchining rahbarligida sinfdagi hamma o'quvchilarning bir xil asboblardan foydalangan holda bir turdagi tajriba ustida ishlashdir. Lekin hamma vaqt ham o'quvchilarni zarur bo'lgan asboblardan ta'minlab bo'lmaydi. Shuning uchun frontal ravishda olib boriladigan laboratoriya mashg'ulotlari ikki shaklda individual va brigada (guruhli) shaklida yo'lga qo'yiladi. Bunda o'qituvchi o'ziga yordamchilar tayinlab olishi

mumkin. O'qituvchi tajribani boshlashdan oldin o'quvchilarga yo'l-yo'riqlar berishi kerak.

Yuqori sirflarda o'quvchilarning individual olib boriladigan mustaqil tajribalari faoliyat tarzda o'tkaziladigan mashg'ulotlardan farq qiladi. Individual mashg'ulotlar eksperimental tajriba masalalarni yechishga qaratilgan amaliy ishlardan iborat bo'lib, bunda mashg'ulotlarda har qanday o'quvchi alohida-alohida tajriba ustida ish olib boradi.

O'quvchilarning individual tajribalarining natijalari yozma ravishda yakunlanadi.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi. O'quv mashg'ulotining muvaffaqiyati asosan o'qituvchilarning darsga tayyorgarligiga bog'liqdir. O'qituvchining tayyorgarligi asosan ikki yo'l bilan olib boriladi:

1. O'z mutaxassisligi bo'yicha olib boriladigan umumiy tayyorgarlik;
2. Kundalik dars rejasi, ya'ni dars konspekti.

Kalendar reja har bir fan yuzasidan har bir o'qituvchi tomonidan tuziladi. Kalendar reja birinchi va ikkinchi yarim yillar uchun tuziladi. Kundalik darsga tayyorgarlik ko'rishda dastur bilan tanishadi. Darsliklar, xrestomatiya materiallari, shu mavzuga doir jurnal materiallari bilan tanishishi va ko'rsatma materiallarni tayyorlash kerak.

O'quvchilarning mustaqil ishlari. O'quvchi uy vazifasini bajarish natijasida o'zlashtirgan bilimlarni mustahkamlaydi. O'zlashtirgan materiallar yuzasidan ongli fikr yuritishga, hosil qilingan ko'nikma va malakalarni turmushda qo'llay olishga o'rgata boradi. Maktab o'quvchilariga beriladigan uy vazifalarning turlari juda ham xilma-xildir. Darslik va kitob bilan ishlash, qoida va qonunlarni yod olish, yozma va og'zaki mashqlar bajarish, insho va bayon yozish, maktab tajriba-yer uchastkasi va jonli burchaklarda o'simlik va hayvonlarni kuzatish yuzasidan olib boriladigan mustaqil ishlardir. Shuni ko'rsatib o'tish kerakki, ba'zan uy vazifalarini topshirishda qo'pol holatlarga yo'l qo'yiladi. Uy vazifalarining muvaffaqiyatli bajarilishi ko'p jihatdan o'qituvchining puxta o'qitirishiga bog'liq. Uy vazifalarini dars oxirida shoshma-shosharlik bilan topshirish yaramaydi.

Maktabda o'quvchilarning mehnatdan, biologiyadan, jismoniy tarbiya fanlaridan mashg'ulotlar o'quv ustaxonalarida, yer uchastkasida, sport maydonchalarida tashkil etiladi. Bu mashg'ulotlarni o'tkazishdan maqsad o'quvchilarni olgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Bunday mashg'ulotlar o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqib tashkil etiladi va ma'lum pedagog talablar asosida o'tkaziladi.

Maktabda o'quvchilarni hayotga tayyorlashda va bilish qobiliyatlarini rivojlantirishda sinfdan tashqari o'qishini tashkil etish muhim rol o'ynaydi. Sinfdan tashqari o'qish barcha fan o'qituvchilari va kutubxonachilar tomonidan tashkil etmoqlari zarur. Unda ko'zda tutilgan maqsad dasturda ko'zda tutilmagan keng hajmdagi qo'shimcha materiallar o'quvchilarning o'zlashtirishi uchun tavsiya etiladi. Darsdan tashqari munozaralar, konferensiyalar uyushtirilishi ham mumkin. Eng asosiy o'quvchilarning qiziqqan sohalari bo'yicha bilishini rivojlantirish, o'qishga ishtiyoqini tarbiyalash, kitob bilan ishlashga o'rgatishdan iborat.

“Odamlar o’qishdan to’xtashlari bilan fikrlashdan ham to’xtaydilar”, - degan Dini Didro. Ta’limni yodga qo’yishning dars, laboratoriya, ekskursiya, amaliy mashg’ulot, kollektivum, uy vazifalari, qo’shimcha konsultasiya, nazorat ishlar, topshiriq va hokazo shakllari mavjud.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Ta’lim metodlari nima va ular qanday turkumlanadi?
2. Ta’lim metodlariga qanday pedagogik talablar qo’yiladi va ularni izohlang?
3. Ta’limning og’zaki metodlari nima va ularga qaysilar mansub?
4. Ta’limning ko’rsatmali metodlariga qaysilar mansub va ularni pedagogik asoslang?
5. Ta’limning amaliy metodlari nima va uning qanday turlari mavjud?
6. Muammoli ta’lim metodi nima va uning mazmunini asoslang.
7. Ta’limning yana qanday metodlari mavjud va nima uchun turli nomlar bilan aytiladi?
8. Nima uchun o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalari hisobga olib baholab boriladi?
9. Hozirgi davrda o’quvchilar bilim, ko’nikmalarini reyting tizimida baholashning qanday yo’nalishlari mavjud?
10. O’quvchilar bilim, ko’nikmalarini nazorat qilishning qanday turlari va shakllari mavjud va ularni qanday izohlaysiz?
11. Maktablarda o’quvchilar bilim, ko’nikma va malakalarini baholashning qanday mezonlari mavjud?
12. O’quvchilar bilim, ko’nikma va malakalarining mezonlarini qanday izohlaysiz?
13. Maktabda baholashning qanday tizimi mavjud?
14. Bahoning ta’lim-tarbiyaviy, amaliy ahamiyatini qanday tushunasiz?
15. O’quvchilar o’zlashtirishining reyting tizimi haqida nimalarni bilasiz?
16. Nima uchun o’qituvchi ta’lim jarayonining shakllarini o’rganadi?
17. Ya.A.Kamenskiyning sinf - dars tizimi mazmunini izohlang?
18. Nima uchun dars ta’limni yo’lga qo’yishning asosiy shakli?
19. Hozirgi zamon darsiga qanday pedagogik talablar qo’yiladi?
20. Dars qanday vazifani bajaradi?
21. Dars tiplari nima va uning qanday tiplari mavjud? Ularni bir-biridan qanday farqlaysiz?
22. Nima uchun o’qituvchi darsga tayyorlanadi va uning qanday turlari mavjud?
23. O’qituvchining qanday rejalari mavzu va ular mazmunini qay tarzda izohlaysiz?
24. Amaliy mashg’ulotlar va ekskursiyalar nima maqsadda tashkil etiladi?
25. O’quvchilar mustaqil ishlarining qanday shakllari mavjud va qaysi maqsadda o’tkaziladi?

5-mavzu: TARBIYA NAZARIYASI

Tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya prinsiplari.

Reja:

1. Tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya xususiyatlari.
2. Tarbiya jarayonining qoidalari va prinsiplari.
3. Tarbiya jarayonidagi ziddiyatlar va uni harakatlantiruvchi kuchlar
4. Tarbiya jarayonida pedagogik talab

Tayanch so'z va iboralar

Asosiy maqsad, barkamol, sharqona axloq, odob, ma'naviy kamalot, najod, xalokat, hayot, yangicha fikrlaydigan, uzoq, uzluksiz jarayon, hokim, tobe, ichki tashqi ziddiyatga, o'z-o'zini tarbiyalash, qayta tarbiyalash, aql kuchi moddiy manfaat kuchi, tashkilotchi, qoida, qonuniyat, talablar, majmui, milliy tarbiya, milliy ong, o'zlikni anglash, insonparvarlik, demokratiya, inson shaxsini hurmatlash, milliy, umummilliy qadriyat, jamoa, mehnat va hokazo.

1.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol toptirish va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va ta'sirchan maxanizmlarini yaratish eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralmokda.

Tarbiya hayotning eng muhim tirligi (tayanchi) bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o'qishni va so'ngra esa yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin! (Avesto).

Avvalom bor, tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi, tarbiya nazariyasi o'z qoidalari asoslash uchun falsafa, sosiologiya, etika, estetika huquqshunoslik, psixologiya fanlari ma'lumotlaridan foydalanadi. (Tarbiya nazariyasi o'z navbatida pedagogika fanining boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, pedagogika tarixi, ta'lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy bog'langandir).

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy shunchalik ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalari muvofiq tayyorlangan bo'lib, uning "Asosiy maqsadi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash", zarurligi (39 bet) va "Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi" (43 bet) deb, ta'kidlanishi bejiz emas albatta.

"Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak - sog'lom kishi deganda, faqat jismoniy sog'likni emas, balki sharqona axloq-odob va

umumbashariy g'oyalar kamol topgan insonni tushunamiz" - deb ta'kidlagan edi birinchi Prezidentimiz I.Karimov.

Bugungi kunda XXI asrda shunchaki bilim egasi bo'lgan insonni emas, balki ijodkor, o'z iste'dodi bilan ajralib turuvchi insonni tarbiyalash zamon taqozosidir.

Tarbiya jarayonida kishining qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy-axloqiy, irodaviy, estetik hislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-qudratlari mustahkamlanadi.

Hamma davrning ilg'or kishilari tarbiyaga yuqori baho berganlar. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Zardusht, Muhammad al-Xorazmiy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Axmad Yassaviy, Maxmud Koshg'ariy, Shayx Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Burxoniddin Zarnujiy, Burxoniddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Havoiiy, Zaxiriddin Bobur, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Hamza, Abdulla Avloniylar inson kamolotini ilm-fan va tarbayada deb bilganlar.

Tarbiya jarayoni shaxsning ijtimoiy qimmatli fazilatlarini shakllantirishga, uning atrofdagi dunyoga, jamiyatga, odamlarga, o'ziga nisbatan munosabatlari doirasinn vujudga keltirishga va kengaytirishga qaratilgan.

Shaxsning turmushdagi turli jihatlariga munosabatlari tizimi keng, xilma-xil va chuqur bo'lsa, uning ma'naviy dunyosi shunchalik boy bo'ladi. Tarbiya shaxsni ijtimoiylashtirish, uning aniq hayotiy mavqeini shakllantirish jarayonidir. Tarbiya shaxsning ongliligi, faolligi, fidoiyligi, vatanparvarligi, insonparvarligi va boshqa fazilatlarini shakllantiradigan jarayondir. Tarbiya o'z tabiatiga ko'ra ko'p faktorli xarakterga ega. Buning ma'nosi shuki, bola shaxsining qaror topishi maktab, oila, jamoatchilik, ijtimoiy muhit va yaqin atrofdagi vaziyatga bevosita yoki bilvosita ta'siri ostida ro'y beradi. *Hamma narsa: odamlar, ashyolar, hodisalar, voqealar, avvalo ota-onalar va pedagoglar tarbiyalaylilar.* (A.S.Makarenko)

Tarbiya jarayonini mashhur pedagog **A.Avloniy** "Al-xosil tarbiya bizlar uchun yo hayot, - yo mamot, yo najot, - yo halokat, yo saodat, - yo falokat macalacidip" deb ta'riflagan va yana "Har mamlakatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyachiga bog'liq". **H.H.Niyoziy** "Agar yaxshi tarbiya kishining qimmatbaho boyligi bo'lsa, yomon tarbiya uning uchun haqqoniy baxtsizlik hisoblanadi va qo'shimcha uni halok etadi", - deb tushungan.

Ta'lim orqali nazariy kamolotga erishiladi. Tarbiya esa **Farobiy** fikricha "bu kishilar muloqotda etnik qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir", deb ta'riflaydi hamda "Insoniy maqsad - oliy baxt saodatga erishuvni o'ziga g'oya va oliy maqsad qilib olish kerak".

A.S.Makarenko "Tarbiya bu nisbatan keksaroq avlodning o'z tajribasi, o'z ehtirosi, o'z e'tiqodini yosh avlodga topshirish demakdir ", deb ta'riflagan.

Yuqoridagi ta'riflarning barchasi shaxs tarbiyasining u yoki bu qirralarini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgandir.

Pirovard natijada har tomonlama kamol topgan, yetuk, barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgandir. **Tarbiya jarayonining eng asosiy maqsadi** har tomonlama va uyg'un kamol topgan yangicha fikrlaydigan shaxsni shakllantirishdir. Bu qiyin jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyushtirishni va

rahbarlikni, boshqarishni ham, tarbiyalanuvchi shaxsning faollik ko'rsatishini ham talab qiladi. Ammo bu jarayonda pedagog yetakchi rol o'ynaydi va tarbiyaning umumiy maqsadini amalga oshipadi.

Tarbiya uzoq davom etadigan va aslida uzluksiz jarayon bo'lib, bu jarayon bola maktabga kelishidan ilgariroq boshlanadi va butun umr bo'yi davom etadi. Tarbiya ko'pgina sabablarga, o'quvchilarning individual-tipologik tafovutlarga, ularning hayotiy va ma'naviy tajribasiga, shaxsiy faolligiga boqliq.

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining bir qismi bo'lib, u tarbiyaviy jarayonning mazmuni, metodi va tashkil etilishi masalarini o'rganadi. Jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti o'sib kelayotgan barkamol avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni ham qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya aqlli, odobli, mehnatsevar, bilimli, sog'lom, e'tiqodli, dili pok, ruhi komil, har tomonlama ma'naviy rivojlangan, vatanparvar, baynalminal, insonparvar barkamol shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Tarbiya mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, milliy an'analar va mintaqalararo xususiyatlarni hisobga olgan holda olib boriladi.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, xarakteri, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik hislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Bola kattalarning tajribalarini sust holda emas, balki faol ravishda o'zlashtiradi: bu o'zlashtirishda uning ongli harakati, tirishqoqligi ahamiyatga ega bo'ladi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faol faoliyat ko'rsatmasalar tajriba va bilimni o'zlashtira olmaydilar. Bolaning yoshi ulgayib borgan sari bu faollik tobora ko'proq mustaqillik xususiyatlariga ega bo'lib boradi: tarbiyalanuvchilar o'zlarida dunyoqarashni tarkib toptirishga, o'z-o'zini takomillashtirish, tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan hodisalarni tushunishga hamda idrok etilgan narsalarga tanqidiy munosabatda bo'lishga ko'nika boradilar.

Tarbiya jarayonida kattalar, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar jamoasi o'zaro munosabatda bo'ladi. Bu munosabat o'zaro tushunish, ishonch, hamkorlik asosida qurilishi lozim.

Maktab butun tarbiya ishini hayot bilan hamohangi, o'quvchilarga o'tmish, tarix, san'at haqidagi ma'lumotlarni chuqur o'rgatishi, xalq pedagogikasi asosida ish yuritishi, buyuk allomalarning farzand tarbiyasi borasidagi pedagogik qarashlari, inson ruhini chuqur o'rganib, sharqona urf-odatlar, an'analar asosida yoshlarga mehnat malakasini singdirishi lozim.

Tarbiyaning xususiyatlari

Shuni nazarda tutish kerakki talim va tarbiya yagona jarayondir. Ammo ularni aynan bir jarayon deb o'ylash mumkin emas.

Chunki har bir insonning o'ziga xos xususiyatlari va belgilari bor. A.S.Makrenkoning fikricha tarbiya mantiqi ta'lim mantiqini takrorlamaydi.

Bolalarni tarbiyalash ishlari (ijtimoiy muhit, oila, bolalar doimo duch keladigan xilma - xil odamlar, bolalar va o'smirlar tashkilotlaridagi ishlar, radio, televideniye, adabiyot va san'at) kabi ta'sirlar bilan qo'shilib ketadi. Shuning

uchun ham tarbiyani ko'p qirrali jarayon deyish mumkin. Ta'limda esa o'qituvchiga hech kim qarshilik ko'rsatmaydi. Tarbiya jarayonining ***birinchi xususiyati*** - uning ko'p qirrali jarayon ekanligidir. Tarbiya jarayonining ***ikkinchi xususiyati*** - uning uzoq muddat davom etishidir. Buning uchun oylar va yillar mobaynida qunt bilan ishlash talab etiladi.

Tarbiya masalasi murakkab, qiyin masala ekanini, u maktab doirasi bilan cheklanib qolmaganini, balki bolalarni tarbiyalash uchun hamma mas'uldir. Unda bolalar uzluksiz tarbiyalanib boradilar.

Tarbiyaning ta'limdan farqlantiruvchi ***yana bir xususiyati*** shundaki, u yaxlit holda va konsentrik asosda amalga oshiriladi. Tarbiyaning turli tomonlari bir-biri bilan uzviy bog'langandir. Ta'limda biror predmetga doir bilimlar, bo'limlar, mavzular, dasturlarga bo'linib, ma'lum bir vaqtda beriladi.

Tarbiya jarayonida esa doimo takrorlanishga duch kelamiz. Maktabdagi boshlang'ich, o'rta va yuqori sinflarda: jamoatchilik, do'stlik, o'rtoqlik, mehnatga va ijtimoiy muhitga ongli munosabat va boshqa sifatlarni tarbiyalash qo'zda tutiladi. Lekin ularning mazmuni bolalarning yoshi va hayotiy tajribasiga muvofiq kengayib va chuqurlashib boradi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati shundaki, bu jarayon ***ikki tomonlama xususiyat***ga ega bo'lib, unda bolaning o'zi ham faol ishtirok etadi. O'quvchi tarbiyaning faqat ob'ektigina emas, balki atrofdagi voqealarga ta'sir etuvchi sub'ekt hamdir. Shuning uchun tarbiyachi bolaning imkoniyatlarini, istak va xohishlarini, intilishlarini, unga bo'layotgan boshqa ta'sirlarni tashqi axborotlar manbaini hisobga olishi lozim. Agar bular unutib quyilsa tarbiyalash qiyinlashadi. Mana shulardan tarbiya jarayonining yana bir asosiy xususiyati - ***tarbiyada qarama-qarshiliklar*** g'oyat ko'pligi kelib chiqadi. Bu qarama-qarshiliklar bolalarda o'z tushunchalariga muvofiq dastlabki paydo bo'lgan sifatlar bilan tarbiyachi tomonidan tarkib toptiriladigan sifatlar o'rtasida, ya'ni qo'yiladigan talablar bilan uni bajarish imkoniyatlari o'rtasidagi kurashda namoyon bo'ladi. Undan tashqari, bunday qarama-qarshiliklar ko'pincha bolaning ongi bilan xulqi bir-biri bilan muvofiq bo'lmasligida, o'qituvchining bolalarning yosh va individual xususiyatlari, fe'l-atvori, qiziqish va intilishlarini yaxshi bilmasdan munosabatda bo'lishida sodir bo'ladi.

Agap tarbiyalanuvchi sust bo'lsa, faoliyatsiz bo'lsa, har qanday tarbiyaning ta'siri kuchsiz bo'ladi, o'qituvchilarning urushishlari yetarli darajada samara bermaydi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati - ya'ni ***uning natijasi kelajakka qaratilganligini*** ko'rsatadi. Shuning uchun bolalarning tarbiyalanganlik darajasini darhol tezda aniqlash qiyin. Tarbiyachi o'z faoliyatida kelajak maqsadlarni ko'zda tutib ish ko'rishi kerak. Tarbiya jarayonida shu kun talabining kelajak maqsadlar bilan uyg'unlashtirilishi ishimizning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. "Eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi" - degan xitoylix **Konfutsiy**.

Tarbiyaning shaxs rivojlanishi bilan birligi va o'zaro bog'liqligi uning muhim qonuniyati hisoblanadi.

Shaxsning rivojlanishi tarbiyaning sifatiga bog'liqdir. Ayni chog'da tarbiyaning mazmuni, shakli va metodlari shaxsning rivojlanish darajasiga bog'liq. Tarbiya jarayoni murakkabdir. Shuning uchun ham u tarbiyachidan bolaning ruhiy holati, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, mehribonlik bilan yondoshishni talab qiladi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchi shaxsini diqqat bilan o'rganishi, ularni tushunishi, hurmat qilishi lozim.

Tarbiyalanuvchilarning hayotiy faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali, maqsadga muvofiq va ularning munosabatlari oqilona tashkil qilinarkan, tarbiya jarayoni shunchalik samarali amalga oshiriladi.

Insonni uning atrofini qurshab turgan vositalar: oila, ota-onasi, maktab, do'stlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar tarbiyalaydi. Shaxsning rivojlanish va shakllanish jarayonini boshqarib borishi kerak. Shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e'tibor berish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo'lish lozim.

Shunga ahamiyat berish lozimki, amalda tarbiyaviy jarayon umumxalq ishi va uzluksiz bo'lsin, barcha yoshdagi bolalarni qamrab olsin, turli ijtimoiy, jamoat va davlat institutlari va muassasalarining shaxs kamolotini shakllantirish borasidagi harakatlari mujassamlashishi ta'minlansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligi e'tiborda tutilishi zarur.

Tarbiya muayyan maqsad bilan rejali ravishda amalga oshiriladigan davomli ishdur.

Yosh avlodga har bir tarixiy davrdagi jamiyatning o'ziga xos ishlab chiqarish metodi va ijtimoiy munosabatlarga muvofiq tarbiya beriladi. Bu tarbiyaning asosiy qonuniyatidir.

Tarbiya jamiyat hayoti bilan bog'liq, jamiyat o'zgarib rivojlanishi bilan tarbiya ham o'zgarib, rivojlanib boradi.

Tarbiya jarayoni hayotiy, amaliy xususiyat kasb etmog'i lozim. Tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashchilari; pedagoglar, ota-onalar, jamoatchilik, yoshlar tashkilotlari va mehnat jamoatlari- hamma kasbiy-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozim.

Tarbiya nazariyasida ham pedagogika fanida bo'lgani kabi, yangi vujudga kelayotgan qarashlar bilan eskirib borayotgan qarashlar o'rtasida kurash ketgan. Tarbiya nazariyasidagi va amaliyotidagi muhim yo'nalishlarni tanqidiy o'rganmay turib, tarbiya nazariyasining asosiy masalalarini tushuna olish qiyin. Keng tarqalgan biri avtoritar (boshqalarga ko'r-ko'rona bo'yin suyish) tarbiya nazariyasi edi. Avtoritar tarbiya XVI asrda paydo bo'lib, hozirda Ispaniyada, Lotin Amerikasining ba'zi mamlakatlarida yaqqol ifodasini topgan. Avtoritar tarbiyani ilmiy ravishda asoslab berishga uringan nemis pedagogi Fridrix Gerbart (1771-1841) bola tug'ilganda «yovvoyi sho'xlikka» xos bo'lish fikrini olg'a suradi. Shu bilan u tartib buzgan o'quvchilar uchun jarima jurnalini tashkil etishni taklif etadi.

U tartib buzgan o'quvchilarni ovqatsiz qoldirish, burchakka turg'izib qo'yish, kartserga qamash, jarimaga tortish kabi jazolashni turlarini joriy etadi.

Avtoritar tarbiyani birinchi bo'lib J.J.Russo tanqid qildi va o'zi erkin tarbiya nazariyasini ilgari surdi.

O'zbek maktablarida ta'lim-tarbiya bir-biridan ajralmas deb hisoblanadi. Sinfdagi har qanday ish doimo tarbiyaviy ishdur., biroq tarbiyaviy ishlarni ta'lim berish bilan cheklash mumkin emas.

Tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama o'stirish, uning ongi va xulq-atvorini tarkib toptirish jarayonidir.

Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir.

Tarbiya – tarbiyachi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchiga singdirish uchun tarbiyalanuvchining ruhiyatiga muayyan suratda ma'lum bir maqsadga qarata va muntazam suratda ta'sir qilishdir. Bu xildagi ta'rif tarbiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani, chunki: muayyan dunyoqarash, ahloq, ijtimoiy xulq-atvor qoidalarini singdirish, muayyan harakter va iroda, odat va ahloq yaratishni o'z ichiga oladi.

Tarbiya – shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki faoliyatni – o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his va tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy aloqalarga xizmat qiladigan xulqiy odatlari hosil bo'ladi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir.

Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoji va hohishlarini ifodalaydi.

Psixologlar va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (hoh ijobiy, hoh salbiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Bolaning shaxsiy tajribasi ehtiyojlari tashqi ta'sirga munosabatini belgilab beradi va uning xulqida aks etadi. Shuning uchun bola faoliyatini uyushtirishning o'zigina kifoya qilmaydi. To'g'ri tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qalbida paydo bo'layotgan munosabatni, turli xil kechinmalarni qanday anglashni, baholashni, his qilishni hamda ulardan o'zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganini bilish zarur. Yana shuni hisobga olish kerakki, bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar asosida ro'y beradi. Bola ulg'aya borishi bilan bu xil aloqa va munosabatlar murakkablashib boradi va bola shaxsning kamolga yetishida yo ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun tarbiya maqsadga muvofiq muntazam ta'sir etishni ko'zda tutadi, zero shu yo'l bilan jamiyatning shaxsga qo'yadigan talablari tarbiyalanuvchining hulqini idora qilib turuvchi ichki ehtiyojga aylanadi.

Tarbiya jarayonida o'quvchining onginigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayoni asosida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ishlarda) va irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jaaryonida) muntazam ta'sir etib boriladi. Agar o'quvchini tarbiyalashda bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Shuning uchun tarbiya jarayoni ko'p qirrali va murakkabdir. Maktabdagi tarbiya jarayoni to'xtovsiz davom etadigan jarayon bo'lib, unga o'qituvchi tarbiyachi rahbarlik qiladi va u tarbiyaning ayni vaqt uchun zarur bo'lgan maqsadini, shu maqsadni hal qilishga xizmat etadigan faoliyatini belgilaydi. O'quvchilarning shu faoliyatiga ishtirok etishini ta'minlab, ular o'rtasida ijtimoiy, jamoa va o'rtoqlik aloqalari va munosabati uchun sharoit yaratadi.

O'quvchilarni faoliyatda qatnashishlari orqali ularning mustaqilligi ijodiy tashabbuskorligi o'sib borishiga erishiladi. Ana shu jarayonda bolaning qarashlari, e'tiqodlari va voqea hodisalarga o'z nuqtai nazari vujudga keladi va mustahkamlanib boradi. Bular bolaning atrof-muhitning ta'siriga nisbatan qanday munosabatda bo'lishini belgilaydi.

Shunday qilib, maktabdagi tarbiya inson shaxsini tarkib toptirish va kamolga etkazish jarayonidan iborat bo'lib, uning mazmuni ta'limdagidek alohida predmetlarda emas, balki o'quvchilarning hayot-faoliyatlari va o'zaro munosabatlaridan tashkil topadi. Mana shulardan tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari kelib chiqadi.

Tarbiya qoidalari o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar yig'indisi hisoblanadi. Yetuk, barkamol insonni shakllantirish vazifalari va maqsadi bilan belgilanadi. Buni yanada tushunarliroq tarzda ifodalash mumkin.

Tarbiya jarayonlari o'qituvchining, o'quvchini hozirgi zamon uchun foydali fazilatlarni shakllantirishga, tarbiyaning mazmuni, shakli, metodlariga qo'yiladigan talablarni belgilab beradigan qoidalar yig'indisiga aytiladi. Tarbiya qonunlari Sharq, G'arb, Markaziy Osiyo va boshqa xalqlar faylasuflari, donishmandlari fikrlari hamda milliy pedagogikada erishgan yutuqlariga asoslangan. Tarbiyaning har bir qoidasi mustaqil bir pedagogik maqsadni nazarda tutmog'i, boshqa qoidalar bilan o'zaro aloqada yagona umumiy pedagogik maqsadni amalga oshirishga, ya'ni barkamol, yetuk insonni shakllantirishi darkor. Bu vazifani ro'yobga chiqarishda tarbiyaning xususiyatlarini hisobga olish va qonuniyatlariga rioya qilishi talab etiladi. Tarbiya jarayonida bu qoidalarga amal qilish uning samarasini oshiradi. Tarbiyaning mazmuni, tashkil etilishi, usullari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar tarbiya qonunlarida o'z aksini topadi.

Tarbiya qoidasi- pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar bo'lib hisoblanadi, yangi kishini shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari Sharq va Markaziy Osiyo faylasuf-donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiya qoidalari mustaqil

harakterga ega bo'lib, u tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini va qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda bu tamoyillarga rioya qilish uning samarasini oshiradi, yaxshi natijalarga olib keladi.

Tarbiyaning mazmuni, tashkil etilishi, metodlari va ularga qo'yiladigan talablar shu qoidalarda o'z ifodasini topadi.

Tarbiyaning mohiyati, mazmuni, qoidalari mamlakatimizda yangicha iqtisodiy munosabat sharoitlarining o'zgarganligi sababli kengayib bormoqda.

Tarbiyaviy jarayonni yaxshilash, uni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun deyarli barcha qoidalarni, metodlarni, g'oyalarni qaytadan ko'rib chiqishimiz, bola shaxsiga e'tiborni qaratishimiz, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanishimiz zarur.

Tarbiya qoidalariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi, tarbiyaning insonparvarlik va demokratiya, hayot bilan, mehnat bilan bog'liqligi, tarbiyada ilmiy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarining ustivorligi, tarbiyada o'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi qoidalari va boshqalar.

Tarbiyaning mohiyati, mazmuni, qoidalari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" talablaridan kelib chiqadi. Ana shu kadrlar sifati, mahorati, milliy va umumbashariy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan.

Tarbiyaning maqsadga qaratilganligi prinsipi

Tarbiyaning asosiy maqsadi, har tomonlama ma'naviy rivojlangan, aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Shunga ko'ra tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va metodlari shu maqsadga erishishni ko'zda tutadi.

Umumiy ta'lim maktabining asosiy vazifasi-shaxsning aqliy, axloqiy, his-tuyg'uli va jismoniy rivojlanishi, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish uchun imkoni boricha qulay sharoitlar yaratishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilarda milliy g'urur va milliy axloq odobni shakllantirishni ko'zda tutadi.

Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Ko'pincha bir necha maqsad va vazifa birdaniga bajariladi, bu esa ko'pincha o'quvchilar jamoasini aqliy va axloqiy o'sishini ta'minlaydi.

Maqsadga intilish va maqsad bir xil narsa emas. Yaxshi bir maqsad izhor qilingan bo'lsada, ammo bu maqsadni amalga oshirish uchun hech qanday ish qilinmagan bo'lishi mumkin. Shuning uchun aniq ravshan maqsadni amalga oshirishga harakat qilish lozim.

Shaxsning shakllanish manfaatlari har bir pedagogik tadbirni tarbiyani umumiy maqsadlari bilan ko'nikishni, uni rejali tarzda va qat'iy sur'atda amalga oshirishga harakat qilishni talab etadi. Yoshlarda jamiyatimiz g'oyalarining kuchiga ishonitirish, yangi jamiyatni barpo etishda o'z hissalarini qo'shishga, ijtimoiy-foydali mehnatda bevosita ishtirok etishga intilishni rag'batlantirish juda muhimdir.

Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganlik qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollarini ko'ra bilishga yordam beradi.

Har bir tarbiyaviy tadbir oldindan puxta o`ylangan, muayyan maqsadni amalga oshirishga buysindirilgan bo`lsa, uning g`oyaviy-siyosiy darajasini ko`taradi, tanlangan metod va vositalar maqsadga muvofiq keladi, ularning tarbiyaviy ta`siri yuqori bo`ladi.

Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya prinsipi

Umumiy ta`lim maktabi yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs o`z ishining ustasi bo`lgan o`qituvchiga muhtoj.

O`qituvchining bilim saviyasi, ma`naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi etakchi omillardan biridir. O`qituvchi yurish-turishi, xatti-harakati, kiyinishi, muomalasi bilan o`quvchi qalbiga kirishi, uni ezgulik sari yo`naltirishi kerak.

Tarbiyani insonparvarlashtirish-bu maktabning, o`qituvchi-tarbiyachilarning bola tomon yuz burishlari, uning shaxsini hurmat qilish uchun mumkin qadar yetarli sharoitlar yaratib berish, turli yosh bosqichlari ruhiy-fiziologik mustaqillikni hisobga olish demakdir.

Maktabda ruhiy xizmatdan foydalanish bolalar kayfiyatini, qiziqishini, intilishini va qobiliyatlarini aniqlash, ta`lim-tarbiya jarayoniga ijodiy yondoshishga imkon beradi.

Yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda muqaddas kitob «Qur`oni karim», «Hadis»i sharifdan foydalanish juda muhim. Mahmud Qoshg`ariyning «Devonu lug`atit turk», Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar»i, Sa`diy Sheroziyning «Guliston va Bo`ston», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning shoh asarlari, hikmatlari muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan maktabda o`quvchilarga gumanitar-ijtimoiy fanlardan ta`lim berishda tarbiyaga ko`proq e`tibor berish lozim. Ayniqsa, hozirgi sharoitda O`zbekiston tarixi, adabiyoti, madaniyati va boshqalarni o`qitish jarayonida bevosita tarbiyaga oid bo`lgan milliy ma`naviyatga, milliy ruh, urf-odat va shuningdek umumbashariy qadriyatlarga alohida urg`u berish zarur.

O`qituvchi o`quvchi qalbiga yo`l topish uchun bilimi va ishi bilangina emas, ayni paytda odob-axloq, madaniyati, rostgo`ylik va shirinsuxanligi bilan namuna bo`lishi lozim. Shundagina o`qituvchi va o`quvchi o`rtasida haqiqiy do`stona munosabat qaror topadi. Yaxshi o`qituvchi o`quvchilarning so`zini diqqat bilan tinglaydi, ularga dalda beradi, tinchlantiradi, to`g`ri baho qo`yadi, hammani teng ko`radi, bolalarni sevadi.

Tarbiyani demokratiyalash - bu ma`muriy ehtiyoj va qiziqishlardan shaxsning ehtiyoj va qiziqishlarini yuqori qo`yish, demakdir. Bu tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o`rtasida o`zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o`zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir.

Shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o`quvchilar o`rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e`tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo`lish lozim. Maktab osoyishtalik, insonga mehr-muhabbat beshigi bo`lishi lozim.

O`qituvchi o`quvchiga, avvalgidek, tarbiya ob`ekti emas, xuddi o`zi kabi sub`ekt deb qarashi kerak. Ya`ni o`quvchiga faqat mening buyrug`imni bajaruvchi emas, balki mening o`zim bilan teng huquqli, birga ishlovchi, hamkorlik qiluvchi deb qarashi kerak.

Bola butun qalbini darsga bag`ishlasa, uni og`ir ahvolga solib qo`ygan bo`lamiz, u faqat o`quvchigina emas, avvalo, rang-barang qiziqishlar, ehtiyojlar, intilishlarga ega bo`lgan inson.

Yaralangan qushcha qancha azob tortsa, g`ildirakchasi singan o`yinchok mashina ham xuddi shunday aziyat chekadi deb bilishi, bola ko`ngli bo`shligini emas, uning ko`nglida shafqat, ezgulik, go`zallik va insonparvarlik borligining nishonasidir.

Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyati va mazmunini qayta tafakkur etishni ko`zda tutadi, shaxsning rivojlanish va o`zligini anglash huquqini ta`minlaydi.

Tarbiyani hayot bilan, mehnat bilan bog`liqligi prinsipi

Qaysi davr, qaysi sharoitda bo`lmasin ota-bobolarimiz o`z avlodining har tomonlama komil insonlar bo`lishi uchun qayg`urganlar. Chunki jismonan baquvvat, aqlan sog`lom, ma`naviy yuksak, bilim va hunar sohibi, axloqan pok farzandlarga avlodning chinakam davomchisi, yurtning egalari, millat boqiyliги va boyligining ta`minlovchisi hisoblangan.

O`quvchilarni ona-Vatanni sevish, ardoqlash, uning farovonligi, gullab yashnashi, taraqqiyoti uchun sadoqat bilan xizmat qilish, ona-diyorning har bir qarich yerini, boyliklarini, tabiati va hayvonot dunyosini avaylab asrash, kelgusi avlodlarga qoldirish, ularni muqaddas, tabarruk deb bilish, ajdodlari tarixi, madaniyati bilan g`ururlanish hissini tuyish, milliy urf-odatlar, an`analar, qadriyatlar va udumlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash juda muhim.

Tarbiyani hayot va mehnat bilan bog`liqligi qoidasi o`quvchilarda jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni, shaxsda fuqarolik va ijtimoiy mas`uliyat hislarini rivojlantirishni, o`zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish yo`lida g`amxo`rlikni, ekologik tarbiyani shakllantirishni nazarda tutadi.

Maktabda o`quvchilarni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb qilish, ularda ijtimoiy faollikni rivojlantirishga imkon beradi. O`quvchilar jamiyatimiz to`g`risida olgan bilimlarni amalda qo`llash, ijtimoiy o`z-o`zini boshqarish organlarida faol qatnashish orqali hayotga tayyorlanib boradilar. Agar ular tevarak-atrofdagi turmushga beparvo bo`lsalar, ijtimoiy ishlardan chetda turuvchi tomoshabin deb his qilsalar, oqibat natijasida ularning ruhida bo`shanglik, loqaydlik hosil bo`ladi.

Bu qoidaning amalga oshirilishi o`quvchilarni turmushga, mehnatga, ongli ravishda kasb-hunar tanlashga har tomonlama tayyorlash uchun zamin yaratadi.

Bu qoida o`quvchilarni mamlakatimizdagi va chet ellardagi kundalik voqealar bilan muntazam suratda tanishib borishlari zarur, degan talabni ham bildiradi.

O`quvchilarning ishlab-chiqarish ilg`orlari, hurmatli kishilarni, mehnat faxriylari bilan uchrashuvlari, ijtimoiy foydali va unumli mehnatda bevosita

ishtirok etishlari ularni atrof-muhit bilan, mustaqil jamiyat qurilishi amaliyoti bilan tanishtirishda yaxshi yordam beradi.

O'quvchilarning qurilish maydonchalari, yig'im-terim guruhlar va brigadalari saflarida, hunarmandchilik, xalq amaliy san'atida, bemorlarni parvarishlash va nafaqaxo'rlarga xizmat ko'rsatish sharoitlarida, pochta (aloqa) ko'rsatish bo'limlarida, hovlilarni va ko'chalarni tartibga keltirishda, sanoat korxonalaridagi ishlarini alohida quvvatlamog' lozim.

O'quvchilar maktabda nafaqat katta hayotga tayyorgarlik ko'radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar. Tarbiyani hayot va mehnat bilan qo'shib olib borish qoidasi o'quvchilarni tevarak-atrofdagi hayot bilan tanishtirib borishni va o'zgartirishda o'quvchilarning qatnashishlarini talab qiladi.

Respublika bozor sharoiti shakllanayotgan hozirgi sharoitda o'quvchilarni hayotga va mehnatga yangicha munosabatli, layoqatli qilib tayyorlash lozim. Buning uchun o'quvchilarni davlat va jamoa xo'jaliklari dalalarida, tomorqa va ijara olingan yer maydonlaridagi unumli mehnatlarini tashkil qilish kerak.

Insonni mehnat qoidalari asosida tarbiyalash tarbiyaning asosiy qoidalaridandir. O'quvchini mehnat qoidasi asosida tarbiyalashning maqsadi mehnatning mazmuni, mohiyatini anglatishdan iboratdir. O'quvchi o'zi bajarayotgan mehnatning natijalarini ko'rsa, undan manfaat olsa, undan qoniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyalaydi. Mehnat jarayonida odamda do'stlik, ahillik, hamkorlik, o'zaro yordam, jamoa bo'lib ishlash, madaniyat, ma'naviyat singari sifatlar shakllanadi. A.N.Farobiy "Har bir o'quvchiga bekutilgan ma'lum bir ish bo'lishi kerak, toki u kishi o'ziga bekutilgan ishni kechiktirmasdan o'z vaqtida bajarsin" degan talabni qo'yadi (Risolalar 117-bet). Eng muhimi mehnat kishini muhtojlikdan, bekorchilikdan, yurak siqilishidan va axloqning buzulishidan saqlaydi. A.R.Beruniy "Har bir insonning qadr-qimmati uning bajaradigan mehnati bilan o'lchanadi", deb ta'kidlagan.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi prinsipi

O'quvchilarning umuminsoniy va Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, dunyoviy va diniy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish malakalarini oshirish, ularni tobora boyitish, estetik tushunchalarini shakllantirish juda muhimdir.

O'zbek xalqining madaniy merosini o'rganishda va rivojlantirishda milliy o'ziga xosligi, ma'naviy hususiyatlari hisobga olinib, xalq pedagogikasi an'alariga suyangan holda ish ko'rilishi maqsadga muvofiq. O'quvchilarda kishilik jamiyatiga muhabbatni tarbiyalash, ularni tabiat muhofazasi, madaniy yodgorliklarni saqlash ishlariga jalb qilish lozim.

Umuminsoniylik-bu barcha insonga xos bo'lgan, uning madaniy va milliy ko'p qirraliligidir, ya'ni, turli millat vakillariga hurmat, turli dinlar va boshqa madaniyatlarni o'ziga xosligini tan olish, qadriyatlarni hurmatlashni nazarda tutadi.

O'quvchilarga eng avvalo, o'z xalqining milliy-madaniy merosiga, tiliga, an'ana va urf-odatlariga, shuningdek, boshqa xalqlarning ma'naviy boyliklariga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalash lozim. Bunda uning bilim doirasini kengaytirishga, turli xalqlar madaniyati bilan tanishtirishga alohida ahamiyat

berishi zarur. Milliy qadriyatlardan: ona zamin tabiati, milliy xalq san'ati, an'analarining milliy estetik manbalari, sharqning jumladan, O'zbekistonning badiiy madaniyati, tarixi orqali o'quvchilarda milliy axloq an'analari ruhini shakllantirishda, milliy o'z-o'zini anglatishda, baynalmillik va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishda foydalanish dardkor.

Ma'naviy qadriyatlar va g'oyalar har xil millat o'quvchilarini birlashtiradi, o'quv va mehnat faoliyatlarini uyushtirishga yordam beradi. O'tmishga nazar tashlasak, xalq pedagogikasini bola tarbiyasidagi boy tajribalari hayotga to'la tadbiiq etilmaganligi, buyuk allomalarning pedagogik qarashlari, sharqona urf-odatlar, boy an'analar, hayotga joriy etilmaganligi tarbiya borasida talay qusurlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Xalqimizning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas.

O'zbek xalqi ko'p asrlik tarixiy taraqqiyotida katta madaniyatni yaratdi. U yaratgan boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ismoil-al-Buxoriy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Sa'diy Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Nizomiy Ganjaviy, Fariddin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali o'quvchilari go'zal axloq, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-matnat, mehr-shafqat, sihat-salomatlik, ota-onani hurmat qilish qoidalarini haqida keng tasavvurga ega bo'ladilar. Insoniylik o'z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini ya'ni, odamlar o'rtasida o'zaro yaxshi munosabatda bo'lish, do'stlik, ota-onaga sadoqatlilik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarini qamrab oladi. Xalqimiz bolalarning yoshligidan ana shu go'zal fazilatlarini tarbiyalashga ahamiyat berib keladi.

Maktablarimizdagi tarbiyaning mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar belgilashi lozim, ya'ni ta'lim-tarbiya mazmunida insonparvarlik, tenglik, xalqparvarlik, demokratiya g'oyalari ustivor bo'lishi lozim. Masalan, Oybekning «Navoiy», Abdulla qodiriyning «O'tgan kunlar», Abdulla Qaxxorning «Sinchalak» kabi asarlari milliy va umuminsoniy demokratik va gumanistik qadriyatlar nuqtai nazaridan o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Odob haqida Islomda ham ko'p ibratli gaplar aytilgan. Islomda tarbiya so'zi tabii so'zidan olingan. Bu degani odam o'ziga, qarindosh urug'lariga va umuman ta'sir doirasi etadigan jamiki kishilarga tabiiqlik, ahillik qilishi lozim. Islom odobida faqat insonni ezgulikka, xalollikka, axloqqa chaqiruvchi da'vatlar bor. Islom odobini esdan chiqarish, unga amal qilmaslikning oqibati nimalarga olib kelishini hayotning o'zi ko'rsatyapti. Millatning saodati, davlatning tinchligi va farovonligi avvalo yoshlarning tarbiyasiga bog'liq. Shuning uchun unutilayozgan ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash va kelgusi avlodlarga etkazish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

O'quvchilarni tarbiyalashning muhim qoidalaridan biri bolalarga nisbatan qattiq talabchan bo'lish va ular shaxsini hurmat qilishdir. Ajoyib pedagog A.S.Makarenko: "Mening asosiy pedagogik prinsipim hamisha odamga mumkin

qadar ko'proq talab qo'yish, shu bilan birga uni mumkin qadar ko'proq hurmat qilish bo'lib qolsin" – deb ta'kidlagan.

O'quvchilar g'amxo'r, mehribon va talabchan o'qituvchini sevadilar, hurmat qiladilar va unga to'liq ishonadilar. Mana shunday o'qituvchilarning bolalarga tarbiyaviy ta'siri ko'proq bo'ladi. O'qituvchi o'quvchiga nisbatan qattiq talabchan bo'lishi va qo'ygan talablarining o'quvchilar tomonidan so'zsiz bajarilishiga erishilmog'i lozim.

Tarbiyada o'quvchilarning yosh va individual hususiyatlarini hisobga olish prinsipi

Tarbiyaning mazmunini tashkil qiluvchi g'oyalar, talablar, maqsad va vazifalar ichidan o'quvchilarning yosh va individual hususiyatlariga muvofiq keladiganlarinigina tanlab olish juda muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, tarbiyachilar bola shaxsiyatiga monand metod topishlari, uning shaxsini shakllantirish uchun kerakli sharoit yaratishlari lozim.

Odamlarning qobiliyati va shaxsiy hususiyatlarini, individual harakterini oila, muhit, turmush sharoiti oldindan belgilaydi.

O'qituvchi bolalarni, ularning har birini tushunish mahoratiga ega bo'lishi kerak. O'z o'quvchilarini bilish va ular bilgan narsalarni bilish va har biri alohida va hammasi birgalikda bilishi mumkin bo'lgan narsalarni bilish o'qituvchi uchun zarur shartlardan biridir.

Tajribali o'qituvchilar o'quvchilarni kuzatadilar, ularni har tomonlama o'rganadilar, o'quvchini boshqalardan ajratadigan sifatlarni izlab topadilar va u boshqalarga qanday naf keltirishi mumkinligini aniqlaydilar.

Tarbiyaning mazmuni, shakli va metodlari bolalar yoshi va saviyasiga qarab turli sinfda turlicha bo'ladi. Masalan, boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarda o'qish, chizish, hisoblash malakalarini shakllantirish bilan birga ularning ongi, qalbiga tabiatni muhofaza qilish, yaxshilik- yomonlik, adolat-adolatsizlik, halollik-haromlik, go'zallik-xunuklik, mehribonlik-shafqatsizlik kabi tuyg'ularning oddiy qonun-qoidalari singdiriladi. Buning uchun ularni tez-tez tabiat qo'yniga olib chiqish, ularning o'zlari kuzatishlar olib borishlari kabi imkoniyatlar yaratish lozim.

Yuqori sinflarda esa shaxsning rivojlanishi va shakllanishi, uning ijtimoiy o'zligini anglashga bo'lgan istagi, qiziqishi va qobiliyatini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratiladi, kasbga yo'naltirishga e'tibor beriladi. O'quvchilar jamoasi ayrim shaxslardan iborat, Shuning uchun har bir bolaning o'ziga alohida pedagogik ta'sir ko'rsatilishi kerak. Buning uchun pedagog bolaning qanday oilada tarbiyalanganligi, u tarbiyalangan muhit ta'sirini, tengdoshlari, o'rtoqlari va kattalar qanday ta'sir ko'rsatayotganlarini, uning ijobiy va salbiy odatlarini, nimalarga qiziqishini va qobiliyati borligi va hokazolarni yaxshi bilishi kerak. Har bir bolaning o'zigagina xos hususiyatlarini aniq bilmay turib bolaga rejaviy ravishda, maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish mumkin emas.

Pedagogning bu qoidaga amal qilishi o'quvchilarning tushunishiga, ularning his-tuyg'ularini, tashvishlarini jiddiy qabul qilish va qadrlashga, ijobiy insoniy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. O'quvchilar ham o'z o'rnida o'zlarini inson sifatida anglaydilar va o'qituvchilarga hurmat bilan qaraydilar.

Pedagog tarbiya jarayonida bolalarning ijodkorligiga, ziyrakligiga, mustaqilligiga, bilish va ijtimoiy faolligiga keng yo'l berish kerak. Bolalar jamoasiga singdirilgan muomala harakteri har bir o'quvchiga haqiqiy insoniy tabiatni rivojlantirishga yordam berishi lozim.

Bu qoidani amalga oshirish bolalar faoliyatini mazmuni va shakllarini ularning yoshiga, hayotiy tajribasiga va imkoniyatlariga muvofiqlashtirishni talab qiladi. O'qituvchi o'z o'quvchilarida insoniy fazilatlarni tarbiyalash jarayonida ularning har biriga xos ravishda muomala qilish yo'lini topishi lozim.

O'quvchilarni tarbiyalashda ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Tarbiyaning mazmuni, shakli hamma yoshdagi bolalar uchun bir xilda bo'lavermaydi. Turli sinfdagi bolalarning yoshi va saviyasini hisobga olish asosida tarbiyaning vazifalari amalga oshirilib boriladi. Bolalarga beriladigan tarbiya mazmuni ularning yoshiga, kuchiga, tushunchasiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi lozim. Tarbiyada bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olishdan tashqari ularning individual xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Chunki ma'lum yoshdagi bolalar xususiyatida umumiylik bo'lishi bilan birga har qaysi bolaning o'ziga xos xususiyati ham bor.

Tarbiyada izchillik, tizimlilik tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizligi prinsipi.

Tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish tarbiyaning pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi. Bunda pedagogik maqsad va vazifalar, uning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashchilari tomonidan tan olinishi shart.

Shunga ahamiyat berish lozimki, amalda tarbiyaviy jarayon umumning ishi va uzluksiz bo'lsin. Tarbiyaning barcha tomonlari hamoxang bo'lsin.

Tarbiya ishida izchillik juda muhimdir. Tarbiyachi avvaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zining talabini unutib qo'ysa, yoki o'zi bu talabga xilof ish tutsa, bu hol tarbiyaga juda yomon ta'sir qiladi. O'qituvchi subutli; o'z lafziga sobit bo'lmog'i kerak. Masalan, «Ertaga kundaliklaringizni tekshiraman», «Oyoq kiyimlaringizni moylanganligini ko'raman» deb va'da berdingizmi, ijrosini unutmang. Pedagog biror tarbiyaviy tadbir uyushtirishni bolalarga va'da qilib, sal orada va'dasini esdan chiqarib qo'ysa, o'quvchilar bunday o'qituvchiga ishonmay qo'yadilar. Har bir pedagogning ishi bilan so'zi bir bo'lishi lozim.

Bolalarga birdaniga juda ko'p talab va qoidalarini takdim qilish mumkin emas. Bolalarga tarbiya va ta'lim berishda uzluksizlik va tizimlilikka rioya qilish kerak.

Hamma tarbiyachilar o'quvchiga bo'lgan munosabatlarida bir-birlariga zid harakatda bo'lmasliklari, bir xil, yagona talab qo'yishlari lozim. Tarbiyaviy ishda bunday izchillikka rioya etish juda ham muhimdir.

O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka rioya qilish, muomalani avvaligicha davom ettirish va bir xil talab qo'ish muvaffaqiyat qozonishning eng muhim shartlaridan biridir. Afsuski, amalda ba'zan oila maktabning talablarini qo'llab-quvvatlamaydigina emas, balki teskari ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar orasida ham talablarning bir xilligi hamisha

ta'minlanavermaydi. Tarbiya uzoq muddatli, murakkab jarayon, unda ota-ona, o'qituvchi, jamoatchilik va boshqalar qatnashadilar. Shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya etish, o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini, tarbiya metodlari va shakllarini o'z vaqtida aniqlab olish juda muhimdir. Bu qoida tarbiya ishida tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarning oila va maktab o'quvchilar va yoshlar tashkilotlari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari va ishlab chiqarish jamoalarining, keng jamoatchilikning hamjihatlik va bamaslahat ish ko'rishini ko'zda tutadi. Chunki, tarbiyaviy ta'sirdagi tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlamini qamrab olishi kerak. Aholi qatlamlarining tarbiya tizimiga jalb qilishdagi rang-barang shakl va metodlar ham ijtimoiy- iqtisodiy ham pedagogik jihatdan, nafaqat tub aholi, balki Respublikada istiqomat qilayotgan boshqa millatlar va elatlarning etpopedagogikasi sohasi jihatdan ham ta'minlanishi kerak.

Bolalarga bilim berishda ma'lum tartib, muntazamlilik qanchalik muhim bo'lsa, tarbiya ishlarida ham shunchalik muhimdir. Bolalarga insoniylik fazilatlarining hammasini birdaniga, bir yo'la va bir vaqtda singdirib bo'lmaydi. Shuning uchun bolalarda insoniylik fazilatlarini tarbiyalash ishida muntazamlilik juda muhimdir. Maktabning bir sinfida do'stlik, ikkinchi bir sinfda boshqa tarbiya amalga oshirilmaydi.

3.

Tarbiya jarayonidagi ziddiyatlar va uni harakatlantiruvchi kuchlar

Ichki qarama-qarshiliklar, masalan: o'quvchiga qo'yiladigan talablar bilan uning yetukliligi, bo'ldobliligi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yoki tashqi ta'sirlar bilan tarbiyalanuvchining ichki pozitsiyasi, ya'ni uning bu ta'sirlarga bo'lgan munosabati o'rtasidagi qarama-qarshilik tarbiya jarayonining manbai, harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi. Masalan: agar tarbiyachi bolalarga yangi faoliyat turini tavsiya qilgan taqdirda uning odobliligi, bu ishga kirishib ketishga tayyorgarligini hisobga olmagan bo'lsa, u qanchalik ko'p harakat qilmasin, tarbiyalanuvchilar passiv bo'ladilar, shuning uchun bu ishning o'quvchilarga ta'sir etish darajasi samarali bo'lmaydi.

Tarbiya jarayonining dialektikasi uning ziddiyatli ekanligida namoyon bo'ladi. Aslida bu narsa tarbiyalanuvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablar bilan ularning tayyorgarlik darajasi, rivojlanish darajasi o'rtasidagi qarama-qarshilikni hal etishga qaratilgandir.

Tashqi ziddiyatlar obyektiv mavjud bo'lgan normalar bilan atrofdagi kishilar yurish-turishi o'rtasidagi nomuvofiqlikda tafovutda namoyon bo'ladi. Tashqi ziddiyatlardan biri - tashqi talablar bilan o'quvchining xulq-atvori o'rtasidagi ziddiyatdir.

Maktab o'quvchilarining da'volari bilan uning shaxsiy imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyat ham ichki ziddiyatlar jumlasiga kiradi. Bu ziddiyatlar xulq-atvorda ravshan ifodalanadi. Va'da berib - va'dasini bajarmaydi, biror ishni boshlab qo'yib, oxiriga yetkazmaydi.

Insonning shaxs sifatida kamol topishidagi asosiy manbalardan biri: talablar bilan ularni qondirish usullari (sharoitlari) o'rtasidagi ziddiyatlardir. Agar

maktab o'quvchisining talablari tegishli ashyo yoki harakat bilan va zarur xajmda kondirilsa, ziddiyat ilk bosqichdayoq bartaraf etiladi.

Yosh avlodni tarbiyalash kishilik jamiyatining yashashi va davom etishining eng zarur shartidir. Jamiyatning odamga tarbiyaviy ta'siri uning ilk bolalik davridan boshlanadi. Bu ta'sir oila, maktab, jamoatchilik va xalq ta'limi tizimi orqali amalga oshiriladi. Tarbaya jarayoni tarbiyachilarining sistemali va rejali ta'sirini hamda tarbiyalanuvchilarning xilma-xil faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayot va faoliyatini pedagogik jixatdan to'g'ri uyushtirish juda muximdir.

Tarbiya jarayonining muhim xususiyatlaridan biri uning sistemali olib borilishi va bir maqsadga qaratilganlipdir. Masalan: mamlakatimizda komil insonni tarbiyalash uchun barcha imkoniyat va sharoit vujudga keltirilgan bo'lib, yosh avlod ilk bolalikdan to voyaga yetgungacha yasli, bog'cha hamda maktablarda mohir tarbiyachi va o'qituvchilar qo'lida tarbiyalanadi. Tarbiya jarayonining samarasi ham tarbiyachiga, ham tarbiyalanuvchiga bog'liqdir.

O'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash

Tarbiya jarayoni faqat o'qituvchi va tarbiyachi rahbarligida amalga oshirilmaydi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning o'zlari ham ishtirok etdilar, ya'ni ular o'zlarini-o'zlari tarbiyalaydilar. O'z-o'zini tarbiyalash insonning o'zida ma'lum fazilatlarni ustirishga qaratilgan ongli intilish va iroda kuchidir. "O'z-o'zini tarbiyalashga undovchi tarbiya ishonchim komilki, bu haqiqiy tarbiyadir". V.A.Suxomlinskiy "Tarbiya to'g'risida (32 – bet)

Har bir shaxs ijtimoiy muhit ta'sirida, jamiyat ta'sirida bir qator sifatlarni orttiradi. Odamda o'z-o'zini tarbiyalash faoliyat elementlari kichik yoshdan boshlanadi, bu ishga o'smirlik davrida ongli ravishda kirishadi va yigitlik davrida yanada rivojlanadi, chunki odamda o'z-o'zini tarbiyalashga intilish, o'z hatti-harakatini idora etish va baho berish qobiliyati vujudga kelgan vaqtda paydo bo'ladi.

Bolalardagi o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatiga albatta o'qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalar rahbarlik qilishi, ularning o'z-o'zini tarbiyalashini ko'zdan qochirmasligi va muayyan maqsad yo'lga solib yuborishi lozim. Bolalarning o'z-o'zini tarbiyalash ishida o'quvchilar jamoasi, jamoatchilik fikri ham katta ahamiyatga ega. Bolalar o'z-o'zini tarbiyalashda o'zlariga na'muna deb bilgan sifatlarni tanlaydilar va tahlil qiladilar.

Bola bilim olishdan avval taqlid qilishni o'rganadi (Komenskiy) bunday holatda kattalar albatta yordam berishlari kerak.

Agar o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar bolalarning o'z-o'zini tarbiyalashda qo'z-quloq bo'lib turmasalar, bolalar salbiy sifatlarni singdirib olishlari mumkin.

Tarbiya ishining yana bir tomoni, ya'ni ba'zi bir bolalarni qayta tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor berishdir.

Ayrim oilalarda bolalarga yoshlikdan noto'g'ri tarbiya berish natijasida ular g'oyatda intizomsiz, erka-tantiq, ish yoqmas, qaysar bo'lib qoladilar. Ular qayta tarbiyalashga muhtoj bo'ladilar.

Ba'zi tajribasiz, pedagogik mahoratga ega bo'lmagan o'qituvchilar bolalarga ta'lim va tarbiya berishda bir qator xatoliklarga yul qo'yadilar. Bunday xato va nuqsonlar oqibatida o'zlashtirmovchilik, intizomsizlik kabi hollap kelib chiqadi.

Atoqli mashhur pedagog A.S.Makarenko bolalarga mumkin qadar juda kichik yoshidan boshlab to'g'ri tarbiya berishga kirishish kerakligini, aks holda keyinchalik qayta tarbiyalash og'ir ekanini, bu ish ko'p kuch va bilim talab etishini ko'rsatib: "bolani qayta tarbiyalashga nisbatan uni to'g'ri va normal tarbiyalash ancha osondir" degan edi. Misol: bolalarning salom berishlari yoki kattalarning salom bermasliklari.

Yosh avlodni ijodkor, faol va fidoiy komil insonlar qilib voyaga yetkazish, ularni har tomonlama ma'lumotli va yuksak axloqiy fazilatli qilib tarbiyalash ishlari maktabda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. By jarayonda asosiy masala - o'quvchilar faoliyatidir.

Tarbiya jarayoni odatda qayta tarbiyalash, bolaning atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va o'z xususiyatlarini bartaraf etish bilan qo'shib olib boriladi. Eng yuqori darajaga erishadigan tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalashga muvofiq bo'lishdir.

Tarbiya uzoq davom etadigan va aslida uzluksiz jarayon bo'lib, bu jarayon bola maktabga kelishidan ilgariyoq boshlanadi va butun umr buyi davom etadi. Tarbiya ko'pgina sabablarga. o'quvchilarning individual – tipologik tasavvurlariga, ularning hayotiy va ma'naviy tajribasi, shaxsiy pozitsiyasiga bog'liqdir.

"Insonning shunday yuksak va qimmatli hislatlari bo'ladiki, ...aql kuchi moddiy manfaat kuchidan ustunlik qiladi, ana o'shandagina inson yaxshilikka intiladi. Ammo jamiyatda bunday kishilar juda ham kam, mabodo kishilar orsida bundaylari topilsa ham, ular yolg'izdirlar. Bordini manfaat aqlni zabt etib olsa, unda insonni albatta yomonlikka chorlaydi. Bunday odamni qayta tarbiyalamoq lozim", degan A.Navoiy va yana ... "Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa, xalqning do'stligi, ularning bir-biriga nisbatan bo'lgan mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi. Agar kishi odob va tavoze' (xokisor. bezavol) kabi xulqqa ega bo'lsa, o'zi ham xalqning izzat-hurmatiga sazovor bo'ladi", degan Maxbub ul-qulub asarida (48-bet).

4.

Pedagogik talab tarbiya jarayonida boshlang'ich usuli bo'lib, tarbiyalanuvchining muayyan faoliyatini rag'batlantirishni yoki to'xtatishni va aniq amaliy hamda insoniy sifatlarni namoyon qilishni ta'minlaydi.

Talab qilish usuli o'quvchilarning ko'pgina ahloqiy sifatlarini shakllantirishga yordam beradi, shu bilan birga tarbiyalanuvchilarda o'ziga nisbatan mas'uliyat va talabchanlikni rivojlantirishda alohida vazifani bajaradi.

Yagona pedagogik talablarni qarab chiqar ekanmiz, faqat bizning jamiyatimizdagina xalqning ma'naviy-siyosiy birligini mustahkamlashda pedagogik talab tarbiya jarayonining ta'sirchan usuliga aylanishi mumkin.

O'qituvchi o'quvchilar bilan ishlar ekan, ularni faoliyatini tashkil etar ekan, o'z ko'rsatmalari bilan o'quvchilarning ayrim harakatlarini rag'batlantiradi. O'quv

va tarbiyaviy ishlar jarayonida ularga muayyan mulohazalar bildiradi, tanbeh beradi yoki rag'batlantiradi, yakun yasaydi. Uning ayrim buyruqlari qisqa va lo'nda bo'lib, sezilar-sezilmas majbur qilishga o'xshab ketsa-da boshqalari achakeng tushintirish yo'l-yo'riqlar shakliga ega bo'ladi. Bir xillari o'quvchilarni faqat ishga jalb qilish zaruriyati tufayli, boshqalari bolalarning ayrim ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishga tuzatish kiritish ehtiyoji bilan vujudga kelgan; ayrimlari o'quvchilarning keraksiz va noto'g'ri harakatlarini to'xtatsa, boshqalari muvaffaqiyatli harakatlarni mustahkamlaydi va qo'llab quvvatlaydi. Pedagogning talabisiz o'quvchilarning o'quv va ijtimoiy foydali faoliyatini tashkil etishni tasavvur etib bo'lmaydi.

Tajribali pedagog bolalar huzuriga keng harakatlar dasturi bilan birga boradi., o'z tarbiyalanuvchilaridan har biri qachon nima qilinishini aniq muayyan tarzda biladi. Zero, talablar ana shu dasturni ularning ishlari va xatti-harakatlarida amalga oshirish vositasidir, xolos. Tarbiya jarayonida pedagogik talablarning asosiy turlari va shakllarini qarab chiqamiz.

Pedagogning talablari vositasiz talablar bo'lishi mumkin, bunda tarbiyachi ulardan muayyan harakatlarga erishishni kutadi.

Pedagogning talablari vositali talablar bo'ladi, bunda o'qituvchi o'z talablari bilan bolalarda o'z do'stalriga nisbatan navbatdagi talablarni keltirib chiqaradi. Talablarning asosiy shakllari, bu usulning u yoki bu shaklini tanlash pedagogik vaziyatni ikkita asosiy shartdan, ikki omilda vujudga keladi.

Birinchi omil – kimdan talab qilinsa, o'shaning talab qiluvchiga munosabatidir.

Ikkinchi omil – bu tarbiyalanuvchining pedagog rag'batlantiradigan faoliyatiga munosabatidir. Umuman olganda, bu munosabatlarni biz ijobiy, betaraf va salbiy munosabatlar deb ta'riflaymiz, holbuki amalda bu munosabatlarning juda ko'pdan-ko'p ko'rinishlari ham bo'lishi mumkin.

Endi talab shakllariga to'xtalib o'tamiz.

Talab to'ppa-to'g'ri bo'lishi mumkin, bunda o'qituvchining murojaati qat'iy, dadil ohangda ifodalangan aniq ko'rsatmaga ega bo'lishi mumkin.

To'ppa-to'g'ri talab o'quvchilar bilan ishlashning birinchi kunlarida ayniqsa ta'sirchan bo'ladi. Samimiy, oshkora, ishonarli, qizg'in va qat'iy talab bo'lmasa, tarbiyaviy jarayonni boshlab bo'lmaydi, binobarin, kimda-kim ikkilanuvchilardan berilgan va'dani shuvab ketuvchilardan ish boshlashni o'ylasa, u xato qilgan bo'ladi. Shuni ham aytib o'tamizki, to'ppa-to'g'ri talab ko'pincha o'quvchining pedagogga yoki u boshlangan faoliyatga betaraf munosabatda bo'lishi sharoitida ishlatiladi. Bunday vaziyatda to'ppa-to'g'ri, vositasiz talabning quyidagi qoidalariga rioya qilish ayniqsa muhimdir.

Birinchi qoida: odatda talab, ijobiy bo'lishi, ya'ni mutlaqo muayyan xatti-harakatni keltirib chiqarish, bolalarning u yoki bu harakalarini shunchaki ta'qiqlamasligi, to'xtatmasligi lozim.

Albatta, o'qituvchining ta'qiqlashlaridan ayniqsa o'quvchilar belgilangan xulq-atvor qoidalarini har-xil tarzda buzgan hollarda foydalaniladi. Biroq pedagoglar talablarning asosiy mazmunini ta'qiqlashlar tashkil etmaydi.

Ikkinchi qoida: to`ppa-to`g`ri talab yo`l-yo`riq tarzda, ya`ni bir xil ma`noli, aniq va tushinarli bo`lishi lozim. Dastlabki paytlarda o`quvchilarning yangi harakatlarini rag`batlantirganda talab yo`l-yo`riq berish bilan qo`shilib ketganday bo`ladi, ularni aniq ta`riflab beradi.

Uchinchi qoida: pedagog har qanday oqilona, aniq va tayyorlangan to`ppa-to`g`ri talabi albatta bajarilishi, oxirigacha etkazilishi kerak.

Shuni esda tutish kerakki, o`xshash pedagogik harakat qonunning namoyon bo`lishi natijasida har bir yangi talabning bajarilishi pedagogni keyingi talablarining kuchli va ta`sirchanligini oshiradi, o`quvchida tarbiyachiga aql-idrok bilan aniq bo`ysunish odatini shakllantiradi. Va aksincha: har bir bajarilmagan talab shundan keyingi talablarning samaradorligini pasaytiradi.

Talab mazmun jihatdan ham, shakl jihatdan ham rivojlanib boradi. Pedagogik vaziyat qandaydir o`zgarmas bir narsa emas. U yoki bu usullarni tatbiq etib, bolalar faoliyatida muvaffaqiyatga erishib, pedagog shu bilan birga vaziyatning zarur yo`nalishida rivojlanishni boshqaradi. Pedagog to`ppa-to`g`ri talablarni qo`yar ekan, bolalar bilan muayyan munosabatlarga kirishadi va ayni vaqtda ularda bajariladigan faoliyatga munosabatni shakllantiradi.

Vositali talablarda tarbiyachining maqsadi to`g`ridan-to`g`ri ifodalanmaydi, pardalangan shaklda bo`ladi va rag`batlantiruvchi omil sifatida faqat talabning o`zidan emas, balki psixologik omillardan-bolaning turli kechinmalaridan, his-tuyg`ularidan foydalanadi. Vositali talablarni uch guruhga bo`lish mumkin.

Birinchi guruh pedagogning tarbiyalanuvchiga bo`lgan ijobiy munosabatini ifodalash bilan bog`liqdir. Bular iltimos, ishonch, ma`qullashdir. Ularni ijobiy talablar deb ataymiz.

Ikkinchi guruh tarbiyachining bolalarga bo`lgan munosabatini yaqqol ifodalaydi, balki tarbiyalanuvchilarning rag`batlantiruvchi munosabatlarga asoslanadi. Bular maslahat, sha`ma, shartli talab va o`yin shaklidagi talabdir. Ularni bartarf talablar deb ham ataymiz.

Vositasiz talablarning uchinchi guruhi tarbiyalanuvchining faoliyatiga, uning u yoki bu axloqiy sifatlarning namoyon qilishga salbiy munosabatni namoyish qiladi. Bular – fosh qilish, ishonchsizlik bildirish va do`q qilishdir.

Iltimos – u pedagoglar bilan o`quvchilar o`rtasidagi do`stona munosabatlarni rivojlantirishga asoslanadi va umumiy ishda ularni hamkorligini amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Iltimos qilish muomalaning boshqa turlaridan shu bilan farq qiladiki, ishni bolaning o`zi batamom o`z hohishiga qo`yib beradi. O`quvchi har qanday vazifani pedagogning majbur qilishi orqali emas, o`z ixtiyori bilan bajarayotganini his qilsin.

Ishonch bilan talab qilish – eng kuchli tarbiyaviy vositadir. U inson faoliyatining qudratli omillarini harakatga keltiradi: o`zining boshqa kishilar uchun foydali ekanligini his qilish, o`rtoqlari ishonchini oqlash istagini paydo qiladi. Ko`pincha bu - ancha murakkab va mas`uliyatli ba`zan faxrli topshiriq bo`ladi.

Talab ma`qullash muayyan sifatda bolalar faoliyatining kuchli omiliga aylantiradi. Ba`zan tarbiyalanuvchi alohida murakkab vazifalarni hal qilishda qo`llab-quvvatlashga muhtoj bo`ladi, pedagogning ma`qullashi dastlabki qadamlardayoq uning muvaffaqiyatini ta`minlaganday tuyuladi, o`z kuchiga

ishonch uyg'otib, bundan keyingi intilishlar manbai bo'lib xizmat qiladi. Talab-maslahat-iltimos kabi, maslahatni ham majbur qilib, tiqishtirmaydilar, tanlash huquqi bolaning o'zida qoladi. Bu shakl ishga ongli munosabatni rivojlantiradi, pedagogni katta yoshdagi o'rtoq deb bilishga o'rgatadi. Uning obro'si keng bilimlarda, katta hayotiy tajribada, mahoratda yashirinib yotganligiga asosalanadi. Shu bilan birga maslahat – bu hamma narsani ipidan ignasigacha tasvirlab beradigan yo'l-yo'riq emas, balki ko'pincha yechimlarni mustaqil izlashga undashdan iboratdir.

Vositasiz talabning bu shakli yana shunisi bilan foydaliki, u bolalarni muayyan vaziyatlarda, ayniqsa qiyinchiliklarda o'quvchilar bilan maslahatlashishga o'rgatadi. O'z navbatida pedagoglar o'zlariga bolalar maslahat uchun murojaat qilishini qadrlashishini, o'zaro aloqani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Talab-sha'ma – bolalarni muayyan xatti-harakatlarga rag'batlantirishning yashirin shaklidir. Sha'ma ilgari ishlatilgan, yaxshi tanish bo'lgan talablarni, ma'nosi ochib berilmaydigan talablarni o'ziga xos shartli qisqartirishidir. Muayyan sharoitda sha'ma talabning «yashirin»shakli bo'lib, u faqat ikki kishiga ayon bo'ladi xolos. Boshqalarning diqqatini jalb qilmaydi.

Tarbiya jarayonida maqsadni amalga oshirish uchun foydalanadigan asosiy pedagogik talablarni shakli ana shulardan iborat u yoki bu talabning tanlash pedagogning o'zboshimchalik bilan ish ko'rishga bog'liq bo'lmay, balki, pedagogik vaziyatni qanday sodir bo'lishiga bog'liqdir.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Insonni shakllantirishda tarbiyaning o'rni qanday? Tarbiya nima?
2. Tarbiya jarayonidagi ziddiyatlar va harakatlantiruvchi kuchlarni o'qituvchi nima uchun bilishi darkor?
3. Tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalashni qanday tushunasiz?
4. Tarbiya qanday xususiyatlarga ega?
5. Tarbiya qoidolari va qonuniyatlari deb nimaga aytiladi?
6. Tarbiyaning qanday qoidolari mavjud va ular mazmunini siz qanday tushunasiz?
7. Bo'lajak o'qituvchi nima uchun tarbiya qoidalarini o'rganadi?
8. Sizningcha tarbiyada yana qanday qoidalar bo'lishi mumkin?
9. Tarbiya qoidalarining o'zaro aloqadorligi va birligini qanday tushunasiz?

6-mavzu: Tarbiya metodlari. Tarbiya turlari (ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, mehnat, ekologik, estetik, aqliy, jismoniy).

Reja:

1. "Tarbiya metodlari" tushunchasining mohiyati. Tarbiya metodlarining tavsifi.
2. Tarbiya metodlari klassifikatsiyasi.
3. Tarbiya turlari

Tayanch so'z va iboralar

Metod, ta'sir etish quroli, ongni shakllantirish, xulq-atvor, tajriba, rivojlantirish, jazolash, o'z-o'zini tarbiyalash, na'muna, ibrat, taqlid. Iqtisodiy ta'lim-tarbiya, hisob-kitob, iqtisodiy tafakkur, mablag'ni to'g'ri sarflash, isrof. O'z haq-huquqi sari intilish, qonun, huquq, bilim, tarbiya, Konstitusiyaviy himoy. O'z-o'zini idora qilish, milliy, umuminsoniy qadriyat, yaxshilik, yomonlik, mehnat qilish, baxtli bo'lishni istasa, mehnatsevar, hislar vositasida idrok etish, ichki va tashqi go'zallik, go'zallik qonuniyati, xulq-atvor, mehnat, turmush estetikasi, atrof-muhit, ijtimoiy muammo, milliy va mintaqaviy, umumbashariy, ekologiya, E.Gekkel, ekologik ong, madaniyat. Jismoniy mashq, jismoniy rivojlanish, chiniqtirish, mehnatga tarbiyalash, Vatan mudofaasi, jismoniy madaniyat, kayfiyat, ish qobiliyati va hokazo.

1.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida "yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy, tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etiladi", - (55-bet) deb alohida ta'kidlangan. "Qobil adamni tarbiya qilmaslik – zulmkor va noqobil odamga tarbiyani behuda sarf qilish xayfdir. Tarbiyangni ayab unisini nobud qilma, tarbiyangni bunisiga zoya ketkizma", - deb ta'kidlaydi A.Navoiy.

"Qayerda rag'batlantirish bo'lsa, umid shu tomonga yo'l oladi, qayerga don sepilsa, shu yerga qush qo'nadi", - degan Al-Buxoriy (Al-jomye as-saxix 114-bet).

Farobiy deydi: Muallim shogirdiga nisbatan o'ta hokimlikka ham yo'l qo'ymasligi lozim, chunki o'ta hokimlik shogirdga muallimga nisbatan nafrat uyg'otadi. Agar shogird muallimning bo'shlig'ini sezsa, unda muallimga va uning o'qiyotgan ilmiga nisbatan sovish va mensimaslik paydo bo'ladi, - deb ta'kidlaydi.

J.J.Russo "Agar siz bolalardagi sho'xlikni o'ldirsangiz, hech qachon dono odamlarni voyaga yetkaza olmaysiz", - degan fikrni bildirgan.

A.S.Makarenko "...Men ta'sir qilishning jismoniy metodiga qarshiman... Umuman jismoniy jazoni metod sifatida tan olmayman. Men jismoniy jazo foyda keltirgan biror bir oilani ko'rmadim", - degan.

Tarbiya metodlarida insonni har tomonlama kamol toptirish maqsadida bola ongi, his-tuyg'ulari, irodasi va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishga aytiladi. A.S.Makarenko tarbiya metodlarini insonga ta'sir ko'rsatishni quroli deb ta'riflagan.

Qimmatbaho marvarid donachasini oxirigacha parmalashda hadiksirab, ustalar uning bahosini tushunib yetmagan shogirdlariga berishadi. Shogirdlari butun borlig'i bilan ishga kirishib ketadi. Bunda ular qo'llari qaltiramay, qo'rqmasdan parmalashni davom ettirgan. Agar bu ishda xavfsirash bo'lsa, parmalash davomida biron bir tasodif bilan dur maydalanib ketsa, usta shogirdini shapaloq bilan tushurgan. Tarsaki zarbi ularni yaxshiroq, sifatliroq ishlashga ko'niktirgan. Dur tirmalanib bo'lgandan so'ng xavfli vaziyat o'tib ketgan.

A.R.Beruniy tarbiyachi bolalarga faqat nasihatgo'ylik qilmay, balki o'z xatti-harakati bilan namuna bo'lib ta'sir ko'rsatishi zarur", deb hisoblangan.

Bola o'qishni, tarbiya olishni istaydi, katta bo'lib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalashi lozimligini bilishi kerak. Shu bilan birga bola o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmaslik lozim.

O'qituvchi-do'st, murabbiy, yo'l boshlovchi bo'lgandagina o'quvchilar o'zlarining ichki olamlarini ochib ko'rsatadilar.

Yuqorida aytganimizdek, tarbiya tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar, tarbiyalanuvchilar-bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faol faoliyat ko'rsatmasalar, tajriba va bilim o'rgana olmaydilar.

Demak, tarbiya metodi tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir. Shaxsni shakllantirish maqsadida, bolaning ongi, his-tuyg'ulari, irodasi, xulq-atvori va munosabatlari tizimiga ta'sir ko'rsatish uchun tarbiya metodlari ishlatiladi. Ilmiy adabiyotlarda tarbiya metodlarini tarbiya usullari, deb ham yuritiladi.

Ta'lim metodlari, o'qituvchi sinfda birinchi marta sinf xonasini tozalash uchun shanbalik uyushtirmoqda. Bolalarga ish bo'lib berishdan oldin u lattani qanday qilib ho'llash, partalarni va polni artish haqida gapirib, ko'rsatib beradi. O'qituvchining so'zi bu yerda uslub bo'lib hisoblanadi. Metod va uslub bir-biri bilan o'zaro bog'liq va pedagogik jarayon mohiyatiga ko'ra bir-biriga o'tib turishi mumkin.

O'quvchilarning jamoa va individual faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qilish uchun tarbiya shakllaridan foydalaniladi. Masalan, sinf majlisi, yig'ilishi, ertalabki saflanish, klub ishlari va boshqalar.

Tarbiya vositalari biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi (ko'rsatmali qo'llanmalar, kitoblar, radio, televidenie). Yana o'quvchilar jalb qilingan faoliyat turlari ham tarbiya vositasi bo'lishi mumkin. Kinofil'mlar, san'at asarlari, o'qituvchining jonli so'zi, bolalar o'yini, mehnat, sport, badiiy havaskorlik, ijtimoiy va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari bo'lishi mumkin. Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi-tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Masalan, maktab kutubxonasi tarbiya vositasi bo'lishi uchun o'qituvchi va kutubxonachi yozuvchilar bilan uchrashuv, o'qilgan kitoblarni muhokamasini uyushtirishlari lozim.

Tarbiya natijasi tarbiyaviy jarayonning usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog'liq.

Tarbiyachilar ta'sir etishning bola shaxsiyatiga maqbul metodni, tanlab olishlari, uning shaxsini o'zgartirish uchun kerakli sharoit yaratishlari lozim.

Tarbiya metodlari har bir bolaga, bolalalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. Shunday qilib, tarbiya jarayonida o'qituvchi yakka o'quvchi yoki sinf jamoasi manfaati yo'lida biron-bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda ta'sir etishning turli-tuman metod, uslub va shakllarini majmuasiga tarbiya usuli deyiladi. Tarbiyaning metodlari, vositalari asrlar davomida shakllanib takomillashadi, o'zini oqlagan urf-odatlar an'anaga aylanadi. Binobarin, tarbiyada har bir xalqning o'z udumi, usuli tarixan shakllangan va tajribada sinalgan dunyoqarashi, tarbiya vositalari bo'ladi, shuning uchun tarbiya milliy va tarixiy zamindan uzilmasligi kerak.

Xalq pedagogikasining tarbiya metodlari

Xalq pedagogikasi chinakam o'zbekcha axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirgan. Unda turli xil tarbiya metodlari va vositalaridan foydalaniladi, bu metod, vositalar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p tomonlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Chunki bu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xima-xil tarbiya metodlari quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1. Tushuntirish (o'rganish, odatlantirish, mashq qildirish).
2. Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lish).
3. Nasihat berish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak- istak bildirish, ma'qullash, raxmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar).
4. Qoralash va jazo (ta'qiqlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlantirish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Agar sinchiklab qaralsa, yuqorida keltirilgan to'rt xil metod umum bir yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin bolaga umumiy manzara tushuntiriladi. Bolalar narsa va hodisalarga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna metodidan foydalanadi, yoshlarning mustaqil kuzatuvchanligiga e'tibor beriladi. Unda ham tushunmaganlar kattalarning nasihati, o'giti orqali narsa va hodisalarning mohiyatiga yetadigan bo'lishadi. Bordi-yu unda ham bolalar tushunishmasa, yoki tushunishni istashmasa, unda qoralash va jazolash metodlaridan foydalanishga to'g'ri kelgan. Lekin bu so'ngi chora ekanligini xalq yaxshi tushungan. Hozirgi zamon ilmiy pedagogikasi qoralash va jazoni so'nggi chora, aniqrog'i kam samara beradigan chora ekanligini isbotlagan.

Xalq pedagogikasining nodir namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, xasharlar, turli gurunglar (choyxona, to'y marosimlari) sayllar, turli nishonlashlar (tug'ilgan kunni nishonlash, yigitlar

bazmi, qizlar bazmi), musobaqalar, turli marosim va boshqalar o`ziga xos tarbiya vositasi vazifasini bajargan.

Inson qalbiga bugun ekilgan yaxshilik urug'i oradan o'n yillar o'tgach unib chiqadi, buni ilmiy asoslab oldindan ko'ra bilish kerak.

2.

Tarbiya metodlarini o`rganish, tahlil qilish, bu metodlardan pedagogik jarayonda foydalanish ko`nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruhga bo`lib olamiz: ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar, faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq va tajribalarni shakllantirish metodlari, o`z-o`zini tarbiyalash metodlari hamda rag`batlantirish usullari, jazolash metodlari.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar

O`quvchilarda qarashlar va e`tiqodlar tizimini shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg`ulari va irodasiga har tomonlama ta`sir ko`rsatadi o`z ifodasini topadi. Bu metodning mohiyati shundan iboratki, ularning vositasi bilan yosh avlodga nisbatan qilayotgan talablar bola ongiga yetkaziladi. "Odamni tarbiyalashning eng asosiy yo`li ishontirishdir, odamning e`tiqodiga esa faqat ishontirish bilan ta`sir qilish mumkin". K.D.Ushinskiy.

Bu guruhga o`quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e`tiqodni, ma`naviy va siyosiy g`oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari va irodasiga ta`sir ko`rsatish metodlari kiradi.

Bu guruh metodlarining mohiyati shundaki, ular orqali jamiyat o`quvchilar ongiga qanday talablar qo`yayotgani yetkaziladi. Yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko`maklashish maqsadida ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar ishlatiladi.

O`quvchilarda siyosiy onglik va ijtimoiy faollik, ya`ni davlatni ichki va xalqaro siyosatini tushunish va idrok qilishni tarbiyalash lozim.

Tushuntirish bu ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko`p ishlatiladigan metoddir. Tushuntirishning mohiyati o`quvchiga qo`yilgan talabni, voqealarni, harakatlarning ijtimoiy, axloqiy, estetik mazmunini yoritadi va o`quvchilarga duyoviy bilimlarni egallashda, ongli intizomni, yuksak madaniyatni milliy g`ururli qilib tarbiyalashda yordam berishdan iborat.

Tushuntirishda o`quvchilarga mamlakatimiz fuqarosining o`z davlatiga nisbatan huquqlar va burchlar bilan bog`langanligi, u yashash va axloq me`yorlariga ongli rioya qilishi, mehnat va jamoada faollikni, ma`naviy yetuklik haqida axborot beriladi. Bunda davlat bayrog`i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiya berishning ahamiyati katta. Shu sababli o`quvchilarga bayroq, madhiya, Konstitutsiya haqida tegishli ma`lumotlar beriladi.

O`quvchilarga xalq, davlat oldidagi fuqarolik burchi, ya`ni o`zining Vatan oldidagi huquq va burchlarini bilish, ularga qat`iy amal qilish, qonunchilik, umumbashariy axloq me`yorlari buzilishiga murosasiz munosabatda bo`lish tushuniladi.

Suhbat va hikoya. O`quvchi shaxsini g`oyaviy va axloqiy shakllantirishda o`qituvchining jonli so`zi eng ta`sirli metod hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu

tanlashda uning mazkur sinf uchun dolzarbligi, bolalarda axloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlarini va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish lozim.

Suhbat jonli, ommaviy, ishonarli bo'lishi katta ahamiyatga ega. Suhbat metodi sifatida o'quvchilarning hayoti, fan va texnika, etika-estetika va boshqa sohalaridagi tasavvur va tushunchalari doirasini kengaytirishga yordam beradi. Suhbat samarasini o'quvchilarning ijobiy yoki salbiy javoblariga qarab bilish mumkin.

Suhbat turli mavzularda uyushtirilishi mumkin: etik mavzular (kishilarning jamiyatdagi axloq mezonlari, o'zini tutish qoidalari), estetik mavzularda (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi), siyosiy mavzularda (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari), ta'lim va bilishga oid mavzularda (koinot, hayvonot dunyosi).

Suhbat davomida o'quvchilarning dilidagini aytish jasoratini uyg'otish, ularning fikrlarini tinglash, suhbatda faol qatnashishga erishish, ya'ni o'quvchilarni fikrlashga majbur qiluvchi savollar berish, mavzu bo'yicha o'z bilimlarini tahlil qilishga, tortishishga va haqiqatni anglashga erishishlari juda muhimdir.

Hikoya. O'quvchilar odatda hayotdan va badiiy adabiyotdan olingan aniq misollar bilan to'liq hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Ularga axloq mezonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tabiiy boyliklari, ajoyib mehnatkash kishilari, tarix, adabiyot, san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot, radio, televidenie, gazeta va jurnallardagi maqolalar ham qimmatli manba bo'ladi. Suhbat ham, hikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so'zlar orqali o'tkazilishi kerak. Eng yaxshisi, suhbat va hikoya mavzusini o'quvchilarning o'zlari tanlasin, bunda suhbatning zavqliligi ta'minlanadi, o'quvchilar mavzuga befarq qaramaydilar. O'qituvchi suhbat mavzusini oldindan e'lon qilib, masalan: mehnatsevarlik yoki rostgo'ylik, halollik mavzularida suhbat o'tkazish uchun mavzuga oid maqolalar, matallar va maqolalar to'plashni topshiradi, bunda o'quvchilarning o'tkaziladigan tadbirda faolliklari yanada ortadi.

Namuna. O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari, o'qituvchilari, ota-onalari, oilaning katta yoshli a'zolari va boshqalarning fe'l-atvor, yurish-turishida bolalarga yetarli darajada namuna ko'rsatishlari nihoyatda muhimdir.

O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa, katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O'quvchilar yaqin kishilarining xulq-atvoriga taqlid qiladilar. Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba'zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak, chunki qayerda bo'lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so'zi bilan yurish-turish va xatti-harakatlarida tafovut bo'lmasligi kerak. Katta yoshdagi kishilarning, o'qituvchi va

tarbiyachilarning bolalarga yaqin bo'lishlari, ularni o'zlariga moyil qila bilishlari, ular bilan yaqin aloqaga ko'nika olishlari ham ularning o'rnak bo'lishdagi kuchini oshirishga yordam beradi.

Respublikamizdagi ilg'or kishilarning hayoti va faoliyatidan olingan yorqin ma'lumotlar, adabiy asarlardagi, kinofil'mlardagi va spektakllardagi qahramonlar xatti-harakatidagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta'sir qiladi.

Maktablarda ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. O'quvchilar o'z otalari va onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan faxrlanadilar, ularga taqlid qilishga intiladilar.

Namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota-bobolarimiz o'z farzandlarini hamma yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan: "Qush uyasida ko'rganini qiladi". Juda oddiy ibora ostida qancha fikrlar jamlanib yotganligini hamisha ham faxmiga boravermaymiz. Bu bilan xalq, uyingda tartibli bo'l, aks holda bolang ko'chada tartibsiz bo'ladi. Bola oldida birovlarning g'iybatini qilma, bolang g'iybatchi bo'ladi, demoqchi.

Mashq va o'rganish A.S.Makarenkoning ta'kidlashicha, tarbiya - to'g'ri xatti-harakatga o'rgatuvchi mashqdan boshqa narsa emas. Mashq - bolalar hayotini oqilona bir maqsadga qaratiladi, har taraflama faoliyatini jamiyatda qabul qilingan normalar va qoidalarga muvofiq, tashkil etishdir. Mashq muayyan harakatlar va ishlarni ko'p marta takrorlashni o'z ichiga oladi. Bola uchun mashq - ongli ijodiy jarayondir. Mashqlar natijasida malaka va ko'nikmalar, odatlar, yangi bilimlar hosil qilinadi, aqliy qobiliyat rivojlantiriladi. *"O'yin sinchkovlik va qiziquvchanlik olovini o't oldiruvchi uchqundir"*, - degan V.A.Suxomlinskiy. O'quvchilar hayotida, ayniqsa boshlang'ich sinflarning o'quvchilari hayotida o'yin faoliyati katta o'rin tutadi. *"Bola uchun o'yin - voqelik, - deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - binobarin, uning tevarak atrofidagi voqelikdan ko'ra qiziqarliroq voqelikdir. U bolaga, xususan tushunarli bo'lgani uchun qiziqdir, o'yin bolaga shuning uchun tushunarliki, unda qisman bolaning o'zi yaratgan narsa bor"*.

Bola o'yinda qanday bo'lsa, u katta bo'lganida ishda ham ko'p hollarda o'shanday bo'ladi, deb bildirgan. Makarenkoning so'zlarida katta pedagogik mazmun bor. *O'yin - bolalar jamoaini jipslashtiradigan va rivojlantiradigan faoliyat turlaridan biridir. Bolalar o'yiniga e'tibor bilan razm solinsa, ularning o'yinlarida kattalar dunyosi qanday aks etishini qanday bilib olayotganliklarini ko'rish mumkin.*

Bola uchun mashq - ongli, ijodiy jarayondir. Mashqlar natijasida malaka va ko'nikmalar, odatlar, (tajriba) bilimlar hosil qilinadi, aqliy qobiliyat rivojlantiriladi. K.D.Ushinskiy tarbiyaning vazifasi xarakterni shakllantirishdan hamda hayotda hosil qilingan e'tiqod va odatlardan tarkib toptirish deb hisoblagan. **Odat**, Ushinskiyning fikricha, *E'tiqodni maylga aylantiradigan va fikrni ishga aylantiradigan jarayondir.* Odat - odamning ikkinchi tabiati, lekin tarbiya san'atiga bo'ysunadigan tabiatdir.

**Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini
shakllantirish metodlari**

Bola rivojlanishining, uning o`zligini belgilashning asosiy omili-bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtai nazaridan yondoshish qoidasi maktab hayotining hamma jabhalarida ta`lim-tarbiya jarayonlariga singib ketadi.

Faoliyat o`quvchilarning bilimlarini mustaqil egallashga undaydi, ularni qaysi ixtisosga moyilliklarini aniqlashga, ijodiy faoliyat tajribasini, hissiy qadriyat munosabatlarini o`zlashtirishga yordam beradi, ularning mustaqilliklarini oshiradi.

O`quvchilarni birinchi sinfdan boshlab qo`llaridan kelgan ijtimoiy foydali mehnat bilan shug`ullanishlariga erishish lozim. Bunday mehnat ko`pchilik, jamoa bo`lib bajarilganida yaxshi natija beradi.

Mashq va o`rgatish metodlari

Mashq bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikda tarkib topadi va keyin mustahkamlanib boradi. O`qituvchilar, ota-onalar bolalarda ijobiy odatlar shakllanishini kuzatib borishlari kerak. O`quvchilar odatlarni yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular orqali hosil qiladi. Odat ehtiyojga aylanadi. Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko`p marotaba takrorlashni o`z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o`quvchi uchun ongli, ijodiy jarayondir. Mashq natijasida ko`nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o`quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, axloqiy tajribasi kengayadi. Odatsiz tarbiya-poydevorsiz binoga o`xshaydi, odat esa muntazam mashq orqali mustahkamlanadi.

O`rgatish-ijtimoiy xulq-atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning bajarishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

O`rgatish bir necha izchil harakatlar yig`indisidir. O`qituvchi bu harakatlarni ko`rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim (sinfdan navbatchilik qilish).

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xillari mavjud: faoliyatda mashq qilish; kun tartibi mashqlari, maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoadagi faoliyat va o`zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari maktabda, oilada o`rnatiladigan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog`liq o`z istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo`sh vaqtdan to`g`ri foydalanish odatiga o`rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq, malaka va ko`nikmalarini hosil qiladi va mustahkamlaydi.

Topshiriq. O`quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo`lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. O`quvchilar o`z kuchlarini umumishga sarflashga, jamoa uchun mas`uliyatni his etishga o`rganadilar. Mehnat qilish bolani harakteri va irodasini o`stiradi.

-Bola faoliyatining shakllanishida burchga mas`uliyat hissini tarbiyalash lozim.

-O`quvchilar hayotiy faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilishi zarur, qiziqarli, to`laqonli, bolalar yosh jihatlariga mos hayot iqlimini yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy-fodali, ijodiy, ko`ngilochar va shunga o`xshash tadbirlar tashkil etilishi lozimligi, natijada o`quvchilar o`zlari yoqtirgan ishga qo`l ursinlar, muvaffaqiyat hissini tuyib, o`zlariga ishonchlari ortsin, axloqan barqaror bo`lsinlar. Sinfdan tashqari ishlarda o`quvchilarning bo`sh vaqtlarini

jamoa foydasi uchun ommaviy, guruh, alohida shakllari va uslublari orqali tashkil etish mumkin. To'garak, klub ishlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar, yigit va qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Pedagogik talab. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim metodlaridan biridir. Talab turli vazifalarni bajarishi, ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalashi, u yoki bu faoliyatda bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi, turli ko'rsatma sifatida namoyon bo'lishi, u yoki bu harakatlarga undovchi bo'lishi mumkin.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari

Pedagogika darsligida 1990 yil olimlaridan V.A.Slastenin, S.P.Baranov, L.R.Bolotinalar o'z-o'zini tarbiyalash metodlari tarkibiga o'quvchilarning shaxsiy majburiyat olishlari, o'z ishlari haqida hisobot berishlari, o'z harakatlarini tahlil eta bilishlari, o'z-o'zini nazorat eta olishlari hamda o'z-o'ziga baho bera olish kabi usullarni tavsiya etganlar. Inson insonni va insoniylikni qanchalik ko'p tushunsa, shuncha ko'p darajada o'z-o'zining tarbiyachisi bo'lib yetishadi. *O'z-o'zini tarbiyalashga undovchi tarbiya ishonchim komilki* - degan edi mohir pedagog V.A.Suxomlinskiy - *bu hahiqiy tarbiyadir*.

O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni o'zi ustida ongli, batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo'ladi. O'quvchilarni, ayniqsa o'rta va katta o'quvchilarni o'z bilim va malakalarini mustaqil oshirish va erkin fikrlashga yo'llash kerak. O'quvchilar o'qishda, tarbiyada, dam olishda o'z-o'zini tarbiyalash usullaridan foydalanadigan. O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchini tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi. O'z-o'zini tarbiyalash sifatleri bola bunga tayyor bo'lganda, u o'zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mustaqil faoliyat ko'rsata boshlagan vaqtda paydo bo'lidi. O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj, ya'ni o'z ustida ongli, batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo'ladi. O'quvchilarni, ayniqsa, o'rta va katta yoshdagilarni o'z bilim va malakalarini mustaqil oshirishlariga yo'llash kerak.

O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchilarning o'z-o'zini idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy-faollik mavqeini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar o'qishda, tarbiyada, dam olishda o'z-o'zini tarbiyalash metodlaridan foydalanadilar, o'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

Maktabda o'quvchilarning mustaqil faoliyati, ishi pedagogik jamoa bu ishga tayyor bo'lsagina o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro chuqur hurmat, xayrihohlik, ishonch bo'lgan sharoitdagina tashkil topishi mumkin. Barcha o'z-o'zini idora qilish tashkilotlari o'z faoliyati yuzasidan vaqti-vaqtida hisobot berib turishi, so'z bilan ish birga saqlanishi, har kim huquqlari va vazifalarini bajarishda ijtimoiy rag'batlantirilishi e'tiborda bo'lishi kerak.

O'z-o'zini tarbiyalash sifatleri bola bunga tayyor bo'lganda, u o'zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mustaqillik ko'rsata boshlagan vaqtda paydo bo'ladi. o'z-o'zini tarbiyalashda (axloqiy, jismoniy, hissiy-irodaviy va intellektual) maslahat va ko'rsatmalar berilishi lozim. Bunda o'quvchilarning

o'zlariga xatti-harakatlariga tanqidiy ruhda munosabatda bo'lishga o'rgatish juda muhimdir. O'quvchilar o'zlari muayyan vaqtda belgilangan vazifalarni baholash uchun majburiyat oladilar va ularni kun tartibiga yozib qo'yadilar.

Shundan keyin vaqti-vaqti bilan o'zlari va ota-onalari oldida olgan majburiyatlarini bajarilishi haqida hisobot beradilar. Bu esa ularning o'z xatti-harakatlari uchun javob berishga, mas'uliyatlarni his etishlari uchun yordam beradi.

O'z-o'zini tahlil qilish. O'z shaxsini tahlil qilishga, xatti-harakatlari haqida o'ylashga o'rgatadi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun o'quvchi o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarini ortib borish va aksincha, salbiy odatlarni kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O'z-o'zini baholash. O'quvchining qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlash zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin o'quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Buning uchun irodali bo'lishi, o'zining o'quvchilik ijtimoiy burchini tushunishi, o'qish va tarbiya olish uchun sabablar, motivlar asos bo'lishi, ya'ni tahsil va tarbiyalanishni hohlashi, o'zini o'rtoqlarining, yaqin kishilarining ko'zi bilan ko'rish va o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi lozim.

O'z-o'zini baholash o'quvchi uchun o'zining imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, baholash, o'ziga chetdan turib holisona baho berish, o'zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

Rag'batlantirish va jazolash metodlari

O'quvchilarni tarbiyalashda rag'batlantirishning o'rni katta. Rag'batlantirish o'quvchining ruhini, kayfiyatini ko'taradi, ularni tetiklantiradi, g'ayratiga g'ayrat qo'shadi, o'z kuchiga ishonchini orttiradi. Maktab tajribasida rag'batlantirishning turli shakllari qo'llaniladi: ma'qullash, ko'ngilni ko'tarish, ishonch bildirish, maqtash, yozma tashakkur, mukofotlash. Bundan tashqari jamoat tashkilotlari faoliyatida raqbatlantirish shakllari mavjud,

Ma'qullash: boshni qimirlatib ma'qullash yuv va qo'l harakatlari bilan "balli", "barakallo", "rahmat", "juda soz" kabi so'zlar orqali.

Ko'ngilni ko'tarish, dalda berish ba'zan o'qishda va ishda muvaffaqiyatsizlikka uchragan paytda o'quvchilar ko'nglini ko'tarish va dalda berish kerak bo'ladi.

Ishonch bildirish. O'quvchi kuchi yetadigan biror vazifani topshirish. Masalan, nazorat ishini yig'ishtirish va h.k.

Qayd etish. O'quvchilar xulqining yaxshilanib borayotganligini qayd etish. Devoriy gazeta, maktab uzeldida va h.k.

Maqtash. Kishini maqtash juda foydali deydi M.Gorkiy, - chunki bu narsa uning o'ziga bo'lgan hurmatini oshiradi, o'z kuchiga ishonchni orttiradi. Sinf yig'ilishi, hurmat daftariga, maktab hurmat taxtasiga yozish, rasmini qo'yish shakllari ham mavjud.

Mukofotlash. Yoshma tashakkur va minnatdorchilik xatlari.

O'qituvchi bolalarning har biri o'sib, ulg'ayib, kamol topib borayotganidan xursand bo'layotganini sezishi kerak. Faqat shundagina bola o'zining olg'a siljib borayotganini ko'ra biladi, o'z-o'ziga, o'z kuchiga ishonadi. Uni hurmat qilishadi,

unga ishoniladi, unga quloq solishadi, u jamoaga kerak, u o'qituvchini qiziqtiradi, ular bir-birlariga ishonadilar. Bunga erishish uchun rag'batlantirish usulidan foydalanish lozim. Chunki rag'batlantirish bolaga ishonishga, unda bo'lgan qobiliyat va fazilatlarning kuchini e'tirof etishga asoslangan. Rag'batlantirish o'quvchining ko'nglini ko'taradi, quvonch keltiradi, yanada yaxshiroq bo'lishga intilishga yordam beradi. Maktablar tajribasida rag'batlantirishning quyidagi turlari qo'llanadi:

1. O'quvchining kuchi etadigan, mas'uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish; bunda o'quvchi o'z qadr-qimmati bilan faxrlanadi;

2. Maqtash (ota-onalar, bolalar jamoasi oldida);

3. Esdalik sovg'asi (kitob, ruchka, o'quv asbobi va boshqalar);

4. Maqtov yorlig'i berish;

5. Stipendiya bilan taqdirlash;

6. Hurmat taxtasiga fotosuratni qo'yish;

7. Ma'suliyat va jamoaning minnatdorchiligi;

8. Safda birinchi o'rinda turish;

9. Musobaqalarda bayroq ko'tarish;

11. Gazeta-jurnal va radio-televizioniyelarda e'lon berish.

Har qanday rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanishi lozim. Ya'ni rag'batlantirish haqiqiy xizmatga muvofiq bo'lishi, ketma-ket bo'lmasligi, haddan oshirib maqtash, boshqa o'quvchilarga taqqoslab, ularni kamsitishga yo'l qo'ymaslik, rag'batlantirishga bo'lgan talabchanlikni bo'shashtirmaslik va hokazo.

O'quvchilarni tarbiyalash metodlari orqali **majbur etish, jazolash** tadbirlari ham mavjud. Turli odobsizlik, jaholatlardan o'zini tiyish, o'zini tuta bilish faqat ishontirish yo'li bilan emas, balki majbur etish va turli jazo choralari qo'llash yo'li bilan ham tarbiyalanadi.

Maktabda qo'llanadigan jazo choralari: o'qituvchi, sinf rahbari, maktab direktori va o'rinbosarlarining tanbehi, parta sinf doskasi yoniga tikka turkizib qo'yish, bajarilmagan topshiriq yoki uy ishini darsdan so'ng bajartirish uchun olib qolish, pedagogika kengashiga chiqarish xulqiga quyilgan bahoni pasaytirish, sinfni iflos qilgani uchun uni tozalashga majbur etish, bir sinfdan boshqa sinfga va maktabga o'tkazish va h.k. Bundan tashqari do'q-po'pisa qilish, uyaltirish-qizartirish, qoplash yo'llari ham qo'llaniladi.

Jazolash-bu tarbiyalanuvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo ham o'quvchining va butun sinf manfaati uchun qo'llanadigan oxirgi tarbiya metodi. Jazo choralari qo'llashda jismoniy jazo: urish, kaltaklash mumkin emas, bolani qo'rqitish, g'azablantirish ham yaxshi natija bermaydi, o'quvchi qo'rqqanidan yolg'on gapirishga o'rganadi, ikkiyuzlamachi bo'lib qoladi.

Maktablarda qo'llashi mumkin bo'lgan jazo choralari quyidagilar kiradi:

Tanbeh berish eng yengil jazo chorasidir. O'qituvchi bolaga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

Ogohlantirish-noma'qul xatti-harakatlarning oldini olish uchun qo'llaniladi.

Hayfsan berish-agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni buzaversa, o'quvchining aybi qay darajada va uning intizomni qanday sharoitda buzganini e'tiborga olib, unga hayfsan e'lon qilish mumkin.

Uyaltirish-qizartirish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-hayodir. Odatda odamda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, avvalo o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu hislarni ehtiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Jazo yaxshi o'ylab qo'llanishi lozim, qiziq ustida tinimsiz jazolash ham mumkin emas. Jazolar yakka harakterli, ya'ni bitta bo'lsin, o'quvchilarning aybiga mos, muvofiq bo'lsin, tez-tez qo'llanilmasin, jazolanuvchi ongida jazoni haqqoniy ekanligi aniq bo'lsin va ular o'z ayblarini sezsinar. Jamoada muhokama qilish va jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlangan jazo berilsa, uning ta'sir kuchi yana oshadi. Barcha hollarda ham jazo tarbiyalanuvchining jismoniy va ruhiy azob-uqubatlarga solmasligi, uni taxqirlamasligi, sha'nini bukmasligi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida ta'riflab berilgan tarbiyaning umumiy metodlari o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini hammasini qamrab olmaydi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib boradi, shuning uchun tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

Tarbiyaning metodini muvaffaqiyatli qo'llanishiga, bu metod mazkur sinf jamoasining tarbiya tizimidan qanchalik o'rin olganiga, qo'llanilayotgan tarbiya vositalari qanchalik javob berishiga bog'liqdir.

3.

Iqtisodiy tarbiya

Bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan bir paytda yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash ayniqsa juda muhim. Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni vaqtda shu kabilar haqida fikrlay olish qobiliyatini kamol toptirishdir. Iqtisodiy tarbiya mazmuni Sharq mutafakkirlari tomonidan asosli boyitib kelindi. Chunonchi, Muhammad Ibn Suso Al-Xorazmiy matematika fani inson hayotida asosiy o'rin tutishini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, kishi hisob ilmini bilishi va o'z ishiga pishiq bo'lishi kerak. Shunda u o'z mehnatining natijalarini o'lchovlar orqali aniqlay olishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da: «Ta'limning barcha darajalari ta'lim oluvchilarning iqtisodiy ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish», zarurligi (45-bet) a'lohida ta'kidlangan. Barkamol inson avvalo iqtisodiy tarbiya olmog'i shart. Chunki iqtisodiy tarbiyasiz, unga bog'liq ko'nikmalarsiz, odatlarsiz haqiqiy mukammal inson bo'lishi mumkin emas. U eng avvalo o'z mehnati va boshqalar mehnatini qadrlaydigan, uni hayotda tadbiq qilishning ta'limiy asoslarini ilmiy bilmog'i zarurdir. Iqtisodiy tarbiya iqtisodiy ta'lim negizida quriladi. Tarbiya esa kundalik turmushda yuqoridagi sifatlarni qo'llash jarayonida o'z ifodasini topadi. Bu muammo esa boshlang'ich sinf

o'quvchilarida o'ziga xos tarzda, ya'ni sodda shaklda tashkil etiladi. Chunki kichik o'quvchilarda iqtisodiy ma'lumotni, madaniyatni, ongni, ko'nikma va odatlarni birdaniga tarkib toptirish mumkin emas. Shuning uchuk kichik o'quvchilarda dastlab iqtisod haqida tasavvur, tushuncha va ularni turmushda qo'llash bilan bog'liq ko'nikmalarni tarkib toptirish muhim vazifa hisoblanadi.

Kichik o'quvchilarning barkamol insonga xos bo'lgan iqtisodiy bilimlari bosqichma-bosqich ular yoshining ortib borishi bilan uzviy bog'liq holda tashkil etiladi. Iqtisodiy ong, madaniyat birdaniga tarkib toptirilmaydi. O'quvchilarning bu sohadagi tasavvurlari bevosita ta'lim jarayonida tarkib toptirilib borishni talab etadi. Bunday mas'uliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasiga to'g'ri keladi. Bu ish boshlang'ich ta'limning to'rt yillli davrida amalga oshiriladi.

Tejamkorlik. Abu Nasr Forobiy «Baxt-saodatga erishish haqida» asarida shunday yozadi: «Inson o'z mablag'ini to'g'ri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchilik qilish, xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaklaydi». Ko'rinib turibdiki Sharq mutafakkirlari maktab va oila sharoitida bolalarning iqtisodiy tafakkurini kengaytirish, ularni tejamkorlikka, tashabbuskorlikka, ishbilarmonlikka, iqtisodiy hisob-kitobga o'rgatishni hayotiy tajriba asosida amalga oshirish lozimligiga asosiy e'tiborni qaratganlar.

«Ey farzand, o'zingni mol jam etmoqdan g'ofil tutmag'il va lekin har narsani etmak tilasang jahd qilg'il, toki halollik bila jam bo'lsin va hamisha senga boqiy hamda yoqimli bo'lsun. Agar moling ko'p bo'lsa, uni taqdir va tadbir bila ishga yaratg'il. Nedinkim, taqdir va tadbir bila yaratgan ozgina mol taqdirsiz va tadbirsiz ko'p moldin yaxshidur. Agar mol oz bo'lsa, ham yaxshi saqlamoqni vojib bilg'ilki, har kishi oz narsani saqlay olmasa, ko'p narsani ham saqlay olmag'uvsidir. Har narsa qo'lingga tushsa, bir tangadin ikki hissani qarilig' va ojizlig' vaqtining zaruriy ishlariga ehtiyoj uchun ehtiyot qilib qo'yg'il, va undin ko'z yumib aslo unga qo'l urmag'il. Qolgan ikki hissani o'zingning ziynat va asbobingga sarf etgil» (Qobusnoma. 70-72 bet).

«...Olamdagi hamma millatlarning hol va qudratlari mol va boyliklari ila o'lchanur» - deb Abdulla Avloniy o'rinli ta'kidlagan. (A.Avloniy. Toshkent tongi. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyati. T., 1979 y, 267-bet).

Xalq ongiga singib ketgan «Iqtisod bilan ishlagan kishilar faqir bo'lmaslar» degan hadis bor, unga quyidagicha izoh berish mumkin: «Kirimiga qarab chiqimini tuta bilmagan kishi bor davlatini bitirib, oxiri xo'rlikka tushgani holda, kirimiga qarab chiqimini tuta bilgan kishi boy bo'lmasada, o'zini faqirlikdan saqlay oladi». (Yuz bir hadis. T., «Mehnat», 1991 y, 38-bet). Demak, iqtisodning yaxshi yoki yomonligi tejamkorlik bilan bevosita bog'liqdir. Bas, shunday ekan bolaga oilada iqtisod, kirim-chiqim mohiyati haqida ta'lim-tarbiya berish kerak.

Donolar debdurlarki: «Harakat qiling to obodon bo'lg'aysizlar va ozga qanoat qiling, toki mollaringiz ko'p bo'lg'ay, yumshoq tabiatli va shirin so'zli bo'ling, do'stiniz ko'p bo'lg'ay».

Markaziy Osiyolik olim Rozouddin ibn Faxriddin odob-axloq tushunchasiga oid «Kattalarga nasihat» asarining so'nggi qismi «Butun a'zolaringizni gunohlardan saqlang, deyiladi unda, - insof, adolatni o'zinizga rahbar qilib oling.

Pul, mol dunyongizni tejab sarf eting, isrofgarchilikka yo'l qo'ymang. Birovdan qarzдор bo'lsangiz, va'da qilg'an kuningizda topshiring», deb ta'kidlanadi Qobusnomada. Haqiqatdan ham inson mol, mablag', boylik uchun o'zini xavf-xatarga qo'ymasligi shart. Albatta har bir inson uchun mol, mablag', boylik zarur, bu hayotning talabi. Ammo uni topishda O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga va boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan qoidalarga rioya qilish oilaning, davlatning, jamiyatning rivojlanishiga to'siq bo'lmasligi darkor. Bu sohada tadbirkorlik, tashabbuskorlik, halollik, adolat, xalq, davlat manfaatlaridan kelib chiqib amalga oshirilsa samarali natijalar keltiradi. O'quvchilarga iqtisodiy tarbiya avvalo dars jarayonida singdiriladi. O'qituvchi qaysi sinfda qaysi predmetdan dars berishidan qat'iy nazar o'rganilayotgan materialning mazmunidan, uning xususiyatlaridan kelib chiqib, o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim, tarbiya elementlarini singdirib, kerakli ko'nikma, odatlar haqida ma'lumot beradi. Yoki maktabdan tashqari biror zavod yo fabrika yo korxonada ishlab chiqarish jarayoni bilan o'quvchilarni tanishtirish orqali ularning mazkur sohalar bo'yicha tasavvur, bilim, ma'lumotlarini takomillashtiradi. Qaysi soha bo'lmasin u davlatning, kishilarning kundalik turmushi, hayoti bilan bog'liqligini anglaydi. Mazkur sohaning iqtisodiy imkoniyatlari va o'z navbatida odamlarning shu sohaga bo'lgan ehtiyojini o'quvchilar o'rganish, ko'rish, kuzatish jarayonida o'zlarining iqtisodiy ma'lumotlarini oshirib borishadi. Bularning barchasi o'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalashda ijtimoiy ahamiyatga ega. O'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, sayohatlarni, ko'rgazmalarni tashkil qilish singari manbalari mavjudki, ularsiz fuqarolarning iqtisodiy madaniyatini, tafakkurini, ongini va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalasini hal etish mushkul.

Oilada tejamkorlik tarbiyasi. Pul ham tarbiyalaydi. Bungga befarq qaramaslik darkor. Pul muomalasiga mensimay qarash, ko'pincha ikki tomonlama muammoga olib keladi. Tekinxo'rlik va oilaning iqtisodiy qiyinchiliklarini bilishni istamaslik odati tarbiyalanadi. Ikkinchidan, pul ochko'zlik, pul jamg'arishga intilishni tarbiyalashi mumkin. Ilk yoshlikdanoq bolani oilaning xo'jalik ishlari bilan tanishtirib borish zarur. Bola oila mablag'ini bilishi, oila hayotining bir oylik, bir kunlik «taxminiy smetasini» bilishi lozim. U asosiy oziq-ovqatlarning – non, yog', sut, go'sht, baliq, sabzavot va boshqalarning narxini bilishi kerak. Bola kamolga yetib borgan sari uni buyumlar (kiyim, poyafzal, televizor va hokazolarning) qimmatini bilan tanishib bormog'i lozim. Agar ota-ona qo'shimcha ish olib ishlayotgan bo'lsa, bola shuni tushunishi kerakki, onasi va otasi oilada hamma yaxshi yashashi uchun mehnat qilayopti. U shunday mantiqni tushunmog'i lozim: Har kim oila hayotini yaxshilashga o'zining qo'lidan kelgan hissasini qo'shishi kerak. Bola sizga qancha ertaroq yordam bera boshlasa, shuncha yaxshi bo'ladi.

Huquqiy tarbiya

«Ilm ila o'z haq-huquqi sari intilish bandasi uchun farzdir va u hayot ekanmi, ani ado etmog'i zarur» - deb ta'kidlagan M.Ulug'bek.
«O'z haqini himoya qilish yo'lida qurbon bo'lgan odamning o'limi naqadar yaxshi o'limdir. Qonunchilik ijtimoiy hodisalardan biridir, u hyech qanday orqaga

qaytishga yo'l qo'ymaydi. Undan hatto zarracha orqaga qaytish ham qonunni buzishdir» (Hadis). Buyuk bobomiz A.Temur «Qonun hukmron bo'lgan joyda erkinlik bo'ladi» degan dono so'zlarni oltin harflar bilan yozib qo'yishga amr bergan edi deb ta'kidlaydi I.A.Karimov «Buyuk kelajak sari» asarida (624-bet). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish» to'g'risidagi farmoyishi asosida mamlakatimiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish» o'quv kursi joriy qilindi. Farmoyishga asosan 2001 yil 1 sentyabdan e'tiboran respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimida bog'chadan to oliy ta'limning yuqori bosqichi – magistraturagacha huquqiy bilimlarni o'rganish avvalam bor Konstitutsiyadan boshlandi.

Barcha ta'lim turlari uchun bolalar va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishga qaratilgan Konstitutsiyani o'rganish bo'yicha dasturlar, darsliklar, adabiyotlar yaratish vazifalari kun tartibiga qo'yildi.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarida 10 soatdan «Konstitutsiya alifbosi» va 5-7 sinflarda «Konstitutsiya olamiga sayohat» (14 soat) darslari joriy etildi. Boshlang'ich sinflarda ona tili, atrof olamni muhofaza qilish va o'qish darslarni o'rganish tarkibida o'rganiladigan bo'ldi.

Hammamizga dunyo xalqlari tarixidan ma'lumki, har bir millat va elatlar faqat o'z erkinliklarini qo'lga kiritgandan so'nggina

Markaziy Osiyo xalqlari ko'p ming yillik boy huquq va huquqiy madaniyatga ega. Islom huquqshunosligi asosan Qur'oni Karim va sunnati nabaviyya asosida shakllanadi va sunnat negizini tashkil etuvchi hadislarni jamlab kelajak avlodni huquqiy tarbiyalash ehtiyoji vujudga keldi. Dastlabki urinishlar natijasida Zayd ibn al-Hasanning «Majma' ul fiqh», Malik ibn Anasning «al-Muvatga» va Ahmad ibn Hanbaning «al-Musnad» nomli hadislar to'plamlari vujudga keldi. Lekin ular hadislarini saralab to'plashni vazifa qilmay, huquqiy tarbiyaga javob berishga asos bo'ladigan zarur hadislarini to'plash bilan cheklanganlar. Keyinchalik bu faoliyat hadis ilmi bilan shug'ullanuvchi olimlar tomonidan davom ettirildi. Ulardan butun islom olamida e'tirof etilgan «Olti ishonchli to'plam» (Qutub assihah as-sitta) deb yuritiladigan to'plamlar alohida o'rin tutadi. Bular imom al-Buxoriy va imom Muslumlarining «Jome' as-sahih» (ishonchli to'plam), an Nasso'iy, Abu Dovud, at-Termiziy va Ibn Mohjalarning «As-sunan» nomli hadislar to'plamidir.

Buyuk islom olimi, faqih Burxoniddin al-Marg'inoniy Qur'oni Karim va hadis ilmini mukammal egallab, fiqh-islom huquqshunosligi borasida benihoya chuqur bilimga ega bo'lgan va huquqiy tarbiya sohasini beqiyos durdonalar yaratgan. U Samarqandga ko'chib borib, butun islom olamida mashhur «Al-hidoya» asarini 573 yilda yozgan (1170 yil milodiy). Bu asar ovrupa xalqlari tillariga tarjima qilinib, katta qiziqish bilan o'rganilganidan uning ko'pgina mamlakatlarda huquq ilmi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatganiga shubha yo'q.

O'zbekiston – mustaqil, demokratik, huquqiy davlat, insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir.

Qonuniylik va huquq-targ'ibot tantana qilmasa shaxsning huquq va erkinliklarini amalga oshirib bo'lmaydi. Shu jihatdan «O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi» huquqiy tarbiyada asosiy dasturdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lishi munosabati bilan maktablardagi ta'lim-tarbiya ishlari tinimsiz rivojlanib bormoqda.

Respublikadagi sog'lom vaziyat, xalqning moddiy farovonligi va madaniy saviyasining o'sib borayotganligi mehnatkashlarning onglilik va intizomlilik darajasi yuksalganligi tufayli huquqbuzarlik holatlari tobora kamayib bormoqda. Kishilar ongiga jamiyat manfaatlarini yo'lida halol mehnat qilish, sofdil, haqgo'y bo'lish, adolatsizlikka, tekinxo'rlikka, ta'magirlikka qarshi murosasiz bo'lish, qonun me'yorlariga hurmat nazari bilan qarash kabi hislatlar ko'proq singib bormoqda. O'quvchilar ongiga huquqiy sifatlarni singdirishda tarbiyaning barcha omil va vositalaridan, pedagogik ishning barcha usullaridan oqilona, maqsadga muvofiq foydalanish, hech shubhasiz o'zining samarali natijalarini beradi.

O'quvchi va yoshlarga huquqiy tarbiya berishda, ularda yuksak fuqarolik his-tuyg'ularini, sifat va hislatlarini tarkib toptirishda ta'lim-tarbiya birligi muhim. Ta'limiy va tarbiyaviy vosita va omillar ko'p. Hozirgi vaqtda davlat ramzlaridan foydalangan holda o'quv-tarbiya ishlarini tashkid etish muhim masalalardan biri bo'lib turibdi. Hayotga qadam qo'yuvchi har bir o'smir o'z respublikasining Qomusini bilishi, unga amal qilishi kerak. O'quvchilarda O'zbekiston Respublikasi madhiyasi, Gerbi va bayrog'iga nisbatan chuqur hurmat-ehtirom tuyg'ularini tarbiyalash ishlarimizning uzviy qismini tashkil etadi.

Hukumat qarorlarida maktablar, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari yosh avlodni har tomonlama yetuk va ma'naviy barkamol tarbiyalashga da'vat etilgan. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi o'z vatanini sevishi, xalqiga cheksiz sadoqatli bo'lishi, O'zbekiston Respublikasining qonun va qoidalarini, ramzlarini yaxshi bilishi va ularga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'lishi shart. O'quvchi va talabalarda ana shu his-tuyg'ularni tarbiyalash o'qituvchining muqaddas burchidir.

Axloqiy tarbiya

Hadislarda "Mo'min kishi o'zining yaxshin xulqi bilan kechasi qoim (ibodat bilan bedor) va kunduzi soim (ro'zador) darajasiga erishadi", "Sizlarning yaxshilaringiz - xushxulq shirin suhbatlaringizdir. Yomonlaringiz esa og'zini to'ldirib, ezmalik ila ko'p gapiruvchilaringizdir", "Mo'min odamlarning afzali - yaxshi xulqlisidir", "Hayo - imondandir", "Barcha balo - tildandir" va hokazo deyilgan. Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak, - deb ta'kidlaydi Karimov, - sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'liqni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar kamol topgan insonni tushunamiz". **Iymon** arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi – ishonchdir. Kalbida iymoni bo'lmagan odam har qancha savob ish qilsa ham, unga savob yog'ilmaydi. Qisqacha qilib aytganda, uch narsaning butunligidan iymon hosil bo'ladi: e'tiqod, iqrar va amal. E'tiqodi – dinga dinga ichdan chuqur ishonish; iqrar – so'zda buni tan olish; amal – yaxshi ishlar bilan isbotlash. A.Navoiy "Maxbub-ul-qulub" asarida ushbu satrlarni o'qiymiz: "Vafosizda xayo yo'q, xayosizda vafo yo'q. Har kimda bu ikki yo'q - iymon yo'q va har kimda iymon yo'q - andan odamiylik qilmak imkoni yo'q". Ya'ni iymonsiz - odam emas". **E'tiqod** – bu o'z fikr va

qarashlariga mahkam, sobit qadamlik bilan ishonish va o'zgalarni ham o'zidek hisoblab, ularning lafziga samimiyat bilan ishonishdir. **Sharm** - bu nojo'ya hatti-harakatlardan o'zini tiya olish, uyalish hissi. Hadislarning birida aytilishicha, odam, eng avvalo o'zidan uyalishi kerak. Nojo'ya qiligi uchun o'zidan uyalgan odam o'zgaga ham noxo'ya hatti-harakatini pavo ko'rmaydi. **Hayo** - bu o'zbekcha uyatdir. "Bir ketgan yyat qaytib kelmaydi", "Dilda dog' ko'tarib yurgandan ko'ra betning qizargani afzal" deydi xalqimiz. "Hayo erkak kishiga nisbatan tabiatan ayol kishida ko'proq bo'ladi". **Andisha** - bu oqibatini o'ylab yoki yuz - xotir qilib yuriladigan mulohaza, ehtiyotkorlik hissidir. **Nomus** - bu iffat, bokiralik, ma'nolarndai tashqari kishiniig o'z mavqyeini saqlash va ardoqlash, xijolat tortish tuyg'ularini oila va ajdodlar sha'niga dog' tushurmaslik ma'nosini ham ifodalaydi. Yuqorida ta'kidlangan axloqiy iboralar oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashda o'ziga xos uslublarda tashkil etishni nazarda tutadi. Boshqa odamni tarbiyalamoqchi va uning axloqini tuzatmoqchi bo'lgan tarbiyachi, avvalo uni yaxshi (bilish) o'rganishi va barcha kamchiliklarini yaxshi bilib olishi kerak, aks holda tarbiyachi o'z oldiga qo'ygan vazifasini bajara olmaydi. Tarbiya tarbiyalanuvchini yomon axloqiy hislatlardak ozod qilish, unga yaxshi axloqiy fazilatlarni singdira borishi jarayonida amalga oshiriladi", - degan Ibn Sino. Abu Ali ibn Sino "Axloq har bir kishi uchun o'z - o'zini idora qilish ilmidir", - deb ta'riflaydi. Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u - bilik" asarida "Kimning odobi yaxshi va axloqi to'g'ri bo'lsa, u kishi o'z maqsadiga yetadi va baxt unga kulib boqadi", yaxshi axloq - jamiyatning, yaxshiliklarning zaminidir", degan. "Halol, haqgo'y, axloq - odobli kishi har qanday qimmatbaho narsadan ham qimmatlirokdir", - degan.

Mashhur rus pedagogik K.D.Ushinskiy "Tarbiyaning asosiy vazifasi axloqiy jihatdai ta'sir etishdan iboratdir. Bu aqlni umuman o'stirish, uni bilimlar bilan to'ldirishdan ko'ra muhimdir", deb izohlagan.

M.Qoshg'ariy "Devonu lug'ati turk" asarida olg'il mendan nasihat, o'g'lim, ilmu adab o'rgangin, bo'lib bilimli ulug' xalq ichida boshqacha ilmu adab o'rgatgin, deb xitob qilgan.

Keksalarni etsang azizu izzat, seni ham keksaygach etishar hurmat, - A.Bedil. Bilim ma'rifat yaxshi axloq bilan bezanmog'i lozim, deb ta'kidlaydi A.N.Forobiy. haqiqiy insoniy axloqni o'zida barqaror qilgan yaxshi kishilar yoshlarga yaxshi ta'sir ko'rsatadi va ularni mehr-shavqatli, sofdil va maqbul bo'lib tarbiyalanishi uchun zamin hozirlaydi (3-bet) deb ta'kidlanagan A.Avloniy.

Axloq nima o'zi? Axloq - ijtimoiy ong shakli bo'lib, ijtimoiy hayotning hamma sohalarida insonning xulq - atvorini yo'lga solib turadigan talablar, normalar va qoidalardan iboratdir. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, rivojlanishi bilan birgalikda axloq o'zgarib va rivojlanib boradi. Chunki jamiyatning rivojlanishi jarayonida odamlarning axloqli va axloqsizlik, yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik haqidagi tasavvurlari ham o'zgarib boradi, Abdulla Avloniy "Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur. Agar bir kishi yoshligida nafs buzilib tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, "Allohu - akbar", bunday kishilardan yaxshilik

kutaman yerdan turib yulduzlarga qo'l uzataman kabidir. O'quvchilarning axloqiy tarbiyasi maktabning yetakchi vazifalaridan biridir. Axloq tarbiyaning mohiyati o'quvchilarda axloqiy - ongini, odob tuyg'ularini; xulq - atvor ko'nikmalari va odobini shakllantirishdan iborat. Shaxsning axloqiy kamoloti faoliyat jarayonida ro'y beradi. Chunki har qanday faoliyatning axloqiy jihati bo'ladi. Maktab o'quvchilari faoliyat jarayonida o'zlashtirilgan axloqiy normalar va talablar asosiga quriladigan va axloqiy prinsiplar bilan yo'lga solib turiladigan axloqiy muomalaga jalb qiladilar. Axloq bizning hayotimizga va ongimizga faol tasir etadi, kishilik jamiyati nomidan yaxshilik bilan yomonlik, adolat bilan adolatsizlik, mehr bilan zulm o'rtasidagi va insoniy munosabatlardagi maqbul va nomaqbul, man etilmaydigan va man etiladigan ishlarni, hatti - harakatlarni belgilab beradi. Huquq normalariga zid hatti - harakat axloqsizlik harakati deb qaralanadi. Shunisi ham borki, huquq majburiy bo'lsa. axloq ixtiyoriydir. Sharq mutafakkirlari axloqni ikkiga ajratishadi. Axloqli, axloqsiz, yaxshi yoki yomon axloqli singari.

Axloqiy munosabatlar - bu jamiyatga, mehtatga, odamlarga va qolaversa, har bir kishining o'ziga munosabatidir.

Karimov ta'kidlaganidek, "Axloq - ma'naviyatning o'zagi". Ma'naviyat - ilm va amal birligi bo'lsa, axloq bevosita har bir shaxsning o'zgalarga nisbatan ma'naviy munosabatini anglatadi. Axloq ma'naviyatning amalidir. U avvalo insof va adolat tuyg'usi, imon va halollik kabi amaliy ma'naviyatning o'zak tushunchalari bilan bog'liq ma'naviyat o'zlikni anglashdir. Dunyoda hamma narsa o'zgaradi, ammo fazilat qonunlari sira ham o'zgarmaydi. Oz-oz o'rganib dono bo'lur.

Maktabning maxsus tarbiyaviy faoliyati barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, u axloqiy tarbiyaning quyidagi vazifalarini hal etadi: axloqiy ongini, mustahkam axloqiy e'tiqodlarni tarbiyalash; yosh avlodning Vatanga, jamiyatga va mehnatga, o'ziga va odamlarga munosabatini anglab olishga qaratilgan axloqiy tuyg'ularni tarbiyalash.

"Odatga aylanmagan tarbiya, qum ustiga qurilgan binodir"-degan K.D.Ushinskiy. Axloq tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifasi - bu har bir kishida aktiv hayotiy nuqtai nazarni hosil qilishdan iborat. Insonning jamiyatta munosabatini belgilovchi axloqiy fazilatlar orasida Vatanparvarlik yetakchi o'rinini egallaydi.

Vatanparvarlik - Vatanga muhabbat, mamlakat manfaatlari xaqida g'amxo'rlik, Vatan himoyasiga tayyor turish, o'z mamlakatining ijtimoiy va madaniy yutuqlari bilan faxrlanish, Vatanniig tarixiy o'tmishiga va uning an'alariga hurmat tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Vatanparvarlik va baynalmilallik qarashlar, his - tuyg'ula o'quvchilarning Vatan haqidagi, uning qaxramonlar o'tmishi va hozirgi hayoti haqidagi chuqur va har tomonlama to'la - to'kis bilimlari asosida shakllanadi.

Mehnat tarbiyasi

Insonning asosiy burchi, vazifasi mehnat qilishdir, chunki istalgan narsaga ishlash bilan, mehnat qilish bilan erishiladi. A.Beruniy.

«Bola o'z mehnati bilan o'zini boqish qurbiga ega bo'lgandan keyingina otaning o'g'liga (yoki qiziga) bergan mehnat tarbiyasi yakunlangan hisoblanadi» deb hisoblagan Ibn Sino. (A.Irisov. Ibn Sino ma'rifatparvar adib. T: 1962 y. 10-bet).

Qaysi narsaga ko'p mehnat qo'shilsa,

O'sha narsa sevimli, hammadan aziz.

Qaysi narsaga kishi umrini sarf qilsa,

O'sha narsa shirin jon barobarida sevimli bo'ladi.

Biror ishni qilishga qasd qilgan bo'lsang, butun zehning, butun vujuding bilan tirishib, bitirmaguncha undan qo'l tortma, - deb o'git qilgan Amir Temur.

K.D.Ushinskiy «Tarbiyaning o'zi, agar kishining baxtli bo'lishini istasa, uni baxt uchun tarbiyalamasligi, balki hayotdagi mehnatga tayyorlashi kerak», - degan.

Umrni zoye etma, mehnat qil,

Mehnatni saodatning kaliti bil. (A.Navoiy)

Mehnat tarbiyasi tarbiyaning tarkibiy qismini tashkil etadi. Haqiqatdan ham, kishining eng birinchi, zaruriy ehtiyoji – mehnatdir. «Buning uchun mehnat zarur, - deb uqtiradi Beruniy, faqat aql-idrok va mehnatning jonlanishigina kishilar hayotini belgilab beradi». Insonning asosiy burchi va vazifasi – mehnat qilishdir, chunki istalgan narsaga mehnat sarflash orqali erishiladi.

A.N.Forobiy inson o'z ijtimoiy vazifasini bajarish uchun unga, birinchidan, kundaliy hayotda odamlar bilan muloqotda bo'lish zarurligini, ikkinchidan esa, u mehnat va kasb-hunar ko'nikmalarini va axloqiy fazilatlarni hosil qilishi lozimligini ta'kidlaydi. Va yana «Har bir kishiga berkitilgan ma'lum bir ish bo'lishi kerak, toki u kishi o'ziga berkitilgan ishni kechiktirmasdan o'z vaqtida bajarsin», - deydi. (A.N.Forobiy. Risolalar. T., 1975 yil, 17-bet).

Ali Abu ibn Sino «Kitob ush-shifo» asarida ideal davlat tuzumi ko'rinishini chizib beradi. Uning fikricha, bu davlatning har bir a'zosi jamiyat uchun foyda keltiruvchi biron bir ish bilan shug'ullanishi kerak. Odamni shundagina odam deyish mumkinki, qachonki u o'z manfaati uchungina emas, balki xalq va umumjamiyat manfaatlari uchun foydali mehnat qilishi bilandir. Birovlar halol mehnat qilib jamiyat uchun foyda keltirsa, boshqalar tekinga yashasa – bu adolatsizlik, deb ta'kidlaydi, Ibn Sino «Tadbiral manozil» asarining «Afsofiy bahtarin zanho» bo'limida barcha jamiyat a'zolari ishlab chiqarish mehnati bilan shug'ullanishi zarur, - degan g'oyani ilgari suradi.

Kaykovus «Qobusnoma»ning «Hunarning afzalligi va qadri baland, oliy tabiatli bo'lish haqida» degan bobida farzandlarni mehnat qilishga undar ekan, agar mehnat qilib badanni o'zingga bo'ysindirmasang sog'lom va baland martabali bo'la olmaysan. (Qobusnoma. T., 1973 y. 33-bet).

Pahlavon Mahmud «Inson yuksak kamolotdir, lekin u ana shu sharafiga loyiq bo'lish uchun, avvalo, foydali mehnat bilan shug'ullanishi va o'z manfaatini xalq manfaatidan yuqori qo'ymasligi lozim», - degan g'oyani ilgari suradi.

Abdulqodir Bedilning fikricha «Insonda o'z hayotini yaxshilash uchun imkoniyat mavjuddir. Bu imkoniyat, uning nuqtai nazaricha, kishining hafsalasida, harakatchan bo'lishida, ilm, kasb-hunar o'rganishi va mehnat qilishidadir». (I.M.Mo'minov. Tanlangan asarlar. I-tom, T., «Fan», 1969 y, 103-bet.).

Yu.X.Hojib «Qutabg'u-bilik» dostonida «Inson faqat jamiyatdagina, boshqa kishilar bilan muloqatda va o'zaro munosabatda, ijtimoiy foydali mehnatdagina chinakam kamolotga yetishadi», - deb ta'kidlaydi.

Mehnat tarbiyasi haqida mashhur pedagog V.A.Suxomlinskiy quyidagi fikrlarni bildiradi: «O'zi yaxshi ko'rmaydigan ish bilan shug'ullanmaydigan kishini hyech qanday madaniy boyliklar, xazinalar bilan shod etib bo'lmaydi», «Aqliy mehnat bilan jismoniy mehnatni qo'shib olib borish – bu aqliy mehnatdan keyin mexanik tarzda jismoniy mehnat bilan mashg'ul bo'lish degan so'z emas, balki aqliy mehnatda hosil qilingan bilimni jismoniy mehnat vaqtida muttasil qo'llab borish demakdir», «Mehnatdagi muvaffaqiyat – bu muvaffaqiyat qozongan kishining faxri. O'z mehnatidan faxrlanmaydigan haqiqiy insonning o'zi yo'q», «Kam qayg'uradigan, kam o'ylaydigan kishi, birdan mehnatsevar bo'lib qolishi mumkin emas», «Bola mehnatga o'z-o'zidan qiziqib qolmaydi, modomiki qiziqishi bo'lmas ekan, demak mehnatga muhabbat ham bo'lmaydi, albatta. Bolalar mehnatini noto'g'ri uyushtirish uni mantiqsiz bir ishga aylantiradi va u mehnatdan bezib qoladi».

Islom dinida mehnat qilish ibodat qilish bilan barobarligi, mehnat qilishdan uyalmaslik kerakligi aytiladi. Zero mehnat – inson hayotining ko'rki, bezagi. Mehnat insonga baxt saodat, farovonlik baxsh etadi. Halol mehnat ma'naviy hayotning mezonidir. Mehnat insonni uch balodan: yurak siqilishidan, axloqiy buzilishdan, muhtojlikdan saqlaydi. Yana «Ishni puxta va yaxshilab qilgan kishini Alloh yaxshi ko'radi» (Hadis) deb musulmonlarni sidqi dildan mehnat qilishga chorlaydi.

Sh.Sa'diy insoniy qadr-qimmatni mehnatda, hunarga tayanishda deb tushunadi va shunday deb ta'lim beradi.

O'z mehnatidan non yegan kishi

Hotam minnatidan ozod yosh-qishi

(Guliston. T., G'.G'ulom nashriyoti. 1968 yil, 6-bet).

Bolalarga mehnat quvonchi, o'qishdagi yutuq quvonchini berish ular qalbida faxrlanish hissini, o'z izzat-nafsi hissini uyg'otish – bu tarbiyaning eng asosiy birinchi vazifasidir, degan Suxomlinskiy.

Avestoda «Bolalar yosh paytdanoq daraxt ko'chati o'tqazish, uy-ro'zg'or qurilmalarini yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug'ullanishga o'rgatish kerakligini» - ta'kidlagan.

Yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratishi lozim.

...Mehnat qilmaydigan odamlar! Sen haqiqatdan ham tilanchilar qatorida, yot eshiklarga ta'zim qilib, abadul-abad bosh egib turajaksan! Haqiqatdan ham sening yoningdan turli xil ziroatlarni olib o'tadilar, bu noz-ne'matlarning barchasi mehnat qilayotgan, to'g' va farovon yashayotgan xonadonga nasib qiladi. Abadul-abad shunday bo'lajak!

Inson butun umr davomida suv, tuproq, olov, umuman inson, dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir.

Chorvador to'g' bo'lsin uchun chorvani muttasil parvarish qilmoq lozim, kabi g'oyalar ta'kidlangan.

Har qanday odamga uning qilgan ishlariga qarab baho berish kerak, - degan Servantes.

Agar inson biron kasbni mukammal egallasa, mehnat unga huzur bag'ishlaydi, baxt keltiradi, degan Andre Morda.

Madaniy jamiyat shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunarda ozod hamma bab-barobar bo'ladi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladigan – deb ta'kidlagan A.N.Forobiy.

«Mehnatdan tashqari va mehnatsiz tarbiya yo'q va bo'lishi ham mumkin emas, chunki murakkab va ko'p qirrali mehnatsiz haqiqiy insonni tarbiyalab bo'lmaydi» va yana «Mehnatsevarlik – bu obrazli qilib aytganda, uchta tushuncha: zarur, qiyin va go'zal degan tushunchalar yig'indisidan iborat».

Mehnat kishining va jamiyatning eng zarur yashash shartidir. Inson nima bilan faxrlansa va u nima bilan e'zozlansa, ularning hammasi mehnatning natijasidir. Mehnat barcha boyliklarning manbai bo'lish bilan birga, u inson hayotining mazmuni hamdir. Buning ma'nosi shundaki, insonning o'zini inson sifatida shakllantirgan (narsa) ham, insonning qudrati nimalarga qodir ekanligini namoyish qilgan ham ana shu mehnatdir.

Mehnat – butun moddiy va ma'naviy madaniyatning, shuningdek, ijtimoiy taraqqiyotning negizidir.

Mehnat tarbiyasining vazifalari ko'p qirralidir. U o'quvchilarni mehnat faoliyatiga amaliy tayyorlashning juda ko'p tomonlarini qamrab oladi. Mehnat tarbiyasining eng muhim vazifasi yosh avlodni mehnat qilish xohishini, havasini, intilishini, ko'nikma va mahoratni ularda shakllantirishdan iborat. Eng muhimi mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ish natijalarini ko'rgan taqdirdagina uning uchun mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Eng zaruri mehnat uning uchun moddiy va ma'naviy qimmatga ega bo'lishi shart. Busiz mehnatning natijasi bo'lishi mumkin emas.

Hozir mehnat tarbiyasining maqsadi mulkka munosabatni shakllantirishga qaratilmog'i zarur. Umuman mehnat insonni ijodiy fikrlashga, fidoiylikka, mustaqillikka da'vat etmog'i shart. O'quvchilarda mehnatsevarlikni tarbiyalash eng asosiy muammo. Shaxsning ma'naviy qiyofasini tarkib toptirishda mehnatning roli nihoyatda kattadir. Mehnatda shaxsan qatnashmay turib, degan edi Ushinskiy, inson o'zining axloqiy rivojlanishida olg'a qarab borolmaydi, bir joyda ham turolmaydi, u orqaga ketadi.

O'quvchilarda mehnat tarbiyasini tashkil etishda shaxsiy, oilaviy va jamiyat manfaatlarini uyg'un shakllantirishga o'qituvchilar alohida e'tiboni qaratishlari shart.

O'quvchilarni mehnatga axloqiy, psixologik va amaliy tayyorlash jarayonida mehnatsevarlik, mehnat intizomiga bo'ysinish odati, maqsadni amalga oshirishda tashabbuskorlik, faollik, ijodkorlik singari irodaviy fazilatlar shakllantirib borilsa foydali bo'ladi.

O'quvchilarni mehnatda tarbiyalash dastlab oilada, maktablarda – o'quv-tarbiya ishining tizimida, bolalar tashkiloti faoliyatida, ishlab chiqarish jamoalari mehnatida ishtirok etishlari orqali amalga oshiriladi.

Maktab o'quvchilari mehnatning mazmuni O'zbekiston Respublikasi oldida turgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy rivojlanish istiqbollari ehtiyojlaridan, maktabning ichki sharoiti, imkoniyatlari va talablaridan kelib chiqib belgilanadi. Bu masalada jahon ishlab chiqarishi, tovarlarning sifati – umumiy raqobat eng asosiy mezon hisoblanadi.

Fan va texnikaning toboro uyg'unlashib borishi, xalq xo'jaligi tarmoqlarida amalda qo'llanishi o'quvchilar mehnat ta'limi va tarbiyasini takomillashtirishni, o'zgartirishni, ijtimoiy hayotning o'zi taqozo etmoqda.

O'quvchilarning mehnat tarbiyasi shakllari xilma-xildir. Ular asosan o'quv mehnati, sinfdan tashqari ishlar jarayonidagi mehnat, ijtimoiy foydali mehnat, uy mehnati va ishlab chiqarish mehnatlarini tashkil etadi.

O'quv mehnati asosida barcha o'quv fanlari mazmuni asosida mehnatning nazariy asoslari va mehnatga munosabat, uning amaliy ahamiyati singari vazifalar o'quvchilarga o'rgatiladi. O'z-o'ziga xizmat, sinfdan tashqari va otaliq tashkilotlarning mehnat maydonlarida, sexlarda mehnatning amaliy ko'nikmalari bilan qurollantirish ta'minlanadi.

Ijtimoiy foydali mehnat maktab binosi va maydonlarini ozoda saqlash, bog' va sport maydonlari bunyod etish, tirik burchaklar tashkil etish, o'quv tajriba uchastkalarida, issiqxonalar, ustaxonalardagi mashg'ulotlarda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ishda, Vatan urishi qaxramonlari xotirasiga o'rnatilgan tarixiy yodgorliklarga qarash, temir-tersak va dorivor o'simliklar to'plash singarilar bilan shug'ullanadi. Hozirgi umumta'lim maktablarida mehnat tarbiyasi o'quvchilarga mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashga shakllantirish kabi yo'nalishlarni qamrab olmog'i darkor.

Akademik litseylar, kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olgan ixtisoslikni egallashga imkon beradi.

O'quvchilar mehnatiga qo'yiladigan pedagogik talablar:

1. Aqliy va jismoniy mehnatni bir-biri bilan almashlab turish.
2. Oilada uy-ro'zg'or ishlariga jalb qilish.
3. Bola mehnatda bevosita ishtirok etsa va mehnatga qanchalik erta jalb etilsa, uning mehnat tarbiyasi shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi.
4. Mehnat bola uchun zaruriyat, burch va odatga aylanmog'i kerak. Mehnat oson va qo'lidan keladigan bo'lishi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, tayyorgarligiga mos bo'lishi kerak.
5. Mehnat dam olish bilan almashlanib turishi kerak, chunki qattiq mehnat kishini, ayniqsa o'quvchini charchatib qo'yishi mumkin.
6. Bolalarning mehnat faoliyati ijtimoiy ahamiyatga va iqtisodiy-ma'naviy asosga ega bo'lishi kerak.
7. Har qanday mehnat topshirig'i foydali va imkoni boricha yaqqol natija bilan tugallanishi lozim.
8. Mehnat faoliyatini tashkil qilish aqliy, estetik, iqtisodiy, ekologik tarbiyalar bilan mustahkam bog'lanishi foydali.

9. Mehnat amaliy xarakter kasb etishi, ijtimoiy jihatdan kerakli va foydali bo'lishi, jamoaning va butun jamiyatning manfaatlariga muvofiq kelishi muhim.
10. Mehnat o'quvchilarda ijodiylikni, faollikni, tashabbuskorlik va mustaqillikni hamda manfaatdolikni o'stirishi kerak.
11. Mehnatda sanitariya-gigiyena, texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish darkor va hokazi.

Estetik tarbiya

«Agar inson chiroylini aql va farosat bilan ko'ra olsa va uni sevsa, bu insoniylikning yuqori darajasidir. Bu insonning buyuk ideali hisoblanadi. Ana shunday odamni mard va dono, estetik didi yuksak deb haqli ravishda aytish mumkin», degan Ibn Sino «Risolai ishq» asarida. Estetika termini birinchi bo'lib adabiyotchi nemis olimi A.G.Baumchgarten (1714-1962) tomonidan kiritilgan. Uning «Estetika» (I-tom) degan asari 1750 yilda e'lon qilingan. Uni estetika fanining asoschisi deb bo'lmaydi, chunki estetika nazariyasi qadim zamonlardan falsafa fani doirasida o'rganilgan.

Tabiatni yosh avlodni tarbiyalovchi ajoyib murabbiydir, degan Ushinskiy. M.Gorkiy: «Inson tabiatan san'atkordir. U hamma yerda, biron bir holda, o'z hayotini chiroyli qilishga intiladi». Insonning ichki va tashqi go'zalligi bir bo'lgandagina u ideal kamolotga erishadi. «Ozodlik va orastalik oliyjanoblikning o'zagidir», deb ta'kidlagan A.Beruniy «O'tgan avlodlar obidalarini asarida.

Estetik tarbiya ancha keng ma'noga ega bo'lib, shaxsni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarni ideal nazardan idrok etishga o'rgatadi. Estetika butun olamdagi go'zalliklarni hislar vositasida idrok etishdir. Az-Zamaxshariy: «Go'zal sifat va husnu-xulq siyratlari bezanmagan kishini hech qanday kiyimlar ko'rkam qila olmas, gunoh va xatolardan saqlangan kimsaning qalbi sira aybdan firoq bo'lmas», deb bildirgan fikri bag'oyat qimmatli. (Nozik iboralar. T., 1992, 74-bet).

San'at ilmiy – degan edi «Sharq Aristoteli» deb nom bilan mashhur bo'lgan buyuk olim Abu Nasr Forobiy, - o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan (odamlar) xulqning muvozanatini saqlab turadi. Ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir. Chunki tana kasal bo'lsa, ruh ham so'nadi, tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish yordmida tana sog'aytiriladi. (M.M.Xayrullayev. Forobiy va uning faslafiylar risolalari. Toshkent, 1963, 235-bet).

Nafosat go'zallikni his qilish, idrok qilish hamdir. Go'zallik – qadim turkiy so'z bo'lib, «go'z» (ko'z) va «ol» dan tuzilgandir, ya'ni ko'zi maftun etuvchi ma'nosini bildiradi. Tilimizda yana shu ma'noga yaqin chiroyli so'zi ham bor. Chiroyli narsani ko'z bilan ko'riladi. Go'zallik esa ham ko'z bilan ko'riladi, ham dil bilan his etiladi, ong biln idrok qilinadi. Bola o'z hissiyot va fikrlarini mustaqil ijod etish – rasm solish, ashula aytish, raqs tushishga imkon berish kerak. (A.Ibrohimov. Vatan tuyg'usi. 1996 yil, 123-bet).

Milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanganligi, boy milliy, madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;

A.P.Chexov «Insonda hamma narsa: chehra ham, kiyim ham, tafakkur ham ... go'zal bo'lishi kerak. Ba'zan men shu qadar yaxshi kiyingan go'zal chehralarni uchratamanki, hayratdan gangib qolaman, lekin ularning qalbi va tafakkurichi, yo rabbi! Ba'zan ana shunday go'zallik bilan qora ko'ngil niqoblangan bo'ladiki, bu ko'ngilni mutlaqo oqartirib bo'lmaydi» va yana «Jiddiy mehnatsiz go'zallik yaratilmaydi», - degan fikrlarni bildirgan.

Bolalarda estetik his-tuyg'ularni o'stirish, estetik idrok, tushuncha, tasavvur, bilim, ko'nikma, odat va didni tarbiyalash maktabda estetik tarbiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Estetik bilim, ko'nikma, malaka va odatlarni tarbiyalash barcha predmetlarni o'rgatish jarayonida amalga oshirib boriladi. Yoshlarni tabiatdagi, jamiyatdagi va kundalik turmushdagi barcha faoliyatlarda go'zallik qonuniyati asosida axloqiy sharqona xulq-atvorda tadbqiq etish eng muhim pedagogik masaladir.

Bolalarni tabiatdagi barcha go'zalliklarni faqat hislar vositasida idrok qilishga o'rgatish bilan birga, ana shu go'zalliklarni tartib-ozodalikni o'zlarining hayotlarida qo'llashga o'rgatish muhimdir. Demak, go'zalliklarni his qilishgina emas, ularni o'z tasavvurlarida ko'paytirish, to'plash hamda takomillashtirib borish o'quvchilarni estetik tarbiyalashda amaliy ahamiyatga ega. Estetik tarbiyada bolalarning boshqalar hatti-harakati, xulq-atvori va o'zi faoliyatiga baho berish qobiliyatini o'stirish muhim rol o'ynaydi.

Bolalarda estetik tafakkurni o'stirish, butun borliqdagi go'zal narsalar bilan xunuk narsalar o'rtasidagi, tashqi go'zallik bilan ichki ma'naviy go'zallikni farqlay bilishga o'rgatadi, odatlantiradi. Shuning uchun yosh o'quvchilarda o'zlari hayotining hamma sohalarida estetik qonuniyatlar, qoidalar, talablar asosida tashkil etmoqlari talab etiladi.

Maktabda estetik tarbiya quyidagi tuzilishda amalga oshiriladi: estetik his-tuyg'ular; estetik idrok; estetik tasavvur, tushuncha, bilim; estetik ko'nikma, malaka va odatlarni tarbiyalash; estetik fikrlar va nihoyat estetik madaniyat tarbiyalash nazarda tutiladi.

Masalan: O'quvchi hind kinofilmlarini ko'rish orqali tabiat, kishilarning estetik tushuncha, ko'nikma, malaka va odatlarini ularning to'g'ri yoki noto'g'ri tomonlarini bevosita ko'radi va ularga baho beradi. O'zlarida katta hissiy kechinmalarni boshdan kechiradilar.

Maktabda estetik tarbiya tizimi: oilada estetik tarbiya; dars jarayonida estetik tarbiya; sinf va maktabdan tashqari ishlarda; tasviriy san'at orqali; musiqa va ashula vositasida; turmush va odob estetikasi; kiyim-bosh estetikasi; xulq-atvor estetikasi kabilardan tashkil topadi.

Estetik tarbiya – voqyelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, go'zallikni idrok etish va to'g'ri tushunish qobiliyatini tarbiyalash, go'zallikka muhabbat tuyg'usini va go'zallikni ijodiy ravishda hayotga kiritish qobiliyatini tarbiyalashdir. Estetikaning ikki xil: estetik tarbiya va badiiy tarbiya tushunchalari mavjud.

Estetik tarbiya – bu ancha keng tushunchadir. Bu tushuncha mehnat va madaniy turmush, kishilarning hatti-harakati va o'zaro munosabati, tabiat vositasida tarbiyalanadigan go'zallik tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Badiiy tarbiya – san'at (adabiyot, musiqa, ashula, tasviriy san'at) vositasida tarbiyalashdir.

Badiiy adabiyot, teatr, musiqa, tasviriy san'at, kino sohasida eng yaxshi asarlar o'z vositalari yordamida hayotni haqqoniy va yorqin aks ettirib, bu hayotga to'g'ri baho berib, kishilarning ongi, tuyg'usi va xayollariga ta'sir qiladi, insonni hayot va mehnatning hamma sohalarida yangilik, ilg'orlik uchun kurashda faol qatnashishiga chorlab turadi.

Ekologik tarbiya

Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumbashariy muammosiga aylangan. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, rivojlanishning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir, - deb ta'kidlagan I.A.Karimov (O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. 115-bet).

Atoqli pedagog V.A.Suxomlinskiy «Bolalarga jonim fido» asarida «Men bolalar «Alifbo»sini ochib, birinchi so'zni hijjalab o'qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob – tabiat kitobini mutolaa etishlarini istardim» - deb ta'kidlaganidek, bu borada barcha ishlarni bolaning kichikligidanoq boshlash maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublika «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da: «Ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning ekologik va sanitariya-gigiyena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish zarur» - deb alohida ta'kidlangan.

«Ekologiya» yunoncha so'z bo'lib, tirik mavjudodlarning yashash sharti va tevarak atrofdagi muhit bilan o'zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o'rganadigan fandir. «Ekologiya» atamasi 1866 yilda nemis zoolog olimi E.Gekkel tomonidan kashf etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 50-moddasida: «Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar» va 55-moddasida esa: «Yer va yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umumiy boyliklardir. Ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat mudofaasidadir» - deb juda o'rinli ta'kidlangan.

Fuqarolarda ekologik madaniyatni tarkib toptirish, ularga tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotining eng dolzarb mavzusiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni, «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'sis etilishi, shu nomda Davlat dasturi, «Ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasi» ning ishlab chiqilishi, «Ekosan» jamg'armasining tuzilishi va 2000 yilning «Sog'lom avlod yili» va 2005 yilning «Sihat-salomatlik yili» deb e'lon va davlat dasturi ishlab chiqilishi ekologik tarbiyaning ijtimoiy muammolarini hal qilishga qaratilganligini ko'ramiz.

Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida ekologik ijtimoiy muammolar ham tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, aholini yer, suv, energetika, oziq-ovqat bilan ta'minlash haqidagi muammolar butun dunyo ijtimoiy muammolariga aylanib bormoqda. Yer kurrasida insoning farovon yashashi endi ekologik muammolarni yechishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigiyenik, yuridik, estetik, pedagogik va psixologik yo'nalishlari mavjud. Pedagogik yo'nalishda ekologik ta'lim va tarbiya berish ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim deganda aholiga berilishi lozim bo'lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi.

Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham turli yoshdagi kishilarda atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

Fuqarolarda ekologik savodxonlik va madaniyat ijtimoiy ta'lim-tarbiya muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari, mehnat jamoalari, mahalliy boshqaruv organlari, ichki ishlar xodimlari, prokuratura, sud, ommaviy axborot vositalari singari shakllarda amalga oshiriladi. Ekologik muammolarni hal etishda aholining g'alla maydonlarini, mevali va manzarali daraxtlarni mudofaa qilish sohasida ko'plab muammolar mavjud.

Fuqarolarga ekologik tarbiya berishda milliy xususiyat va tomonlarga asosiy e'tiborni qaratish foydali. Bular: suv, yer, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. Ota-bobolarimiz: «Suv – tabiat in'omi, hayot manbai», - deb bejiz aytishmagan. Ma'lumki hozir faqat 500 ming km³ ga yaqin chuchuk suv bor xolos.

Ma'lumki, barcha yoshdagi kishilarda tabiatni muhofaza qilish haqida qimmatli hayotiy g'oyalar xalq donishmandligida asoslangan. Masalan, «Soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odamni tangri do'zaxga mahkum etur», «Dehqonchilik bilan shug'ullaninglar, dehqonchilik muborak kasbdur. Unga qo'riqchilarni ko'paytiringlar», «Qaysi bir musulmon ekin eksa yoki biror daraxt o'tqazsa, so'ng uning mevasidan qush yoki hvyvon yesa, uning ekinidan yeyilgan narsaning har biridan unga sadaqa savobi yoziladi», «Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat tutqazgan paytda bexosdan qiyomat qoim bo'lish aniq bo'lganda ham ulgursangiz, uni ekib qo'yavering», «Kim suv toshqinini to'xtatsa yoki yong'inni o'chirsa, unga shohidlik ajri yeriladi» va hokazo.

«Tafakkur buyuk fazilatdir va odamning donoligi haqiqatni aytisha, tabiatga quloq solgan holda unga muvofiq harakat qilishda» - deb ta'kidlagan Geraklit.

Orol tangligi insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar fojialardan biridir. 1911-1962 yillarda Orol dengizining sathi eng yuqori nuqta bo'lib, 53,4 metrni, shu darajalar 1994 yilda 32,5 metrga, suvning hajmi 1064 kub kilometrni (400 kub kilometrni) suvning yuzasi 66 ming kvadrat kilometrni (32,5 ming kvadrat kilometr) va minerallashuvi darajasi bir litr suvda 10-11 gramm (u ikki barobar oshganligining guvohimiz) ga yetgan.

Orolning qurib qolgan tubidan chang bo'ronlari 1975 yildayoq kosmik tadqiqotlar natijasida aniqlangan. 1980 yillarning boshlaridan buyon bunday to'fonlar bir yilda 90 kun davomida kuzatilmoqda. Chang-to'zon uzunligi 400 km

va eni 40 km maydonga yetib bormoqda. Chang bo'ronlarining ta'sir doirasi esa 300 kmgacha yetmoqda. Mutaxassislarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, bu yerda har yili atmosferaga 15-75 mln tonnagacha chang ko'tariladi.

Orol dengizining qurib borishi munosabati bilan xalqaro, keng ko'lamli ahamiyatga molik bo'lgan ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va desografik muammolarning murakkab majmui vujudga keldi. Dengizning qurib borishi va mintaqaning cho'lga aylanib borishi bilan bog'liq fojea bu havzada yashayotgan barcha xalqlarning ijtimoiy fojeasidir.

Maktabda o'quvchilarni ekologik tarbiyalashda bunday ma'lumotlarni berib borish o'qituvchilarning asosiy vazifasi bo'lsog'i darkor.

Endilikda atrof-muhitga, tabiat boyliklariga e'tiborsiz bo'lish butun sayyoraga jiddiy zarar yetkazishi ma'lumligi aniq bo'lib qoldi. Inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar muammolarini yechish zaruriyati tug'ildi. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish pedagogika nazariyasi va amaliyotida dolzarb muammoga aylandi.

Ayniqsa, umumta'lim maktablarida maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoydil kirishi zarurligini ko'rsatadi.

Tabiatni muhofaza qilish hozirgi zamonning asosiy masalalaridan biri bo'lib qolganligi o'quvchi ongiga singdiriladi. Haqiqatdan ham tabiiy boyliklardan haddan tashqari ko'p darajada foydalanish, yangi yerlarni rejasiz o'zlashtirish oqibatida, ekologik muvozanat keskin o'zgardi, atrof-muhit ifloslandi. Ayniqsa, paxta yakka hokimligi, qishloq xo'jaligi ishlarining noto'g'ri rejalashtirilganligi, kimyoviy o'g'itlardan me'yordan ortiq ishlatilishi tabiat kushandalarining ko'payishiga sabab bo'ldi. Bu hol hayvonot olami va o'simlik dunyosiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Ekologik tarbiya insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir.

Ekologik ta'lim-tarbiya maktabda barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodda atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Bizningcha, umumiy o'rta ta'lim va boshqa muassasalarda ekologik tarbiya berishni tarbiyalashning mazmuni quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- atrof-muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri;
- tabiat va uning ahamiyatini anglash;
- tabiatga muhabbatni shakllantirishda maktab va oilaning hamkorligi;
- o'z tumani, shaharini, qishloq va maktab hovlisini ko'kalamzorlashtirishda, hatto sinf xonasidagi o'simliklarni ham parvarishlashga qiziqishlarini;
- oiladagi, maktabdagi tabiatni, o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilish;
- tabiatga ongli munosabat jarayonda o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish;
- yoshlarni ekologik tarbiyalashda milliy an'ana va udumlarni qayta tiklash, ularga e'tiborni kuchaytirish.

«Avesto»da kishilarni ekologik tarbiyalash bo'yicha quyidagi tadbirlar belgilangan:

- Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov, umuman dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir.
- Yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi urish jazosiga mahkumdir.

Ota-bobolarimiz azal-azaldan tabiatga yuksak mehr ko'rsatishgan. Yurtni obod etishgan, ko'chalarni, haylilarni sarishta qilishgan. Xalqimizning tabiatga munosabati: urug' qadash, qovun sayli, suv sayli, uzum sayli, hosil bayrami, gul bayrami, Navro'z bayrami kabi an'ana, udum va odatlarida o'z aksini topgan. Mazkur an'ana, urf-odat va qadriyatlarni takomillashtirish bugungi kunning eng asosiy vazifalaridandir.

Maktab o'quvchilari ekologik tarbiya jarayonida quyidagilarni bilishlari zarur:

- tabiat haqida tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ular orasidagi bog'lanish;
- tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish;
- atrof-muhitni ifloslantirishdan saqlash;
- tabiatni kelajak avlodlar uchun tabiiy holda qoldirishga intilish.

Umuman umumiy ta'lim maktab o'quvchilarining ekologik ta'lim-tarbiyasi quyidagi tuzilish va tizimda olib borilsa uning samaradorligi ta'minlanadi: ekologik his-tuyg'u, ekologik idrok, ekologik tasavvur, ekologik tushuncha, ekologik bilim, ma'lumot, ko'nikma, malaka, odat, ekologik madaniyat (mahorat) va hokazo.

Jismoniy tarbiya

Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi – o'quvchilar tanasidagi barcha a'zolari sog'lom o'stirish borasida ularni aqliy va jismoniy mehnatga, shuningdek vatan mudofaasiga tayyorlashdir. Jismoniy tarbiya kishilarga katta ta'sir ko'rsatib, ularning salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishga yordam beradi. Sport – har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish, kuch-quvvatni saqlab turishning ajoyib vositasidir. Sport dam olish bilan mehnatni almashtirib turish manbai bo'lib ham xizmat qiladi. Shu sababdan ham kishilik jamiyatining eng ibtidoiy holatidan hozirgi kunimizga qadar jismoniy tarbiya avlodlar kamolotini ta'minlovchi vosita deb hisoblangan. Demak, o'sib kelayotgan yosh avlodning, katta yoshdagi kishilarning jismoniy barkamolligini ta'minlash faqat ota-onaning, maktabning ishigina bo'lib qolmay, balki davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy ish hamdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida «Ta'lim muassasalari va sog'liqni saqlash organlari bolalar va o'quvchi yoshlarning sog'ligini saqlash va mustahkamlash uchun zarur choralarni ko'radilar. O'quv-tarbiya jarayonining sog'lomlashtirilishiga qaratilgan yo'nalishni ro'yobga chiqarish, sog'lom turmush tarzi normalarini joriy etish uchun sharoitlar ta'minlanadi», deb ta'kidlangan. Mehnat jamoalari, aholi zich yashaydigan joylarda fuqarolarning jismoniy rivojlanishlari uchun sport komplektlari, inshootlari, tarmoqlari barpo etish ommaviy tus oldi. Bu sohaga e'tibor O'zbekiston mustaqilligidan keyin hukumatimizning diqqat e'tiborida bo'lmoqda.

Masalan, stadionlar, basseynlar, tenns kordlari, kurash maydonlari, xokkey, futbol, shaxmat va shashka klublari va boshqalar.

A.Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq va ma'rifatga ega bo'lmoq uchun badanni tarbiya qilmoq zarur. «Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qitmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz vujud lozimdir. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarida, ishlarida kamchilikka yo'l qo'yurlar. Badan tarbiyasining fikr tarbiyaschiga ham yordami bordir...».

Jismoniy tarbiyaga bo'lgan e'tibor, g'amxo'rlikning kun sayin oshib borishi fikrimizning yorqin dalilidir. 2000 yilni Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan «Sog'lom avlod» yili deb e'lon qilinishi ijtimoiy ahamiyatga ega.

Jismoniy tarbiya mazmuni jismoni kamolot, jismoniy holat diagnostikasi, jismoniy tarbiya madaniyati, sport ishlari, jismoniy ma'lumot tushunchalarida o'z ifodasini topadi. Jismoniy kamolot yosh avlod ichki a'zolarining o'zgarishi, o'sishidir. Birinchi navbatda yurak va o'pka, shuningdek asab va harakat tizimi, tana shaklining o'zgarishi, teri-muskul tizimi og'irligi, tananing mukammal rivojlanishidir. Pedagogik tushunchada jismoniy kamolot deganda, insondagi jismoniy ma'lumotning o'sishi borasidagi o'zgarishlar, ya'ni oddiydan murakkabga, pastdan-yuqoriga, nomukammallikdan mukammallikka tomon o'zgarishlar tushuniladi. Uch xil tushuncha mavjud: jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish va jismoniy madaniyat.

«Jismoniy tarbiya – kishi organizmining morfologik va funksional jihatdan takomillashishiga uning asosiy, hayotiy muhim harakat ko'nikmalari va ular bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni hosil qilish va mukammallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir».

Jismoniy rivojlanish – bu hayot va tarbiya sharoiti ta'sirida takomillashib boruvchi inson organizmining biologik shakli va funksiyalarining vujudga kelish hamda o'zgarish jarayonlaridir. Bu rivojlanishning muhim, lekin yagona bo'lmagan faktoridir.

Jismoniy madaniyat – ancha keng tushuncha. U jamoatchilik yutuqlari, vosita va metodlarning barchasini qamrab oluvchi insonlarning jismoniy rivojlanishi va bilim olishiga ta'sir etuvchi umumiy madaniyatning bir qismi hisoblanadi. Jismoniy madaniyat jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismidir. Shu bilan birgalikda, jismoniy madaniyat inson va jamiyat umumiy madaniyatining ham ajralmas qismi. Jismoniy madaniyat mazmuniga quyidagilar kiradi:

1. Inson a'zolarining tuzilishi va ularning funksional kamoloti. Ichki a'zolar, asab va harakat, suyak-muskul tizimi, badanning uyg'unligi va ularning funksional faoliyatini boshqaradi.
2. O'quvchilarning sog'ligini mustahkamlash.
3. Gigiyena qoidalariga ko'niktirish.
4. O'quvchilarning har tomonlama mohirligini o'stirish.
5. Bo'lajak ishchilarning jismoniy va fiziologik sifatlarini shakllantirish, ish qobiliyatini oshirish.
6. O'quvchilarning jinsiy va yosh xususiyatlari uchun sharoit yaratish.

7. O'quvchilarning iroda, chidamlilik, qat'iyan intizom, do'stlik hissini kamol toptirish.

8. Shaxsiy jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalash.

Shaxsda yuqoridagi jismoniy madaniyatni shakllantirish ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu vazifalarni maktab o'quvchilarida amalga oshirish kelajakda ularni ijtimoiy hayotga, oilaga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Jismoniy madaniyat – sport ishlari yoki oddiy sport sho'balari, klublari, guruhlar yoki ommaviy musobaqalarda va hokazolarda namoyon bo'ladi. Jismoniy mehnat to'g'ri yoki noto'g'ri tashkil etilishiga qarab yoshlarga ijobiy yoki salbiy ta'sir etishini unutmaslik kerak. Har qanday sharoitda ham jismoniy mehnat turlarini jismoniy tarbiya mazmuniga kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy ta'sir – bu inson badaniga yoki biron bir buyum bilan yo insonlar tomonidan (qo'l, oyoq, badan orqali) ta'sir ko'rsatishdir. Yaqin vaqtlargacha bu haqda juda oz fikrlar bildirilgan va uni pedagogik ta'sir deb kelingan edi. Uning qayta tug'ilishi Sh.A.Amonashvili nomi bilan bog'liqdir. U o'z tajribasida o'quvchilarni aqliy faoliyatlarini rag'batlantirish maqsadida jismoniy ta'sir ko'rsatishdan tez-tez foydalandi. Masalan, bolalarning boshini silash, qo'lini bolaning yelkasiga oyista qo'yish, ularni ruhlantirish, partadagi bolalar yoni o'tirib hamkorlik bildirish orqali ta'sir ko'rsatish vositasida tarbiyalash samaradorligiga erishadi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi to'siq bartaraf etiladi va osoyishtalik, bir-biriga ishonch ruhi qaror topadi.

A.D.Ushinskiy ta'kidlab o'tganidek, mehnat kishining aqliy qobiliyatining rivojlanishiga va axloqiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bolani ilk yoshidan jismoniy va aqliy mehnatga o'rgatib borish ota-onalar, o'qituvchilarning ijtimoiy vazifasidir. Jismoniy tarbiya nazariyasining asoschisi P.F.Lesgaft bu masala yuzasidan puxta va ilmiy asoslangan fikrlarni bayon qilgan: «Rivojlanish – jismoniy rivojlanish singari garmonik bo'lishi, aqiy estetik va axloqiy tarbiya ham shunga muvofiq bo'lishi kerak, aks holda matonatli va sobit qadam kishilarni yetkazib bo'lmaydi».

Lesgaftning fikricha: «Jismoniy tarbiyaning vazifalari o'quvchilarni o'z harakatlarini boshqara bilishni o'rgatishdan iborat, ya'ni eng kam mehnat, eng qisqa vaqt ichida ongli ravishda eng ko'p jismoniy ish bajarish yoki go'zal va ildam harakat qilishdir».

O'quvchilarni jismoniy tarbiyalashda quyidagi asosiy vazifalar hal etiladi:

1. Sog'liqni mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanish hamda uning ishlash qobiliyatining oishiga ta'sir etish.

2. O'quvchilarda yangi harakat turlariga ko'nikma va malakalarni hosil qilish va ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish.

3. O'quvchilarning yoshiga, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilikning) asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish.

4. O'quvchilarda o'z sog'ligiga ongli munostabatni tarbiyalash bo'lib, bu ularning gigiyena qoidalariga rioya qilishlarida, ertalabki gimnastika bilan shug'ullanishlarida hamda sport mashg'ulotlarida qatnashishlarida ifodasini topadi.

«Biz aytamizki, - deydi Ibn Sino – badan tarbiya kishini chuqur va katta nafas olishga majbur qiluvchi ixtiyoriy harakatdir. Mo'tadil ravishda va o'z vaqtida badan tarbi bilan shug'ullanuvchi odam, bu buzilgan xiltlar (qon, safro, balg'am)

tufayli kelgan kasalliklarning va mijoz hamda ilgari o'tgan kasalliklar tufayli keluvchi kasalliklarga muhtalo bo'lmaydi» (Tib qonunlari. 1-kitob, 1953 y, 305-bet).

Kishi organizmini chiniqtirishda jismoniy mashg'ulotning (kishi organizmiga) roli katta ekanligini tabiiy-ilmiy tomondan Ibn Sino asoslab bergan. U muntazam suratda jismoniy mashq qilib turish, boshqa rejimlarga (uyqu, ovqatlanish, badanni toza tutish) qat'iy rioya qilish sog'liqni saqlashda eng muhim va asosiy shartlardandir deb bildi.

Ibn Sino kishi organizmini chiniqtirish va taraqqiy ettirishda tabiat kuchlaridan: (quyosh, suv, havo) foydalanish katta ahamiyatga ega ekanligi, jismoniy mashqning kishidagi sezgi organlarini taraqqiy ettirishi uchun ham katta rol o'ynashini isbot qilib berganligini ko'ramiz.

Sino mashqlarni: «Kichik yoki katta, juda tez yoki sekin, sust mashqlar bo'ladi» - degan edi Tib qonunlari kitobida (314-315 betlarida).

Mashhur rus adibi L.N.Tolstoy «Agar mushuklarimni ishsiz qoldirganimda ahvolim allaqachon yomonlashgan bo'lardi. Ana shu ishgina menga shirin uyg'u, tetik kayfiyat baxsh etadi», - deb ta'kidlagan edi.

O'quvchilarni ijtimoiy foydali, unumli, jismoniy mehnatga tarbiyalashda jismoniy tarbiya katta rol o'ynaydi. Jismoniy mehnat sog'lom bo'lishni talab qiladi. To'g'ri uyushtirilgan, yaxshi sanitariya-gigiyena sharoitlarida qilinadigan jismoniy mehnat sihat-salomatlikni yaxshilash va jismoniy o'sish uchun imkon beradi.

Maktabda jismoniy tarbiya o'quvchilarda asosiy harakat ko'nikmalarini (kuchlilik, epchillik, tezkorlik, sabr-matonat) paydo qilgan va rivojlangan holda, ishlab chiqarish ta'limi uchun ham mustahkam zamin yaratadi. Jismoniy tarbiyaning tarixiy tajribasi baquvvat, chidamli, epchil kishi o'ziga notanish ishni, mehnat operasialarini harakat qilishda ozroq ko'nikma hosil qilgan nimjon, sust, beso'naqay kishilarga qaraganda tezroq o'zlashtira olishini ko'rsatadi.

O'qimishli, har tomonlama o'sgan yangi kishini, a'lo sportchini tarbiyalab yetishtirish uchun maktablar keng imkoniyatlarga ega.

Maktabda kuchli aqliy mehnat bilan faol jismoniy harakatni bir-biri bilan oqilona bog'lab olib borish o'qish jarayonini yanada samaraliroq qiladi jismoniy tarbiya darslari bu sohada yetakchi o'rin egallaydi. Darsning mazmuni maktab rejasi bilan belgilanadi. Bu darslarda har bir sinf uchun o'quv materiali tegishli pedagogik vazifalar bilan belgilanadi.

O'quvchilarning sog'ligini mustahkamlash va organizmini chiniqtirish – maktabda jismoniy tarbiya sohasidagi asosiy vazifalardan biridir. Jismoniy tarbiya mashqlari bilan shug'ullangandagina sog'liqni mustahkamlash va organizmning chiniqishiga erishish mumkin. Nafas olish, yurak tomir hamda organizm boshqa sistemalari va funksiyalarining faoliyatiga kuchli ta'sir qiladigan muskullarning ko'p qismini ishga soladigan mashqlardan foydalanish bu ishda alohida ahamiyatga ega. Shunday jismoniy mashqlarga: yugurish, sakrash, irg'itish, chang'ida yurish, suzish, harakatli va sport yo'inlari kiradi.

O'quvchilarning sog'ligini mustahkamalashda maktabning mashg'ulot rejimida ko'zda tutilgan ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlari, chunonchi har kuni

dars boshlanishidan oldin gimnasitika bilan shug'ullanish, darslarda jismoniy tarbiya minuti o'tkazish, katta tanaffus paytida ochiq havoda o'yinlar va jismoniy tarbiya mashqlari o'tkazish, o'quv yilida ommaviy jismoniy madaniyat-sog'lomlashtirish tadbirlari uchun 6-7 kun vaqt ajratish, barcha o'quvchilarni jismoniy tarbiya bo'yicha sinfdan tashqari ishga jalb qilish tadbirlari katta rol o'ynamog'i kerak.

Mustaqamlash uchun savollar:

1. Tarbiya metodlari deb nimaga aytiladi? Tarbiya metodlari xaqida sharq - g'arb mutafakkirlari qanday fikrlarni bildirgan?
2. Ijtimoiy ongni va xulq - atvorni shakllantirish metodlarini qanday izohlaysiz?
3. Rag'batlantirish, jazolash metodlarining maqsad va vazifalari nimadan iborat?
4. O'z - o'zini tarbiyalash metodini qanday tushunasiz va u qanday tarkiblardan tashkil topadi?
5. Nega o'qituvchi tarbiya metodlarini bilishi shart? Siz uni qanday izohlaysiz?
6. Nima uchun insonni shakllantirishda iqtisodiy tarbiya tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi?
7. Maktabda iqtisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
8. Iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishning qanday shakllari mavjud?
9. Nega o'quvchilarda iqtisodiy ko'nikma va odatlar tarbiyalanadi?
10. Huquqiy tarbiya nima uchun inson erkinligini ta'minlaydi?
11. Maktabda huquqiy tarbiya nima uchun amalga oshiriladi va qanday maqsad va vazifalarni nazarda tutadi?
12. Maktabda huquqiy tarbiya qanday shakllarda olib boriladi?
13. Nima uchun o'quvchilarda huquqiy ko'nikma, odat va madaniyat tarkib toptiriladi?

7-Mavzu: Ta'lim muasasasasi menejmenti

Reja:

1. Boshqarish haqida umumiy tushuncha.
2. Boshqarish qoidalari
3. Maktabni boshqarishda demokratiyalashtirish.
4. Maktab ishini rejalashtirish

Tayanch so'z va iboralar

Maktabni ichki rejalashtirish, gimnaziya, lisey, mahoratli o'qituvchi, zamonaviy fanlar, o'qitish vositalari, ko'rgazmali qurollar

1.

Jamiyatimizning muvaffaqiyat bilan rivojlanishi uchun u yuksak salohiyatga ega bo'lishi kerak. Shu sababli jamiyatimiz a'zolarining ongi, ma'naviy madaniyati, qanchalik yuqori bo'lsa, Respublikamizda qayta qurish

ishlari Shunchalik muvaffaqiyat bilan amalga oshiriladi. Ijtimoiy tarbiyani, ilm va ma`rifat berishni, aholiga madaniy, maishiy xizmat ko`rsatishni ilmiy asosda boshqarish zarurati ana Shundan kelib chikadi.

Jamiyatning ma`naviy hayotini boshqarish oldiga qo`yilgan maqsad esa ilm-ma`rifatni, madaniyatni, har tomonlama kamol topgan yuksak intellektual, yuksak darajadagi pok va axloqli kishini tarbiyalab etishtirishdan iboratdir.

Har qanday miqiyosidagi bevosita ijtimoiy yoki birgalikda qilinadigan mehnat-idora qiluvchiga ma`lum darajada muxtojdir. Bu ibora qiluvchi individual ishlarni bir-biriga muvofiqlashtiradi va ishlab chiqarish organizmining mustaqil organlari harakatidan farq qilib, butun organizm harakatidan kelib chikadigan umumiy vazifalarni bajaradi. Yakka skripkachi o`zini-o`zi idora qiladi. Lekin, orkestr esa - dirijyorga muxtojdir. Demak, to`g`ri boshqaruvning muhim sharti - boshqaruvchi - rahbarning bo`lishidir.

Ijtimoiy-siyosiy hayotni boshqarish oldiga qo`yilgan maqsad ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etish, jamiyatning ijtimoiy o`z-o`zini idora qilishga aylantirishdir.

Ijtimoiy tarbiyani, ilm va ma`rifat berishni, aholida maishiy-madaniy xizmat ko`rsatishni ilmiy asosda boshqarish zarurati ana shundan kelib chiqadi. Eng yangi ilmiy texnika inkilobi asarida ma`naviy ishlab chiqarishning fan kabi sohasini boshqarish g`oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatning va uning har bir ayrim a`zosining ma`naviy rivojlanishini boshqarish - umumiy ta`lim maktablari, maktabgacha, maktabdan tashqari bolalar muassasalari, xalq ta`limi organlari, hunar-texnika bilim yurtlari, o`rta maxsus va oliy o`quv yurtlari, pedagogik qadrlar malakasini oshirish institutlarini boshqarishni, fan adabiyot, san`at, madaniyat, sog`likni saqlash kabi sohalarni boshqarishni o`z ichiga oladi. Shunga ko`ra xalq ta`limi tizimini boshqarish, jumladan, umumiy ta`lim maktabini boshqarish ijtimoiy boshqaruvning ajralmas qismidir.

Boshqaruv taraqqiyotning har qanday bosqichida jamiyatga xos bo`lgan ichki xususiyatdir. Bu xususiyat umumiy xarakterga ega. Boshqaruv xalq manfaatini ko`zlagan holda demokratik uslub negizida amalga oshiriladi. O`z-o`zidan ravshanki, bunday boshqaruv jarayonida inson omiliga, xususan, millat manfaati va milliy qadriyatlarni takomillashtirishga alohida e`tibor qaratiladi.

Boshqaruv mehnati insonning boshqaruv vazifalari amalga oshirish jarayoni bajariladigan harakat va jarayonlarda o`zining aniq ifodasini topadi. Boshqaruv vazifalari yordamida esa sistemaning harakatlari, rivojlanish va takomillashuvi, uning barqarorligi va hayotchanligi ta`minlanadi. Quyidagi bosh vazifalarni ajratib ko`rsatish mumkin: qarorlarning bajarilish jarayoni pedagogik tahlil qilish, rivojlantirish, tashkil etish, nazorat qilish va tartibga solib turish.

Pedagogik jarayonning samaradorligi maktab rahbarining boshqaruv vazifalarini sifatli bajarishlari, ularning faol va uyg'un hamkorligi bilan bab-barobar belgilanadi, ulardan bir-birining ahamiyatlarini pasaytirib yuborish muqarrar ravishda butun sistema birligining buzilishiga olib keladi.

Rejalashtirish ilmiy boshqarish va rahbarlarning markaziy butunligini va asosini reja va har qanday jamoa faoliyatining aniq maqsadlari hamda vazifalari va

unga erishish vositalarini belgilab beradi. Rejaning ahamiyati yana shundan iboratki, u pirovard natijada faqat nimaga erishish kerakligini emas, balki buni qanday uddalash, rejani bajarishning qanday rivodlanish kerakligini ko'rsatib bermasligi kerak. Rejalashtirishga faqat kelajak emas, balki o'tmish, o'tmishning tajribasi ham ta'sir qilar ekan.

Maktab ichki rejalashtirish masalalari ko'pgina pedagogik olimlarning ishlari bilan asoslanib berilgan. Rejalashtirishning mohiyati maktab xodimlarini qo'yilgan maqsadga erishish, qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan jamoa tarziga va yakka tartibdagi mehnatni vaqt jihatidan oqilona taqsimlashdan iboratdir.

Maktab rahbari rejalashtirishning tashkil etishning muntazam yondashuviga amal qilmog'i lozimdir, bu yondashuv rejalashtirishning maqsad va vazifalari, ularning tuzilishi va mazmuni, rejalashtirish metodlari va uning bajarilishini tashkil etish xususiyatlarini dialektik birligi va uzaro bog'liqligini rejalashtirishning boshqa boshqaruv vazifalari bilan uzaro xarakterlarini nazarda tutadi.

Maktab rejalarining xilma-xilligini kupgina belgilariga ko'ra vaqt bo'yicha (besh yil o'quv yili, yarim yili, chorak, oy, hafta) shakliga ko'ra (yozma, grafik detali) tuzilishi birligiga ko'ra maktabning ish rejasi, o'quvchilar tashkilotlari, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, metod birlashmalarining va ularning o'z-o'zini boshqaruv organlarining ish rejasini ta'kidlar ekanmiz, biz maktab ishini o'quv yiliga rejalashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarga qarab chiqish bilan chegaralanamiz va mazkur masala mohiyatini ana shu nuqtai nazardan yoritib beramiz.

Boshqarish omillari

Ishlab chiqarishni boshqarish omillari deganda - boshqaruv mehnatining maxsus turlarini, boshqariluvchi ob'ektlarga ta'sir ko'rsatishning u yoki bu yo'nalishlarini tushunmoq kerak. Boshqaruv omillariga: rejalashtirish, tashkil qilish, sozlash (kordinatsiya qilish), nazorat qilish, hisob-kitob qilish kiradi.

Rejalashtirish - boshqariluvchi ob'ektlarni rivojlantirish va modellashtirishni, prognoz qilishni ham o'z ichiga oladi.

Tashkil qilish - ishlab chiqarish ob'ektining tuzilishini va boshqaruv tuzilishini tanlab olish hamda shakllantirishdir. Tizimning tuzilishi elementlari o'rtasidagi munosabatlarini va ularning o'zaro harakatini belgilashdir.

Nazorat qilish - ishlab chiqarishning amaldagi jarayonini va taraqqiyotini rejaqa qanchalik muvofiqligini kuzatib va tekshirib turishdan iboratdir.

Nihoyat, hisob-kitob qilish esa rejani yoki uni amalga oshirishdagi muayyan bosqichlarning qanday bajarilayotganligiga yakun yasashdir. Hisobga olish, axborotlarni yakunlashga, uni tizimga solishga imkon beradi. Shuningdek, u mazkur tizimning keyingi davrga mo'ljallangan ish dasturini ishlab chiqish uchun axborot bazasidan to'liq foydalanishga imkon beradi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, yuqorida sanab o'tilgan boshqarish omillarini xalq xo'jaligimizning hohlagan sohasiga, jumladan, maktab-maorif sohasiga ham to'liq ma'noda tadbiiq qilish mumkin. Lekin, mazkur omillarning konkret mazmuni turli boshqaruvchi tizimlarga bog'liq bo'ladi.

Demak, biz fikr yuritayotgan funksiyalar ijtimoiy boshqaruvning mazmunini tashkil qiladi. Modomiki, shunday ekan, maktab-maorif sohasidagi har bir rahbar xodim o'zining boshqaruv ish tuzimini mazkur boshqaruv omillari asosida tashkil qilsa, bu borada so'zsiz yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Buning uchun esa, mazkur boshqaruv omillari va ularning mohiyatiga to'liq tushunib olmoq lozim.

Maktabda boshqaruv mehnati bilan shug'ullanuvchi kishilar (maktab direktori, direktorning o'quv tarbiya va xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosarlari, ma'naviyat bo'yicha o'rinbosari, metod birlashma rahbarlari, kasaba uyushmasi tashkilotining raisi) boshqaruv apparatlarini tashkil etadi. Boshqarishning barcha bo'g'in va bosqichlaridagi xodimlar ham shu apparatga mansubdirlar. Boshqaruv apparatining bir qismini kishilarni boshqaruvchi shaxslar (maktabdagi rahbarlar) tashkil etsa, ikkinchi qismini ijrochilar (o'qituvchi, tarbiyachi, yoshlar tashkilotchisi, sinf rahbarlari, metod birlashmalarning a'zolari, texnik xodimlar) tashkil etadi.

Boshqarish sohasidagi ijrochi xodimlarni ikkita asosiy guruhlariga:

a) mutaxassislariga(o'qituvchi va tarbiyachilarga):

b) texnik xodimlarga(laborant, farrosh, elektrchi-montyor, maktab korovuli kabilarga) bo'lish mumkin.

Maktabga o'qituvchi, tarbiyachi va texnik xodimlarni to'g'ri tanlash va ularni to'g'ri joyiga qo'yish,- maktab ichki boshqaruvidagi muhim masalalardan biridir. Maktab xodimlarini tanlash bobida quyidagi qoidaga rioya qilish bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab xodimlarini tanlashda ularning:

a) siyosiy bilimi jihatidan:

b) xalolligi nuqtai nazaridan:

v) ish bilishi jihatidan:

g) ma'muriy qobiliyati jihatidan yondoshishi o'rinli bo'ladi. Bizningcha, idora qilish uchun ishni bilish kerak, hamma narsadan xabardor bo'lmasdan turib, to'la-to'kis bilimga ega bo'lmasdan turib, idora qilish ilmini bilmasdan turib boshqarish mumkin emas.

Ishning ko'zini bilish, uyushqoqlikni boshqaruv apparati ishidagi asosiy narsa deb hisoblaymiz.

2.

Maktab ma'orifni boshqarish shakllari va metodlari Respublikamiz iqtisodiy taraqqiyotining har bir bosqichida jamiyat xal qilishi lozim bo'lgan vazifalarga muvofiq o'zgarib va takomillashib boradi.

Maktab ichki boshqaruvini boshqarish qoidalari asosida tashkil qilish hozirgi davrining muhim talablaridan biridir. Biz quyida mana shu boshqarish qoidalariga alohida to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1. Demokratizm qoidasi.

Bu qoida hozirgi davrda jamiyatimiz yanada demokratlashtirish, xalqning o'z-o'zini boshqarishni chuqurlashtirish bobida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Demokratizmni asossiz ravishda mustaqillishtirish oddiy xodimlar tashabbusining cheklanishiga, sub'ektivizmga olib borishi mumkin. Demokratizm

uchun ilmiy asoslangan pishiq-puxta tashkiliy tuzilish yaratib qo'yilgan bo'lmasa, mehnatkashlarni jamoat ishlarini boshqarish ko'nikmalari ruhida tarbiyalash sohasidagi ish zaif bo'lsa, demokratizmga zid bo'lgan anarxiya tomonga "og'ish" sodir bo'lishi mumkin. Mana shu sabablarga ko'ra demokratizm bobida jamiyat erishgan rivojlanish darajasiga mos keluvchi to'g'ri nisbatni belgilash va davom ettirish hozirgi bozor iqtisodiyoti davridagi muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Demokratik qoida vazifalarni xal etishdagi andozachilikka ham, shuningdek, ko'pchilikning xohish-irodasini mensimaslikka ham, mahalliy organlarni, mehnat jamoalarini manfaatlariga qarama-qarshi qo'yishga ham toqat qila olmaydi.

Demokratik qoidani amalga oshirilishi tashabbus va izlanishning jamiyat qonunlari va normalariga bekami-ko'st rioya etishga asoslangan juda ham mustahkam intizomlilik, namunali uyushqoqlik bilan uzviy birligini taqozo etadi. Intizomsiz demokratiya, ayrim xodimlarning hisobot bermaydigan "cheksiz qollegialchiligi" muqarrar ravishda tartibsizlik va boshboshdoqlikni keltirib chiqaradi. Shablonlashtirish kam, yuqoridan turib bir xil andoza bichib berish ham, demokratiyaga butunlay yot narsadir.

Bizningcha demokratik qoidaning muhimligini uqtirish bilan birga, uning harakteri yakka boshchilikni qollegiallik bilan qo'shib olib borishda namoyon bo'lishini alohida ta'kidlash lozim.

Gap shundaki, maktab amaliyotda pedagogik mehnatni ilmiy tashkil qilish muammosi ko'pincha darsda vaqtdan unumli foydalanishdan, sinfdan tashqari tadbirlardan va o'qituvchi-tarbiyachilarning ijtimoiy topshiriqlarini tartibga solishdan iborat deb qaraladi. Bular, shubxasiz, muhim, albatta. Lekin pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etish mazmuni ancha keng bo'lib, unga, avvalo, xodimlarning malakasi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni tanlash va joy-joyiga qo'yish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda qo'llanilayotgan metodlar tizimini uzluksiz takomillashtirish va ta'lim-tarbiya jarayoniga texnika vositalarini joriy etish masalalari kiradi.

Unda pedagogik ish rejimini, maktabning kunlar, haftalar, oylar va choraklar bo'yicha ish tartibini takomillashtirish, pedagoglar kengashi majlislari, ilmiy-uslubiy pedagogik harakterdagi konferensiyalar, yig'ilishlar, kengashlar kabi tadbirlarni o'tkazish va bu ishni mohirona rejalashtirish hamda boshqarishni takomillashtirish ko'zda tutilgan.

Boshqarishning jamoatchilik va shaxsan mas'ullik qoidasi

Jamoa va jamoa maslahati to'g'ri rahbarlikning garovidir. Jamoa yo'li bilan xo'jalikni boshqarish va unga rahbarlik qilish, eng muhim qarorlarni birgalikda, maslahatlashib ishlab chiqish to'g'ri boshqaruvni tashkil qilishning muhim shartidir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, umumiy ta'lim maktablarida barcha boshqarish masalalarini o'zaro muhokama qilish va xal etish, maktabdagi har bir shaxsning muayyan, aniq va qat'iy belgilangan topshiriq hamda amaliy ishlarni bajarish uchun javobgar ekanligini qat'iy belgilash ishi bilan qo'shib olib borish, bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, bu qoidani yakkaboshchilik

bilan qo`shib olib borish, nihoyatda muhim vazifalarni jamoa bo`lib xal qilishni ta`minlaydi.

Yakkaboshchilikni mustahkamlash xodimlarni topshirilgan ish uchun javobgarlik hissini oshiradi, rahbarlik qilishda qat`iy tartib bo`lishini va mustahkam mehnat intizomini ta`minlaydi. Maktabning tajribasi shu narsani yaqqol ko`rsatmoqdaki: yakka boshchilik jamoa bo`lib rahbarlik bilan birga qo`shib olib borilgandagina o`quvchilarimizga fan asoslaridan chuqur bilim berish va ularni o`zbek milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdek qiyin hamda sharaflı ishda yaxshi natijalarga erisha olamiz.

Boshqarishda ijroni tekshirish qoidasi

Ijroni tekshirishdan ko`zda tutilgan asosiy maqsad (tekshirishning asosiy vazifasi)- belgilangan ish rejasi va tadbirlarni amalga oshirishni barbot etish extimolining oldini olishdan, kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishdan, qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta`minlashdan, ishni amaliy tashkil qilishdan iboratdir. Ijroni tekshirish yuqori tashkilotlar ko`rsatmalarining va o`z hujjatlarining qat`iy va so`zsiz bajarilishini ta`minlaydi. Bu esa, u yoki bu qarorga zarur tuzatishlar kiritish, bundan buyongi vazifalarni aniqlash, maqsadga erishishning shakli va yangi metodlarini belgilash imkonini beradi.

To`g`ri yo`lga qo`yilgan ijroni tekshirish-xalq xo`jaligining barcha tarmoqlarida, xususan, xalq ta`limi tizimini maktab sohasidagi barcha vazifalarni muvaffaqiyatli xal qilishning zarur shartidir. qaror bilan ijroning birligi, to`g`ri rahbarlik uslubining negizini tashkil etadi. Ishning ko`zini bilib tashkil etilgan ijroni tekshirish ana shunday birlikni shubxasiz ta`minlaydi. U xodimlarda, o`qituvchi va tarbiyachilarda o`ziga hamda boshqalarga nisbatan yuksak talabchanlik va printsiptollikni tarbiyalaydi, topshirilgan ish uchun ma`suliyat hissini kuchaytiradi, intizomni mustahkamlaydi. Kishilarda qiyinchiliklarni yengishda, sabot matonat, tashabbuskorlikni, muvaffaqiyatga erishish uchun uzluksiz sobit qadamlik bilan ishlashga intilish hislarini tarbiyalaydi.

Boshqarishning rejalik qoidasi

Maktab ichidagi boshqaruv apparati faoliyatida muayyan tizimning bo`lishi muhimdir. Buning ma`nosi avvalo shundan iboratki, bu ish tasodifiy bir-biriga aloqasi bo`lmagan tadbirlar yig`indisidan iborat bo`lmay, balki konkret sharoitni, vaziyatning hususiyatlarini hamda butun pedagoglar jamoasi oldidida, shuningdek, uning ayrim zvenolari oldida turgan vazifalarning hususiyatini qat`iy sur`atda tartibga solingan, bir-biri bilan bog`langan va chuqur o`ylab ko`rilgan tadbirlar yig`indisidan iborat bo`lishi kerak.

Boshqarishning rejalilik qoidasi, xalq ta`limiga, jumladan, maktabga rahbarlik qilish va uni boshqarish sohasidagi rejalarni xukumatimizning maorif sohasidagi siyosatini va hisobga olgan holda tuzilishi lozim. Rivojlantirishda ishning mohiyatini bilish, maqsadni maxorat bilan hal etishning asosiy bo`g`ini bo`lishi lozim. Shuningdek, xalq ta`limi organlarining, jumladan, maktabning ham rejasini aniq tadbirlar mavzusi asosida maqsadga qaratilganlik, aniq, muntazam va izchil ish olib borish kabi hususiyatlarga ega bo`lishi, shuningdek, unda u yoki bu tadbirni bajarish uchun javobgar shaxslarni aniq ko`rsatilgan bo`lishi maqsadga muvofiqdir.

Boshqarishning samaradorlik va tejamkorlik qoidasi.

Mazkur qoida asosida boshqarish va rahbarlikning asosiy maqsadi hamda vazifasi xom-ashyo materiallari, mashina va stanoklar, qattiq va yumshoq inventarlar, o'qituvchilar, texnik xodim va ishchilar, moliya resurslari hamda vaqt byudjetidan to'g'ri va o'rinli foydalanishni ta'min etishdan iboratdir.

Vaqtning tejash qonunining mohiyati jamiyatdagi o'sib borayotgan ijtimoiy talablarni qondirish uchun ketadigan sarfni kamayib borishida va butun jamiyat va butun uning har bir a'zosining har tomonlama taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan barcha vaqtni ortib borishida ko'rinadi.

Vaqtning tejash va mehnat unumdorligini oshirish bobidagi mazkur qoida to'liq ma'noda maktabning ichki boshqaruv sistemasiga ham taalluqlidir. Maktab rahbarlari o'zlarining boshqarish ish sistemalarida o'qituvchi, tarbiyachi va o'quvchilarning vaqtini tejash masalasiga alohida e'tibor bilan qarashlari lozim.

Shuning uchun ham maktab ichki boshqaruvini tashkil qilish va uni amalga oshirishda mazkur masalaga e'tiborni kuchaytirishning pedagogik ahamiyati juda ham kattadir.

3.

Xalq ta'limi tizimi va maktabni boshqarishning eng muhim qoidasi-demokratiyalashtirishdir. Bu haqda hozirgi mustakillik davrida jamiyatni yanada demokratiyalashtirish muxim ahamiyat kasb etmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xujalikni boshqarish tizimining eng asosiy sharti bulgan demokratik koidaning goyat makbul shakillarini izlab topishi bugungi muxim va dolzarb muammolardan biridir. Maktablarni boshqarishda, ayniksa, demokratik akida, konun koidalari nixoyatda muximdir.

Maktabdagi o'qitish jarayonida, maktab faoliyatini tartibi va konun koidalariga juda kup uzgarishlar kiritildi. Bu uzgarishlar xar bitta insonlarning dunyo karashi va bilim doiralarini kengayish sababidir. Avvalo ukuvchilar bilim olishlari uchun juda xam keng sharoitlar yaratilgan. Chukurlashtirilgan gimnaziylar, muzeylar ukuvchilarning bilim doiralarini chukurlashtirishga keng yul ochib bermokda. Chukurlashtirish - bu avvalo uz ustida ishlash, izlanish degani demakdir.

Ana shunday gimnaziya va liseylar uchun esa kobiliyatli, bilimli ukuvchilarni saralab, ularni kelajaklariga poudovor yasashga keng yul kuyildi. Albatta, bu poydevorni bilimdon mutaxassis ukituvchilar tayyorlaydi. Endi ana shunday ukituvchilarni saralab ular ichidan eng bilimdonlarini tanlab olish payti yetib keldi. Bu esa ukituvchi va bulajak pedagoglarni uz ustida tinmay ishlashini talab etadi. Chunki, bunday kobiliyati bilimdon ukituvchilarga talab va extiyoj juda katta buladi.

Mutsaqil O'zbekiston jaxonga yuz tutdi. Shu sababali undagi yashovchilar insonlarning bilimlari jixatidan kengayib bormokda. Xozirgi zamonamizdagi ukuvchilar ana shundaylardandir. Xayot kanchalik oldinga borgan sari ular xam shunchalik kup narsa bilib olmokdalar va buni ustozlaridan talab etmokdalar. Bu

esa ukuvchilarni, ustozlarini dars utish jarayonini analiz kilib boradi, ularning dars utishi yokmasa, oshkora bilimdon usullarini talab qilishlari mumkin.

Dars o'tishda avvalom bor bulgan an'anaviy reja buyicha dars utish bekor kilindi. Chunki, ukituvchi sinfga kiradi, utilgan darslarni takrorlaydi. Yangi mavzu utadi, ana shunday tartibda xar doimgi darslar takrorlanadi. Noan'anaviy dars utish usuli xar bir maktabga kirib bormokda. Mavzuni bolalar ongiga yetkazish, ukuvchini uzini maxoratiga boglik. Maxoratli ukituvchilarimizdagi uslubiyotlarini o'qitish ulardani ilgor tajribalarni almashtirish o'kuv jarayonini kengayishiga va mustaxkamlashiga keng yo'l ochib beradi. Maktablarda maktab rahbarlarini saylash oshkora ovozga kuyish orkali fikr muloxazalar, takliflar kiritish orkali amalga oshirilmokda.

O'rta, oliy bilim yurtlariga qolaversa, maktbaga qabul qilish va o'qitish sharoitlariga test sinovlari kiritildi. Bu esa avvalgi imtixon va sinovlardan ancha a'lorok va mukammalrokdir. Yukorida aytib utganimizdek, maktab direktorlarini saylash xukuki ukituvchilarga beriladi. Maktabda usib o'qitish, bitirayotgan ukuvchilarni yutuk va kamchiliklari maktab jamoasiga tegishli va axamiyatlidir.

Avvalo maktablarda boshlangich sinflarda turli tipdagi sinflar tashkil etib, ularni sinflar orkali saralab, iktidorli sinflarga aylantirilmokda. Ota-onalarimiz xam xozirgi kunda farzandlarimiz istiklol kelajagini yanada mustaxkamlash uchun farzandlariga pullik kurslarga talab extiyojlari ortmokda. Ularni bu intilishlarini maktab jamoasi e'tiborga berishga xarakat kilmokdalar.

Iktidorli ukuvchilarni kelajagini porlok qilish uchun turli xil musobaka, olimpiadalarga katnashishlarini ta'minlab, ularning yutuklari uchun bor bilim va tajribalarini ishga solmokdalar, Ilgor ukiutvchilarni xar xil unvonlarga tavsiya etish, oshkoralik tarzida maktabga mexnati singan, ilgor, tajribalari katta, keng ommalashtirilgan ukituvchilar tavsiya etilmokda.

Ukuv jarayonida yangi zamonaviy fanlar kiritilmokda. Fan va texnikaning rivojlanish tarakkiyotiga keng yul ochib berish uchun maktab ukuv jadvalga kompyuter texnikani urganuvchi fanlar kiritildi.

Odobnoma fanlari esa ukuvchilarni milliy urf odatlarimiz, odob axlokimiz, tarbiyani mustaxkamlash uchun odobnoma fanlari kiritildi.

Avlod-ajdodlarimiz asarlarini, ularning tarixini o'qitish uchun eski yozuv fani xam dars katorlaridan urin oldi.

Uzbekistonda yuksak cho'qqiga erishishi, boshqa mamlakatlar bilan mustaxkam aloka urnatishi uchun, boshlangich sinflarga ingliz tili fanlari utkazilmokda. Xammamizga ma'lumki 2000 yilda jamiyatimiz lotin yozuvi asosida yangidan tiklanadi. Shuning uchun bolalarni lotin yozuvchiga asoslangan alifbo yordamida o'qitish juda keng ommalashtirildi.

4.

Maktab ishini rejalashtirish

Maktabda tuzilgan ish reja mazkur maktab pedagoglar jamoasi har bir a'zosining faoliyatini tartibga soluvchi qonun, ko'rsatkichlar tizimida ifodalangan davlat topshirig'idir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har qanday vazifani muvaffaqiyatli ravishda bajarish, tashkiliy tadbirlarni, shu jumladan, xalq ta'lim va maktab ishiga oid bo'lgan tadbirlarni amalga oshirish - to'g'ri rejalashtirish

mahoratiga bog'liq bo'ladi. Xalq maorifi bo'limining ishini, jumladan, maktab ishini rejalashtirish-avvalo uning vazifalarini, faoliyat mazmuni va metodlarini aniqlashdan iboratdir.

To'g'ri tuzilgan ish rejasi - xatoga yo'l qo'ishdan asrash bilan birga, ilgari yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tugatishni ham ta'minlaydi. To'g'ri tuzilgan reja rahbarlari uchungina emas, ayni vaqtda muallimlar jamoasining har bir a'zosi uchun ham yo'l ko'rsatuvchidir. Shuning uchun ham maktab ishini rejalashtirish maktab ichki boshqaruv tizimida muhim o'rinni egallaydi va muhim pedagogik ahamiyatga molik bo'lgan masaladir.

Maktab ish rejasining turlari

Umumtiy ta'lim maktablari uchun shartli ravishda qabul qilingan ish rejalari mavjud.

Ular quyidagi rejalaridir:

1. Maktabning ma'lum istiqboli davrga mo'ljallab (bir besh yillik uchun) tuzilgan ish rejasi. Bu maktabning **istiqbol ish rejasi** deb ataladi.

Bu ish rejasi umummaktab xalq xo'jalik reja (ko'rsatkichlari asosida tuziladi. Bunda maktabning ma'lum davrga rivoji o'quv moddiy va texnika bazasi, maktab qurilishi, o'quvchi va o'qituvchilar soni, sinflar soni, o'quv kabinetlarining soni kabilar) turli raqamlar asosida ko'rsatiladi.

2. Maktabning bir o'quv yiliga mo'ljallab tuziladigan ish rejasi.

Mazkur reja maktabning istiqbol ish rejasining shu o'quv yiliga tegishli bo'lgan qismi hamda maktab oldida turgan vazifalarni hisobga olgan holda tuziladi.

Maktabning bir o'quv yiliga mo'ljallangan ish rejasi maktab ish turlari asosida ishlanadi. Maktabning mazkur ish rejasining mazmuni va mundariyasi xususida biz keyinroq to'xtaymiz.

3. Maktabning joriy ish rejasi. Mazkur reja maktabning bir o'quv yiliga mo'ljallab tuzilgan ish rejasi asosida ishlanadi. Bu reja turkumiga:

- maktab direktori va uning o'rinbosarining bir o'quv yiliga mo'ljallab tuzadigan ish rejalari:

- maktabda fanlar bo'yicha tashkil etilgan metodik birlashmalarning ish rejalari:

- sinf rahbarining ish rejalari:

- fan to'garaklari yakuni uzaytirilgan guruppa rahbarlarining ish rejalari:

- maktab kutubxonasining ish rejalari;

- maktab ustaxonasining ish rejasi;

- maktabning ota-onalar komitetining ish rejasi;

- maktab vrachi va hamshirasining ish rejasi;

- har bir boshlang'ich va fan o'qituvchisining kalendar' va kundalik darsni o'tkazish rejasi kabi rejalar maktabning joriy rejalar tizimidan o'rin oladi.

Shuni alohida o'qitish lozimki, rejani to'g'ri tuzish bilan ish bitmaydi. Ishning muvaffaqiyati shu rejani qanday amalga oshirishga, unda belgilangan tadbirlarni hayotga tadbiq etish mahoratiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Maktab rejasini amalga oshirishda quyidagilar muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi:

1. Maktabning yuqori tashkilotlar, xalq ta'limi bo'limlari va maktabga yaqin bo'lgan turli muassasalar bilan mustahkam aloqa o'rnatilganligiga:

2. Boshqarish va rahbarlik ishiga bilimdon, o'ta xalol, ishbilarmon va yaxshi ma'muriy qobiliyatga ega bo'lgan pedagogik xodimlar jalb etilganligiga:

3. kadrlar o'rtasida ish taqsimotining to'g'ri tashkil etilganligiga:

4. Rahbar xodimlardan tortib eng quyi ijrochiga umumiy rejadani kelib chiqadigan shaxsiy (joriy) ish rejasini tuzib, shu asosda ish yuritishiga:

5. Rahbarning maktab ish rejalarining bajarilish yuzasidan samarali hamda uzluksiz nazoratni urnatganligiga.

Maktab rejasi ustida ishlash jarayonida o'sib kelayotgan yosh avlod taqdiri haqida, ularning ma'naviy va jismoniy kamol toptirish haqida o'ylash kerak. Maktab ishini rejalashtirishda o'qituvchilar jamoasining ijodiy taqdiri haqida, ziyokorlarni ma'naviy jihatdan o'stirish va ularning ilmiy, metodik va umum pedagogik mahoratini oshirish haqida o'ylash lozim, maktabda o'quv dasturlarining bajarilishi, o'quvchilar bilimining sifati, ularning tarbiyalanganlik darajasi, umuman olganda o'quv-tarbiya ishining hamma jihatlari o'qituvchiga uning xalol mehnatiga bog'liq.

O'qituvchi - maktabdagi bosh siymo. Bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Shuning uchun ham maktabning ish rejasida o'qituvchilar jamoasidagi kuchlarni shunday taqsimlash kerakki, ularning har biri topshiriqlarni bajarishga butun kuch va g'ayratlarini safarbar etish imkoniyatiga ega bo'lsin. Shunday ekan, maktabning o'quv-tarbiya ishlarini rejalashtirishda quyidagi uchta shartga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Ishning boshlang'ich ahvolini chuqur pedagogik tahlil qilish yo'li bilan, ya'ni ish rejalashtirilayotgan paytda pedagogik jarayon tavsifini aniq bilish.

2. Ishning rejalashtirilishi oxirida maktab jamoasi tomonidan o'quvchilarga berilgan ta'lim va tarbiyaning darajasini aniq tasavvur qilish.

3. Maktab ishini hozirgi kun talablari darajasiga ko'tarmoq uchun, shunga imkon beradigan pedagogik vositalarni eng maqbul tarzda tanlash.

Maktab ish rejasining mazmuni va mundarijasi

Rejalashtirish o'z shakliga ko'ra matnli, grafik va aralash (matnli va grafik) bo'lishi mumkin. Reja qisqa, aniq va tushunarli, pedagogik maqsadlarga muvofiq tuzilib, yagona yo'nalishlarni, qo'yilgan masalalarni bajarish tadbirlarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

Rejaning sifati rejalashtirish qanchalik oqilona va to'g'ri qo'yilishiga bog'liqdir. Odatda, maktab ishi rejalashtirilayotganda uning tuzilishini ikki qismdan iborat tuzish tavsiya etiladi: 1-qism analitik bo'lib, unda maktab ishining o'quv yilidagi yakunlari tahlili va yangi o'quv yilidagi vazifalari o'z aksini topadi; 2-qism esa amaliy harakterda bo'lib; unda bu vazifalarni bajarish tadbirlari rejalashtiriladi.

Maktabning metodik ishlari

Maktab ish rejasining tashkiliy pedagogik ishlar qismida umumiy ta'lim maktabida yangi o'quv yilini uyushqoqlik bilan boshlash, hamda uni tugallash imkonini beruvchi tadbirlar, bu boradagi maktabning boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikdagi ishlari belgilanadi. Ko'pincha bu o'rinda ish uchastkalari taqsimoti

ham aniq ko`rsatiladi. Xuddi shuningdek, o`qituvchi qadrlarni tanlash va joy-joyiga qo`yish, maktab rahbarlari, xodimlari va o`qituvchilar o`rtasidagi vazifalar va topshiriqlarni taqsimlash (masalan: kim sinf rahbari bo`ladi, mazkur maktabning mikrouchastkasiga kimlar birlashtiriladi, kim to`g`arak rahbari bo`ladi, kim o`quv-tarbiya va sinfdan, maktabdan tashqari ishlarni boshqaradi va h.k.) sinflarni butlash kabi masalalar ko`rsatiladi. Xuddi shu o`rinda maktab ma`muriyati bilan jamoatchilik tashkilotlari orasida bo`ladigan ish taqsimoti ham ko`rsatiladi.

Shundan keyin muayyan bir ish uchun (uslubiy birlashmalarning yig`ilish kunlari, maktab kengashi majlislarini, kasaba uyushmasi tashkiloti majlisleri va shu kabilar uchun) haftaning kunlarini aniq ko`rsatish ham maqsadga muvofiqdir.

Ish rejasining - "maktabni o`quv-moddiy va texnikaviy bazasini mustahkamlash" deb atalgan qismida:

a) maktab uchun ajratilgan byudjet va boshqa mablag`lardan to`la, o`z vaqtida unumli foydalanish;

b) o`quv qurollari va boshqa o`quv-xo`jalik jihozlari hamda inventarlarni, kutubxona va uslubiy xonalari uchun mo`ljallangan adabiyotlarni sotib olish; mebellar, darsliklar, o`quv xo`jalik ashyolarini remont qilish va saqlanishini ta`minlash; o`qituvchilar, o`quvchilar, ota-onalar kuchi bilan ayrim o`quv ko`rgazmalarini tayyorlash;

v) sanitariya-gigiena rejimi texnika xafsizligi va yonginga qarshi kurash tadbirlari, o`quvchilarning bu borada o`z-o`ziga xizmat ko`rsatishi;

g) maktabning o`quv xonalari, texnika vositalari bilan ta`min etish kabi masalalar belgilanadi.

Maktab ish rejasining maktabni pedagogik kadrlar bilan ta`minlash va ular bilan ishlash deb atalgan qismida maktabni hozirgi kunning talablari darajasidagi o`qituvchi va tarbiyachi kadrlar bilan ta`min etishga qaratilgan tadbirlarni belgilash bilan birga, maktab o`qituvchisining ilmiy metodik, umumiy pedagogik hamda umumiy psixologik saviyasini oshirishga qaratilgan qator tadbirlar belgilanadi.

Bundan tashqari maktab ish rejasini mazkur qismida pedagogik kadrlar bilan ishlash va ularning malakasini oshirish hamda qayta tayyorlashga qaratilgan ishlar ham aniq belgilanadi.

Bunda ayniqsa: a) maktab o`qituvchilarining malakasini oshirishning reja-grafigini tuzatish; b) o`qituvchilarni o`z ustida mustaqil ishlab o`zlarining ilmiy metodi jaroxatlarini oshirish. Bunda o`z ustida mustaqil ishlash bo`yicha konsul`tatsiyalarni, ochik darslarni o`tkazish va ularga qatnashish; v) malaka oshirish va metodik ishlar. Bugungi kun talablari asosida o`qituvchilarni yangi dastur bo`yicha qisqa muddatli kurslarni tashkil etish, ularni o`qituvchilar malakasini oshirish shahar, viloyat, Respublika institutlaridagi kurs mashg`ulotlariga qatnashtirish;

Kengash sinf rahbarlarining hamda fanlar bo`yicha metodik birlashmalari ishlarini tashkil etish. Maktab kabinetini jihozlash va uni ilmiy-metodiy adabiyotlar bilan ta`minlash. O`qituvchilar shug`ullanayotgan pedagogik mavzular

asosida maktabda muammoli seminarlarni, ilmiy yo`nalishdagi anjumanlarni tashkil etish;

g) o`qituvchilar attestatsiyasi. Attestatsiya o`tkazuvchi guruh va uning tadbirining muddatini belgilash, o`qituvchilar haqida attestatsiyaga doir hujjatlarni tayyorlash. Bu tadbirlarni amalga oshirish bilan bog`liq tajribalarni aks ettirish. Attestatsiyani o`tkazish davomida, o`qituvchilarning darslariga qatnashish va boshqa ishlari bilan tanishish:

d) ilg`or pedagogik tajribalarni o`rganish, umumlashtirish va ommalashtirish. Ilg`or pedagogik tajribalarni o`rganish, umumlashtirish va ommalashtirish bo`yicha a`zolarini belgilash, muddati va mavzusini aniqlash, javobgar kishilarni ko`rsatish. Tajribalarni umumlashtirish va ommalashtirishga doir ko`rgazma va stendlarni tashkil etish. Shahar, noxiya va maktabdagi eng yaxshi o`qituvchilar darslariga qatnashish hamda ularning ibratli ishlarini o`rganish. Ilg`or tajribalarni o`rganish, umumlashtirish va yoyish bo`yicha seminar-praktikum o`tkazish; e) maktab doirasida pedagogik o`qishlar o`tkazish kabi masalalarga alohida e`tibor beriladi.

Maktab ish rejasini o`quv tarbiya ishlarini yo`lga qo`yish-deb nomlangan qismidan o`quv rejasini va dasturlarining o`z vaqtida, yuqori saviyada, sifatli qilib bajarilishini ta`minlovchi tadbirlar, maktabdagi ta`limning asosini tashkil qiluvchi darsning samaradorligini oshirish, maktabdagi ta`limni kabinet sistemasida olib borish, ta`lim-tarbiya jarayonida texnika vositalari va EXT dan foydalanishni yo`lga qo`yish kabi masalalar ko`rsatiladi. Bundan tashqari, rejaning mazkur qismida fanlar bo`yicha ta`limiy va tarbiyaviy ishlar:

a) o`quvchilarni fan asoslaridan chuqur va mustahkam bilim berish; ularni mustaqil ishlashga, mustaqil fikrlashga o`rgatish yo`li bilan ularning ilmiy dunyoqarashini takomillashtirib borish. Og`zaki va yozma nutq madaniyatini o`stirib borish.

b) o`quvchilarda bilimga, fanga, ta`lim jarayoniga qiziqishni oshirish bo`yicha tarbiyaviy ishlar. Ularni bilimlar, mustahkam ko`nikma va malakalar bilan qurollantirish. Maktabda va uyda o`quv mehnatini unumli tashkil etish.

v) kitob bilan ishlash masalasini hozirgi kun talablari darajasida tashkil etish.

g) qobiliyatli va bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchilar bilan yakka tartibda ishlash.

Imtixonlarga hozirlik ko`rish va ularni o`tkazish, yozda o`qish uchun topshiriqlar olgan o`quvchilar bilan ishlashni tashkil etish, kuzgi imtixonlarni o`tkazib, bilimlarni o`zlashtirgan o`quvchilarni sinfdan-sinfga ko`chirish.

Maktabda kitob jamgarmasini yaratish va tuldish, o`quvchilarni darsliklar bilan ta`minlash.

O`qituvchilar tomonidan o`quvchilar bilan olib boriladigan o`quv ishlarining tematik va har bir darsga planlar tuzish va ularni o`rganish, kontrol` ijodiy, laboratoriya va amaliy ishlar, o`quv ekskursiyalarini o`tkazish hamda mashg`ulotlarda texnika vositalaridan foydalanishga doir rejalarni ishlab chiqish.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Maktabdagi o`qitish jarayoniga xozirda qanday uzgarishlar kiritildi.

2. Maktabdagi ichki rejalashtirish masalalarining mohiyati nimadan iborat
3. Yosh avlodni xar tomonlama yetuk, aklli, bilimli bulib yetishishi uchun qanday ishlarni oshirish kerak.

8-mavzu: Maxsus (korreksion) pedagogika

REJA:

1. Korreksion pedagogika fani va uning dolzarb masalalari
2. Yordamga muhtoj bolalar tavsifi
3. Eshitish nuqsonlari bor bolalar
4. Ko'zi ojiz bolalar.
5. Ruhan sust rivojlangan bolalar.
6. O'zbekistonda anomal bolalarga differensial va integratsiyalashgan ta'lim

Korreksion pedagogika fani bu jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan. Korreksion pedagogika so'zi lotin tilida korreksiya-tuzatish, degan ma'nolarni anglatadi. Jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bor bolalar *anomal* bolalar deyiladi (yunoncha odatdan tashqari, noraso degan ma'noni bildiruvchi anomal so'zidan olingan). Hozirgi kunda chet davlatlarda ushbu bolalar maxsus yordamga muhtoj bolalar deb ham yuritiladi. Korreksion pedagogika fanining mavzui bahsi anomal bolalardir. Korreksion pedagogika fanining vazifasi – anomalialarning kelib chiqish sabablari, turlari, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganish, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishdir. Korreksion pedagogika fanining maqsadi –differensial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish, anomal bolalar uchun differensial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni o'rganish, ulardagi nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish, kompensatsiyalash, iloji boricha korreksiyalash, tuzatish, ko'zga ko'rinmaydigan darajagacha kamaytirish yo'llari, usullarini belgilash va amaliyotga tatbiq etish yo'l-usullarini tarbiyachi va o'qituvchilarga ko'rsatib berishdir. Anomalialarning xarakteriga qarab, ba'zilar to'liq bartaraf etiladi, ba'zilar korreksiyalanadi, ya'ni qisman tuzatiladi, boshqalari esa kompensatsiya etiladi, ya'ni almashtiriladi. Agar bola nutqida qo'pol kamchilik bo'lsa, to'g'ri tashkil etilgan logopedik choralarni o'z vaqtida ko'rish yo'li bilan ularni to'liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson organik kamchiliklar natijasida paydo bo'lgan bo'lsa, (masalan, oligofreniya shunday nuqson jumlasiga kiradi). Uni to'liq bartaraf etib bo'lmasa ham, biroq qisman tuzatish mumkin. Korreksion pedagogika amaliyotida yana shunday anomalialar uchraydiki, ularni tuzatib ham korreksiyalab ham bo'lmaydi. Masalan, tug'ma ko'rlik va tug'ma karlik shular jumlasidandir. Bunda ko'rish analizatorining vazifasi sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasi esa ko'rish analizatoriga yuklash, ya'ni kompensatsiyalash o'rnini bosish mumkin. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf oltita nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyati zaif bolalar esa, imo-ishora ya'ni, daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

Korreksion pedagogika nisbatan yosh fan. Atoqli psixolog L.V.Zankov, L.S.Vigotskiylar 1935 yildan hamkorlikda ishlay boshladilar. Ular anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish kerakligini, korreksiya, kompensatsiya usullari va ularni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib berdilar. L.S.Vigotskiy «Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari» kitobida anomal bolaga nafaqat «salbiy», balki «ijobiy» tomonlarini o'rganib, aniqlab shularga tayangan holda va potensial imkoniyatlarini inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi.

O'zbekistonda Korreksion pedagogika fanining rivojlanishi 1967 yildan boshlab tezlashdi. Chunki shu yili Nizomiy nomidagi TDPI ning Pedagogika va psixologiya fakultetida Oligofrenopedagogika bo'limi tashkil etildi. 1972 yilda oligofrenopedagogika kafedrasida o'z faoliyatini boshladi. 1983 yilda surdopedagogika bo'limi qo'shildi. 1984 yili esa mustaqil kunduzgi va sirtqi Korreksion pedagogika fakultetlarida oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog, logoped mutaxassisliklari bo'yicha kadrlarni tayyorlash ishlari boshlab yuborildi. Hozirgi kunda oligofrenopedagogika va logopediya, Korreksion pedagogika fanining klinik asoslari va surdopedagogika kafedralari qo'shib, Maxsus pedagogika va metodika kafedrasiga aylantirildi, o'z faoliyatini Pedagogika va Korreksion pedagogika fakultetida amalga oshirmoqda.

Korreksion pedagogika fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlar mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi: *surdopedagogika* (lotincha, surduskar, gung so'zidan olingan), eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; *tiflopedagogika* (yunoncha tiflos – ko'r, so'qir so'zidan olingan), ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; *oligofrenopedagogika* (yunoncha-oligos kam, fren-aql so'zlaridan olingan) aqliy tomondan zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; *logopediya* (yunoncha logos-so'z, padeo-tarbiyalash so'zlaridan olingan) – og'ir nutqiy nuqsonlarni o'rganish, oldini olish, bartaraf etish yo'llari, usullarini o'rganadigan fan.

Yordamga muhtoj bolalar tavsifi

Bola shaxsining tarkib topishi hayotining birinchi kunlaridanoq boshlanadi. Bola har kuni ko'rgan va eshitganlari asosida borliqqa va tevarak-atrofdagi kishilarga o'z munosabatini bildiradi. Kattalarning xatti-harakatlari, ishlariga, sodir bo'layotgan voqealarga bolaning beradigan bahosi, kishilarga bo'lgan munosabati – ularning hammasi bola ma'naviy qiyofasining shakllanishiga ta'sir etadi.

Bolaning xoh ona qornida, xoh tug'ilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil anomaliyalarga, ya'ni jismoniy yoki ruhiy nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Korreksion pedagogika fanida anomal bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi:

1. Eshitish kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar (tug'ilishidan kar, soqov, zaif eshituvchi, keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar);
2. Ko'rish qobiliyati zaif (ko'r, zaif ko'ruvchi bolalar);
3. Harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar;

4. Og'ir nutqiy nuqsonlari bor bolalar;
5. Mujassam, aralash nuqsonli (kar-ko'r-soqov, ko'r va aqlan zaif bolalar);
6. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar;
7. Oligofren bolalar.

Anomal bolalar maxsus yordamga muhtoj bolalar. Ular maxsus ta'lim-tarbiya muassasalarida tarbiyalanishi yoki o'qitilishi kerak yoki sog'lom tengdoshlari orasida ular uchun integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya tashkil etilishi zarur. Bolaning umumiy rivojlanishiga, shaxs sifatida shakllanishiga har tomonlama kuchli ta'sir etgan nuqsonlarga uni maxsus yordamga muhtoj, anomal bola deb hisoblashga asos bo'lishi mumkin. Masalan, bolaning faqat chap qulog'i eshitsayu, bu nuqson uning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etmaydigan, u umumiy maktab dasturini sog'lom tengdoshlari qatori o'zlashtiradigan bo'lsa, u anomal bola kategoriyasiga kirmaydi. Katta yoshdagi kishilarda ma'lum sabablarga ko'ra paydo bo'lgan nuqsonlar ham ularning umumiy rivojlanishiga ta'sir etmasa, bu kishini anomal deb hisoblash mumkin emas.

Anomal bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishida kuzatiladigan og'ir, keskin o'zgarishlar bola shaxsining tarkib topishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun bunday bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish uchun maxsus sharoit yaratilishi kerak, ya'ni ular maxsus bog'cha va maktablarda, yoki sog'lom tengdoshlari orasida maxsus darsliklar asosida tarbiyalanishi zarur, ular maxsus yordamga muhtoj bolalardir.

Har qanday anomal rivojlanish markaziy yoki pereferik nerv sistemasidagi organik yoki funksional o'zgarishlarga aloqador bo'lishi mumkin.

Bola rivojlanishidagi kamchiliklar, noqulay muhit, noto'g'ri tarbiya, ta'lim natijasida ham paydo bo'lishi mumkin. Masalan, noqulay oilaviy sharoit, pedagogik qarovsizlik, o'qituvchining bolaga noto'g'ri munosabati va boshqa ko'pgina sabablar bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning dastur materiallarini yaxshi o'zlashtira olmasligiga, ulgurmovchi o'quvchilar orasiga kirib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Shunday bo'lsada, biz bunday bolalarni anomal bolalar kategoriyasiga kiritmaymiz, chunki uning rivojlanishidagi kamchiliklar organizmdagi qanday bo'lmasin, biror organik yoki funksional patologik o'zgarishlarga bog'liq bo'lmay, balki boshqa sabablardan kelib chiqqan.

Tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarni anomal bolalardan farqlay oladigan bo'lishlari kerak.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra har qanday anomal rivojlanish tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi mumkin.

Tug'ma anomaliyalar ko'p jihatdan homilador onaning sog'ligi va yashash sharoitiga bog'liq. Ona qornidagi homilaning rivojlanishiga infeksiya, intoksikatsiya, shikastlanish va boshqa omillar ta'sir etishi mumkin. Onaning homiladorlik davrida turli xil kasalliklar bilan og'rishi, o'zboshimchalik bilan turli dori-darmonlarni bilar-bilmas iste'mol qilishi bolaning anomal bo'lib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tug'ma anomaliyalar genetik, ya'ni irsiy omillar ta'siriga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, eshitish va ko'rish analizatorlari faoliyatining buzilishi, aqliy zaiflikning nasldan bolaga o'tishi ham kuzatiladi.

Ota-onalarning alkogolizmi, nashavandlik, taksokomaniyalari ham bolaning anomal bo'lib tug'ilishiga olib kelishi mumkin.

Turmushda orttirilgan anomaliyalar bola organizmiga tug'ilish vaqtida va undan keyingi davrlarda zararli omillar ta'sir etishi natijasida vujudga keladi. Tug'ruq vaqtida miya shikastlanishi, bolaning tug'ruq yo'llaridan uzoq o'tishi, vakuum-ekstraktor yoki ombur solinishi, bolaning kindigi o'ralib, bo'g'ilib qolishi (asfiksiya) va boshqalar ba'zan anomal rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Bolaning juda yoshligida 3 yoshigacha turli kasalliklar bilan og'rishi, masalan meningit, meningoensefalit, otit, markaziy nerv sistemasining shikastlanishi va boshqa shu singari dardlarni boshidan kechirishi ham anomal rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda bolalar anomaliyasini oldini olish yuzasidan ko'pgina choralar ko'rilmogda. O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, Sog'lom avlod uchun jamg'armasi, Ma'naviyat-ma'rifat markazi, Oila markazi, Aholini davolash profilaktikasi, Ekosan jamg'armalari tomonidan olib borilayotgan ishlarning barchasi shu sohada anchagina yutuqlarga erishishga yordam bermoqdalar.

Eshitish nuqsonlari bor bolalar.

Nutq murakkab ruhiy faoliyatdir. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bo'lib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib, atrofdagilarga taqlid etish yo'li bilan rivojlanib boradi. Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizatori bilan mahkam bog'langan holda ishlaydi. Eshituv analizatorining rivojlanishi esa ko'p jihatdan talaffuzga bog'liq. Bola nutqning o'sib borishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topib borish darajasi bilangina xarakterlanib qolmay, balki eng muhimi o'z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so'zlarning tuzilishi, tovush tarkibini farqlay bilish qobiliyati bilan ham xarakterlanadi. So'z tarkibini anglab olishdan iborat bu qobiliyat grammatik va leksik komponentlarning rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega.

Ikkala signal sistemasi, shuningdek idrok va so'zning o'zaro aloqada bo'lishi aqliy rivojlanishning negizini tashkil etadi.

Defektologlarning ma'lumotlariga ko'ra, eshitishda nuqsonlari bor bolalarning rivojlanish darajasi shu nuqsonning bola hayotining qaysi davrida paydo bo'lganligi va og'ir-yengilligiga bog'liq. Surdopedagogikada eshitishda nuqsonlari bor bolalar soqov, zaif eshituvchi, keyinchalik zaif eshituvchi bolalar guruhiga bo'linib o'rganiladi. Tug'ma yoki hali tili chiqmagan, go'daklik davrida ikkala quloqning mutlaqo eshitmasligi kar-soqovlikka olib keladi. Eshitish qobiliyatining qisman buzilishi natijasida nutqiy nuqsonga uchragan bolalar zaif eshituvchi bolalar guruhiga kiritiladi. Nutqi rivojlanib, shakllanib olgandan so'ng yaxshi eshitmaydigan bo'lib qolgan bolalar keyinchalik zaif eshituvchilar guruhiga kiradi. Bu nuqson nutq tarkib topgandan so'ng vujudga kelsa ham, nuqson tufayli eshitishda xos kamchiliklar bo'laveradi.

Turg'un eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin.

Kar - soqov bolalarning 25-30 foizida eshitish nuqsonlari tug'ma bo'ladi.

Ko'zi ojiz bolalar.

Tiflopedagogikada ko'zi ojiz bolalar ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar guruhlariga bo'linadi. Ko'r bolalarning ko'rish qobiliyati keskin kamaygan (total ko'rlik) yoki korreksiya qo'llanilganda (ko'zoynak tutilganda) ham ko'rish o'tkirligi 0,04 gacha pasaygan, ya'ni bunday bolalar amalda ko'r bo'ladi. Zaif ko'ruvchi bolalarda ko'rish o'tkirligi 0,05 dan to 0,4 gacha bo'lishi mumkin. Ushbu guruhdagi bolalar tevarak-atrofni ko'rish analizatori orqali idrok etadi.

Ko'rishga aloqador nuqsonlar kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Tug'ma nuqsonlar sabablari orasida irsiy kasalliklar, homilador ayolning toksoplazmoz, qizilcha va boshqa kasalliklar bilan kasallanishi sabab bo'lishi mumkin.

Orttirilgan ko'rish anomaliyalari traxoma, chechak, suzak, ko'z sili, qizamiq, skarlatina va boshqa kasalliklar oqibatida paydo bo'lishi mumkin. Aholiga davolash-profilaktika, oftalmologiya yordamining yaxshilanishi hamda tibbiyot sohasidagi katta yutuqlar qo'lga kiritilganligi munosabati bilan zaif ko'ruvchi bolalar ancha kamaydi.

Ko'rish nuqsonlari zo'rayib boradigan va turg'un (muqim) bo'ladi. Zo'rayib boradigan xili kun sayin og'irlashib, bora-bora ko'rlikka olib keladi. Muqim xili esa turg'un bo'ladi, bolaning ko'rish darajasi bir xilda turaveradi. Ko'rish qobiliyatining zo'rayib boradigan xili kuksuv, ya'ni glaukoma kasalligi (ko'z ichki bosimining ko'tarilib turishi) ko'ruv nervi atrofiyasi, to'r parda distrofiyasiga bog'liq bo'lib, bolaning har qanday rivojlanish davrida vujudga kelishi mumkin. Gigiyenik talablarga rioya qilmaslik refraksiya anomaliyalari bilan bog'liq bo'lgan ko'z kamchiliklari zo'rayib borishiga ham olib keladi.

Ko'zi ojiz bolalar ko'r tug'ilgan va ko'r bo'lib qolgan bolalar deb ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga tug'ilgandan va tug'ilgandan so'ng to uch yoshgacha bo'lgan davr ichida ko'rish qobiliyati zaif bolalar kiritilsa, ikkinchisiga keyinchalik ko'zi ojiz bo'lib qolgan bolalar kiritiladi. Ko'z ojizligi qanchalik kech paydo bo'lgan bo'lsa, bolaning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari shunchalik boy va ularni mustahkamlash, takomillashtirish shunchalik oson bo'ladi.

Ko'zi ojiz bolalar uchun maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab-internatlar mavjud. Bu joylarda ishlar kompensatsiya, korreksiya yo'nalishida amalga oshiriladi.

Og'ir nutqiy nuqsonlari bor bolalar.

Maxsus yordamga muhtoj anomal bolalarga og'ir nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar ham kiritiladi. Nutq nuqsoni logopediya fanida muayyan tilning me'yoridan chetga chiqish deb ta'riflanadi. Nutq nuqsoni o'z-o'zidan barham topmaydi, balki vaqt o'tgan sari yanada mustahkamlanib, zo'rayib boradi. Nutq nuqsoni gapiruvchining yoshiga mos kelmaydi. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan kishilar logopedik yordamga muhtoj bo'ladi. Og'ir nutq nuqsoni kishining nafaqat nutqiga balki umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda nutq nuqsonlarining turli klassifikatsiyalari mavjud. Nutq nuqsonlari asosan uchta katta guruhga ajratiladi: fonetiko-fonematik xarakterli nuqsonlar, sistemali nutq buzilishlari va yozma nutq nuqsonlari. Fonetiko-fonematik xarakterli nuqsonlarga tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar, ovoz nuqsonlari, nutq sur'ati, tempi, ritmi va ravonligidagi kamchiliklar, nutqni idrok etishni buzilishi oqibatida sodir bo'lgan nuqsonlar kiritiladi.

Sistemali nutq buzilishlarida kishining butun nutq sistemasi shakllanmaganligi natijasida u gapirmaydi. Bunday nuqsonli kishilarda qulog'i yaxshi eshitadi, oligofreniya yo'q. Sistemali nutq buzilishida nutqning umumiy rivojlanmaganligi kuzatiladi.

Yozma nutq nuqsonlari o'qish va yozish malakalarini katta qiyinchiliklar bilan yoki umuman o'zlashtira olmaydigan kishilarda kuzatiladi. Logopediya fanida ushbu nutq sistemasida nuqsonlar quyidagi terminlar bilan yuritiladi: fonetiko-fonematik xarakterli nuqsonda tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar dislaliya, rinolaliya, dizatriya, anatriya, ovoz nuqsonlaridan afoniya, disfoniya, fanasteniya, rinofaniya, laringomirlashgan ovoz kiradi. Nutq sur'ati, tempi ritmi ravonligining buzilishiga – taxilaliya, bradilaliya, logonevroz, qoqilib gapirish kiradi. Nutqni idrok etish nuqsonlari zaif eshituvchi aqlan zaif, fonematik eshitishi buzilgan kishilarda kuzatiladi, natijada bolaning talaffuzi, ovozi, nutq sur'atida ma'lum o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Sistemali nutq nuqsonlariga alaliya va afaziyalar kirsa, yozma nutq nuqsonlariga agrafiya, aleksiya, disgrafiya, disleksiyalar kiradi.

Ruhan sust rivojlangan bolalar.

RRS bolalar uchun tashkil etilgan o'quv muassasalari.

Ulgurmovchi o'quvchilar orasida ruhan sust rivojlangan bolalar ham uchrab turadi. Ularning bilish faoliyati markaziy nerv sistemasidagi modda almashinuvi buzilishidan kelib chiqqan yengil patalogik o'zgarishlar vaqtinchalik buzilgan bo'ladi.

Ruhan sust rivojlangan bolalar aqliy darajasi jihatidan 2 guruhga bo'linadi;

1. Yengil nuqsoni bor bolalar bular maxsus sharoitda 1-3 yil ta'lim-tarbiya olganlardan so'ng o'qishni umumta'lim maktabining tegishli sinfida davom ettirishlari mumkin.
2. Ruhiy jihatdan rivojlanishida sezilarli darajada orqada qolgan bolalar- bular o'rta maktabni bitirgunga qadar maxsus sharoitda o'qitilishi maqsadga muvofiqdir.

So'nggi yillarda olimlar ruhiy sust rivojlangan bolalarni klinik-psixologik jihatdan qo'yidagi xillarga bo'lishni tavsiya etadilar;

1. Konstitutsional;
2. Somatogen;
3. Psixogen;
4. Serebral shakli;

Konstitutsional xilini xarakterlovchi belgilarga qo'yidagilar kiradi; bolaning gavda tuzilishi sog'lom tengdoshlarnikiga nisbatan 1-2 yosh kichik ko'rinadi. 7 yashar bola o'zini 5 yashar bolaga o'xshab tutadi va ta'lim olish uchun xali «yetilmagan» bo'ladi. Bunday bola o'quv faoliyatiga yaxshi kirishib ketmaydi, unda o'qishga qiziqish yo'q, ish qobiliyati past.

Somatogen xilida surunkali infeksiyalar, allergik xolat, tug'ma porok va shu kabi kasalliklar ayniqsa tez uchrab turganligi tufayli bolada asteniya holati kuzatiladi. Bola o'z kuchiga ishonmaydigan, tez charchaydigan, injiq, qo'rqoq bo'ladi, hech narsaga qiziqmaydi.

Psixogen xilida bola noqulay, noto'g'ri sharoitda tarbiyalanadi. Natijada u ham ulgurmovchi o'quvchilar qatoriga qo'shilib qoladi. *Psixogen* xilida bolalarning 50% da nerv sistemasida organik jarohatlanish kuzatiladi, shuning uchun u nisbatan turgun bo'ladi. Bu narsa bolaning bilish faoliyati, xis-tuyg'ulari, irodaviy holatlarining rivojlanmasligiga olib keladi, organik infantilizm kuzatiladi. Bola yo ko'tarinki ruhda, o'zidan yosh bolalarga o'xshab, yoki aksincha kayfiyati past bo'lib, mayus tortib yuradigan, ishni mustaqil hal qila olmaslik tashabbus ko'rsata olmaslik, qo'rqish holatlari kuzatiladi.

Ruhan sust rivojlangan bolalar maxsus yordamga muhtoj, ular maxsus muassasalarda yoki differensial ta'limga jalb etilishi kerak.

Oligofren bolalar va ularning tavsifnomasi

Markaziy nerv sistemasining organik jarohatlanishi natijasida bilish faoliyatida turg'un buzilgan bolalar-oligofrenlardir. Oligofreniya yunoncha «*oligos*»-«kam, oz» ; «*fren*»-«aql» degan so'zlardan olingan bo'lib, esi past, aqli past demakdir. Oligofrenopedagogikada bu bolalar aqliy rivojlanish darajasiga ko'ra debil, imbetsil va idiotlarga ajratib o'rganiladi. *Debillik*- oligofreniyaning eng yengil darajasi bo'lib, bunday bolalarni tashqi ko'rinishidan sog'lom tengdoshlaridan ajratib bo'lmaydi. Chet el olimlari ularni «ta'lim olishi qiyinlashgan bolalar» deb nomlashmoqdalar. Zehn va fahm-farosatga bog'liq ishlarda debil bolalar ancha qiynaladilar, biroq maxsus maktabda o'qigach, ular mustaqil yashab, oddiy turdagi mehnat bilan shug'ullanib, o'zini-o'zi eplab ketadi. Ular uylanadi, turmushga chiqadi, mehnat qiladi. *Imbetsil va idiot* bolalar o'zini o'zi eplay olmaydilar. Ular uchun maxsus bog'cha va maktab dasturi murakkablik qiladi. Imbetsil bola yuradi, gapiradi, o'rgatsa o'ziga o'zi xizmat qiladi. Idiot bola hattoki o'z ota-onasini ham tanimaydi, o'zini-o'zi uddalay olmaydi. Imbetsil va idiot bolalar ijtimoiy ta'minot vazirligi qoshidagi muassasalarda tarbiyalanadi, ular nogiron bolalarga kiradilar.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra oligofreniya tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi mumkin. Onaning homiladorlik davrida turli kasalliklar bilan kasallanishi, tug'ilish vaqtida va tug'ilgandan to uch yoshgacha bo'lgan davr ichida shikastlanishi, kasallanishi natijasida oligofreniya kelib chiqadi. Agarda, turli sabablarga ko'ra, aqlan zaiflik bolaning uch yoshidan keyingi davrida paydo bo'lsa, bunday aqlan zaiflik demensiya deb yuritiladi. Demensiya progressivlashadigan, ya'ni kuchayib boradigan xususiyatga ega. Oligofreniya esa-turg'un bo'ladi.

Oligofreniyaning faqat debil darajasidagi bolalar maxsus bog'cha va maxsus maktab dasturini o'zlashtirib, mustaqil hayot kechira oladilar. Imbetsil va idiot bolalar ijtimoiy ta'minot vazirligi qoshidagi bolalar-internatlarida 18 yoshgacha tarbiyalanib, so'ngra nogironlar uyida umrining oxirigacha yashaydilar.

Harakat-tayanch a'zolari jarohatlangan bolalar

Dunyodagi 500 million aholining 10 foizi nogironlardir. Shular jumlasiga mujassam nuqsonli anomal bolalar ham kiradi. Mujassam nuqsonli anomal bolalarda bir necha nuqson birgalikda kuzatiladi., Ular kompleksli nuqsonli bolalar kategoriyasi deb ham nomlanadi. Onalar va bolalar salomatligini yaxshilash, nogironlikni oldini olish, ekologik muvozanatni yanada barqarorlashtirish yuzasidan mamlakatimizda mustaqilligimizning birinchi kunidanoq muayyan amaliy ishlar olib borilmoqda. Respublikada kasal bolalar tug'ilishi ko'rsatkichi 1000 aholiga nisbatan 1991 yildagi 34, 5 dan 2000 yildag 21, 4 ga kamaydi. Demak hali ham bu borada ko'pgina ishlar olib borilishi lozim. Ayollar, ayniqsa, qizlar orasida uchraydigan chekish, spirtli ichimliklar ichish, narkotik moddalar is'temol qilish, shifokor maslahatisiz dori-darmon qabul qilinishi, ekologik muammolar va boshqa holatlar nogiron bolalar tug'ilishiga sabab bo'layotgani va uning oldini olish borasida ko'proq balog'at yoshidagi yigit-qizlar orasida tushuntirish ishlari keng tarzda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.Olimlar tomonidan aniqlangan 400 dan ortiq dori-darmonlar homila rivojlanishiga (dastlabki 1-2 oylar) salbiy ta'sir etar ekan.

Mujassam nuqsonli maxsus yordamga muhtoj toifasiga kar-ko'r-soqov bolalar, kar va aqlan zaif, ko'r va oligofren, harakat tayanch a'zolari jarohatlangan va ko'r yoki aqlan zaif va h.k. kiradilar.

Oxirgi yillarda ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar soni ancha kamaydi.Oftalmologik yutuqlar, erta diagnostikaning yangi usullarini ko'llanishi, ko'rish organlari kasalliklarini davolash va korreksiya qilish natijasida maxsus maktab o'quvchilarining kontingenti sezilarli darajada o'zgardi. Ko'r bolalar nisbatan kamaydi, ammo zaif ko'ruvchi bolalar soni ko'paydi. Ularning orasida maktab dasturini o'zlashtira olmaydigan bolalar yaqqol ko'rina boshlandi. Kompleks , ya'ni har tomonlama tekshirish, o'rganish natijasida ularning ko'rish qobiliyatini buzilishi bilan birga oligofreniya tipidagi aqli zaiflik ham mavjudligi aniqlandi. Zaif ko'ruvchi va aqli zaif bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash ancha murakkab va o'ziga xosdir. Odatda zaif ko'ruvchilardan ayrimlari va ko'r bolalar «Brayl» sistemasi bo'yicha o'qish va yozishni o'rganadilar. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim natijasida ko'r bolalar nuqta-relyefli shriftni tez o'rganib oladilar. Aqli zaif ko'rlarda bu jarayon ancha sekin kechadi, uncha samarali bo'lmaydi. Bunga bir necha sabablar mavjud. Markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi natijasida aqli zaif ko'r bolaning kompensator imkoniyatlari sustlashgan bo'ladi.Maxsus tashkil etilgan ishlar tufayligina eshitish analizatorlari kompensator faoliyatni bajara boshlaydilar. Aqli zaif o'quvchilarning tafakkur, tasavvur, nutqi, fikrlash qobiliyatini o'stirishda yordamchi maktabda ko'rgazmali qurollardan keng foydalaniladi.Ko'rlar maktabida bu borada ko'proq nutq, so'zga, maxsus tiflografik ko'rgazmali kurollarga asoslangan holda ish tashkil etilsa, aqli zaif ko'r bolalar bilan boshqacha ishlarni uyushtirish lozim bo'ladi. Ikkala holatda ham birinchi navbatda bolaning abstrakt tafakkuri yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. Aqli zaif bolalarning esa bilish faoliyati turg'un buzilgan bo'ladi. Aqlan va ko'rish qobiliyati zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasiga maxsus yondoshgan holda, maxsus yaratilgan tizim asosida o'qitish va tarbiyalash lozim.

Mujassam nuqsonli bolalardan eshitish qobiliyati va aqli zaif bolalar birinchi bo'lib o'rganilgan edi. Kar va zaif eshituvchi bolalarda ikkilamchi hodisa sifatida aqlan zaiflik kuzatilib boriladi. Natijada intellekti sog'lom, eshitish qobiliyati zaif bolalarni aqli zaif eshitish qobiliyati zaif bolalardan amalda ajratish ancha mushkul. Ayniqsa ilk yoshdagi bolalarda. Hozirgi kunda ular uchun differensial-dagnostik mezonlar ishlab chiqilgan. Aqli va eshitish qobiliyati zaif bolalar karlar yoki zaif eshituvchi bolalar maktab-internatlarining yordamchi sinflarida yordamchi maktab dasturi bo'yicha ta'lim oladilar. Yordamchi sinflar ko'rlar va zaif ko'ruvchi bolalar maktab-internatlarda ham mavjud.

Mujassam nuqsonli bolalar toifasiga ko'r-kar-soqov bolalar xam kiradi. Bu toifadagi bolalar nuqsoni ancha murakkab. Kar-ko'r-soqov bolalar tevarak atrofda informatsiya olish imkoniyatidan mahrum bo'lganligi tufayli aqlan rivojlanmaydi. Biroq maxsus tashkil etilgan yordam tufayli bu bolalar tuliq intellektual rivojlanish imkoniyatiga egadirlar. Ularga barcha murakkab muloqot turlari yaratiladi, nutqi o'stiriladi va ular barkamol nutqdan tortib to so'z nutqigacha egallay oladilar. Bu esa ularni o'rta maktab dasturini egallab, xatto oliy o'quv yurtlarini muvaffaqiyatli bitirishga imkon beradi. Bunga Olga Ivanovna Skoroxodovaning hayoti va ijodini misol qilib keltirishimiz mumkin. Kar-ko'r-soqov qizchani mashhur defektolog Sokolyanskiy I.A. o'zi rahbarlik qilgan maktab-klinikada o'qitib, tarbiyalagan. Oliy o'quv yurtini tugatib, O.Skoroxodova butun hayotini Korreksion pedagogikaga bag'ishladi. U Korreksion pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, ko'pgina ilmiy maqola, she'rlar to'plami muallifi. Ayniqsa u yaratgan noyob kitoblar «Kak ya vosprinimayu okrujayuhiy mir»(1947), «Kak ya vosprinimayu i predstavlyayu okrujayuhiy mir»(1956), «Kak ya vosprinimayu, predstavlyayu i i ponimayu okrujayuhiy mir»(1972) ko'pgina tillarga tarjima qilindi. Moskva viloyatining Zagors shahrida kar-ko'r-soqov bolalar bilan olib boriladigan ishlar tizimi takomillashtirildi. Ushbu maktab-internat o'z faoliyatini davom ettirmoqda va ko'pgina kar-ko'r-soqov bolalarga mustaqil hayotda o'z o'rnini topib ketishga yordam bermoqda.

O'zbekistonda anomal bolalarga differensial va integratsiyalashgan ta'lim

«Ta'lim to'g'risida»gi qonunning 23-moddasi anomal bolalarga bag'ishlangan. Jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar ham ta'lim olish huquqiga ega. Ularni maxsus muassasalarga tashxis etishda 1998 yilda o'z faoliyatini boshlagan «O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari» faoliyati nihoyatda katta ahamiyatga ega. Tashxis etilgan bolalar rivojlanishidagi nuqsoniga ko'ra ta'lim olish qurbiga ega bo'lsa, Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi muassasalarda o'qiydi, tarbiyalanadi. Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi muassasalarda ularga tegishli tibbiy yordam ko'rsatiladi.

Mehnat va aholini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarga nogironlik berib, ularni o'z qaromog'iga tegishli muassasalarda muruvvat uylarida tarbiyalanishni va mehnat qilishni ta'minlaydi.

Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi anomal bolalarning barcha toifalari uchun; maktabgacha yoshdagi bolalar uchun muassasalar, maxsus maktablar, maktab-internat va maxsus sinflarda differensial ta'lim tashkil etilgan. Sog'lom tengdoshlari orasida o'qishni istagan bolalarga tegishli shart-sharoitlar yaratilishi mumkin bo'lgan integratsiyalashgan ta'lim amalga oshirilmoqda.

9-Mavzu: Sharq uyg'onish davri va XVI-XVII asrlarda Movarounnaxrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti

REJA

1. Sharq uyg'onish davri haqida ma'lumot.
2. Al- Xorazmiy va Ahmad al Farg'oniylarning ilmiy faoliyati. Ularning tarbiyaviy ahamiyati.
3. Al Farobiy, A.R.Beruniy, Ibn Sino asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari.
4. XIV-XVII asrda Movarounnaxrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar

Arab xalifaligida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, yagona islom dinining tarkib topishi madaniy, ma'naviy hayotga ham ta'sir etadi. Unda katta ko'tarinkilik ruhini paydo qildi.

Bu ko'tarinkilik butun arab halifaligini, Yaqin va O'rta Sharqni qamrab olganligi uchun Sharq Uyg'onish davri deb ataldi. Bu jarayon IX asrdan boshlanib, XV-XVI asrlargacha davom etdi.

Arab xalifaligida IX asrda vujudga kelgan Uyg'onish davri xalifalikning Bog'dod, Damashq, Xalab shaharlarida boshlanib, barcha boshqa xalqlar madaniy hayotiga tarqalgan bu esa u davlatlarning ham madaniy rivojlanishiga zamin tayyorlagan. Xalifalik yemirilishi natijasida tashkil topgan mustaqil davlatlardagi madaniy rivojlanish xalifalik davridagi madaniy rivojlanishning davomi bo'ldi.

Xalifa Xorun ar-Rashid (786-833) va uning o'g'li Ma'mun davrida Bag'dodda «Baytul hikma» (Donishmandlik uyi) (hozir Akedamiya ma'nosida) tashkil etiladi. Mazkur Akademiya barcha ilm soxiblari to'plangan markazga aylanadi. Uning qoshida jahon kutubxonasi tashkil etilgan, rasadxona ham bo'lgan, keyinchalik yangi kutubxona qurilgan. Bog'doddagi mazkur ilm markazi, o'z navbatida Sharq va G'arbda ilm-fanning taraqqiy etishiga, ma'naviy hayotning yuksalishiga ta'sir etgan. Bu o'rinda xalifa Al-Ma'muning ilm fan ravnaqida ko'rsatgan xomiyligini alohida ta'kidlash joiz.

Zero, xalifa Al-Ma'mun ilm-fanni juda qadrlagan. U IX asr boshlarida xalifalikning Xurosondagi noibi bo'lgan vaqtida ham Movarounnahr va Xurosondagi olimlarni to'plab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergan. Bular orasida al-Xorazmiy, al-Xuddalil, al-Javxariy, al-Farg'oniy, al-Marvaziy kabi vatandosh olimlarimiz ham bo'lgan, al-Ma'mun xalifalik taxtiga o'tirgach, u olimlarning barchasini Bog'dodga chaqirib oladi.

Shuningdek, qadimgi yaratilgan madaniy yodgorliklar, ular Xox Yunon, xox arab, Movarounnahr va Xuroson xalqining eng qadimgi antik davrlar madaniyati bo'lsin, uyg'onish davri madaniyatining yaratilishi va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Agar arablar O'rta Osiyoni bosib olib, bu yerda ilgari mavjud bo'lgan fan va madaniyat o'choqlarini yo'qotgan bo'lsalar, ko'p o'tmay, qadimiy ilmiy an'ana asta sekin tiklanib, natijada ilm-fanning yetuk siymolari yetishib chiqib boshlaydi. Ularning barchasining bir-biriga qo'shuluvi natijasida Sharqda bir butun madaniyat tarkib topadi va rivojlana boshlaydi.

Yaqin va O'rta Sharqda, jumladan Eron, Kavkaz orti va O'rta Osiyoda savdo aloqalarining rivojlanganligi, xunarmandchilikning taraqqiy etishi, iqtisodiy va ma'naviy aloqalarning barchasi umumiy rivojlanishga ta'sir etdi. Bu davr madaniy taraqqiyotida arab xalifaligiga bo'ysingan mamlakatlarning xo'jalik-iqtisodiy aloqalarining kuchayishi va uning oqibatida turli madaniyatlar-hind, O'rta Osiyo, Eron, arab, Yunon, Rim madaniyatlarining yaqindan o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'sir etib borishi katta rol o'ynadi.

Bu davrda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari kengaydi, ko'plab sug'orish inshootlari tiklandi va yangilari qurildi, paxta, zig'ir, kanop ekilib, ular tolasidan mato to'qilgan. Movarounnahrda xususan, Urganch, Farg'ona, Samarqand va Buxoro to'qimachilik maxsulotlari, ayniqsa Samarqanda va Buxoro shoyisi dunyoga mashxur bo'ldi.

Qishloq xo'jaligi va xunarmandchilik sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarilishi savdoni rivojlanishiga yo'l ochdi. Natijada Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining chet davlatlar: Ispaniya, Hindiston, Hitoy, Vizantiya bilan savdo ishlari ko'lamini ortib bordi.

Taniqli olim F.Sulaymonova Sharq mamlakatlarining Ispaniyaga va u orqali O'ropaga ta'siri haqida gapirar ekan, «Piriney yarim orolining arablar tomonidan bosib olinishi insoniyat tarixida Yangi sahifa ochdi. Makidoniyalik Aleksandr orzu qilgan Sharq va G'arbning hayotida Yangi davr boshlandi. Bu jarayoning ayniqsa, O'ropa uchun ahamiyati beqiyos bo'ldi. Sharq faqatgina O'ropa madaniyatining rivojiga ta'sir etibgina qolmay, balki umuman, O'ropalik odamning psixologiyasi, tafakkuri, характери, hayot tarzini, tarixiy jarayonni tubdan o'zgartirib yubordi», - deydi va matematik, falsafa, astronomiya, tibiyot, xulq-odob, turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga qay darajada ta'sir etganligiga ishonarli dalillar keltiradi.

X asrdan boshlab Movraunnahr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlar – Toxiriylar, Samoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshoxlar davlatlarining paydo bo'lishi ham madaniy hayotning yanada ravnaq topishiga olib keldi.

Bu davrda pul muomalasi rivojlandi. Jamiyat siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar, albatta madaniy hayotga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

Samoniylar davlatida Marv, Buxoro, Samarqand va Urganch o'sha davrning madaniy markazlaridan sanalardi.

Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilar edi. Rasmiy hujjatlar, shariat qoidalari arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar ham arab tilida yozilar edi. X asr o'rtalariga kelib, fors-tojik tilida ham ish yuritila boshlandi, ammo yoziladigan hujjatlar ishlar fors-tojik tilida bo'lsa ham, arab imlosida yozilar edi.

O'sha davrda Buxoroda katta kitob bozori bo'lgan, kitob do'konlarida olim va fozil kishilar uchrashib, ilmiy baxs, munozaralar o'tkazganlar.

Abu Ali ibn Sino kitob do'konlaridan birida Farobiyning Aristotel «Metafizika»siga yozgan sharxlarini sotib olganligini tarjimai xolida hikoya qiladi. Buxoro amiri saroyida esa yirik kutubhona mavjud bo'lgan, bu kutubhonaning o'sha davrdagi Sheroz kutubxonasi bilan bellasha oladigan yagona kutubxona sifatida tan olgan.

Samoniylar davrida Ro'dakiy, Firdavsiy, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar yashab ijod etganlar.

X asrning ikkinchi yarmida tashkil topgan Qoraxoniylar davlatida ham ba'zi xonlar o'z saroylarida kutubxonalar tashkil etdilar. Bu kutubxonalarda arab va xatto G'arbiy Yevropa olimlarining asarlari ham mavjud edi. Bu davrda turkiy til shakllanib bordi. Yusuf xos Xojib, Maxmud Qoshg'ariy kabi olimlar o'zlarining jahon ahamiyatiga ega bo'lgan asarlarini yaratdilar.

XI asr boshida G'aznaviylar davlati keyinroq Sarjuqiylar, Xorazimshoxlar davlati tashkil topdi. G'aznaviylar davrida ham ilmiy, ijtimoi-falsafiy fikrlar rivojlandi. Maxmud G'aznaviy o'z saroyiga juda katta madaniy boyliklarni to'playdi, olimlarni ilmiy ishga jalb etadi. Jumladan, Abu Rayxon Beruniy ham Maxmud saroyida yashab, mashxur «Hindiston» asarini shu yerda yaratgan.

XI asrda Xorazimda ilm-fan ayniqsa taraqqiy etadi. Xorazm shoxi Ma'mun o'z saroyiga eng zabardas olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan «Baytul hikma» - «Donishmandlik uyi»da qomusiy olimlar Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayx, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Saxl al-Masixiy, tabib Abdulxayr hammor kabi olimlar ilmiy ijod bilan shug'ullanganlar, lekin toju-taxt uchun kurash natijasida bu ilm dargohi o'z faoliyatini to'xtatadi.

Saljuqiylardan Ali Arslon Muxammad hokimiyatni boshqargan davrda uning vaziri Nizom ul-Mulk o'z davrining mashxur siyosiy arbobi va ma'rifatparvar inson sifatida dovuq qozondi. Uning to'liq ismi Abu Ali al-Xasan ibn Ali ibn Isxoq at-Tursiy bo'lib, Nizom ul-Mulk uning faxirli taxallusidir. Nizom ul-Mulk 1018 yil (ba'zi manbalarda 1019-1020 yillarda ko'rsatiladi). Tusning Mashxadga yaqin Radikan degan joyida tug'ilgan. Nizom ul-Mulkning otasi G'aznaviylar xizmatida bo'lgan, lekin Abu Ali balog'atga yetgandan so'ng Sarjuqiylar xizmatiga o'tib, Chaqribek xuzurida dabrlik qilgan (xat tashuvchi chopar). 1053-54 yilda Abu Ali vazir etib tayinlanadi hamda «Nizom ul-Mulk» taxallusini oladi. Kelajakda bu nom butun dunyoga ma'rifat, odillik, aql-idrok timsoli sifatida taniladi.

Bu G'aznaviylar ish uslubiga bir oz o'zgartirishlar kiritib, hokimiyatni boshqarishning o'z uslubini ishlab chiqadi va uning o'zining «Siyosatnoma» asarida (1091-92) bayon etadi.

Nizom ul-Mulkning morifni rivojlantirishdagi xizmatlari beqiyos. U 1067 yilda Bog'dodda o'zinig shaxsiy jamg'armasiga o'sha davrning eng mashhur o'quv yurti - «Nizomiya» madrasasini qurdiradi. U olimlar, din peshvolari, so'fiylarga katta e'tibor berib, ularga xomiylik qiladi.

Uning katta xizmatlaridan yana bir xizmatlaridan yana bir taqvimni isloh qilish bo'ldi. U 1074 yil. O'rta Sharq mamlakatlari uchun kalendar-taqvim tuzadiki, bu taqvim xozirgacha eng takomillashgan taqvimlardan hisoblanadi.

Nizom ul-Mulk 1092 yilda muxoliflar tufayli o'z vazifasidan ketishga majbur bo'ladi va 14 oktyabrda noma'lum shaxs tomonidan o'ldiriladi.

Sharq «Uyg'onish davri»da ilm-fan rivojlanishi uch yo'nalishda bo'ldi.

Birinchi yo'nalish-matematika-tabiiyot yo'nalishi bo'lib, bularga matematika, astronomiya, Kime, geodeziya, mineralogiya, tibbiyot, farmakalogiya va boshqa shularga turdosh fanlar kiritilib, Muhammad Muso Xorazmiy, Axmad Farg'oniylar matematikaga oid, Zakariyo ar-Roziy Kime va tibbiyotga oid, ibn Sino, Jurjoniyy tibbiyot va falsafa, Abu Rayhon Beruniy tibbiyotga oid yirik asarlar yaratdilar.

Ikkinchi yo'nalish-ijtimoiy-falsafiy yo'nalish bo'lib, bunda falsafa, tarix, mantiq, fiqh, ruxshunoslik, notiqlik va boshqa fanlar bo'lib, bu sohada Forobiy, al-Kindiy, Ibn Sino, Zaxriddin Bayxaqiy, Muxammad Narshaxiy va boshqalar faoliyat ko'rsatganlar.

Biz yuqorida zikir etgan olimlar qomusiy olimlar bo'lib, ular o'z sohalarida ish olib borish bilan bir qatorda boshqa bir qancha fanlarga doir ham tadqiqotlar olib borganlar.

Uchinchi yo'nalish-ta'limiy-axloqiy yo'nalish bo'lib bu sohada qomusiy olimlar o'z qarashlarini ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlari tarkibida yoki axloqiy asarlarida bayon etsalar, adib va tarbiyashunos olimlar ta'limiy*didaktik asarlarida ifodalaganlar.

2.

Jahon ilm-ma'rifatining buyuk nomoyondasi Muxammad Ibn Al Xorazmiy taxminan 783 yilda Xorazmda dunyoga kelib, 847-850 yillar oralig'ida Bog'dodda vafot etgan.

Xorazmiy tug'ilib voyaga yetayotgan davrda Movarounnahr yirik madaniy va savdo markazlaridan biri edi. Olimning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Al Xorazmiy al-Majusiyydir. «Abu Abdulloh Muhammad» islomga o'tganlarga beriladigan an'anaviy ism bo'lgan. Xorazmiyning avlodlari majusiyy kohinlaridan, ya'ni «Mug'lar»dan bo'lib, islomni otasi qabul qilgan bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarida yozishiga ko'ra Xorazmiy boshlang'ich ma'lumotni o'z uyida olgan, chunki uning otasi qadimiy diniy urf-odatlarini, yerli xalq yozuvini bilgan va diniy hamda duyoviy bilimlardan xabardor bo'lgan. Shu tufayli Al Xorazmiy bolaligidanoq bu ilmiy manbalardan o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgan. Muhammad Xorazmiy matematika bilan juda berilib shug'ullangan, bu sohaga oid barcha asarlarni qunt bilan o'rgangan. Arab, fors, xind, Yunon tillarini ham o'rganib, bu tilda yaratilgan asarlarni ham o'qiy oladigan bo'ladi. Lekin Xorazmiyning vatanidan chetga yashaganligini turlicha sharxlashadi. Chunonchi otasi Majusiyy kohinlaridan bo'lgani uchun ham arab mutaassiblari uni ta'qib qilganligi sababli u Xorazmni tashlab ketishga majbur bo'lgan, degan fikrlar ham mavjud.

Xorazmiyshunos olim A.Axmedov xalifa Xorun ar-Rashidning o'g'li Ma'mun ar-Rashid Marvda xalifa noibi bo'lib turganida saroyida juda ko'p

olimlarni to'plagani, so'ng xalifa bo'lib ko'tarilgach, ularni ham Bog'dodga olib ketganini ta'kidlaydi.

Biz A.Axmedovning fikriga qo'shilgan holda yana quyidagilarni ham bayon etmoqchimiz.

Buning sabablari – birinchidan, o'sha davrlarda barcha ilmga intilgan olimlar ma'lum fanlarni egallab olgandan so'ng ilm-fan markazlariga safar qilganlar va u yerda yetuk olimlar bilan muloqotda bo'lib, turli fanlar bo'yicha baxs munozara yuritganlar. Maxsus tayyorgarlikdan va sinovlardan o'tganlar, o'zlarini fan olamida sinab ko'rganlar. Ikkinchidan, xalifalikda ilm markazi sanalgan Damashiq va Bog'dodda ilm-fanning taraqqiy etganligi va shaxsan xalifalarning ilm-fan taraqqiyotiga xomiylik qilganligi ham olimlarni jalb etgan.

Chunki Xorun ar-Rashid va uning o'g'li al-Ma'mun xalifalik qilgan davrlarda Yaqin va O'rta Sharqda ilm-ma'rifat rivoj topgan edi. Bog'doddagi bu ma'rifat markazi ko'plab Sharq mutafakkirlari ilmiy ish olib borayotgan «Baytul hikmat» (Donshmandlik uyi) deb atalgan. Fanlar Akademiyasiga tenglashadigan bu ilm markaziga xalifa Ma'mun xomiylik qilgan va Xorazmiyni ham bu yerga taklif etgan. 813-833 yillarda Xorazmiy ana shu «Akademiya»da faoliyat ko'rsatgan. Mazkur «Akademiya»da Axmad ibn-Muhammad Farg'oniy, Axmad ibn-Abdullo Marvaziy, uning o'g'li Abu Jafar, Abbos ibn-Said Javhariy kabi olimlar Xorazmiy bilan hamkorlikda ilmiy ishlar olib borganlar.

«Baytul hikmat»da matematika, geodeziya, geografiya, falakiyot va boshqa sohalar bo'yicha tadqiqotlar olib boriladi va Al Xorazmiy maktabi yaratiladi. Olimning, ayniqsa, matematikaga oid ilmiy merosi jahon axamiyatiga ega bo'ldi.

Xalifa al-Ma'mun hatto Muhammad al-Xorazmiy boshchiligidagi Hindiston va Rum (Vizantiya), Hazariya (Volganing quyi oqimidagi o'lka)ga bir necha marta ilmiy safarlar uyushtiradi.

Olim insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlarda ilm-fanning muhimligi g'oyasini ilgari surgan holda pedagogik fikr taraqqiyotida ham munosib o'rin egallaydi. Xorazmiy matematika, geografiya, geodeziya, falakkiiyot sohalarida yirik tadqiqotlar olib borgan. Lekin u matematik sohasida yangilik yaratgan nazaryotchi hamda pedagog-uslubiyatchi olim sifatida tarixda qolgan.

Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazaryasiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi. «Al kitob al muxtasarfi hisob al jabr va muqobala» asarida («Al jabr va al muqobala hisobi haqida qisqacha kitob») sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar, ularni yechish yo'llarini bayon etadi.

Risola uch qismdan iborat bo'lib, birinchisi-algebraik qism, uning oxrida savdo muomlasiga oid kichik bir bo'lim keltiriladi. Ikkinchi-geometrik qism algebraik usul qo'llab o'lchashlar haqida, uchinchi qism vasiyatlar haqida bo'lib, muallif uni «Vasiyatlar kitobi» deb ataydi.

Al Xorazmiy matematika fanida abstraksiya (mavhumiiylik) tushunchasini kengaytirdi. Induksiya yo'li bilan umumiy yechish usullarini hal etdi, deduksiya yo'li bilan umumiy usullar yordamida turli xususiiy masalalarni yechdi.

«Aljabr va muqobala» asari bilan ham matematika fanini rivojlantirib, o'zidan avvalgi bilimlarni o'rgandi va ularni sintezlashtirdi hamda amalda qo'llash usullarini bayon etdi.

Shu asar tufayli «Al Xorazmiy» nomi lotincha transkripsiyada «Algoritm» shaklini oldi, keyinchalik hozirgi zamon hisoblash matematikasining asosiy tushunchasi algoritm algorifmga aylandi. U matematikaning nazariy rivojlanishi bilan birga, undan turmushda foydalanish yo'llarini ham berdi, meros taqsim qilishda, vasiyatnomalarni tuzishda, mol taqsim qilishda ham katta rivojlantirishlar kiritdi.

O'rta asrlarda dunyo mamlakatlarini yetti iqlimga bo'lib o'rganish an'anaga aylangan edi. Qadimiy eronliklarning yetti kishvar haqidagi tushunchalari astronomiya va geografiya tarixiga ko'chgan. Yetti iqlim nazariyasida mamlakatlar Sharqdan boshlab yetti iqlimga bo'linadi. Har bir iqlimga kirgan joylar alohida-alohida o'rganilgan. Ahmad Farg'oniy ham mamlakatlarni shu usulda o'rgangan va tekshirgan. U tuzgan jadvalda viloyatlar sharq tomondan g'arbga qarab ma'lum bir izchillikda bayon qilinadi

Al-Farg'oniyni «Sayyoralar ilmi» («Samoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob») asari taxminan 824-855 yillar atrofida yozilgan bo'lib, uning qo'lyozma nusxasi Misrdagi «Dor al-kutub» kutubxonasida saqlanadi. Bu asar lotin tilida 1669 yili nashr etilgan.

Sharqshunoslar Farg'oniyni «Astrolyabiya haqida mukammal kitob»ining uch nusxasi borligini aytishadi. Asarning uchala nusxasi ham Berlin kutubxonasida saqlanayotir. Ahmad Farg'oniyni «Astrolyabiya san'ati haqida», «O'ttiz bobdan iborat al-Majastiyya kirish fasllari risolasi» yoki «O'ttiz fasllik astronomiya kitob»i Parijda, «Oy Yer ustida yoki uning ostida bo'lgan paytdagi vaqtlarni o'rganish haqida risola» nomli asari Kohiradan «Yetti iqlim hisobi», «Astrolyabiya san'ati va uning dalilari haqida kitob», «Astronomik asboblarda marmarning xizmati haqida kitob» nomli qo'lyozma asarlari Berlinda saqlanayotir. Mazkur qo'lyozmalar haqid arab olimi Ibn al-Kiftiyni 198 yilda Misrda arab tilida nashr etilgan «Tarix al-Hukamo» nomli kitobida to'liq ma'lumotlar berilgan.

Axmad Farg'oniyni «Samoviy harakatlar va yulduzlar fanining muajmuasi haqida» kitobi uning astranomiya bag'shlangan asosiy asaridir. U asar «Astronomiya negzlari» deb ham yuritiladi. Bu kitobda Farg'oniy o'z davridagi astranomiya oid bilimlarni tartibga soldi, ularni yangi ma'lumotlar bilan boyitdi, astronomik asboblarni, quyosh soati tuzilishining bayonini berdi. O'sha davr an'anasiga muvofiq, mamlakatlarni yetti iqlimga bo'lib o'rgandi, joylarning geografik kordinatalrini Sharqdan G'arbga yo'nalishda berdi. Bu asar astronomiya bo'yicha arab tilida yozilgan dastlabki risolalardan hisoblanadi. Astronomiyaga oid bilimlar qomusi bo'lmish bu asar Ovroqada Kopernikkacha bo'lgan astronomiyadan asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

3.

O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog'liq bo'lib, uning inson kamoloti haqidagi ta'limoti ta'lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur Yunon faylasufi Arastudan keyin Sharqda o'z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyni yirik mutafakkir – «Muallimi soniy» - «Ikkinchi muallim» deb ataydilar.

Abu Nasr Forobiy (to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzaliq ibn Tarxon al-Forobiy) hijriy 260 yil (milodiy 873 yil)da Shosh-Toshkentga

yaqin Forobiy (O'troq) degan joyda harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan. Forobiy boshlang'ich ta'lim olgach, Shoshda, Buxoroda, Samarqandda ta'lim olganligi haqida ma'lumotlar bor. Lekin Arab xalifaligining yirik madaniy markazi Bog'dodga xalifalikning turli tomonlaridan kelgan olimlar yig'ilganligi, uning yirik ilmiy markaziga aylanganligi tufayli Forbiy ham ilm olish istagida Bog'dodga jo'naydi. Bog'dodda Forobiy o'rta asr fanini, turli fan sohalarini o'rganadi. Masalan, uning Yunon tilidan Abu Bashar Mata (Mata ibn Yunus), tibbiyoti va mantiqdan Yuxanna ibn Xaylon (Jilon) ta'lim bergan. Umuman, Forobiy Bog'dodda matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, tibbiyot, huquq, tilshunoslik, poetika bilan shug'ullanadi, turli tillarni o'rganadi.

Ba'zi manbalarda Forobiy yetmishdan ortiq tilni bilganligi haqida gapiriladi.

Forobiyning ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlaridan ta'lim-tarbiyaning muhimligi, uning nimalarga e'tibor berilishi zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to'g'risida», «Ixso-al-ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» kabi asarlarda ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Forobiy o'z ishlarida ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borishi haqida ta'lim bergan bo'lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkizishda o'z o'zni va xususiyati bor ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Forobiy «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman, jonli tabiat – o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganildi, dedi.

Forobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lishi, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi deb, hisoblaydi.

Bunga Forobiy ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham ahloqiy jihatdan kamolga yetkazdi, xususan inson tabiati va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri bilib oldi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi, jamiyat tartib qoidalariga rioya etadi.

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Forobiy ta'lim-tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. Ta'lim – degan so'z insonga o'qitish, tushintirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya - nazariy fazilatini, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim.

Abu Nasr Forobiy yana aytadi: «Ta'lim – degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu hulqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir».

Forobiy nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi xulq-odobda ham qay darajada pok bo'lishi kerakligini «Falsafani o'rganishdan oldin nimalarni

bilishi kerakligi to'g'risida»gi risolasida shunday ta'riflaydi: «Falsafani o'rganishdan avval o'zingizni xirs-xavaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shaxvoniy kabi noto'g'ri tuyug'ularga emas, balki komolotga bo'lgan hirs-havas qolsin.

Bunga xulq-atvorning faqat so'zdagina emas, balki haqiqatda (amalda) tozalash orqali erishish mumkin. Shundan so'ng xato va adashishdan saqllovchi, haqiqat yo'lini tushinib olishga boshlovchi (notiq – so'zlovchi, fikrlash ma'nosida) nafsni, jonni, ruhni tozalash zarur».

Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insondagi go'zal fazilatlar ikki yo'l – ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat-nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta'lim so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi deydi. Har ikkalasi birlashsa, yetuklik namoyon bo'ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi deb ko'rsatadi.

Forobiy ta'limda barcha fanlarni nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi.

Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan ta'lim-tarbiyaning turli metodlari yordamida amalga oshirilad, Forobiy ta'lim-tarbiya ishlarini ikki yo'l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

«Amaliy fazilatlar va amaliy san'at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalalari»ga kelganda, bu odat ikki yo'l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi – qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, qasd-intilish harakatga aylanadi.

Ikkinchi yo'l (yoki usul) – majbur etish yo'li. Bu usul gapga ko'nmovchi qaysakr shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlariga nisbatan qo'llaniladi. Chunki ular o'z istaklaricha, so'z bilan g'ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o'rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo'ladi. Kasb-hunarlarni va juz'iy san'atalarini egallashga intilishi bo'lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularning fazilat egasi qilish va san'at ahillariga aylantirishdir.

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, va majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovarda insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ko'zlaydi.

Xulosa qilib aytganda Forobiy pedagogik ta'limotning asosidagi omil inson shakllantirish, insonning o'z mohiyati bilan ijtimoiyligi, ya'ni faqat jamiyatda, o'zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarash yotadi.

Insonning komolotga yetishishida ham aqliy, ham ahloqiy tarbiyaning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Forobiy tavsiya etgan ta'limot va tarbiya usullari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi bilan diqqatga sazovardir.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048)

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy 973 yil 4 sentyabrda Xorazmda dunyoga keladi.

Beruniy yoshligidan ilmga ayniqsa aniq fanlarga qiziqadi. U matematika, jo'g'rofiya, yulduzlar ilmi, tibbiyot fanlariga oid ko'p kitoblarni o'qib chiqadi. Fors va arab tillarini va qadimgi ajdodlar tillarini qunt bilan o'rganadi.

Beruniy bir necha yil koinot, metallar va qimmatbaho toshlar ustida kuzatishlar va tajribalar olib boradi va keyinchalik ana shu tadqiqotlari asosida «Minerologiya» asarini yaratadi. Uning «Geodeziya» asarida geografiya va astronomiya fanlari bilan bir qatorda poleontologik kuzatishlari natijalari ham bayon qilingan.

Beruniyning yana bir muhim asari «Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar"dir. Bu asarda ham u bir qancha fanlar yuzasidan dastlabki tushuncha va ma'lumotlar bergan. Olim 1030 yilda o'zining SHarq va G'arbda keng e'tirof qilingan mashhur «Xindiston» asarini yaratadi. Asarda Beruniyning Xindiston haqidagi barcha qarashlari o'z ifodasini topgan.

Hammasi bo'lib 150 dan ortiq asarlar yaratgan. Olim o'z asarlarini o'sha davr an'anasiga ko'ra arab tilida yozgan. Beruniy yuqoridagi asarlarida inson kamoloti xaqida o'z qarashlarini bayon etadi.

Beruniy mamlakat obodonchiligi ilm-fanning ravnaqiga bog'liq bo'lsa, yoshlarning baxt-saodati va kamolotini uning bilimi, axloqi va ma'rifatida deb biladi.

SHuning uchun u yoshlarni ilm-ma'rifatga chorlaydi. Beruniy yoshlardan raxmdil, mexribon, kishilarga iltifotli, xayrihoh, bo'lishni, najotsiz odamga qo'l cho'zishni, makkorlik, ayyorlik, adolatsizlik, boylikka xirs qo'yish, yolg'on gapirish kabi sifatlarga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi.

Beruniy insonni tabiatning eng oliy kamoloti deb qaraydi. U insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi 2 turga bo'ladi.

Beruniy inson va axloqiy tarbiya xaqida fikr yuritar ekan, «insonga yer yuzini obod etishi va uni boshqarib turishi uchun aql-zakovat ato etilgan, shuning uchun xar bir inson yuksak axloqli bo'lishi lozim», - deydi.

Aqliy tarbiya, deydi Beruniy, kishining tafakkurini rivojlantirib, dunyoqarashini kengaytiradi. Uning o'z-o'zini anglab etishiga ta'sir etadi.

Mutafakkir inson kamolotida mexnat va mexnat tarbiyasi hakida muhim fikrlarni bayon etadi. U xar bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo'ladi.

Og'ir mexnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan soxiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli, olimlar mehnatiga alohida e'tibor beradi va hayrihoh bo'lishga chaqiradi. SHu bilan birga og'ir mehnat qiluvchi konchilar, yer ostida ishlovchilar, dexqonlar xaqida gapirib, ularning mexnatini rag'batlantirib turish kerak deydi.

Olim bolalarni mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida xam fikr yuritadi. U bolalarni eng kichik ilk yoshidan mehnatga o'rgatish kerak deydi.

Beruniy «Minerologiya» asarida faqat qimmatbaho metallar, toshlar xaqida emas, xunarmandchilikka oid, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o'rgatish metodlari xaqida qimmatli fikrlar bildiradi.

«Saydana» nomli mashxur asarida esa sharqdagi dorivor o'simliklarning tavsifi bayon qilingan. Beruniy inson kamolotida 3 narsa muxim rol o'ynaydi deydi.

1.Irsiyat.

2.Muhit.

3.Tarbiya.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari xakidagi fikrlari xozirgi davr uchun ham dolzarbdir. o'kuvchiga bilim berishda u:

-o'quvchini zeriktirmaslik;

- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;

-uzviylik, izchillik;

-yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish va hokazoga e'tibor berish kerakligini uqtiradi.

Olim fan soxasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid koldirilgan barcha boyliklarni qunt bilan o'rganishga da'vat etadi. Ilm toliblariga qalbni yomon ilatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, xirsdan, behuda raqobatdan, ochko'zlikdan, shon-shuxratdan saklanishi zarurligini uqtiradi.

YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid bu fikrlari o'z zamonasi uchun emas, xozirgi davr ta'lim-tarbiyasini takomillashtirishda xam katta axamiyatga egadir.

Sharqda «Shayx ar-ra'is» nomi bilan mashxur bo'lgan allomalardan biri o'rta asr buyuk mutafakkiri **Abu Ali ibn Sinodir**. Ibn Sino ham boshqa qomusiy olimlar qatori matematika, astranomiya, fizika, Kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, ta'lim-tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoga mashxur yirik asarlar meros qoldirgan olim.

Abu Ali ibn Sino 980 yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'idagi kichik amaldor oilasida tug'ildi. Keyinroq uning oilasi Buxoroga ko'chib o'tgach, u boshlang'ich maktabda o'qiy boshlaydi. Ibn Sinoning mutolasi zo'r, mehnatsevar edi. Undagi tug'ma qobliyat, o'tkir zehin, kuchli xotira o'zaro birikib ketgan edi. Ibn Sino otasi Abdulloh hamda uning do'stlari bilimdon kishilar bo'lib, ularning ilmiy munozaralari o'tadiga oilaviy muhit yosh ibn Sinoga ham ta'sir etdi. Shu bilan birga uning bolalaik va o'smirlik yillari o'tgan Buxoro shahri somoniylar davlatining yirik madaniyat markazi bo'lib hisoblanar edi. Buxoroda ko'plab maktab, madrasa, kasalxona va nodir kitoblar saqlanadigan kutubxona bo'lgan. Jahonning turli mamlakatlaridan kelgan olimlarning ilmiy munozaralarida yosh ibn Sino ham qatnashib, turli fanlarga oid bilimlarini chuqurlashtirib borgan.

Abu Ali ibn Sinoning «Al-Qonun», «Hay ibn Yaqzon», «Risolat at-tayr», «Risolat fi-l ishq» («Ishq haqidagi risola»), «Risola fi moxiyat as-salot» («Nizomning mohiyati haqida risola»), «Kitob fi ma'no ziyorat» («Ziyorat qilish ma'nosi haqida»), «Risolat fi-daf al-g'am min al mivt» («O'limdan keladigan g'amni daf qilish haqidagi risola»), «Risolat al-qadr», «An-najot», «Ash-Shifo», «Donishnoma», «Kito bash-ishorat» va at tanbihot» asarlari shular jumlasidandir.

Ma'lumki, ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalangan, maxsus risolalarda talqin etgan. Shuningdek, fanlarni tasnif etadi. Bunda u birinchi

o'ringa tibbiyot fanlarini qo'yadi. Falsafani esa ikki guruhga, ya'ni nazariy va amaliy guruhlariga bo'ladi. Nazariy guruh kishilarni o'zidan tashqaridagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallashga yo'llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilishimiz kerakligini o'rgatadi deydi.

U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi barcha fanlarni kiritadi.

Abu Ali ibn Sino kamolatga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak. Bu maqsadga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qo'rqmasliklari zarur, deydi. «Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir».

Zero, ma'rifatli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi, deydi u fikrini davom ettirib.

Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo'lmagan kishilar qatoriga qo'shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi.

U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo'lish kerakligini, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o'z bilimining haqiqiyligini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning ta'lim metodlari haqidagi ta'limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan g'oya yotadi.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tamoillarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Bu talablar hozirgi davr ta'lim tamoillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Yuqoridagi masalalarga o'zining «tadbiri manzil» asarida maxsus bo'lim bag'ishlanadi. «Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash» («Omuzish va parvarish madrasa farzand») bo'limida ta'lim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Yuqoridagi tamoillar esa bolalarni yengil-yelpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi.

Talabaga bilim berish o'qituvchining mas'uliyatli burchidir. Shunga ko'ra Ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritir ekan, shunday yo'l-yo'riqlar beradi. Bular quyidagilardan iboratdir:

- bolalar bilan muomilada bosiq, jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berishi;
- ta'limda turli metod va shakllardan foydalanishi;

- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarni bilishi;
- fanga qiziqtra olishi;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib Bera olishi;
- bilimlarni talabalarga tushinarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;
- har bir so'zning bolalar xissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur, deydi olim.

Ibn Sino ta'limotida bilishda qaysi metodlardan foydalanilmasin – u og'zaki ifodami, bilimlarni tushintirishmi, turli ko'rinishlardagi suhbatmi, tajribalarmi, baribir talabada haqiqiy bilim hosil qilish mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo'lgan.

Shu jihatdan olimning «Hay ibn Yaqzon» asari kishilarning did farosatini o'stirishi, fikr doirasini kengaytirishi bilan ta'lim-tarbiyada ham katta ahamiyatga ega. Uning nomi ham shunga ishora qilad: «Hay ibn Yaqzon» (Uyg'oq o'g'li Triq). Bu asar farosat ilmi haqida ekanligini Ibn Sinoni o'zi ham ta'kidlaydi.

Mazkur asarni Ibn Sino 1023 yilda Hamadonga yaqin bo'lgan Faratjon qal'asi qamoqxonasida yozgan deyishadi.

Ibn Sino bu asarida ilm-ma'arifatni o'rganishga kirishishi natijasida ko'zi ochilgan, uning natijasida aql (Hay ibn Yakzon) ko'ziga ko'ringani va ilm ham unga o'z jamolini nomoyon qilganini hikoya qilar ekan, ilm aqilni o'lim bilmaydigan Uyg'oq, qarimaydigan, yosh, beli bukmaydiga – barvasta, nuroniy sifatida tasvirlaydi. Tafakkur qilib zarur bo'lgan va bilishi mumkin bo'lgan narsalarni o'qishga kirishgani, bu yo'lda aqilni ishga solib, o'zini yomonliklardan chetlashtiradigan turli xususiyatlarni bilb olganligini qayd etadi.

Demak, «Hay ibn Yakzon» mantiq ilmiga bag'shlangani bilan ham aqliy tarbiyada katta ahamiyatga ega shuningdek, insondagi yomon illatlarni ham bartaraf etishda ilmu-fan, ziyoning ahaamiyati, insondagi aql tafakkur quvvatining yomon illatlardan qutilishi, o'zligini anglash vositasi ekanligi bilan adabiy-falsafiy asarshina bo'lib qolmay, tarbiyaviy asar sifatida ham qimmatlidir.

Ibn Sino insonning kamolga yetishida uning ahloqiy kamolati muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o'rganish natijasida amalga oshsa, ahloqiy tarbiya ko'piroq yaxshi ahloqiy hislatlarni mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi, deb ta'lim berdi.

Inson xissiy va ma'naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat asta-sekin inson fe'l-atvoriga xos hislatga aylana boradi. Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o'rab olgan tashqi muhit, odamlar alohida muhim rol o'ynaydi, ana shu tashqi muhit va odamlar insonning atrof dunyoni bilishigagina emas, balki uning xulqidagi yaxshi yoki yomon jihatlarining tarkib topishiga ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda extiyotkor bo'lish kerakligini, bola yomon odatlarga o'rganmasligi uchun, uni yomon odamlardan, yomon muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini bildiradi.

Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolga yetadi.

Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta e'tibor beradi. Oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatishi borasid muhim fikrlar bayon etadi.

Xulosa qilib aytganda, Ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, ham ahloqiy estetik hamda jismoniy tomonidan rivojlanishi uning kamolga yetishining asosiy mezon sifatida talqin etiladi.

4.

Qarib bir yarim asr davomida xonavayron bo'lgan Movraunnahr xalqi XIV asrning boshlariga kelib mo'g'il istelochilari zulmidan qutila boshladi. Movarounnahrda kuchli davlat tuzishga bo'lgan intilish g'olib keldi. Mo'g'il istelochilariga qarshi Buxoroda xalq Maxmud Tarobiy boshchiligida qo'zg'aldi, Samarqand va Xurosonda esa Sarbadorlar qo'zg'olonlari ro'y berdi. Natijada Sarbadorlar uzoq muddat hatto hokimiyatni ham boshqarib turdilar.

XIV asrning ikkinchi yarmida Movraunnahrning feodal tarqoqligiga barham berildi, mamlakat mo'g'il bosqinchilaridan tozalandi. XIV asrning oxiri va XV asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar yanada rivoj topa boshladi.

Soxibqiron Temur va dastlabki Temuriylar hukumronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o'rin egalladi.

Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda yana fan va madaniyat, muorif qaytadan ravnaq topa boshladi.

Bejiz emaski, XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr tarixda Sharq uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi deb ataldi. Chunki, bu davr madaniyati o'z tamoiillari, yo'nalishi, iqtisodiy asosi jihatdan IX-XII asrlardagi madaniy rivojlanishdan ajratib olib ko'rsatish mumkin emas. XIV asrning uchinchi choragi va XV asrda Markaziy Osiyoda ekanomika, fan va madaniyat o'sdi. Amir Temur hukumronligi davrida jahonning ko'plab shaxarlaridan Samarqandga hunarmandlar olimu-fozillar san'atkorlar muxandislar olib kelindi va ularning boy tajribalari, ijodiy mahoratlaridan ilm-ma'rifat, madaniyat, qurilish jabhalarida keng foydalanildi. Samarqand va Xirotda madrasalar, kutubhona va rasadxona qurildi. Tibbiyot ilmini o'rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo'g'rofiya, tarix, adabiyot, falsafa hamda tabiyotshunoslikka oid bir qancha ajoyib va muhim asarlar yaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Sa'diy meroslarini shuningdek, yunon-rim madaniyatini o'rganishga xavs kuchaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Temur va uning izdoshlari, Temuriylar davrida fan va madaniyat rivojlandi ayniqsa, Samarqand va Xirotda shaharlari madaniyat, ilm-marifat markaziga aylandi. Shoxizinda, Go'ri Amir maqbarasi, Bibixonim jome masjidi, Registon maydoni va shu singari, ko'plab madrasa va masjidning yirik me'morchilik namunalari bunyod etildi.

Ulug'bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya kabi fanlar ayniqsa rivoj topdi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va ular bilan barobar diniy bilimlarning ham ravnaq topishiga katta e'tibor berildi. Oliy maktad-madrasalar qurildi. Buxoro,

Samarqan va G'ijduvonda qurilgan uch madrasa fan taraqqiyyotida ilmiy markaz bo'lib keldi.

Buxorodagi madrasa peshtoqiga bitilgan quydagi yozuvlar haligacha yaqqol ko'zga tashlanadi: «Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir».

Shular XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr Markaziy Osiyo tarixida uyg'onish davri bo'lib tarixga kirgan deya olishimizga asos bo'la oladi.

Bu davrda o'zbek adabiyotida ancha siljish ro'y berib, Atoyi, Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Durbek va Lutfiylar tomonidan qimmatli asarlar yaratildi. Shuningdek, tarixiy va adabiy asarlarni o'zbekchaga tarjima qilish ishlari jonlandi.

Ulug'bek olimlarga homiylik qilib, fan ahlini rag'batlantirdi, uning o'zi, ayniqsa, astronomiya va matematika fanlari bo'yicha muhim ishlarni amalga oshirdi Samarqandda Ulug'bek tomonida rasadxonaning barpo etilishi va uning o'sha davr ilmiy markaziga aylanishi muhim voqyea hisoblanadi. Shu davrda Samarqandda Qozizoda Rumi, Jamshid bin Ma'sudi, Muyiddin va uning o'g'li Mansur Qoshiy, Ali ibn Muhammad Birjondi va boshqalar ijod etdilar. Xirotda esa Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiy ulug' rassom Bexzod, tarixshunos Xondamir, xattot Sulton al-Mashhadiy va boshqalar ijodiyot cho'qqilariga ko'tarildilar.

Ulug'bekning shogirdi Aloviddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy (1403-1474) o'sha davr Movarounnahrning madaniy va ilmiy hayotida katta rol o'ynaydi. Astronomiya to'g'risida "Risoi dar falakiyot" degan kitob yozgan Ali Qushchining o'z davrining Ptolomey deydirdi. Uning mazkur asarida geometrik bilimlarning asoslari bayon qilindi, nuqta, chiziqli, yuza, aylana va shu kabi tushinchalar to'la ta'riflab berildi, tabiiyot fanlari va shuning singarilar sohasida boshlang'ich bilimlar bayon qilindi. Bu asarda hamma narsa oddiy va murakkab narsalarga bo'linib ta'riflanadi.

XIV-XV asrda Samarqandda yashab ijod etgan ulug' alloma Mir Said Sharif Jurjoni (1340-1413) til, mantiqqa, huquqqa, falsafa va boshqa fanlarga oid 50 dan ortiq asar yozdi. Uning "Borliq haqida risola", "Olamni aks ettiruvchi oyna" kabi asarlarida falsafa, mantiq, tarbiyashunoslikka oid bir qator ilmiy va nazariy masalalar yoritilib, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga doir izlanishlarini rivojlantirdi va boyitdi.

XV asrda Markaziy Osiyoda tarix fani keng rivoj topdi. Hofizi Abro' "Zubdan tavorix" ("Tarixning qaymog'i") degan kitob yozdi va bu kitobda 1427 yilgacha bo'lgan voqyealarni bayon qilib berdi. Abdurazzoq Samarqandiy Hofizi Abro'ning bu asarini davom ettirdi. U o'zining "Matalai sa'dayi va majman bahrayi" ("Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi va ikki dengizning qo'shilish joyi") degan asarida 1471 yilgacha bo'lgan voqyealarni bayon qilib beradi. "Ravzotus safo" asarini yozgan Mirxond va "Habibus siyar" asarini yozgan Xondamir shu asarlarning bir qismini Sulton Husayin hukmronlik qilgan davrga bag'shlaydilar. Davlatshoh esa o'zining "Tazakiratsh shuaro" asarini Alisher Navoiyga bag'ishlaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da Hirot to'g'risida yozar ekan butun dunyoda bunday obod shaharlarni ko'rmaganligini aytdi.

Hirotda machit va madrasalrning muazzam binolarini, ijtimoiy foydali inshootlar: hammomlar, shifoxonalar, xovuzlar, bog'-rog'lar, ko'priklar, karvon yo'llaridagi robitlar va boshqa arxitektura inshootlarini qurishga Alisher Navoiy tashabbuskor bo'ladi.

Buyuk mutafakkir Alisher navoiy til-adabiyot, musiqa, tarix, falsafa, astronomiya, tarbiya nazariyasi sohasida juda ko'p ilmiy asarlar yaratdi. U fan va maorifni birinchi darajadagi muhim ish deb hisoblaydi, ularni rivojlantirish uchun tinmay kurashadi.

Alisher Navoiy davrida Hirotda kitoblarni bezash san'ati, avvalo, xattotlik va miniatyura yuksak darajaga yetdi. Hirotda xashamatli arxitektura inshootlari yaratildi. Ilmiy munozaralar o'tkazish keng yo'lga qo'yildi.

Bu davrda Movarounnahrda ham san'at, aritektura, binokorlik texnikasi ancha ravnaq topdi. Musiqa, tasviriy san'at, madaniyat, adabiyot, ta'lim-tarbiyaga oid qator asarlar yaratildi. Hasan Buxoriy Nisoriyning (1556) "Muzakkir al-ahbob" tazkirasi, Mutribiyning "Tazkira – tush shuaro" (1604-1605) to'plamlari, tarixiy va adabiy yodgorlik bo'lgan "Boburnoma" o'sha davrda yaratilgan asarlar orasida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Amin Axmad Roziy "Hafit iqlim" ("Yetti iqlim") degan geografik-bibliografik lug'at tuzdi. Darvesh Muhammad ibn Do'stmuhammad Buxoriy xattotlik san'atining nazariyasi to'g'risida asar yozdi.

XVI asrda xattotlik san'ati yuksak darajaga yetdi. Sulton Al Mashhadiy. Mirali Halvaiy, Muhammad ibn Is'hoq ash-Shixabiy va boshqalar ustoz xattot bo'lib nom qozondilar.

Bu davrda bir qator ilmiy maskanlar bunyod etildi. Jumladan: Shayboniyxon madrasasi, Abdurahim sadir madrasasi, Mirrab madrasasi, masjidi Kalon va boshqa inshootlarning qurilishi ta'lim-tarbiya jarayonida muhim bosqich bo'ldi.

Aholining savodxonligini oshirish, bolalarga ta'lim-tarbiya berish borasida ham ma'lum darajada imkoniyatlar yaratildi. Xususiyl maktablar yuzaga keldi, muallim yollab bolalarni uyda o'qitish tadbirlari odat tusiga kirdi.

Shahar va qishloqlarda, ovullarda ochilgan maktablarda bolalarni o'qitish 6 yoshdan boshlandi. Olti yoshli bolalar maktabga borib, alifbeni o'rganar, uning ayrim harflarini chizishni mashq qilar edilar. O'quvchilar maktablarda savod chiqarganlaridan keyin madrasaga kirib ham diniy, ham dunyoviy fanlardan bilim olar edilar.

Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, XIV- XVI asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar ancha yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi.

Amir Temur Ko'ragon ibn Amir Tarag'ay 1336 yilning 9 aprelida o'sha paytdagi Kesh (Shaxrisabz)ga qarashli Xojailg'or (bu qishloq xozir Yakkabog' tumaniga qaraydi) qishlog'ida tavallud topdi. Otasi amir Tarag'ay o'ziga to'q, badavlat kishi edi. Lekin bo'lajak sohibqiron tavallud topgan paytda Qozonxon (1333-1346) xuzurida kichik bir mansabga ega edi. Amirning onasi Teginabegim Buxorolik "Sadir ash sha'ria'-Sharias" ulug'i, taniqli olim Ubaydullohnin qizi bo'lgan. O'sha paytda Kesh va unga tobe yerlarning bekligi esa Amir Tarag'ayning og'asi Xoja Barlosning qo'lida edi.

Temur shaxsi ko'p yillar davomida umuman til tekkizilmaydigan mavzu bo'lib keldi. Agar uning nomini eslasalar ham kinoya, kamsitish yoki boshqa uydurmalarini unga tirkash bilan chegaralanar edilar.

U yoshligidan boshlab o'z oldiga ona yurtini mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qo'ydi, yer yuzida buyuk saltanat sohibi sifatida el va elatning boshini qovushtirdi. Mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko'tarib, dunyoga mashhur qildi.

Amir Temur davlati qurilishi, harbiy san'ati ko'p asrlar davomida Sharqu G'arb davlatlariga o'rnak va andaza bo'ldi. Uning zamonida madaniyat, ilmu-fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa, she'riyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning ko'p an'analari takiqlanga etdi. Amir Temurning madaniyat va din ahillariga ko'rgazgan cheksiz mehr-muruvvati ayniqsa ibratlidir.

Ko'hna tarix saxifalari buyuk bobomizning millat va el-ulus manfaati bobida chekkan mislsiz zaxmat hamda ko'rsatgan shijoatlariga guvoxlik beradi.

Insof-iymon tuyg'usi diyonat mezonini Amir temur xayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning qarib yarmiga jaxongir ersada, u kuch-qudrat zo'rlik, zo'rovonlikda emas, aksincha, adolatda ekanligini teran anglaydi.

Temur bilim olishni yetti yoshdan boshlaydi. Bu haqda uning o'zi bunday dedi: "Yetti yoshga to'lganimda meni madrasaga olib borishdi va qo'linga so'zlar jadvalini berishdi. Men o'qiy boshladim". Bu keltirilgan jumladan ko'rindiki, Temur madrasaga kelganda xarf taniydigan bo'lgan. Shuning uchun ham jadvaldagi so'zlarni o'qiy bilgan. Movarounnahr va Xuroson madrasalarida eski odat bo'yicha bolani o'qishga o'rgatishda qog'ozga yo teriga oson so'zlarni jadval tarzida joylashtirganlar. Aftidan Temur ham bolalaigida shunday jadvallardan o'qigan ko'rinadi. U bolalik va o'smirlik yillari haqida yana shuni aytadi: "Men 9 yoshga to'lganimda namoz o'qiy boshladim va madrasadagi barcha o'quvchilardan ustun bo'lib oldim. Har qanday yig'ilishlarda ham men ulamolarning yonidan joy olishga harakat qilardim. Lekin har doim ularning oldida tiz cho'kib o'tirar edim.

12 yoshimda bolalar bilan o'ynashga orlandim va vaqtimni o'z tenglarim hamda o'spirinlar bilan o'tkazardim".

Temurning tarjimai holida uning fe'l-atvori, ahloqi va insoniy – mafkuraviy xususiyatlarining shakllanishi haqida guvohlik beruvchi joylari ham bor. Bu haqda u aytadi: "Yetti yoshimdan yetmish yoshimgacha va umr bo'yi men kambag'allarga ehson qilar edim. Bir marta kiygan kiyimimni ikkinchi qayta kiymas edim va uni yo'qsillarga hadya qilardim. Men qudratga erishganimda bolalikdagi yoru-do'stlarimning hammasini katta mansablarga ko'tardim. Har kuni qo'y so'yib va har bir qo'y tanasini yettiga bo'lib, kambag'allarga ulashdim".

"Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqolar qurishni, yo'lovchi musofirlar uchun yo'l ustiga rabotlar bino qilishni, daryolar ustiga ko'priklar qurishni buyurdim.

Musulmonlarga diniy masalaladan ta'lim berib, shariyat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarislar tayin qildim." Bundan ko'rinadiki Amir Temur odob-axloq, iymon, e'tiqod, ta'lim-tarbiya sohasida mukammal bilimga ega bo'lgan buyuk siymolardandir.

Dastavval shuni aytish kerakki, Amir Temur, odob-ahloq, iymon, e'tiqod, ta'lim-tarbiya sohasida o'zi yuksaklikka, erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun bobomizning o'zi tomonidan yaratilgan odob-ahloqqa oid dasturlar, o'gitlar, pand-nasihatlarini, shuningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko'zdan kechirish kifoya. Xalqimiz Amir Temurning o'zi amal qilgan quyidagi sifatlarini yuksak baholaydi.

Birinchi sifat: "Men sifatlarimning eng avvali deb beg'arazlikni tushundim. Hammaga ham bir xil: jiddiy va odil qaradim, hyech bir kimsani boshqasidan farq qilmasdim, boyni kambag'aldan ustun qo'ymadim."

Ikkinchi sifat: "Men har doim Islomga qat'iy rioya qildim va Olloh taolloning amri bilan ulug'langan shaxslarga hurmat bilan qaradim".

Uchinchi sifat: "Men kambag'allarga ko'p xayr-ehson qildim. Har mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to'g'ri hal qilishga butun jaxdimni sarf qildim."

To'rtinchi sifat: "Haloyiqqa rahm qildim, barchaga naf yetkurdim. Bunda birovga noxaq ozor yetkazmadim va mendan yordam so'rab kelganlarni ko'krigidan itarmadim."

Beshinchi sifat: "Islomga taaluqli ishlarni men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustun qilib keldim. Avval tangriga itoat qilib keyingina kundalik ishlarga qo'l urdim".

Oldinchi sifat: "Barcha so'zlarimda doim haqiqatgo'ylikka amal qildim. Bu dunyo va u dunyo haqidagi eshitganlarimdagi haqiqatni yolg'ondan ajrata bildim".

Yettinchi sifat: "men har kimgaki, va'da bersam, unga vafo qildim. Hargiz va'daga xilof ish qilmadim, men doimo va'dalarimni aniq bajarsam, shundagina odil bo'lishimni va kimsaga jabr yetkazmasligimni angladim."

Sakkizinchi sifat: "Doimo o'zimni Allohning yerdagi mulkining posboni deb bildim va parvardigorning iznisiz uni sarf etmadim. Oliy martabadagilarga ham, fuqaroga ham birdek xayriya qilishga intildim. Hyech qachon birovga xasad bilan qaramadim."

To'qqizinchi sifat: "Men har doim tangrining amrini va uning payg'ambar Muhammad alayxissalomning hadislarini to'la ado etishga intildim."

O'ninchi sifat: "Men haar doim insof bayrog'ini baland ko'tardim va iymon tarqatishni o'z buyukligimning qudratli zamini deb bildim".

O'n birinchi sifat: "Men doim saidlarga ehtirom bilan qarardim, ulamo va shayxlarni e'zozlardim. Bu kishilarni doim majlislarimga chaqirardim".

Bu o'gitlarda Sohibqironning juda mashaqqatli va sertashvish: goh muvaffaqiyatli, goh muvaffaqiyatsiz, goh quvonchli, goh sertashvish anduxli umrining ijodiy masalasidir. Bu o'gitlar xalqlarning bir maqsad sari birlashtirishga, jipslashtirishga, muvafaqiyatlarga erishtirgan, sehrli tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan durdona – **pedagogikadir**. Bu pedagogika Sohibqironning davlatni boshqarish va uni idora qilish, g'olibona xarbiy yurishlar qilish, mamlakatda osoyishtalik o'rnatish, fan va madaniyatni rivojlantirish, xalqlar o'rtasida buzilmas do'stlik, mehr-shavqat, odamiylik va axloqiy-odobni tarbiyalash kabi muammolarni hal qilishga bag'ishlangandir.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra Sohibqironning davlat boshqarish va Amir Temur o'gitlarini uning mohiyati va vazifasiga qarab quyidagi guruhlariga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir..

- a) din va shariat;
- b) davlat va uni idora etish;
- v) kengash utkazish;
- g) podsho va vazirlar.

Odob va ahloq haqidagilar quyidagilar kiradi:

- adolat va adolatsizlik;
- so'z va ishning birligi;
- do'st va dushmanlik;
- botirlik va qo'rqqoqlik;
- so'z va shirinsuxanlik.

Amir Temur o'git-nasihatlarini yuqoridagicha taxminiy guruhlariga ajratish, bu o'gitlar va nasixatlarni kelib chiqish sabablari va ularni mohiyatini chuqur tahlil qilish imkoniyatini berdi.

Amir Temur hych kimga g'azab bilan qattiq muomala qilmagan. O'z "Tuzuklari"da g'azab va qattiqqo'llik bilan qilingan muomalani tangri taoloning g'azabiga duchor bo'lishi, o'z holini tan qilishdir, deb yozadi. Shuning uchun "Shirin so'z aytib g'animni imonga kiritgan". "Til qilichdan o'tkir". "Bir kalima shirin so'z qilichni qiniga kiritar", - deb ta'kidlardi Sohibqiron.

Bu o'gitlar Sohibqironning tajribasida sinalgan.

Tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida yozilishicha Amir Temurning o'ziga xos xususiyatlaridan biri davlat va mamlakat fuqarosining g'amxo'ri bo'lganligidir. Uning qoidasi «Rosti-durusti» edi.

Amir Temur o'git-nasihatlarida axloqqa oid gaplar juda ko'pdir.

1. Adolat va adolatsizlik haqida: «Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu-sitam yo'lini to'sdim. Qaysi mamlakatni zabt etgan yoki qo'shib olgan bo'lsam, o'sha yerni obro'-e'tiborini, kishilarini aziz tutdim, sayidlari, ulamolari, fuqaro va mashoyixiga ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga vazifalar berib, maoshlarini belgiladim. O'sha viloyatlarning ulug'lari mung'a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini bo'lsa o'z farzandlarimdek ko'rdim», - deydi.

Shuningdek, u ish va so'z birligini xush ko'rar edi.

Amir Temur do'stigasodiq edi. U Imom Baroka vafot etganda yig'lab ko'z yoshi to'kkan. «Shiddatli kishilarni do'st tut, chunki tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi», deb Yana do'st-dushmanidan kimki menga iltjo qilib kelgudek bo'lsa, do'stlarga shunday munosabatda bo'ldimki do'stligi yanada ortdi, dushmanlarga shunday muomalada bo'ldimki, ularning dushmanligi do'stlikka aylandi.

Amir Temurning o'zi To'xtamishxon uning panohiga sig'inib kelganda unga yaxshilik va muruvvat ko'rsatgan. Amir Temur «Hych kimga g'azab bilan qattiq muomala qilmadim», deb yozadi o'z tuzuklarida. U shirin so'z aytib g'animni imonga kiritgan. «Bir kalima shirin so'z qilichni qiniga kiritar», deb ta'kidlardi Sohibqiron.

Shunday qilib, XIV asrning ikkinchi yarmidan XVII asrgacha bo'lgan davr Movarounnahrda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yuksalish dari bo'ldi. Markazlashgan

davlatning asoschisi Amir Temur o'z imperiyasini tuzib, uning iqtisodiy va madaniy qudratini yuksaklikka ko'tardi. Uni Ovro'pa va Sharqda eng qudratli davlatga aylantirishga erishdi.

Abdurahmon Jomiyning XV asrda yashagan mutafakkurlar kabi insonni, uning yuksak axloqiy xislatlarini, go'zal fazilatlarini kuylash orqali ularning baxt-saodatiga erishish yo'llarini bayon etgan allomalardan sanaladi.

Abdurahmon Jomiyning to'liq ismi Nuriddin Abdurahmon ibni Ahmad bo'lib, 1414 yil 7 noyabrda Jom shahrida tavallud topgan. Jomiy taxallusi u tug'ilgan joy – Jom shahri nomidan olingan.

Abdurahmon Jomiyning hayotida va faoliyatida, uning ijodiy yo'li, ta'limiy va tarbiyaviy qarashlari haqida mashhur sharqshunos olim Ye.E.Bertels, tojik olimi M.Orifiy, o'zbek olimlari Sh.Shomuhamedov, A.Qayumov, H.Aliqulov va boshqalar tadqiqot olib borganlar.

Abdurahmon Jomiy o'z asarlarida insoniy yuksaklikni ta'rif etadi. Tadqiqotchi Sh.Shomuhamedov Jomiy haqida fikr yuritir ekan: «Uning shaxsan o'zi bunga namuna bo'lada; poklik shamlaridan biri bo'lib porlagan», - deydi.

Jomiy uchta lirik devoni, yettita dostonidan iborat «Haft avrang» (Yetti taxt), ta'lim-tarbiyaga oid «Bahoriston» asarlari bilan jahon madaniyati taraqqiyotida munosib o'rnisha ega bo'ldi. Uning barcha asarlari sonini tadqiqotchilar 46 ta deb aniqlaganlar.

Abdurahmon Jomiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari Sa'diyning «Guliston» asari uslubida yozilgan «Bahoriston» asari va «Haft avrang»ga kirgan «Tuhfatul ahror» hamda «Silsilatuz-zahab» (Oltin tizmalar) va boshqa dostonlarida ifodalangan. Bu dostonlarda va «Bahoriston»da Jomiy haqiqiy kamolotga erishgan inson haqidagi qarashlarini bayon etadi.

Jomiy o'zining mashhur «Silsilatuz-zahab» (Oltin tizmalar) dostonida esa «Sevimli aziz farzandga nasihat» bobida, eng avvalo har bir yosh bilim olishi zarurligi, chunki inson umri juda qisqa bo'lib, bu umrini behuda o'tkazmasligi, ammo bilim olgandan so'ng unga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi va amaliyotsiz ilm ham behuda ekanligini alohida uqtirib o'tadi.

Jomiy bilimni yoshlikdan egallash lozimligini ta'kidlaydi va johillikni qattiq qoralab, dono bilan nodonni bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi.

Hammadan avval farzand, bilimdan baxramand bo'l,

Nodonlik yurtidan chiq, bilim tomon olgil yo'l,

Har bir kishiga bu so'z, oyna kabi ayondir,

Dono tirik hamisha, nodon o'liksimondir.

Abdurahmon Jomiy «Bahoriston» asarida ilmni behuda egallamaslik, har bir shaxs foydasi tegadigan ilmni egallashi zarurligini ta'kidlaydi.

Ma'lumki, barcha allomalarning ta'limiy-axloqiy asarlaridagidek, Jomiy ijodida ham insonning bilim olish bilan birga kasb-hunar egasi bo'lishi ham uning kamolotining muhim mezoni sifatida talqin etiladi.

Masalan, «Bahoriston»da bunday g'oyani ilgari surgan hikoyatlarni ko'plab uchratamiz.

Jomiy inson uchun ilmu-hunarning qay darajada zarurligini to'g'ri talqin etgan. Alloma ilm va hunarni e'zozlagan rahbar ham o'z elining e'zoziga sabab

bo'lishi, bunday o'lka gullab yashnashi mumkinligi ta'kidladi. Shuningdek, Abdurahmon Jomiy mehnatkash insonni ulug'laydi, ayniqsa, dehqonlar mehnati haqida fikr yuritir ekan, ularning moddiy ne'matlar yaratish bilan jamiyatda hurmatga sazovor ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Jomiy asarlarida yaxshilikni barkamol inson ega bo'lishi zarur bo'lgan eng zarur axloqiy xislat sifatida tarannum etilishi bejiz emas. Zero eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklardan boshlab yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kura shva yaxshilik, ezgulikning g'olib kelishiga bo'lgan oliy istak barcha pandnomalarning asosini tashkil etgan.

Xulosa qilib aytganda, Abdurahmon Jomiyning yetti dostonidan iborat «Haft avrang», «Tuhfat-ul-ahror», «Sabhat ul-abror» kabi falsafiy-axloqiy asarlari; «Xiradnomai Iskandar» dostoni, «Silsilatus-zahab» (Oltin tizmalar) asarlarida uning inson tarbiyasiga oid barkamol g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Abdurahmon Jomiy o'z asarlarida insonni ulug'laydi, uni ma'naviy kamolot darajasiga ko'tarishning asosiy mezonlaridan biri bilimlilik, aqliy kamolotning yuksak darajasiga erishishi zarurligiga alohida e'tibor bergan.

Jomiy ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashning ikkinchi bir jihatini axloqiy barkamollik deb bildi va axloqiylik – yuksak xulq-odob mezonlari sifatida insoniylik, adolat, mehnatsevarlik, sahovat va karam, mehr-muruvvat, chin insoniy muhabbat, rostgo'ylik, kamtarlik, jasorat, mardlik kabi xislatlarni ulug'laydi va takabburlik, mol dunyoga hirs qo'yish, yolg'onchilik, johillik bilan bog'liq illatlarni qoraladi.

Qomusiy bilimlar sohibi, buyuk mutafakkir **Alisher Navoiy** fan va san'atning turli sohalarini rivojlantirish bilan birga, ta'lim-tarbiya masalalariga ham katta e'tibor bergan. U 1441 yil 9 fevralda Hirot shahrida tug'ilgan. Adabiyot va badiiy ijodga muhabbat unda bolaligida uyg'ongan. Alisher she'r tinglashni va aytishni juda sevgan. Alisher Hirotida va Mashhadda o'qigan, arab va fors tillarini o'rgangan. U 15 yoshidayoq iste'dodli shoir sifatida xalq ommasiga tanilgan. O'zbek Turkiy tilidagi she'rlariga «Navoiy», fors-tojik tilidagi she'rlariga «Foniy» taxalluslarini qo'ygan.

Alisher Navoiyning «Hamsa», «Mahbub ul-qulub», «Arba'yn», «Nazm ul-Javohir», «Munojot», «Vaqfiya» kabi asarlarida tarbiyaga katta o'rin berilgan.

Navoiyning ta'lim-tarbiya sohasidagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari markaziy o'rinda turadi. Uning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak va qadrlidir.

Navoiy inson uchun kelajak avlodni yaratishdan, uni tarbiyalab, foydali kishi qilib yetishtirishdan ko'ra hayrli va lazzatli narsa yo'qdir, deydi. Shuningdek, har bir kishi o'z farzandining yaxshi tarbiya ko'rishi va kamol topishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi, bolaga kelajakdagi hayotiga monand go'zal va mazmundor nomlar qo'yishi lozim, deydi.

Navoiy hayotda o'z ilmiga amal qilishi, o'rganganlarini hayotga tadbiq etishi masalasiga alohida e'tibor beradi. Masalan, u «Mahbub ul-qulub» asarida ilm o'qib uni ishlatmagan kishi, shudgor qilib dehqonchilik qilmagan yoki urug' sohib hosilidan baxra olmaganga o'xshaydi, deydi.

Ilm o'qub qilmag'on amal maqbul,

Dona sohib ko'tarmadi maqsul.

Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlarni o'rganishni targ'ib etadi. Bunda u olimu fozillarni yig'ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e'tibor beradi.

Masalan: Navoiy o'zining «Ixlosiya» madrasasi yonida maktab ochib, o'z vaqfidan mablag' ajratgan, madrasada ta'lim olayotgan har bir talabadan ilmda qattiq intizomga rioya qilish talab etilgan. Shuningdek, u ilm-fanni mustaqil holda o'rganish, yetuk ilm sohiblaridan dars olishga ham undaydi.

Alisher Navoiy ilm olish yo'llari haqida ham muhim fikrlar bayon etadi. U bilimlarni tinmay uzluksiz o'rganish zarur deydi. Bunda har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tish muhimligini, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan o'rganishni ta'kidlaydi. Alisher Navoiy ta'lim tizimini o'z davrida maktab, madrasalarda o'qish, olim, hunarmand, san'atkorlarga shogird tushi byoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi.

Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berishda muallimlar, mudarrislar hamda ustoz-murabbiylarning o'zlari ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini uqtiradi.

Qattiqqo'l, johil va tamagir o'qituvchilarni tanqid qilib ular rahmsiz, miyasi po'lat va ko'ngli toshdir, deydi. Ularni qoralash bilan birga o'qituvchi mehnatining og'irligi murabbiylik haqqini xolisona baholaydi.

Alisher Navoiy asarlarida komil insonni tarbiyalash uslub va usullari, vositalari ham o'z ifodasini topgan. Navoiy asarlarida bola tarbiyasi bilan oilada va maktabda shug'ullanib, namuna uslubidan foydalanish tavsiya etilgan. Tarbiya va ta'lim ota-ona hamda o'qituvchi tomonidan olib borilishi lozim topiladi. Alisher Navoiy bolalarga jismoniy jazo berish emas, balki xushmuomalalik bilan muomalada bo'lishini, lekin bunda ham me'yoridan oshmaslik lozimligini uqtiradi. Tarbiya haqida gapirar ekan «Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulmdir va qobiliyatsizga tarbiya hayf. Uni tarbiya qilmaslik bilan nobud qilma, shunga tarbiyatingni nobud qilma», deydi.

Alisher Navoiy tarbiyada insonning o'z-o'zini tarbiyalashiga xato va kamchiliklarni anglab tuzatishiga e'tibor beradi. Yanglish va xato kishilikning shartidir. Kimki, e'tirof tomon qaytar ekan, xatosi yo'qoladi. Kimki, dalil keltirib aljiray bersa, xatosini bir karra oshiradi. Ya'ni kishi xato qilganda yanglishganini bo'yniga olsa – bu yaxshi. Agar o'z xatosiga dalil ko'rsata bersa, uning xatosi Yana ikki barobar ortadi, deydi alloma.

U bola tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, bolani uyning «chirog'i», bola oilaga baxt va saodat keltiruvchidir, deb xarakterlaydi.

Alisher Navoiy bolalarga yoshligidanoq bilim, ma'lumot va tarbiya berishlikni ko'rsatib, o'qil-qizlarni 6 yoshdan tarbiyasiga – muallimga berish lozimligini aytadi.

Shu bilan birga ilk yoshdayoq fanlar va hunarlarni egallab olmoqligi lozimligini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatadi. U ta'limda ilmiylikka asoslangan, tarxiylik kabi talablarni asos qilib oladi. U o'qituvchi haqida gapirar

ekan, muallim o'z shogirdlarini ham, o'zi ta'lim berayotgan fanni ham sevgan bo'lishi zarur deydi. O'ziga ham o'quvchiga ham talabchan bo'lishini uqtiradi.

Navoiy o'qituvchini jamiyatda obro'li va hurmatga loyiq inson deb bilib, shogirdlar muallimni vatandek juda hurmat qilishlarini, e'zozlashlarini uqtiradi.

Alisher Navoiy o'zi yashagan ana shu muhitning madaniy kamolotiga insoniyat tarixida abadiy boqiy qoluvchi hissa qo'shdi. Shuningdek, Navoiyning hayoti, faoliyati, merosi o'zidan keyingi avlodlarning siyosiy ongini o'sishida, millatparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik his-tuyg'ularining shakllanishida katta manba bo'lib xizmat qiladi.

XV asrda faqat Eronda emas, balki Huroson va Movarounnahrda ham ijtimoiy falsafiy, ma'rifiy fikr taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olimlaridan biri **Jaloliddin Davoniy**dir. Davoniyning ta'limiy-axloqiy qarashlari Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiylarning ijtimoiy fikrlari bilan ko'p jihatdan tutash keladi.

Jaloliddin Muhammad ibn Asad as-Siddiqiy al-Davoniy Eronning Kazarun viloyatidagi Davon qishlog'ida 1427 yilda dunyoga kelgan.

Jaloliddin Davoniy boshlang'ich ma'lumotni qishlog'ida olgach, Sherozga keladi va u yerda Dorul ay-tom madrasasida taxsil ko'radi. Madrasada u musulmon qonunshunosligi (fikh) bilan maxsus shug'ullanadi hamda ilm-fan sirlarini mashg'ur olimlardan o'rgana boshlaydi. Uning otasi Sa'diddin ham o'z zamonining fozil kishilaridan bo'lib, o'g'lining ham ilm-fanni chuqur egallashiga yordam beradi. Davoniy o'z davrining ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan qomusiy olim. Uning yirik olim bo'lib yetishishida Samarqand, Hirot ilmiy muhitining ham katta ta'siri bo'lgan.

Davoniy insonni kamolga erishishi uning boshqalar bilan munosabatiga ham bog'liq ekanligini ta'kidlaydi, jamiyatda, ma'lum ijtimoiy muhitda, boshqalar bilan aloqada shakllanib tarbiya topgan. Inson o'zi yashagan jamiyatda adolat huqumron bo'lsa, unda baxt-saodatga erishishi mumkin, deydi. Shuning uchun u «Ahloqi Jaloliy» asarida jamiyatni adolatli fozil shaharga va johil shaharlarga bo'ladi. Farobiy kabi Davoniy ham fozil shahar boshqaruvchisida o'nta eng yaxshi fazilat mujassamlashgan bo'lishi kerak, deydi. Bulardan:

1. Hukmdor odamlarni e'zozlashi.
2. Davlat ishlarini adolatli ijro etishi.
3. Xirs va shahvatga berilmasligi.
4. Hukmdorlikda shoshma-shasharlik va g'azabga yo'l qo'ymasligi, balki shafqat va muruvvatga asoslanishi.
5. Xalqining ehtiyojini qondirishi uchun xudaning irodasidan kelib chiqishi.
6. Xalq ehtiyojini qondirishga oid ishlarni bajarishga harakat qilishi.
7. Xalqqa nisbatan odil bo'lishi.
8. Har bir ishni maslahatlashib, kengashib hal etishi.
9. Har bir kishini uning qobiliyatiga monand lavozimga tayinlashi, qobiliyatsiz kishilarga yuqori lavozim bermaslikni.
10. Adolatli farmonlar chiqarishi, qonunni buzishga yo'l qo'ymaslik kabilardir.

Davoniyning fikricha, bolaning tarbiya olishi, odob-axloqli bo'lishi uning keyingi tarbiyasigaham bog'liq. Chunki hayotda har kuni bola ko'radigan,

muloqotda bo'ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon tomondan ta'sir etadi. Bolada har kuni kerak bo'ladigan insoning xislatlar: yurish-turish qoidolari, xushmuomalalik, ota-ona va boshqa katta yoshlilarni hurmat qilish, to'g'rilik va rostgo'ylikni o'rganish, shirinsuhanlik, kamtarlik, so'zlashuv odobiga rioya qilish kundalik turmushda o'rganiladi. Shunga ko'ra bunday hislatlarni bolalarda har kuni tarbiyalab borilishi muhim. Bunday tarbiyada esa ota-ona oldiga katta vazifalar qo'yiladi. Ota va ona bola tarbiyasida barobar mas'uliyatlidir, deydi Davoniy.

Ota bolaning yaxshi fazilatlarini egallab, kasb-hunar o'rganib borishi, ilm-fanni chuqur o'zlashtirib olishi uchun moddiy asos, ya'ni kiyim-kechak, kerakli buyumlar bilan ta'minlaydi.

Ona bola tarbiyasida asosiy qiyinchiliklarni boshidan kechiruvchi sanaladi. U bolaga yashash uchun quvvat beradi, ehtiyotlab asraydi, mehr-shavqatini ayamaydi.

Bolaga oddiy axloqiy o'rgatish, yurish-turish, yeyish-ichish qoidalariga rioya qilish, o'z qilmishi oldida javob berish mas'uliyatini his etishni tarkib toptirish ota va ona burchidir. Bola tarbiyasida ota-ona bilan bir qatorda maktabga chiqqandan so'ng muallim ham javobgar sanaladi, deydi olim. Buning uchun muallimning o'zi ham yaxshi tarbiya topgan bo'lishi shart. Shu o'rinda Davoniy muallimning hislatlariga, bola va uning o'rtasidagi munosabatlarga alohida e'tibor beradi. Davoniy muallimni «Ma'naviy padar» deb ataydi. Chunki ota bolani jisman hayotga keltirib, uni jismoniy tarbiyalasada, muallim uni ma'naviy jihatdan kamolotga yetkazadi, deydi, olim. Davoniy g'azabni eng og'ir ruhiy kasallik deydi. G'azab kishining katta nuqsoni, kamchiligi, aqlsizligidir, agar aql g'azab va hissiyotga bo'ysunsa, kishi hayvon darajasiga tushib qolishi mumkin, chunki hayvonning aqli bo'lmaganligi tufaydi u g'azabni bo'ysundira olmasa, buni hech qachon kechirish mumkin emas. U hamma vaqt o'z g'azabini aqlga bo'ysundirishga harakat qilishi kerak, shundagina u haqiqiy inson bo'lib yetishishi mumkin, deydi. Olim kishilar ruhiyati haqida gapirar ekan, g'azab quvvatini quyidagilarga bo'ladi: ba'zilar tez g'azabga keladi va tez jahldan tushadi, ba'zilar esa sekin-asta g'azablanib, tez jahldan tushadilar, ba'zilar tez g'azablanib, uzoq vaqt jaxillaridan tushmay yuradilar. Davoniy g'azab turlaridan ikkinchisini yaxshisi deb eng oxirgisini yomoni deb belgilaydi.

Demak, Davoniy kishilarning salbiy ruhiy holatlarini davolash mumkin, deb ishonadi va ularni yaxshi maslahat berish, so'z bilan, jazo va mehnat qildirish yo'llari bilan tarbiyalasa bo'ladi, deb hisoblaydi. Davoniyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya va axloq to'g'risidagi fikrlari ta'lim-tarbiya tarixida muhim ahamiyatga ega.

10-mavzu: XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan davrda tarbiya va ta'lim tizimi

REJA:

1. Jadidchilik harakatining kelib chiqishi va rivojlanish tarixi.
2. Jadidchilik harakatining asosiy g'oyalari va namoyondalari.

3. 1917-1991 yillarda O'zbekistonda maktab va pedagogika fani.

Tayanch so'z va iboralar

Jadid, diniy fanatizm, usuli saftiya, qadimistlar, gimnaziya, progimnaziya, rustuzem, jadid maktabi, darslik, dastur, jadval, sinf-dars. Milliy madaniyat, milliy ziyolilar va arboblari, «Anjumani maorif», «Rushdiya», «Tarbiyat», «Qurultoy», «Musulmon o'qituvchilar kengashi», Halq dorilfununi», Halq ta'limining istedodli tashkilotchilari, mutaxassis kadrlar tayyorlash muammolari, umumiy boshlang'ich ta'lim, umumiy yetti yillik ta'lim, «yozuv masalasi, islohotlari», Ikkinchi jaxon urushi, «Xalq ta'limi va mutaxassis kadrlar», «Umumta'lim makgablarining faoliyati», sirtqi va kechki ta'lim tizimi, «O'zbekistan fanlar Akademiyasi», Siddiq Rajabov va hokazo.

XIX asrning boshlariga kelib Turkistonda islom dini keng tarqalib, mustahkam o'rnatilib o'z mavqeyiga ega edi. Bu davrga kelib diniy e'tiqod asosiy tarbiya kuchi sifatida maydonga chiqdi. Islom dini murakkab ta'limot bo'lganligidan u turlicha talqin qilina boshladi. Islom dinida turli xil oqimlar vujudga kela boshladi. Bu holat islom dinini sofliigi uchun kurashuvchi ilg'or kishilarni qoniqtirmas edi. Shuning uchun ham Buxorodagi ma'rifatparvarlar, musurmon ruhoniylar va ziyolilar orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshladi. Shunday islohot tarafdorlarini jadidlar, ya'ni yangilik tarafdorlari deb atay boshladilar.

«Jadid» - so'zi arabcha so'z bo'lib, «yangi», jadidizm esa yangilik tarafdorlari degan ma'noni anglatadi.

XIX asr boshlarida qancha ma'rifatparvarlar, mudarislar Buxoro shahridagi 200 ga yaqin madrasani isloh qilish g'oyasi bilan chiqdilar. Bu harakat boshida madrasa mudarisi Abu Nasr al-Kursaviy turgan. Ammo kadimistlar oqimi ularni kofirlikda ayblaydilar va Buxoro amiri Kursaviyni o'lim jazosiga hukm etadi. Abu Nasr al-Kursaviy zindondan qochishga muvofiq bo'ladi va Qozonda o'z faoliyatini davom ettiradi.

XIX asrning 50-60 yillarida diniy islohotchilik harakati yanada kengaydi. Jadidchilik harakati boshida buxorolik mudaris va tarixsi olim Marjoniy, g'ijduvonlik domla Fozil, Mo'minjon Vobkandiy, Mulla Xudoyberdi Boysuniy va boshqa mudarislar turar edilar.

Islohotchilar bu davrda Marjoniy rahnamoligida quyidagi masalalarni oldinga surdilar:

1. Qur'ondagi har qanday diniy masala yuzasidan kishilar bilgan holda o'zlari erkin fikr yuritsinlar.
2. Birovning birovga ko'r-ko'rona ergashishi qat'iy mann qilinsin;
3. Madrasalarda o'qitiladigan hoshiya va shrq kabi mazmunga ega bo'lgan va madrasa o'quvchilari uchun foydasiz bo'lgan hamda ularning vaqtini bekorga oluvchi darslar dars jadvallaridan olib tashlansin;
4. Madrasalarda Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, ularning tarjimalari va islom tarixi kabi darslar o'tilsin;

5. Arifmetika, tarix, jug'rofiya, tabobat, handasa, mantiq va boshqa dunyoviy fanlarni o'qitishga qarshilik ko'rsatilmasin.

6. Har bir ishda musulmonchilikning Muhammad Alayhissalom davridagi qadimiy islom madaniyatiga qaytarish ko'zda tutilmasin.

XIX asrning 80-90 yillaridagi jadidchilik harakatining keng yoyilishida Munavvar Qori, Mahmudxo'ja Behbudiy, Said Ahmad Siddiqiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Muhammadsharif So'fizoda va boshqalar jonbozlik ko'rsatgan.

Jadidlar 1906 yilda «Taraqqiy» deb nomlangan gazeta nashr ettirib, o'z g'oyalarini tarqata boshladilar, oradan ko'p o'tmay, «Xurshid», «Shuxrat» singari yangi gazetalar dunyo yuzini ko'rdi. Bu gazetalarda jadidchilik harakatining asosiy g'oyalari talqin qilinar va muhokamaga tashlanar edi.

Bu davrda jadidlarning harakat dasturi tuzilib, u quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan edi:

1. Diniy tasavvuf va fanatizmga qarshi kurash (ko'r-ko'rona e'tiqod);
2. Diniy aqidalarga asoslangan O'rta asr maktablari o'rniga Ovro'pa qabilidagi dunyoviy ilmlarni ona tilida o'qitishga moslangan yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, feodal davri maorif tizimini isloh qilish;
3. Jadidchilik g'oyalarini keng xalq ommasiga yetkazish niyatida yangi o'zbek adabiy tilini ishlash chiqish, matbuot xurligi uchun kurashish, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teartni yaratish;
4. Xotin-qizlarni paranjidan chiqarish va jadid maktablariga qatnashishlarini ta'minlash yo'li bilan ular taqdirini o'zgartirish va oilada islohot o'tkazish;
5. Mahalliy boylar va savdogarlar ahlining siyosiy va iqtisodiy jihatdan rus burjuaziyasi bilan bir huquqda bo'lishi, mahalliy amaldorlarning chor hukmdorlari tomonidan siquvga olishiga qarshi kurashish, shu yo'l bilan mustamlakachilik siyosatini isloh qilish.

Asosiy talablari ana shundan iborat bo'lgan jadidlar uchun ilm va ma'rifat yagona qurol bo'lib, ular shu qurol yordami bilan o'lkada ijtimoiy iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun kurashmoqchi bo'ldilar.

Markaziy Osiyo jadidchilik haqida gap ketganda buni Behbudiy, Munavvar qori, Fitrat kabi ma'rifatparvarlarning ijodi va faoliyatini alohida o'rganish maqsadga muvofiq.

Maxmudxo'ja Behbudiy

Turkistonda jadidlar harakati asoschilaridan biri, jahonga mashhur bo'lgan o'zbek jo'g'rofiyashunosi, atoqli jamoat arbobi, buyuk ilshunos, ulug' pedagog va axloqshunos, yuksak didli jurnalist, Mahmudxo'ja Behbudiy 1874 yil 10 martda Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida ruxoniy oilasida tavallud topdi. Uning otasi imomlardan bo'lib, ilm-ma'rifatga ixlosmand edi. Behbudxo'ja asl-nasabiga ko'ra xo'ja Axmad Yassaviylar avlodiga borib taqaladi.

Maxmudxo'ja Behbudiy «Muntaxbai jug'rofiyai umumiy» (Qisqacha umumiy jo'g'rofiya), «Kitobatul-atfol» (Bolalar maktabi), «Muxtarasi tarixi islom» (Islomning qisqacha tarixi), «Madxali jo'g'rofi umroniy» (Axolii jo'g'rofiyasiga kirish), «Muxtasari jo'g'rofiyai rusiy» (Rossiyaning qisqacha jug'rofiyasi),

«Amaliyoti islom» va hokazo kitoblarni yozdi va ulardan darslik sifatida foydalandi.

«Usuli jadid» maktablarida hamma o'qish huquqiga ega bo'lgan. Bu yangi usul maktablari chor hukumati tomonidan va mahalliy ruxoniylar, eski maktablarning domlalar tomonidan ta'qib qilib kelinardi.

Bunday to'siqlar va qarama-qarshiliklarga qaramasdan Behbudiy va uning safdoshlari «Usuli jadid» maktablarida Turkiston farzandlarini o'qitish ishlarini jadal sur'atlar bilan olib bordilar. Behbudiy barcha maqsadlarini faqat ma'rifat orqali amalga oshirishni ko'zda tutadi. U ta'lim-tarbiya xususidagi o'z g'oyalarini amalga oshirishda bosh yo'l sifatida yangi maktablar ochish, unda diniy ilmlar bilan birga, aniq fanlarni ham o'qitishga, mahalliy aholini ilm-ma'rifatli bo'lishga da'vat etadi.

Behbudiyning «usuli jadid» maktabidagi o'qitish ishlari quyidagi tartibda olib borilar edi: «Maktab ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqich – ibtidoiy qism, deb nomlangan. Buning taxsil muddati to'rt yil. Birinchi yilda: forsha va arabcha yozuv hamda o'qishni o'rganilgan. Ikkinchi yilda: hafti yak, imon va e'tiqoddan dars, fors, turkiy va arab tilida she'rlar, qasidalar o'qitilgan. Uchinchi yilda: Qur'oni karim, islom ibodati, fors va turkiy til puxta o'rgatilgan. Hisobdan turli taqsimot va ish yuritish kabi zaruriy jihatlar o'qitilgan. To'rtinchi yilda esa Kalomu sharif, mufassal tajvid, forsiy va turkiy nazm va nasm, axloq darsi, turkiy va forsiy til, tarix, jug'rofiya o'qitilgan. Bu to'rt sinfni tamomlagan bolalarning muallimning o'zi taqsimlagan. Xohlasa ikkinchi bosqichgan qoldirar, ularning o'zlashtirishlariga qarab, madrasaga yuborar, bolaning o'zi xohlasa, Yevropa maktablariga yuborar yoki tirikchilik uchun ishlashga yo'llanma berardi».

Maktabning ikkinchi bosqichi – rushadiya bo'lib, bunga to'rt sinf kiritilgan. Unga ibtidoiy qismni tamomlaganlar o'tkazilgan.

Behbudiy maktabida har yilning oxirida tantanali imtihonlar o'tkazilib turilar edi. Imtihonlarga albatta ota-onalar va boshqa mehmonlar ham taklif qilinardi.

Sakkiz sinf, ya'ni ikki bosqichni tamomlagan shogird arabcha, forsha va turkchada bimalol so'zlab, yozardi. Ruschani ham o'qib, bimalol gaplasha olardi.

Behbudiy butun ongli faoliyati davomida faqat xalq manfaatlarini himoya qildi, xalqni baxtiyor etish, farzandlarini esa savodxon qilish uchun kurashdi. Adabiyotshunos Sherali Turdiyevning yozishicha, Behbudiy Buxoro amirining daxshatli zindonida o'z qotilini kutib yotgan og'ir damlarda ham Turkiston va Buxoroda maorif nurlarini yoyish, xalqni jaholatdan qutqarish, ularga haqiqat, adolat, ozodlik yo'lini ko'rsatishga, bu yo'lda qurbon bo'lganlarni unutmaslikka undovchi vasiyat xatini zindondan ozodlikdagi do'stlariga chiqarishga muvofiq bo'ldi. Bu vasiyatda quyidagi satrlarni o'qish mumkin: «Sizlarga vasiyat qilaman: Maorif yo'lida ishlayturgan muallimlarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingiz! O'rtadan nifoqni ko'taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymangizlar! Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingiz! Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatingizlar! Bizdek maorif qurbonlarini yo'qlangizlar! Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar! Maorifni Buxoro tuprog'ida joriy qilingizlar!» - deydi.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek xalqining milliy mustaqilligi yo'lida ulkan iste'dodini, bilimini, butun kuch g'ayratini, aziz umrini fido qildi.

Munavvar Qori Abdurashidxon

Abdurashidxon Sotiboldixon Olim o'g'li Munavvar Qori 1878 yilda Toshkent shahrining markaziy dahasi – Shayx Xolvand Taxurning Darxon mahallasida mudarris Abdurashidxon va Xosiyat Otin oilasida dunyoga keldi. U 7 yoshida otasidan ajraydi. Dastlabki ta'limni onasi Xosiyat Otindan oladi, xat-savodi chiqqach o'sha davrdagi yirik maktablardan biri – Usmon domlada o'qiydi, so'ng Toshkentdagi Yunusxon madrasasida tahsil ko'radi. U 1901 yili jadid maktabini ochib, bolalarni o'qitadi. Bu maktabda beshi yillik bilimni uch yilda berishga muyassar bo'ladi.

Munavvar Qori ochgan yangi usul «namuna» maktabida bir necha yuz bola o'qigan. Bu maktabda tayyorgarlik ancha jiddiy bo'lgan iste'dodli yoshlar o'qituvchilik qilgan. Munavvar Qorining o'zi esa jadid maktablari uchun yangi tovush «usuli savtiya» usulida darsliklar – «Adibi avval alifbosi» (birinchi adib 1907), «Adibi soniy» (ikkinchi adib 1907), «Yer yuzi» (Jug'rofiya), «Havoijon diniya» (1907) kitoblarini yozib chop ettirgan. Bular o'lkadagi jadid maktablari uchun asosiy darsliklar sifatida bir necha bor qayta nashr etildi.

Munavvar Qori o'z fikrdoshlari Ubaydulla Xo'jayev, Abdulla Avloniy, Toshpulatbek Norbutabekov, Karim Norbekov va boshqalar bilan hamkorlikda 1909 yilda Toshkentlik bir bo'ning raisligida «Jamiyati hayriya»ni tashkil etadi.

Munavvar Qori va safdoshlari bu jamiyat orqali qashshoq va kasalmand kishilar o'qituvchilarga yordam ko'rsatadilar, Rusiya va Turkistondagi oliy o'quv yurtlariga talabalar yuborish bilan shug'ullanadilar. U millat bolalarini savodxon qilishdek bunday savob ishga faqat «To'ron» jamiyati a'zolarining jalb etibgina qolmasdan, balki mahalliy boylarning ham boshini qovushtirib, ularning e'tiborini bu hayrli ishga tortadi. Munavvar Qori nomi faqatgina Turkistonda mashhur bo'lmay, balki Markaziy Osiyo, Rossiya musulmonlari uchun ham tabarruk edi.

O'zbek xalqini ma'rifatli qilishga intilgan Munavvar Qori 1918 yil may oyida Toshkent shahrida «Turk o'chog'i» ilmiy – madaniy jamiyatini tuzadi.

1918 yil 9 aprelda Munavvar Qori uyida to'plangan jadidlar Turkiston xalq dorilfununining musulmon bo'limini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Komissiyaga Munavvar Qori Rais qilib tayinlangan. Komissiya 22 kun ichida musulmon bo'limi dasturlarini tuzadilar. Dorilfununning musulmon va o'ris bo'limi 3 bosqichdan iborat bo'lishi belgilanadi.

1918 yil 2 iyun kuni sobiq seminariya binosida dorilfununning o'zbeklar uchun maxsus o'qituvchilar tayyorlovchi bo'limi – «Dorilmuallimin» ochildi.

Munavvar Qori 1922 yildan Turkiston maorif noziri, keyin esa Toshkentning eski shahar maorif xodimlari quriltoyida ishtirok etib, maktab bo'limiga a'zolikka saylandi. Do'stlari va shogirdi Qayum Ramozon va Shorasur Zunnun bilan xamkorlikda uch bo'limdan iborat «O'zbekcha til saboqlari» kitobini (1925) nashr ettirdi. Munavvar Qori insonlarni faqat olijanob fazilatlariga, yoshlarni halol mehnat qilishga, ilm-ma'rifat va kasb-hunar o'rganishga rostgo'y bo'lishga chorladi. Ammo Munavvar Qori 1926 yili GPU tomonidan qamoqqa olinib,

«Yovuz niyatli jadid va turkparast», «millatchi», «xalq dushmani» sifatida 1931 yili otishga hukm qilindi.

Aslida Munavvar Qori o'z xalqining xur, millat sifatida shakllangan, ijtimoiy-siyosiy jihatdan barkamol bo'lishini orzu qilgan va shu yo'lda istiqloq uchun kurashgan ma'rifatparvar edi.

Abdulla Avloniy

Taniqli ma'rifatparvar adib A. Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'alarini, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalalarni aks ettirgan pedagog, olimdir.

A.Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, mayday hunarmand- to'quvchi oilasida dunyoga keldi. O'ta iqtidorli bo'lgan Abdulla 15 yoshida she'rlar yoza boshladi. A. Avloniy 1907-yili "Shuhrat", "Osiyo" nomli gazetalar chiqara boshladi, lekin chor amaldorlari tez orada gazetalarini yoptirib qo'yadi. A.Avloniy keyinroq "Sadoyi Turkiston" (1914-1915), "Turon" (1917), "Ishtirokiyun" gazetalarida, "Kasabachilik harakati" (1921) jurnalida ishlaydi. Shundan so'ng, u o'zbek matbuotining zabardast vakili, o'zbek matbuotining asoschilaridan biri sifatida taniladi.

XX asr boshlarida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida, pedagogik fikr rivojida A. Avloniy alohida o'rin egalladi.

A.Avloniy o'zbek xalqining san'ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta'limi ishlarini, yo'lga qo'yishda katta xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste'dodli pedagogdir.

A.Avloniy o'zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo'lib, o'zbek xalq teatrini professional teatrga aylantirish uchun 1913-yili "Turon" nomi bilan teatr truppasini tashkil qiladi.

A.Avloniy truppa uchun "Advokatlik osonmi?", "Pinak", "Ikki muhabbat", "Portug'oliya inqilobi" kabi dramalar yozdi, "Qotili Karima", "Uy tarbiyasining bir shakli", "Xiyonatkor oilasi", "Badbaxt kelin", "Jaholat", "O'liklar" kabi sahna asarlarini tatarcha va ozarboyjonchadan tarjima qiladi. Ammo bu asarlar nashr qilinmadi.

A.Avloniy 1917-yil to'ntarishiga qadar Turkistonda juda katta ijtimoiy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko'zga ko'ringan namoyandalardan edi. U ilg'or ziyoli kishilar bilan hamkorlikda teatr tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag'larga dunyoviy ilmlarni o'qitadigan "usuli jadid", ya'ni yangicha ilg'or usuldagi maktablar ochdi va bu maktablarda xalq bolalarini o'qitdi. Ma'rifatparvarlar o'z millatlaridan yetuk olimlar, bilimdon mutaxassislar, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod, vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qildilar va bu yo'lda fidoyilik ko'rsatdilar.

A.Avloniy 1907-yili Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi maktablar ochdi. Maktablardagi o'quv jihozlarini o'zgartirdi, o'z qo'li bilan parta va doskalar yasadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning asosiy qismi kambag'al kishilarning bolalari bo'lganligi uchun ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta'minlash maqsadida, do'stlarining ko'magida "Jamiyati xayriya" tashkil etadi va bu jamiyatga o'zi

raislik qiladi. “Nashriyot” shirkati tuzib, Hadrada “Maktab kutubxonasi” nomli kitob do’konini ochdi. Avloniyning maktabi o’z oldiga qo’ygan maqsad va vazifalariga ko’ra mashg’ulotlarni sinf-dars usuli asosida o’z ona tilida olib borilishi bilan eski usul maktablaridan farq qiladi. U o’z maktabida bolalarga geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat kabi fanlardan muayyan ma’lumotlar beradi.

A. Avloniyning ilk o’quvchilaridan biri, Toshkent davlat universitetida uzoq yillar dars bergan taniqli pedagog, marhum Yusuf Tohiriy edi. A. Avloniy “usuli jadid” maktablari uchun to’rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud Milliy she’rlar” hamda “Birinchi muallim” (1912), “Turkiy Guliston yoxud Axloq” (1913), “Ikkinchi muallim” (1915), “Maktab gulistoni” (1917) kabi darslik va o’qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publisistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug’lab, o’z xalqini ilmi, madaniyatli bo’lishga chaqiradi.

XX asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning “Birinchi muallim”i ham o’ziga xos o’ringa ega. “Birinchi muallim” 1917-yil to’ntarishiga qadar 4 marta nashr etilgan. Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda, Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval”iga suyanadi.

A. Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida “Turkiy Guliston yoxud Axloq” asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikr taraqqiyotini o’rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir.

“Turkiy Guliston yoxud Axloq” asari axloqiy va ta’limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonliklardan qaytaruvchi bir ilm – axloq haqida fikr yuritiladi. Shu jihatdan qaraganda, bu asar Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”, Nosir Xisravning “Saodatnoma”, Sa’diyning “Guliston” va “Bo’ston”, Jomiyning “Bahoriston”, Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Ahmad Donishning “Farzandlarga vasiyat” asarlari shaklidagi o’ziga xos tarbiyaviy asardir.

A. Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining o’rni haqida fikr yuritib: “Agar bir kishi yoshligida nafs buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo’lib o’sdimi, Oллоhi akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turib yulduzlarga qo’l uzatmak kabidur”, - deydi. Uning fikricha bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g’oyat katta ahamiyatga ega.

O’zbek pedagogikasi tarixida A. Avloniy birinchi marta pedagogikaga “Pedagogiya”, ya’ni bola tarbiyasining fanidir, deb ta’rif berdi. Tabiiy bunday ta’rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi.

Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to’rt bo’limga ajratadi: 1. “Tarbiyaning zamoni”. 2. “Badan tarbiyasi”. 3. “Fikr tarbiyasi”. 4. “Axloq tarbiyasi”.

“Tarbiyaning zamoni” bo’limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta’kidlaydi.

“Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, deb uqtiradi Avloniy.

“Turkiy Guliston yoxud Axloq” kitobi ma’rifatparvarlik g’oyalari targ’ib qiladi. A. Avloniy kitobda ilm to’g’risida bunday deydi: “Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g’oyat oliy, muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o’z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko’rsatur... Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur...”. Avloniy ilmning amaliy va hayotiy foydalarini alohida ta’kidlaydi: “Bizlarni jaholat, qorong’ulikdan qutqarur. Madaniyat insoniyatni ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzug’ ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur... Alhosil, butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g’ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog’lidir”.

“Turkiy Guliston yoxud Axloq” ning birinchi sahifasidan so’nggi sahifasigacha Avloniyning insonparvarlik g’oyalari ifodalangan. U hammadan burun xalq manfaatini ko’zlaydi, xalqqa bajonu dil xizmat qilishni o’zining muqaddas burchi deb biladi. Uning nazarida, kishilar g’amini yemagan, xalqdan uzoq turgan ig’vogar, g’iybatchi inson emas.

O’ta iqtidorli bo’lgan A.Avloniy 15 yoshida she’rlar yoza boshladi. Dastlabki she’rlari «Tarjimon» gazetasida bosiladi. A.Avloniy 1907 yilda «Shuhrat» va «Osiyo» nomli yangi gazetalar chiqara boshlaydi. Lekin chor amaldorlari tez orada gazetalarni yoptirib qo’yadi. A.Avloniy keyinroq «Sadoi Turkiston» (1914-1915), «Turon» (1917), «Ishtirokiyun» (1918) gazetalari, «Kasabachilik harakati» (1921) jurnalida muharrir bo’lib ishlaydi. Shundan so’ng, u o’zbek matbuotining zabardast vakili, o’zbek matbuotining asoschilaridan biri sifatida taniladi.

A.Avloniy xalq orasida ilg’or fikrlarni tarqatishda, ilm va ma’rifatni tashviq qilishda gazeta, jurnallarning roli katta ekanligini yaxshi bilar edi: «Matbuot har insonga o’z holini ko’rsatuvchi, ahvol olamdan xabar beruvchi, qorong’u kunlarni yorituvchi, xalq orasida ilm, ittifoq, himmat g’oyalari»ni yoyuvchidir, deb baliqning suvsiz yashamog’i mumkin bo’lmagani kabi insonning ham ilmsiz yashamog’i mumkin emasligini uqtiradi.

A.Avloniy o’zbek xalqining san’ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta’limi ishlarini yo’lga qo’yishda katta xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste’dodli pedagogdir.

A.Avloniy 1917 yil tuntarishiga qadar Turkistonda juda katta ijtimoiy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko’zga ko’ringan namoyon7dalaridan biri edi. A.Avloniy ilg’or ziyoli kishilar bilan hamkorlikda teatr tomoshalarini va matbuotdan tushgan mablag’larga dunyoviy ilmlarni o’qitadigan «Usuli jadid», ya’ni yangicha ilg’or usuldagi maktablar ochdilar va bu maktablarda xalq bolalarini o’qitdilar. Ular o’z millatlaridan yetuk olimlar, bilimdon mutaxassislar, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod, vatanni ozod, farovon etishlarini orzu qildilar va bu yo’lda fidoyilik ko’rsatdilar.

A.Avloniy 1907 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi maktablar ochdi. Maktablardagi o’quv asbob-jihozlarini o’zgartirdi, o’z quli bilan parta va doskalar yasadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning asosiy qismi kambag’al kishilarning bolalari bo’lganligi

uchun ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta'minlash maqsadida, do'stlarining ko'magida «Jamiyati xayriya» tashkil etadi va bu jamiyatga o'zi raislik qiladi. «Nashriyot» shirkati tuzib, Xadrada «maktab kutubxonasi» nomli kitob do'konini ochadi. A.Avloniyning maktabi o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra mashg'ulotlarni sinf-dars tizimi asosida o'z ona tilida olib borilishi bilan eski usul maktablaridan farq qiladi. U o'z maktabida bolalarga geografiya, tarix, adabiyot, til hisob, xandasa, hikmat kabi fanlardan muayyan ma'lumotlar beradi.

A.Avloniyning ilk o'quvchilaridan biri Toshkent Davlat Universitetida uzoq yillar dars bergan taniqli pedagog, marhum Yusuf Tohiriy A.Avloniy Mirobodda tashkil qilgan maktab haqidagi xotiralarida shunday deb yozgan edi:

«Shaharning qarama-qarshi chekkasida temiryo'l ishchilari istiqomat qiladigan Mirobodda yangi tipdagi maktab ochilganligi haqida eshitib qoldik. Tez orada bu maktabning fazilatlari haqidagi shov-shuvlar, uning muallimi A.Avloniyning dovrug'i butun shaharga tarqaldi. Hammaning tilida «Miroboddagi maktab 6 oyda o'qish yozishni o'rgatarmish, geografiya, hisob, tabiatni o'rganish degan darslar o'qitilarmish», - degan gap yurardi. Bizga juda sirli tuyulgan bu maktabni va uning donishmand muallimini ko'rishga oshiqardik. Nihoyat bir kuni uch-turttamiz borishga jazm qildik.

Maktab pastdakkina, nim qorong'i bo'lib, masjid yo'lagida joylashgan edi. Xonaning tepasidagi yorug'lik uchun qoldirilgan tuynukdan qish va bahorda qor bilan yomg'ir ham tushib turardi. Lekin xonada o'quvchilar va domlaning shogirdlari ko'p edi. Xayolimizda domlaning allaqanday bir sirli tomoni bor edi. Bizni qotmagina, kichik jussali, qorachadan kelgan, istarasi issiq, chuqqisoqol bir kishi ko'tib oldi. Bu nomi tilga tushgan muallim A.Avloniy edi. O'qishga qabul qilindik. Ko'p o'tmay ko'z oldimizda yangi bir dunyo ochilganiga to'la ishonch hosil qildik. Bolalarimizning oldi bir necha yildan beri maktabga qatnab yurgan bo'lsalar ham Mirobodliklar oldida uyalib qoldik. Ular o'qish, yozishda, hisob masalalarini xal etishda, tabiat hodisalaridan xabarleri bilan hammamizni lol qoldirdi. Ayni zamonda bizni eski maktabimiz bo'shab, Miroboddagi A.Avloniy maktabi bizdan borgan bolalar bilan liq to'ldi. Shu tariqa bu maktab tobora shuhrat topib bordi».

A.Avloniy «Usuli jadid» maktablari uchun to'rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» hamda «Birinchi muallim» (1912), «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Ikkinchi muallim» (1915), «Maktab gulistoni» (1917) kabi darslik va o'qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publisistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm- fanni va maorifni ulug'lab o'z xalqini ilimli, madaniyatli bo'lishga chaqiradi.

Asrimiz boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning «Birinchi muallim» 1917 yil to'ntarishga qalar to'rt marta nashr etilgan.

Avloniyning «Ikkinchi muallim» kitobi «Birinchi muallim» kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobni, shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobni xrestomatiya deb atasak joiz bo'lar, desak xato bo'lmas.

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida «Turkiy guliston yoxud ahloq» asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotining o'rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir.

«Turkiy guliston yoxud ahloq» asari ahloqiy va ta'lim tarbiyaviy asardir.

O'zbek pedagogikasi tarixida A.Avloniy birinchi marta pedagogika "Pedagogiya", ya'ni bolalar tarbiyasining fani demakdir, deb ta'rif beradi. Tabiiy bunday ta'rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganidan dalolat beradi.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy quydagi to'rt bo'limga ajratdi: 1. "Tarbiyaning zamoni". 2. "Badantarbiyasi". 3. "Fikr tarbiyasi". 4. "Ahloq tarbiyasi" va bu haqida hamda unig ahamiyati haqida so'z yuritadi.

"Tarbiya zamoni" bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlaydi.

"Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" deb uqtirardi, Avloniy.

XIX asrlarning o'rtalarida Turkiston o'lkasida boshlang'ich ma'lumot beradigan maktab hamda o'rta va oliy diniy ta'lim beradigan madrasalar mavjud edi. Maktablarning aksariyati shu jumladan, qishloq maktablarining ko'pchiligi diniy ta'lim beruvchi eng oddiy boshlang'ich maktablar edi xolos. Bu maktablarda machitlarining imomlari, savodxon muallimlar dars beradilar. Bunday maktablarda o'qitishga eng oddiy diniy vazifalarni o'rgatish bilan, ya'ni arab tilida yozilgan Qur'onni o'qishni o'rgatish, har bir musulmon uchun zarur bo'lgan asosiy vazifalarni bildirish bilan cheklanardi.

Shahar maktablarida diniy ta'limdan tashqari, umumiy ta'lim elementlari – yozish va hisoblash yo'llari o'rgatiladi, xalq orasida mashhur shoirlarning she'r va g'azallari o'qitilar edi. Odatda bunday maktablarning o'quvchilari badavlat oilalarning bolalari bo'lar edi. Ular o'qishni tamomlab olgach, bilimlarini savdosotiq ishlarida, hunarmandchilik ustaxonalarida qo'llar edilar, ba'zilar qo'shimcha ta'lim olib, hattotlik kasbi bilan shug'ullanar, ba'zilar madrasaga kirib o'qishni davom ettirardilar.

Oliy diniy maktab bo'lgan madrasada o'rta asrga oid diniy falsafiy va musulmon huquqlari, arab tilining grammatikasi va mantiq ilmidan dars o'tilardi. Madrasani tamomlab chiqqanlar imomlik bilan shug'ullanish va qozixonalarda ishlash huquqiga ega bo'lar edilar. Maktab va madrasalarda asosan o'g'il bolalar o'qitilar edi. Shaharlardagi diniy maktablarda ba'zi domlarning xotinlari – otinoylar qizlarni ham o'qitish bilan shug'ullanar edilar. Maktab va madrasalarda dars o'zbek, arab fors-tojik tillarida olib borilardi.

1. Quyi maktab bu maktabda o'g'il bolalarga savdo o'rgatishga (4 yil).
2. Xalilxona maktabi – (namoz) yod oldirib o'rgatilgan.
3. Qorixona – Qur'on yod olingan.
4. Maktab internat – o'rta madrasa bo'lib, bu maktabda ham diniy, ham dunyoviy fanlar o'qitilib o'rta ma'lumot berilgan.

Markaziy Osiyoda keyinchalik ba'zi o'zgarishlar yuz berdi. Musulmon maktablari uchun bosmaxonalarda chop qilingan darsliklar paydo bo'ldi. Qozonda bosmaxonada nashr qilingan qur'on va xavtiyaklar, Hindiston va Erondan

shoirarning litografiya chop etilgan to'plamlari keltirildi. Toshkentning o'zi ham maktablar uchun darsliklarni litografiya usulida nashr qilish yo'lga qo'yildi.

Asrimizning boshlariga kelib Turkiston o'lkasidagi yirik markaziy shaharlarda oliy ta'lim maskani hisoblangan quyidagi madrasalar: Buxoroda – 80, Qo'qonda – 40, Samarqandda – 22, Marg'ilonda – 28, Toshkentda – 17¹, Xeva xonligida – 130² mavjud bo'lib, ular 400 dan 5000 tagacha talaba taxsil olar edi.

1906 yilga kelib Samarqand viloyatining o'zida 1510 ta musulmon maktabi bor edi, ular 1482 o'quvchi 12740 talabaga saboq bergan.

Umuman olganda Turkiston o'lkasida 1905-1906 yillarda 5290 ta maktab bo'lib, ularda, 10955 talaba ta'lim olgan.

Bu davrga kelib maxalliy fuqaro bolalaridan ilmiy kishilar tayyorlash maqsadida Xeva xoni Sayid Muhammad Rahimxon Boxodirxonni soniy – Feruz (1844-1910 y.) katta ishlarni amalga oshirdi. Bevosita uning tashabusi bilan 1884 yili o'z saroyida maktab ochilib, bu maktabda rus o'qituvchisi va Mirzo, Raxmoyequl qori kabi mahoratli ta'lim-tarbiya ustalari yoshlarga bilim berish ishi bilan shug'ullanadilar.

Feruz farmoniga muvofiq 1904 yilning 10 noyabrida Urganchda birinchi yangi usul maktabi ochildi. Uni Xusayin Qo'shayev degan Turkiyadan kelgan o'qituvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya bera boshladi.

Musulmon aholisi yashaydigan joylarda qadimdan maktab-madrasa va hakoza mavjud bo'lib, bularga qarshi chor hukumat Rossiyadagi ko'p sonli xalqlar maxsus hukumat maktablari barpo qilinardi. Ularning biri – to'rt yillik, ikkinchisi – ikki yillik edi. Ba'zi bir to'rt yillik maktablarda internatlar ham bo'lib, ular faqat feodallarning va maxalliy aholining boy qatlam bolalari ta'lim olardi. Ammo mehnatkashlarning bolalari uchun yo'lga qo'yilgan ikki yillik savod chiqarish maktablari ochildi. O'qish muddati ikki yil bo'lgan milliy maktablarda, masalan, qozoqlarda ovul maktablari, deb atalgan maktablar tipik maktab sanalar edi.

Dastlabki ovul maktablar 1892 yilda To'rg'ay oblastining ovullarida tashkil topgan bo'lib, aholining ko'chmanchilik turmushiga moslashtirilgan edi. Ovul maktablarida rus tili, arifmetika, qozoq alifbosi va islom dini o'qitilardi. 1916 yilda 169 ta ovul maktabi bo'lib ularda 5 ming o'quvchi o'qirdi, bu maktab yoshidagi barcha qozoq bolalarining faqat bir foizinigana tashkil etardi, xolos. Rus maktablarda o'qitish rus tilida, diniy ta'limot esa o'quvchilarning ona tilida olib borilardi.

O'rta asrda maktablarni isloh qilishdan bosh tortgan chorizm, ruslar o'rtnashgan yerlarni rus maktablarini Turkistonda maorif sohasida o'z siyosatining quroli qilib olishga harakat qildi. (Toshkentda dastlabki rus maktabi 1866 yilda ochildi.) rus maktablariga ruslar bilan birga o'qish uchun mahalliy aholi bolalari ham qabul qilinardi. Turkistondagi boshlang'ich rus maktablarida hunarga Rossiyaning Yevropa qismidagiga qaraganda, ancha ko'proq o'rgatilardi; bundan maqsad mahalliy aholining bolalarini maktabga ko'proq jalb qilish edi.

Turkistonda dastlabki rus o'rta o'quv yurtlari 1870 yillarda ochila boshladi: 1876 yil Toshkentda, Verniyda (hozirgi Olmaotada) erlar va xotin-qizlar gimnaziyalari. 1879 yili esa Toshkentda o'qituvchilar seminariyasi ochildi.

Gimnaziyalarga har yerli aholining bolalari qabul qilinar edi. O'qituvchilar seminariyalarida mahalliy aholining 1/3 o'rin ajratilgan edi.

Chorizm maktab sohasidagi siyosati ruslashtirishdan iborat bo'lsa ham, lekin rus bolalari bilan mahalliy aholi bolalarining birgalikda o'qishlari, ular o'rtasida o'zaro do'stlikni tarbiyalar edi.

Rus maktabiga o'qishga kirgan bolalar rus tilini mutloq bilmas edilar, natijada ancha qiyinchiliklar tug'ilar edi. Shuning uchun rus maktablariga kirgan, lekin rus tilini mutloq bilmaydigan o'quvchi rus tilida so'zlashishni o'rganib olmagunicha odatda quyi bo'limda o'qir, rus tilida so'zlashishni o'rganib olgandan keyingina yuqori bo'limga o'tkazilardi. Yuqori bo'limlarga o'quv yilining o'rtalarida ham o'tkazilar edi, chunki maktab kichkina bo'lib, bir vaqtning o'zida mashg'ulotlar bir necha bo'limlar bilan olib borilar edi.

Toshkentdagi gimnaziya dastlabki yillarda, mahalliy aholining bolalarini rus tili bilan ko'proq shug'ullantirish uchun lotin tilini o'rganishdan ozod qilinar edi.

Buxorodagi ma'rifatparvar musulmon ruxoniylari va ziyolilar orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshlaydi. Shunday isloh tarafdorlarini jadidlar, ya'ni yangilik tarafdorlari deb atay boshlaydilar. O'sha davrdan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya'ni feodal-o'rta asrchilik, diniy fanatizm ruhida bo'lgan kishilarni esa qadamistlar deb atay boshladi. XIX asr boshlarida bir qancha ma'rifatparvar mudarrislar Buxoro shahridagi 200 ga yaqin madrasani isloh qilish g'oyasi bilan chiqdilar. Bu harakat boshida madrasa mudarrisi Abu Nasr Al Kursaviy turgan edi. Qadimistlar esa ularni kofirlik va xudosizlikda aybladilar. Buxoro amiri Haydar esa Kursaviyni zindonga tashlatib o'lim jazosiga hukm qiladi. Ammo uning tarafdorlari uni zindondan qochiradilar. Kursaviy Qozonda o'z faoliyatini davom ettirib, 1813 yilda vafot etadi. XIX asrning 50-60 yillarida diniy islohotchilik harakati yanada kengaya boshlaydi. Endi bu harakat boshida Buxorolik mudarris va tarixchi olim Marjoniy, G'ijduvonlik domla Fozil, Mo'minjon Vobkandiy, mulla Xudoyberdi Boysuniy va boshqa mudarrislar turar edilar. Ular madrasa va maktablarni isloh qilishni emas, balki ortiqcha darslarni olib tashlash tarafdori ekanliklarni yozadilar. Islohotchilar rahnamosi Marjuniy o'zining dasturida quyidagi olti asosiy masalalarni qo'yadi:

1. Qur'ondagi har qanday diniy masala yuzasidan kishilar bilgan holda o'zlari erkin fikr yuritsinlar.

2. Birovning birovga ko'r-ko'rona ergashishi qat'iy man qilinsin.

3. Madrasalarda o'qitiladigan hoshiya va Sharq kabi quruq mazmunga ega bo'lgan va madrasa o'quvchilari uchun foydasiz bo'lgan hamda ularning 8-10 daqiqa vaqtini bekorga oluvchi darslar dars jadvallaridan olib tashlansin.

4. Madrasalarda Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, ularning tarjimalari va islom tarixi kabi darslar o'tilsin.

5. Arifmetika, tarix, jo'g'rofiya, tabobat, handasa, mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarni o'qishga qarshilik ko'rsatmasin.

6. Har bir ishda musulmonchilikni Muhammad alayxissalom davridagi qadimiy islom madaniyatiga qaytarish ko'zda tutilsin.

Yangi usul maktabda quyidagilarga:

Sinfda bolalar soni o'ttirtadan oshmaslikka:

Bolalar faqat ikki daf'a – yoz va qish boshlaridagina maktabga qabul qilinishi;

Har qabul nechta bo'lishidan qat'i nazar, bir sinfdan oshmasligi;

Har bir muallimda ko'pi bilan 3-4 sinf bo'lishi;

Agar maktab uch sinfdan iborat bo'lsa, darslar ketma-ket ma'lum uyg'unlikda qo'yilmog'i, amal qilinmog'i kerak edi.

Yangi Sho'ro hukumati avvalgi ta'lim tizimi, o'quv-tarbiyaviy ishlarni isloh qilish, xalq maorifi tizimining yangi shaklini joriy etish yuzasidan bir qator vazifalarni belgilab berdi.

Bunday tadbirlarni amalga oshirish Turkistonda Xalq Komissarlari Sovetining 1918 yil 14 maydagi dekreti asosida boshlandi. O'quvchilarga ilmfanning zarur asoslari bilan bir qatorda, mehnat ko'nikmalarini ham bera oladiga yagona Sho'ro "Mehnat maktabi" xalq maorifi uchun asosiy negiz qilib olindi.

Lekin yangi maktablarni vujudga keltirish bir qancha muammolarga duch keldi. Ayniqsa, o'qituvchining yetishmasligi, darsliklarning va maktab jihozlarining yo'qligi ishni yanada qiyinlashtirdi.

1918 yilning iyunida Toshkenda maorif xodimlarining birinchi syezdi ochilib, unda xalq maorifi sohasidagi ahvol muhokama qilindi hamda uni qayta qurish bo'yicha tadbirlar belgilandi.

1918 yil dekabrda Turkiston Respublikasi xalq maorifi komissarligi buyruq chiqarib, hamma maktablarda ona tili va rus tili o'qitish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Ushbu qarorni qo'llab-quvvatlanishi natijasida mahalliy millatga mansub xotin-qizlarni madaniyatga, ilm-fanga, ijtimoiy hayotda faol qatnashishga jalb qilish harakati jadal yo'sinda avj olib ketdi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan yirik allomalardan biri Isxoqxon Ibratdir. U ma'rifatparva shoir, zabardas tilshunos, tarixshunos olim, ilk o'zbek matbachiligidan biri sayyoh, kalligraf, naqqoshin publisist va ilg'or pedagogdir.

Is'hoqxon 1279 xijriy (1862 milodiy) yilda Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ildi. Uning otasi Junaydullaxo'ja Sunattilaxo'ja o'g'li ancha bilimli sohibkor bog'bonlardan edi. U adabiyotga, she'riyatga ancha ixlos qo'ygan va "Xodim" taxallusi bilan bir muncha she'rlar bitgan kishi bo'lgan. Onasi Xuribibi, o'z davrining o'qimishli, Bedil, Mashrab kabi buyuk shoirlarning asarlarini mutola qilish bu xonadon uchun sevimli mashg'ulot hisoblanardi. Oiladagi bunday hayotiy vaziyat Is'hoqxonda adabiyotga muhabbatning erta paydo bo'lishi uchun asosiy omil bo'ldi.

Is'hoqxon Ibrat madrasa beradigan ilmlar bilan cheklanib qolmadi u o'qish moboynda buyuk Sharq mumtozlari asarlarini mustaqil tarzda qunt bilan mutolaa qildi va bu asarlar umrining oxirigacha unga eng yaqin xamroxi bo'ldi. Is'hoqxon madrasada arab va fors tillarini chuqur o'rganish bilan birga bo'sh vaqtlarida rus tilni ham mustaqil o'rgandi u rus va o'zbek tillarida chiqadigan "Turkistanskiye vedemosti" (Turkiston viloyatining gazetisi) biln ilk bor Qo'qon madrasasida o'qib yurgan kezlarda tanishib chiqdi.

Is'hoqxon Ibrat 1886 yilda Qo'qon madrasasini tugatib o'z qishlog'i To'raqo'rg'onga qaytib keldi va u o'z ijodini ilg'or o'qituvchi sifatida qishloqda ma'rifat tarqatish bilan boshladi. O'sha yili u o'z qishlog'ida maktab ochdi. Is'hoqxon ochgan maktab eski mahalla maktablaridan ancha farq qilar edi. Is'hoqxon o'z maktabiga nisbatan ilg'or bo'lgan tovush (savtiya) metodini tadbqiqildi va Usuli savtiyaning eski metod taraftorlaridan himoya qildi.

Rus tili bilan bir qatorda yaqin Sharq va G'arb tillarini ancha mukammal bilgan Is'hoqxon Ibrat bu muhim masalada ham o'z xalqiga yordam qo'lini cho'zdi. U olti tildagi arabcha, forsa, hindcha, turkcha, sardcha (o'zbekcha) va ruscha so'zlarni o'z ichiga olgan "Lug'ati sitta-al-sina" nomli mukammal lug'at kitobini yaratdi. Muallif ruscha yozuv sistemasini bilmaydiganlarga ham qulay bo'lishi uchun rus so'zlarini arab yozuvi bilan beradi. Ma'lumki, rus va yevropa so'zlarini arab yozuvida ifodalash ancha murakkab ish, lekin Is'hoqxon Ibrat bu murakkab ishni muvaffaqiyatli hal qildi.

Is'hoqxon Ibrat 1886 yilda eski maktablarga nisbatan bir muncha ilg'or bo'lgan maktab ochdi. 1907 yilda ikkinchi Marmuncha qishloq bolalari uchun eski maktabalardan butunlay farq qiluvchi bepul yangi usuli savutiya maktabini ochdi.

Saidahmad Siddiqiy hunarmand - dexqon oilasida tug'ilib o'sdi. Boshlang'ich maktabni tugatganidan so'ng madrasaga o'qishga kirdi. Shuning bilan bir vaqtda rus tilida tashkil etilgan maktabga ham qatnay boshlaydi va rus tili ham adabiyotni mukammal egallab bordi.

Saidahmad Siddiqiy Samarqand viloyatidagi Xalavon nomli o'z qishlog'ida dexqon va hunarmandlarning bolalariga yangi usul maktabini tashkil etib, unda ta'lim-tarbiyani o'sha davr ilg'or maktablarining tajribasi asosida quradi. U eski maktab ish faoliyatida xato-kamchiliklarni qattiq tanqid ostiga oladi va yangi usul maktabning ijtimoiy, siyosiy va pedagogik yutuqlarini keng yoritishga dalil e'tibor beradi.

Siddiqiy viloyatda birinchi bor katta yoshlar uchun yangi usul maktab ochib, madaniy hayotda katta o'zgarishlar yasadi. U 1914 yil "Zarafshon" nomi bilan kitob savdo do'koni ochib, unda ko'rgazmali qurollar, metodik, darslik adabiyotlar, o'quv qurollari hamda jurnallar bilan savdo qilishga sharoit yaratdi.

Siddiqiy ta'lim usuliga katta mehr bilan munosabatda bo'lib, o'qitishning yangi usulini ilmiy, ongli, tushunib o'qitish prinsiplarini eskicha hijjalab o'qitishga qarama-qarshi qo'ydi. Mohir o'qituvchi darslarni qat'iy tartib dars jadvali asosida tashkil etib, o'zbek, rus tillarida chuqur ta'lim bera olgan. U tabiatshunoslik, geografiya darslarida mashg'ulotlarni Bulung'ur daryosi yonida ochiq havoda amaliy mashqlar bilan o'tishga erishgan.

Saidahmad Siddiqiy 1918-21-yillar davomida huquq ishlari komissari vazifasida ishladi. 1921 yildan umrining oxirigacha pedagogik ishda ishlagan, "Xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" yuksak univoniga sazovor bo'lgan.

Abdurauf Fitrat

XX asr boshlarida Vatan mustaqilligi va millat farovonligi uchun kurashgan jadid harakatining namoyondalaridan biri Abdurauf Fitrat bo'lib, u yirik davlat arbobi, yetuk olim, mohir pedagog va buyuk ma'rifatparvar ham edi. Abdurauf

Fitrat 1886 yili amirlikning poytaxti Buxoro shahrida tug'ildi. «Fitrat» Abduraufning taxallusidir, bu so'z «tug'ma tabiat», «tug'ma iste'tod» degan ma'nolarni anglatadi.

Abdurauf dastlab eski maktabda, so'ngra Buxorodagi Mirarab madrasasida tahsil ko'radi. Abdurauf Fitratning ijodiy faoliyati Turkiyada boshlandi. U islohotchilik yo'liga kiradi. Uning jamiyatni isloh qilish haqidagi g'oyalari 1909 yili fors tilida Turkiyada yozilgan dastlabki asarlari «Hindistonda bir farangi ila bir mudarrisning bir necha masala ham usuli jadid xususida qilgan munozarasi» (1909 y) va «Hind sayyohi bayonoti»da (1911 y) ifodalanadi.

1913 yili 4 yillik o'qishdan so'ng Fitrat ilg'or qarashlari bilan Buxoroga qaytadi. Yangi usul maktablari ishlarida faol ishtirok etadi. Fitrat turli bilim muassasalari uchun qator darslik va qo'llanmalar yaratadi. 1917 yili uning «Ibtidoiy maktablarning so'nggi sinflar uchun mo'ljallab tuzilgan o'zbek tilidagi o'quv darsligi» Bokuda nashr etiladi.

Uning turli mavzudagi publisistik maqolalari o'sha davr matbuotida tez-tez e'lon qilib turiladi. Ayniqsa, «Ittifoq etaylik», «Yurt qayg'usi», «Maorif ishlari», «Maktab ishlari», «Maktab kerak», «Tilimiz» kabi maqolalar bevosita maorif masalasiga bag'ishlangan edi. Adib 1918 yilning aprelida Toshkentga kelib o'qituvchilik qilagan. Shu bilan birga u Toshkentda «Chig'atoy gurungi» tashkiloti faoliyatini yo'lga qo'ydi. U jamiyat safida madaniyatimiz tarixida alohida kasb etgan o'tmish ilmiy, adabiy va madaniy merosimizni o'rganish va ulardan xalqni bahramand etish, avlodlarni aedodlarning o'lmas ruiyati bilan bog'lashda katta xizmat qilgan.

Fitrat 1921 yili Buxoroda hukumat bilan ochilgan Sharq musiqa maktabining tashabbuskori bo'ladi va maktabga o'z hovlisini hadya etadi.

1922-1923 yillarda Fitrat Buxoro Xalq Respublikasining maorif noziri sifatida barcha o'zbek, tojik va boshqa millatlarning bolalari uchun maktablar ochish, o'qituvchilarga metodik qo'llanmalar tayyorlash sohasida katta ishlar olib bordi. Xotin-qizlar maktablarini ko'paytirishga, xotin-qizlarni ma'rifatga tortishga alohida e'tibor beradi.

Fitrat 1920-1924 yillarda Moskva va Leningradda yashab ijod qiladi. U bu yillari Lazerev nomidagi Jonli sharq tillari institutida ilmiy xodim bo'lib ishlaydi, shu yerda va Leningrad universitetida ma'ruza o'qiydi. Leningrad universiteti uni klassik adabiyot namoyondalari to'g'risidagi tadqiqotlari uchun professorlik unvoniga tavsiya qiladi. Jonli sharq tillari institutining ilmiy kengashi unga professorlik unvoni berish tavsiyani tasdiqlaydi. Fitrat O'rta Osiyoning birinchi professori bo'lib tarixga kiradi.

30-yillarga kelib Fitrat ijodidan «Panturkizm», «Millatchilik» g'oyalari axtarilib, uni qoralash boshlanadi. U 1937 yilning 23 aprelidan 24 apreliga o'tar kechasi hibsga olinadi. «Xalq dushmani», «Millatchi» kabi ayblar qo'yilib, sud Fitratni 1938 yil 5 oktyabrda otishga hukm qiladi. Bu hukm bir kun oldin ijro etiladi. Abdurauf Fitrat O'zbekistonda maktab va ta'lim-tarbiya rivojiga katta hissa qo'shgan yetuk ma'rifatparvar va mohir islohotchi pedagog sifatida xalq xotirasida qoldi.

Abdurauf Fitrat zullisoniy yozuvchi sifatida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy an'analarini davom ettirib, o'zbek va tojik tillarida birday mukammal asarlar yarata oldi. U tojik tilida yozgan "Sayyohi hindi bayonati", "Rahbari najot", "Sayha", "Vose qo'zg'oloni", "Amir Olimxonning hukumronlik davri" kabi asarlarida va o'zbek tilida yaratgan "Oila", "Qiyomat", "Begijon", "Munozara", "Oq mozor", "Abdulfayzxon" va boshqa maqol hamda asarlarida xal orasida madaniyat tarqatish va ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surdi. Shuning uchun ma'rifatparvar Fitratning barcha asarlarida ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor beriladi.

Fitrat ota-onaning vazifasi o'z farzandlarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligi, bunda ayniqsa, uch tarbiya: 1. Jismoniy tarbiya – salomatlik, 2. Aqliy tarbiya – sog'lom fikrlik, 3. Ahloqiy tarbiya – ahloqiy sano, ya'ni ahloqiy poklikka e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi.

U bola tarbiyasi faqat oiladagina olib borilmasdan, bu ish bilan keng jamoatchilik, davlat ham shug'ullanishi kerakligini, chunki davlatning kelajagi mana shu yoshlar qo'lida bo'lishini ta'kidlab o'tadi. "Bolalarni barkamol qilib yetkazish uchun uning tarbiyasiga faqat oilagina javobgar bo'lmasligi, butun qavm a'zolari javobgardirlar, chunki yoshlar har tomonlama yetuk inson bo'lib tarbiyalansa, qavmning kelgusi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ladi".

1917 yilgi fevral voqealari va oktyabr davlat to'ntarishidan so'ng Markaziy Osiyo xalqlarining xayotida ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy, jumladan xalq maorifi sohalarida keskin o'zgarish yuz berdi.

Turkiston o'lkasida milliy demokratiya vaqillari, mashhur ma'rifatparvar ziyolilar tomonidan yangi usuldagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish, maktab-maorif borasida zudlik bilan islohotlarni amalga oshirish yuzasidan bir qator takliflar ilgari surildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi O'zbekiston hududida podsho hokimiyatining ag'darilishi natijasida madaniy hayot va ma'naviyat sohalarda murakkab, ziddiyatli jarayonlar kechdi. Oldingi qariyb ellik yillik mustamlakachilik siyosatiga qaramasdan xalq ommasini uz madaniyati, urf-odatlarini saqlab, himoya qilib kelgan. Ko'p asrlik o'zbek milliy madaniyati, qadriyatlar qatori yangi shakllar qaror topdi. Xalq farzandlari maktab va madrasalarda ta'lim olardilar, qushimcha yangi usul maktablari, rus-tubjoy maktablari, gimnaziyalar faoliyat ko'rsatardi. Gazeta va jurnallar, kutubxonalar, turli milliy jamiyatlar, ziyolilar ma'rifatchilikni rivojlantirdilar. Ko'tarilgan jadidchilik harakati ma'rifatchilik va islohotchilik harakatlarini kengaytirib yubordi. Jadidchilik 1917 yilga kelib ijtimoiy va demokratik harakat darajasiga ko'tarildi. Xalq ma'naviyati asos-mohiyatini islom dinining poklantiruvchi-tarbiyaviy aqidalari, milliy urf-odatlarimizning sarmazmun va insonparvarlik sifatleri tashkil qildi.

Xalq ommasining madaniy an'alari, ma'rifatchiligi, ma'naviyati, e'tiqodi, milliy urf-odatleri, san'ati, og'zaki ijodiyoti nihoyat darajada sarmazmun, ko'p qirrali, yuksak insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'irilgan ko'p asrlik tariximiz mahsuli bo'lib keldi. Og'ir jarohatlar yetkazilgan bo'lishiga qaramasdan milliy

iymon-etiqod va ma'naviyat saqlanib keldi, aholi turmush tarzining asosini tashkil qildi.

Madaniyat va ma'naviyatdagi elimiz oldida turgan yagona yo'l boy merosimizga tayanib, uni inkor qilmasdan yangi sharoit vazifalarini belgilash, jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokida, har birining istak-intilishlaridan kelib chiqib yuksalish, istig'lol sari harakat qilish bo'lib qoldi. Asriy xalq merosi bilan bir qatorda ilg'or milliy ziyolilar, jumladan, jadidlar yuzaga keltirgan ma'rifatchilik ko'rinishlari bo'lmish maorif, matbuot, badiiy ijod va boshqalarning ahamiyati, qadr-qimmatiga tayanish, tegishli o'rin berish zarurati ham ko'zga tashlandi. Bu ilg'or qarashlar, milliy mustaqqillik va istiqloлга yug'rilgan yuksak tuyg'ular ulug' davlatchilik, kolonial siyosat, konservativ zo'ravonliklarga qarshi kurashda chiniqib, kamolatga va yuksaklikka tomon intildi.

Elimizdagi milliy madaniyatimizni zamonaning ilg'or sivilizasiyasi, madaniyati maorifi bilan uyg'unlashtirib davom ettirishga qodir, layokatli ijodiy kuchlar yetishib chiqqan va yetishib chiqmoqda edi. Xalq ommasining ma'rifatini rivojlantirishga intilib kelgani milliy ziyolilarimizga kuch-quvvat, ilhom bag'ishladi.

Ammo O'zbekiston hududida ma'naviyat va madaniyat 1917 yildan boshlab murakkab vaziyatni boshdan kechirdi, jiddiy tusiqlar va buzg'unchiliklarga uchradi. Turkistonni Qizil imperiya koloniyasiga aylanitirishga kirishgan bolsheviklar siyosati va amaliyotini halq ommasi, milliy ziyolilar qabul qilmadilar.

Milliy ziyolilar va arboblarning faoliyati keng tus oldi, ijtimoiy-madaniy mazmun kasb etdi. Jadid ziyolilar, ijod axli bo'lmish Munavaar Qori, Maxmudxo'ja Bexbudiy, Sadridin Ayniy, Fitrat, Chulpon, A.Avloniy, Hamza, va boshqalar bilan bir qatorda XX asr bo'sag'asida tug'ilgan iste'dodli yoshlar Mashriq Yunusov (Elbek), Naim Sayd, Rafiq Mumin va boshqa qator ziyolilar madaniyat, maorif sohalarida jonbozlik qildilar, ijtimoiy yo'naltirilgan ijod bilan shug'ullandilar.

Ana shu davrda milliy xalq ta'limini tashkil etish muammosi alohida keskin bo'lib turgan edi. Turkiston o'lkasining markazi — Toshkentda 1917 yil 9-14 may kunlari o'qituvchilarning 1-o'lka qurultoyi bo'lib o'tdi, u ta'lim tizimining axvoli bilan bog'liq ko'pgina masalalarni muxokama qildi va "Turkiston o'qituvchilar ittifoqini» tashkil etdi. Qurultoyda ma'ruzalar qilgan Muvaqqat xo'kumat Turkiston qo'mitasinint a'zosi S.Mahsudov, yirik sharqshunos L.Zimin, Farg'ona viloyatinint maorif buyicha inspektori F.Yegorov maxalliy aholiga ta'lim berish ishida rus- tubjoy maktablarining yaroqsiz ekanligini isbotlab berdilar. Qurultoy ana shu tipdagi maktabni ona tilida o'qitiladigan milliy maktab bilan almashtirish fikrini ma'qullab chiqdi.

Oradan ko'p o'tmay, 1917 yili 20 maydan 23 maygacha Toshkentda musulmon o'qituvchilarning qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda asosan musulmon maktablaridagi o'qituvchilarning ishi masalasi muxokama qilindi. Qurultoy qarorlarida asosan rus — tubjoy maktablarini milliy maktablar bilan almashtirish zarurligi ko'rsatib o'tildi, bu maktablar uch bosqichga - Quyi, o'rta va yuqori bosqichga bo'linishi lozim edi. Boshlang'ich ta'lim umumiy, majburiy, bepul, olti yillik bo'lishi kerak edi. Asosiy o'qitiladigan fanlar orasida islom ta'limoti

asoslari, ona tili, rus tili (4-sinfidan boshlab), arifmetika, tabiatshunoslik, tarix (milliy va rus tarixi), geografiya (umumiy va rus geografiyasi) ham bor edi.

Qurultoyda tashkil etilgan «Musulmon o'qituvchilar kengashi» (rais — Murod xo'ja Solixo'jayev, kotibi ~ S.Abdusamatov) rus — tubjoy maktablarini milliy maktablarga aylantirish dasturini ishlab chiqdi. Yangi o'quv yili arafasida uning loyixasi Toshkent shaxar dumasini tasdiqqa taqdim etildi. 1917 yil 10 sentyabrda Duma majlisida so'zga chiqqan Munavvar Qori maktabni isloh qilish xaqidagi «Musulmon o'qituvchilar kengashi» ning ma'ruzasini takdim qildi va unda musulmon maorif xodimlari — o'qituvchilarga nixoyatda extiyej sezilmokda, deb ko'rsatib o'tdi.

Oktyabr to'ntarishidan so'ng yangi sovet maktabini tashkil etish vazifasi ilgari surildi. Bu jarayonga komissarliklar tizimida tashkil topgan Maorif xalq komissarligi (birinchi xalq komissari K.Ya.Uspenskiy) rahbarlik qilishi lozim edi. Biroq ma'lum vaqtgacha maktab tarmoqlarini boshqarishning eski tizimi ham saqlab qolindi.

1918 yilning martigacha Turkistonda Vasiylik qumitasi mavjud bo'lib turdi. qumita o'quv yurtlari tarmoklariga rahbarlikni amalga oshirib, Turkiston pedagoglarining manfaatlarini ifodaladi maktabni siyosat ta'siridan saqlashga harakat qildi.

Yangi xokimiyat o'z navbatida Vasiylik qo'mitasi va o'lkaning barcha o'qituvchilarni Xalq Komissarlari Kengashi bilan hamkorlikda ishlashlarini talab qildi, hamkorlik qilishga javob tariqasida maktab xodimlari maoshini ko'paytirishga va o'quv yurtlariga mablag'lar ajratishga vada qildi. Biroq o'qituvchilar ittifoqi Xalq komissarlari Kengashi bilan hamkorlik qilishni istamaganligi sababli ular ish xaqini oshirish va maktablarning moddiy axvolini yaxshilash uchun mablag'lar ajratmadilar. Buning ustiga mart oyida ma'murlar o'rta o'quv yurtlarini yopib quyish xaqida farmoyish berdilar, bundan maqsad navbatdagi o'quv yilining boshlanishiga qadar ularni «yangicha asoslarda» tashkil etishdan iborat edi.

1918 yilning o'rtalaridan boshlab yangi tipdagi maktablarning tez, asosan miqdor jihatidan o'sishi ko'zga tashlandi. Turkiston jamiyati aholisining badavlat qatlamlaridagi juda ko'p miqdordagi mablag'ning tortib olinganligi o'lka iktisodiyotini kambag'allashtirib quydi, ayni bir vaqtda sovet xokimiyatini zarur mablag'lar bilan ta'minlandi, buning natijasida maktab qurilishiga rahbarlik qiluvchi Maorif xalq komissarligi 1918 yilda ma'lum darajada kreditga ega bo'ldi.

Bolsheviklar ijtimoiy, sinfiy mazmuniga ko'ra yagona maktabni tashkil etar ekanlar, milliy shaklning zarurligini e'tirof etdilar, shu boisdan Turk respublika milliy asosda - ukrain, arman, yaxudiy maktablari va tabiiyki, «Turkistonda milliy turk ommasi ustuvor bo'lganligi» uchun hammadan ko'prok. va birinchi navbatda o'zbek maktablari tashkil qilindi.¹

Dastlabki o'zbek sovet maktablari mablag'laridan qisib kuyilgan bo'lib, ularga o'quv vositalari va qullanmalar yetishmasdi. Moddiy ahvolning og'irligiga ko'p jihatdan ma'murlarning yerli aholining bilimli bo'lishiga nisbatan mustamlakachilik munosabatida bo'lishi ta'sir qildi, bu esa 1918-1920 yillar davrida rus tilidagi o'quv yurtlari va tub yerli aholi bolalari uchun muljallangan

maktablarni mablag' bilan teng asosda ta'minlamaslikka olib keldi. Bundan tashqari, ko'pincha xalq ta'limi uchun ajratilgan mablag'ni deputatlar kengashlari boshqa maqsadlar uchun ishlatishardi.

Maorif xalq komissarlarm uchun kadrlar masalasi maktab qurilishdagi bosh muammo edi. Yangi tuzum pedagoglarni tayyorlash ayniksa, birinchi navbatda maxahliy maktablar o'qituvchilarni tayyorlash uchun har tomonlama chora-tadbirlar belgilandi. Binobarin, o'qituvchilar tayyorlash butunlay yangicha negizga – qisqa muddatli kurslar orqali yo'lga qo'yildi. 1918 yilning yozida Samarkandda «musulmon o'qituvchilari uchun pedagogik kurslar» ochildi. O'sha yilning kuzida Toshkentda — Toshkent uyezdining tub yerli aholisi uchun maktab o'qituvchilari kurslari ochildi.

Yukori bosqich- dorilmuallimin (o'qituvchilar kursi, keyinroq oliy o'quv yurti): o'rta bosqich — boshlang'ich maktablarni o'z ichiga olar edi. Xalq dorilfununi tarkibining bu shaklda bo'lishi sharoitning o'zidan kelib chiqqan holda zamonaviy bilim va savodxonlikka extiyojdan tug'ilgandi.

O'sha yilning 3 mayida dorilfunununing musulmon bo'limi rahbariyatiga saylov bo'lib, unda Munavvar Qori rais (rektor), Iso Tuxtaboyev birinchi muovin, Burxon Habib ikkinchi muovin, Abdusamid Qori Ziyobov xazinador, Muxtor Bakir sarkotib bo'lib saylandi. 13 may (yakshanba) kuni Toshkentning eski shaxar qismida Bikula Morozovning sobik do'qoni binosi (hozirgi o'zbek yosh tomoshabinlar teatri)da musulmon aholi uchun «xalq dorilfununi» ochiladi. Bu bo'lim tez orada o'ziga xos yirik bilim maskaniga aylandi. Dastlab 9 ta boshlang'ich maktab ochish mo'ljallangan bo'lsa-da, aholi extiyojiga ko'ra, ularning soni 24 taga yetdi. Dorilfununing musulmon bo'limi 15 demokratik tashkilot vaqillari uyushgan 45 kishilik kengash tomonidan boshqariladi. Undagi muallimlar soni 18 nafarga yetadi.

1918 yil 2 iyun kuni sobiq seminariya binosida dorilfununining o'zbeklar uchun maxsus o'qituvchilar tayyorlovchi bo'limi — «Dorilmuallimin» ochildi. Unda Fitrat sna tilidan: Kamol Shams arifmetika va geometriyadan, Haydar Shavqiy gigiyena, gimnastika va nemis tilidan, Raximboyev arifmetikadan, Abdurahmon Ismoilzoda san'atdan, Rizayev madaniyat tarixi va siyosiy iqqisoddan, Munavvar Qori ona tilidan dars berishadi. Bu bo'limning ochilish marosimida Munavvar Qori nutq so'zlab, inson ma'rifatli bo'lib, ko'zi ochilmaguncha vijdoni uyg'onmasligini, vijdon uyg'onmasa na o'zini, na xalqni erkin muxofaza qila olmasligini, bu iymonsizlik ekanini mutafakkirona noziklik bilan ifoda etadi.

Munavvar Qori 1922 yildan Turkiston maorif noziri, keyin Toshkentning eski shaxar maorif bo'limi muboshiri (inspektori) bo'lib ishladi, o'sha yili 23-25 martda bo'lib o'tgan 2-Umumturkiston maori xodimlari kurultoyida ishtirok etib, maktab bo'limiga a'zolika saylandi. Keyinchalik Alisher Navoiy nomli ta'lim-tarbiya yurtida va turli maktablarda o'zbek tili va adabiyotidan dars do'stlari va shogirdlari Kayyum Ramazon va Shorasul Zunnun hamkorlikda uch bo'limdan iborat «O'zbekcha til saboklari» kitobini (1925 yil) nashr ettirdi,

1917-1920 yillardagi qisqa davrga shu jumladan, xalq ta'lim sohasida ruy bergan o'zgarishlarga 1920 yilda yakun yasaldi. Sovet maktablarining tez o'sishi

Turkiston maktab tizimini boshi berk ko'chaga olib kirdi. Jiddiy moddiy ta'minotning yo'qligi va kadrlar bilan ta'min etilmaganlik ko'pgina «qog'ozdagi maktablar»ning mavjudligini shart qilib qo'ydi. Natijada maktab yoshidagi bolalarning 70 %dan ko'pi maktabga jalb qilinmadi.

Turk MIQ yangi ijtimoiy tuzumining kelajagi yosh avlodning umumta'lim saviyasiga bog'lik ekanligini tushunib, 1920 yilning noyabrida maktab tizimi axvolini yaxshilash maqsadida qaror qabo'l qildi. Unda Maorif xalq komissarligi zimmasiga «savod o'rganish ishini birinchi Oliy ta'limning shakllanishi va kadrdar tayyorlash muammolari (1917-1924 yillar) o'ringa qo'yish» va maktab o'quvchilarining ta'minoti hamda ovqatlanishini yaxshilash uchun chora-tadbirlar belgilash vazifasi yuklandi. XXMK (Xalq Xo'jaligi Markaziy Kengashi) «imkon boricha» maktab o'quvchilari uchun o'quv qullanmalari va birinchi galda zarur bo'ladigan ashyolar ishlab chiqarishni ko'paytirishi lozim edi. Xalq Komissarlari Kengashiga o'quv yurtlarini binolar bilan ta'minlash va «imkon boricha Maorif xalq komissarligi xay'ati ko'rsatmalari buyicha sarflanadigan pul belgilari fondini ko'paytirish» buyurildi¹.

Oliy ta'lim masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, Turkistonniig milliy ziyolilar va shu jumladan, ilgor rus olimlari (akad. S.F.Oldenburger) XX asrning boshlaridayoq Toshkentda universitet tipidagi oliy o'quv yurtini ochish zarurligi masalasini O'zR ko'tarib chiqqan edilar. Biroq axvol quruq gaplardan nariga siljimagani edi. 1918 yilning fevraliga kelib Toshkentda «Oliy ta'lim dustlari jamiyati» faoliyat ko'rsata boshladi, uning tarkibida pedagoglar, shifokorlar, muxandislar, agronomlar va maxalliy ziyolilarning boshqa vaqillari ham bor edi.

Jamiyat oliy tipdagi o'quv yurti tashkil etilishiga qadar dastlab bepul ta'lim beradigan keng ixtisosdagi o'quv yurti tashkil etishga xarakat qildi, bu o'quv yurtida ta'lim oluvchilarning qaysi millatga mansubligidan qati nazar aholining barcha qatlamlariga qulay bo'lishi lozim edi. Bu xildagi o'quv shakli keyinchalik ta'limni oliy yurtlarida davom ettiradigan kadrlar tayyorlashi, shuningdek, ulardagi, tinglovchilarga xalq hujaligining turli sohalari bo'yicha hunarlarga, (agronom, texnik, montyor, transport xaydovchilari, etikduzlik va tikuvchilik kabi) ega bo'lishlaridya yordam berishi kerak edi.

1918 yil 21 aprelda tantanali ravishda ochilgan Turkiston xalq universiteti shu tariqa vujudga keldi. Universitet o'ziga Toshkentning eng yaxshi o'qituvchilarini jalb qilgan edi. Uning ixtiyoriga Toshkentdagi bir qancha boshlang'ich maktablar (13 ta musulmon va 11 ta rus maktabi), 8 bolalar maydonchasi, Turkiston xalq kutubxonasi, Xalq muzeyi va konservatoriyasi berib quyilgandi. Maxalliy millat yoshlaridan kadrlar tayyorlash uchun universitet qoshida musulmonlar shu'basi tashkil etilib, u Toshkentning eski shahar qismida faoliyat ko'rsatdi. Shu'ba «Xalq dorilfununi» degan ilmiy adabiy gazetani chiqarib turdi.

Universitet tarkibida ijtimoiy-iktisodiy, tabiiy-matematika, tarix-filologiya, qishloq hujaligi va texnika fakultetlari bor edi. 1919 yil febraldan universitet qoshida ishchi fakulteta ham faoliyat ko'rsata boshladi. 1920 yilning oxiriga kelib, universitetda ta'lim oluvchilaryaning 60 % ini maxalliy millat vaqillari tashkil

qilgan edi. O'zbek tilidagi mashg'ulotlarni Axmad Fayziy, Burxon Xabib, Ibroxim Toxiriy, Usmonhujayev, Xodi Fayziy va boshqalar olib borishdi.

1918-1920 yillarda O'zbekiston madaniy xayotida tanilgan xalq universitetining tashkilotchilari va arboblari bo'lgan G.Abduraigidov, A.A.Divayev, A.Qodiriy, Murod Xoji, G.N.Lerdansev, R.Yusupbekov va boshqa ko'pgina ziyolilar faoliyat ko'rsatgan edilar.

Oradan ko'p o'tmay Toshkentda maxsus sharqshunoslik ixtisosligidagi oliy ta'limning tung'ichi Turkiston sharq instituti vujudga keldi. U o'z faoliyatini 1918 yil noyabrda boshladi. Institut haqidagi nizomda uning asosiy vazifalari qilib Turkiston mahalliy aholini va qo'shni mamlakatlar aholisi tilini yaxshi biladigan sharqshunos olimlar va amaliyogchi xodimlar tayyorlash, Turkiston tarixi va madaniyatini hamda uning aholisi tilini o'rganish deb belgilab berilgan edi.

1920 yilda bolsheviklar rejimi Turkiston Xalq universitetiga muqobil sifatida Turkiston Davlat universiteti (keyin o'rta Osiyo, xozirgi M.Ulugbek nomidagi O'zbekiston milliy Universiteti) ni tashkil qildi.

Turkiston davlat universiteti tashkil qilingan birinchi kundanoq uning professor va o'qituvchilar tarkibi asosan rus olimlaridan iborat bo'lganligi sababli, rus tilini bilmaydigan maxalliy aholi yoshlari uchun universitetda o'qish dastlabki kundanoq muammo bo'lib qoldi. Natijada dastlabki yillarda universitetda asosan yevropaliklar ta'lim oldilar. Universitet faoliyatining birinchi yili oxiriga kelib unda 6 ta fakultet: ijtimoiy-iktisodiy, tarix-filolgiya, fizika-matematika, texnika, tibbiyot, qishlok xo'jalik fakultetlari ish olib bordi.

Shuni aloxida ta'kidlash kerakki, vaqt o'tishi bilan universitet faqat eng yirik o'quv yurtigina emas, balki ilmiy-nazariy va amaliy tafakkurning, tabiiy va amaliy fanlarning juda xilma-xil sohalari buyicha olib boriladigan tadqiqotlarning eng muxim markazi ham bo'lib qoldi.

1918-20 yillarda sovet maktabi qurilishiga milliy o'qituvchilar) ham jalb qilindi. Masalan, o'sha davrning tajribali o'qituvchilardan Oqilxon Sharafiddinov, Jura Odilov, T.Shermuxzmmmedov, T.Sodiqov, K.Dodamammedov va boshqalar o'zbek sovet maktablarini tashkil etish sohasida ish olib bordilar.

Shuningdek, o'qituvchi kadrlar tayyorlashni tezlashtirish maqsadida 7 ta bilim yurti, shu jumladan, bitta xotin-qizlar bilim yurti, 5 ta pedagogika texnikumi, 2 ta pedagogika bilim yurti va bir necha qisqa muddatli kurslar ochildi. Birgina 1921 yilning o'zida Turkiston Respublikasi bo'yicha 850 ta o'qituvchi xodimlar tayyorlash qisqa muddatli kurslari ochildi. Shu bilan birga o'lkada 7 ta maorif institutlari ish olib bordi va ularda 1145 talaba ta'lim oldi.¹ Lekin ularning ko'pchiligi rusiyzabon aholi farzandlari edi.

Maxalliy xotin-qizlarni maorif maskanlariga jalb qilish oson bo'lmadi. Mavjud maktablarda va xunar-texnika o'quv yurtlarida maxalliy millatlarning qizlari o'quvchilarning 7-8 % ini tashkil qilar edi. (qizlarni maktablarga tortishda shoshma-shosharlik, urf-odatlar va an'analarni hisobga olmaslik bir qator murakkabliklar tug'dirdi. Xotin-qizlar uchun alohida maktablar, xotin - qizlarni o'qituvchi pedagoglar bo'lishi kerak edi. Bu muammoni xal qilish uchun sovet xukumati respublikaning bir qator shaxarlarida xotin-qizlar uchun maxsus pedagogika texnikumlari ochdi.

Umumiy ta'lim maktabi bilan bir qatorda xunar-texnika ta'limi maktablari ham ochila boshladi. O'lka shaxarlarida oltita qishloq xo'jalik texnikumi, bitga medisina texnikumi, 16 ta xunar-texnika maktabi va bir necha kurslar tashkil qilindi. 1924 yilning oxirida xunar-texnika ta'limi maktablarida 6800 dan ko'proq yoshlar ta'lim oldilar.

Turkistondagi oliy o'quv yurtlar xalq xo'jaligining turli sohalari uchun mutaxassislar tayyorlash bilan bir qatorda xalq maorifi maktablari uchun ham malakali pedagoglar tayyorlashga jalb qilingan edi. Shu maqsadda o'rta Osiyo Davlat universiteti qoshida maxsus pedagogika fakul'teti ochildi. Lekin bu fakultet bir yil ishlar-ishlamas yopib qo'yildi va Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institut tashkil etilgunga qadar, respublikada o'qituvchi kadrlarni tayyorlash mushkul muammolardan biri bo'lib qolaverdi. Yana eng muhim muammolardan biri shu ediki, oliy va maxsus o'quv yurtlariga qabo'l qilingan yoshlarning aksariyati rusiyzabon talabalar edi.

Masalan, 1923-24 o'quv yilida O'rta Osiyo Davlat universitetiga o'qishga kirgan 2047 talabadan faqat 51 nafarigina mahalliy millat yoshlaridan edi xolos.

1924/25 o'quv yilida bu universitetda 2440 talaba va ishchilar fakultetida 889 yoshlar ta'lim oldi.

1924 yilda Qo'qon bilim Yurtini 13 ta yigit-qizlar bitirib chiqdi. Unda keyinchalik "O'zbekiston Fanlar akademiyasining birinchi prezidenti Qori Niyoziy dars berdi, bitirganlardan akademiklar, yirik fan madaniyat arboblari yetishib chiqdi. Chet mamlakatlar bilan madaniy alokalar, yoshlarning o'qib kelishlari XX asr boshlarida kengayib bordi va keyinchalik ham davom etdi. Buxoro Respublikaa xukumati tashabbus ko'rsatib, bu ishga tashkiliy tus berdi. 1922 yilda Turkiston, Buxoro, Xorazmdan 70 ga yaqin yoshlar Germaniyaga o'qishgaa jo'natildi. Buxoro respublikasi xukumati Berlinda yotokxona uchun bino sotib oldi, o'qituvchilarni moddiy ta'minlab turdi, ularning ahvoli o'qishlaridan ogoh bo'ldi. Yoshlarimiz Germaniyaning turli o'quv yurtlarida muvaffaqiyat bilan o'qidilar, mutaxassislar bo'lib yetishdilar. Afsuski, o'z ona yurtiga qaytgan yigit qizlarimiz mustabidlik qatag'oniga uchradi.

2. Ma'lumki, 1924 yilda amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida mintaqa xaritasi qaytadan tuzildi. Shuni ta'kidlash lozimki, 20-30 yillardagi juda murakkab, siyosiy ijtimoiy va ijtimoiy iktisodii jarayonlar respublikaning milliy madaniyatiga xar xil tarzda ta'sir o'tkazdi, barcha sohadagi o'zgarishlarni qarama-qarshi tusga kiritdi va respublika taraqqiyotining asosiy tendensiyalari hamda yunalishlarini uzoq yillarga belgilab berdi.

1924-25 o'quv yilida Respublika byudjetiniig 24 % xalq maorifi uchun ajratildi. Bu maktab qurilishini tezlashtirishga imkon berdi. I-II boskichdagi umumta'lim maktablarining soni 1928 — 29 o'quv yiliga kelib deyarli 2,5 mingtaga yetdi.

Shu bilan bir vaqtda katta yoshli aholi o'rtasida savodsizlikni tugatish yuzasidan keng miqyosda kompaniya avj oldirildi. 1921-22 o'quv yilidayok respublikaning ko'pgina shaxarlari va qishloq joylarida mingdan ortiq savod maktablari, savodsizlikni tugatish kurslari va tarmoqlari faoliyat ko'rsatdi. Ulardan 50 ming kishi xat savod chiqardi. Savodsizlikni tugatish ishi, tiklash davrining

dastlabki yillarida katta qiyinchiliklarga duch keldi: o'qituvchilar, maktab binolari, asbob jixozlar, o'quv qo'llanmalari, pul mablag'lari yetishmas edi. Biroq bu soha garchi qiyinchilik bilan bo'lsada, izga tusha boshladi. Katta yoshli kishilarni o'qitish va shakl va usullari takomillashtirildi. Savod maktablari tarmoqlari birmuncha kengaytirildi, savodsizlikli tutatuvchi o'qituvchilar soni ko'paydi. Bu dastlabki yutuqlar keyingi yillarda savodxonlik oshirish yuzasidan avj olgan umumxalq xarakatining debochasi bo'ldi.

Hamza Xakimzoda Niyoziy, T.Shermammedov, N.T.Qoriniyoziy, E.Komilov, A.Nabixojayev, G.Nazarov, M.Qodirova Z.Polvonova, P.Kayumov, K.Abdurashidov kabilar yangi maktab yaratish, rivojlantirish uchun faol kurashdilar. Shu yillarda Markaziy rahbariyat sovet tuzumiga sodiq bo'lgan pedagog kadrlarni ko'p miqdorda tezkorlik bilan tayyorlab, ular orqali aholini ayniksa, yosh avlodni kommunistik g'oyalar asosida tarbiyalash maqsadida qarorlar va rejalar ishlab chiqdi. Ularni og'ishmay amalga oshirish uchun zarur mablag'larni ayamadi, bor ma'rifatchilarni hamda partiya, sovet, jamoat tashkilotchilarining kuch - quvvatini safarbar qildi.

Maktablarning pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun pedagogika o'quv yurtlarining keng tarmoga yaratildi: texnikumlar, maorif institutlari, o'quv yurtlari ochildi. Ularda jadal suratlar bilan ommaviy miqyosda yangi o'qituvchi kadrlar yetishib tayyorlandi. 20 - yillarning oxiriga kelib ularning soni respublikada deyarli besh yarim mingtaga yetib qoldi. Xalq, maorifi rivojlanib bordi.

Shunday bo'lsada bu jarayonlar partiyaning madaniy sohada zo'ravonlik ko'rsatishi tufayli mushkulliklarga uchradi. Xalq maorifida, bu narsa avvaliga milliy ta'lim shakllari yoyiladigan sohalarni cheklab qo'yish, keyinchalik esa ularni butunlay yo'q qilib yuborishda aksini topdi. Chunonchi 20 yillarning boshlarida sovet maktablari bilan birgalikda eski usul maktablari, diniy tashkilotlar tomonidan ta'minlab boriladigan vaqf maktablari va madrasalari ham ishlab turar edi. 1925 o'zbekistonda 97 ta vaqf maktablari va 1,5 mingdan ortik eski maktablar bo'lib, ulardan 250 tasi yashirin xolda ish olib borgan. Lekin sovet xokimiyatining insonparvarlikka zid siyosati natijasida ular 1928 yilga kelib o'z faoliyatini amalda tugatdilar,

Xalq ma'rifatining yuksalish yo'lida aholining savodliligini oshirishga, savodsizlikka barham berish davr talabi edi. Bu ko'plab yangi savod maktablari va kurslar ochildi. Minglab savodli bo'ldi. Shuni aytish joizki, 1930 yili umumiy boshliach ta'limni joriy etish savodsizlikni kamaytirishga yordam berdi.

Birok raqamlar ortidan quvish va shoshma-shosharlik oqibatda umumiy ta'limni joriy qilishda ko'pgina jiddiy xatolarga yul quyildi. Jumladan, maktab yoshidagi bolalarning bir qismi o'qishga tortilmay qoldi... O'qishni tashlab ketayotgan o'quvchilar soni (ayniqsa maxalliy millat yoshlari orasida) ortib bordi. Ko'pgina maktablarda o'qitish saviyasi mutlaqo talabga javob bermasdi, chunki muallimlarning bilim darajasi yetarli emasdi.

Ayniqsa ularning moddiy axvoli yomon edi, maktablar son jihatdan muttasil ortib borayotgan bo'lsada, ularning o'quv moddiy bazasi nochor axvolda qolayotgan edi,

Ma'lumki, bolsheviklar mafkurasi negizida asosan sinfiylik kurash g'oyasi ustivorlik qilgan. O'zgacha fikrlashga bo'lgan xar qanday urinish «sinfiy dushman qarshiligi» deb baholandi. Guyo, «sinfiy dushman» ijtimoiy xayotning barcha jabhalarida, ta'limda, adabiyot va san'atda, ishlab chiqarishda mavjud bo'lib uni qidirib topish, barchani shubxa ostita olish odat tusiga kirib bordi.

Ziyoli kadrlarni tayyorlashda sinfiy jihatdan ishonchli, aholining «mexnatkash» tabaqalaridan chiqqan kishilarini tanlab olish kerak, degan g'oya ilgari surildi. Chunki, avvaldan yaxshi ma'lumki, aqliy va mantiqiy mushohada etish darajasi qancha past bo'lsa, savollar ham, noroziliklar ham shuncha kam bo'ladi. Shuning uchun ham madaniyat xodimlarning tarkibini ijtimoiy jihatdan ishonchli bo'lgan «mexnatkashlar» xisobiga soddalashtirish, ular orasidagi eng zakovatli va omilkor qatlamni siqib chiqarishni maqsad qilib quyildi. Bu «madaniy ishqilob»ning asosiy tezislaridan biri bo'lib, «shaklan milliy, mazmunan proletar madaniyati»ni vujudga keltirishdan iborat edi. Bu g'oya sovet davlatining barcha o'n yilliklari davomida yashab keldi. 30-yillarda uni amalga oshirish borasida quyilgan dastlabki qadam madaniyatning barcha sohalar uchun kadrlar tayyorlash, yuqorida aytanimizdek, «mexnatkashlar», ya'ni, «proletar qatlamdan» boshlanganligi ham bejiz emas edi.

O'sha yillarda komsomol safiga ijtimoiy jihatdan faqat «mexnatkashlar» qatlamidan qabul qilinganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, nima uchun komsomollar safarbar qilinib, ularni qisqa muddatli kurslarda o'qitib maktablarga muallim sifatida yuborilganligini anglab yetamiz. Buning natijasida respublikada o'qituvchilar soni 1928-29 o'quv yilidagi 5,5 ming kishidan 1932-33 o'quv yilida kariyb ming kishiga³ 1941 yili esa¹ 42 ming kishiga yettan. Bu raqamlar shundan dalolat beradiki, 1933 yil boshlarida xalq ta'limi tizimlarida o'tkazilgan «tozalash» oqibatida ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan «ishonchsiz» bo'lganlar o'rniga qisqa muddatli kurslarni bitirgan saviyasi past, lekin ijtimoiy jihatdan «ishonchli» qatlamlardan qushimcha muallimlar tayyorlanib, ular maktablar va madaniyatning boshqa sohalarida ishlash uchun yuborildilar.

1930 - yillarning birinchi yarmida avj olgan bu tadbir amalda ziyolilar safini malakasi va saviyasi past kishilar bilan to'ldirishga, yuzakilik, omilsizlik, qog'ozbozlik kabi noma'qul illatlarning ildiz otishiga olib keldi. Kishining qobiliyati, madaniy saviyasi va ma'lumot darajasi emas, balki ijtimoiy kelib chiqishi asosiy mezon qilib olindi.

Mazkur siyosat tufayli o'zbek xalqi o'z tarixi, milliy urf-odati, an'ana, umuminooniy qadriyatlarni bilish va o'rganish imkoniyatlaridan maxrum bo'ldi. Millat taqdiri, maorif ravnaqi uchun jon fido qilgan, erkin, hur fikrli alloma ma'rifatparvarlar: Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Elbek, Otajon Hoshimov, Shokir Sulaymon, Chulpon, Abdulla Qodiriy qatl etildi. Shorasul Zunun, Usmon Nosir, va boshqalar Sibirga surun qilindi. Sobiq tuzumning totalitar siyosati to'la xukmron kuchga kirib, mafkuraviy kurash kuchaydi. Natijada xalq ta'limiga. buyro'qbozlik nuqtai-nazaridan turib ekstensiv ravishda yondoshish tarkib topdi. Buning natijasida sifat muammolari chetga surilib, miqdor ko'rsatkichlari birinchi o'ringa o'tdi. Ahvolni xo'ja ko'rsinga

yaxshilash orqasidan quvish jamiyatning madaniy hayyotiga yomon tasir o'tkazdi, hamda oliy va o'rta maktabga sezilarli darajada zarar yetkazdi.

3. Ikkinchi jahon urushi boshlangan dastlabki kunlardan O'zbekiston halqlari ma'navii madaniyatining boy salohiyati insoniyatning eng yovuz dushmani bo'lgan fashizmni tezroq tor-mor qilish ishiga safarbar qilindi. O'zbekiston madaniyatining barcha yunalishlari uning arboblari va xodimlarining fidoyiligi va vatanparvarligi tufayli juda qisqa muddatlarda urush davri ehtiyojlari va talablari oqimiga yunaltirildi. Urushning og'ir sharoitlarida o'zbek olimlarning ilmiy va amaliy ishlari front, aholi va g'alaba uchun beqiyos ahamiyatga ega bo'ldi, xalqimiz ahlining ona-Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatini kuchaytirdi, vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'unlashtirdi, mexnat faoliyatiga kuch-quvvat bag'ishladi.

Urushning suronli yillarida respublika oliy o'quv yurtlari va texnikumlar o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Katta qiyinchiliklarga qaramay, ular sanoat, qishloq xo'jaligi, maorif, tabobat va boshqa sohalar buyicha malakali mutaxassislar tayyorlab beradigan chinakam manba bo'lib qoldi. 1943 yilda respublikada 41 oliy o'quv yurti (ularning 12 tasi ko'chirib kelingan) va 52 o'rta maxsus bilim yurtlari faoliyat ko'rsatdi. Urush yillari davomida ularda 20 mingdan ziyod oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar yetishtirildiki, bu xalq xo'jaligini yukori malakali kadrlar bilan ta'minlash imkonini berdi. Ular o'z navbatida samarali, mexnat qilib, fashizmni tor-mor keltirish ishiga munosib xissa qushdilar. Pedagogik kadrlar tayyorlashga aloxida e'tibor berildi, chunki urush davri sharoitlarida ularga ehtiyoj ayniksa sezilarli edi.

Urush yillari o'zbekistonda barcha turdagi qushinlar uchun zobit kadr va mutaxassislar ham tayyorlandi. Toshkentga piyodalar bilim yurti ham ko'chirib keltirilib, respublikamiz joylashtirilgan bir necha harbiy bilim yurtlari, oliy o'quv yurtlarining harbiy fakultetlarida, o'nlab turli kurslarda kadrlar tayyorlandi.

Urush xalq ta'limi muassasalari faoliyatini yanada murakablashtirib yubordi. Ko'pgina o'qituvchilar harakatdagi armiya safiga chaqirildi, yuqori sinflarning o'quvchilari ishlab chiqarishga safarbar qilindi. Maktab binolarining anchagina qismi gospitallarga, evakuasiya kilingan xarbiy qismlarga, bolalar uylariga va harbiy o'quv punktlariga berildi. Natijada respublikadagi maktablarning umumiy soni 1942-43 o'quv yillarida 1940-41 o'quv yilidagiga nisbatan 421 taga qiskarib, 4795 tadan 4374 taga tushib qoldi. Binolar va o'qituvchilar yetishmasligi tufayli ko'pchilik maktablarda mashg'ulotlar 3 smenada olib borilardi. Darsliklar, o'quv qurollari va boshqa jixozlar ham yetishmasdi.

Lekin barcha qiyinchiliklarga qaramasdan, O'zbekiston maktablarining jamoalari gospitallarni otaliqqa oldilar, yaradorlar huzurida konsertlar quyib berdilar, frontga ketganlarning oilalariga, urush nogironlari oilalariga yordam berdilar. harakatdagi armiya jangchilari uchun sovg'alar tayyorladilar, kishloq ho'jalik ishlarida ishtirok etdilar.

O'zbek fan axlining urush sharoitidagi izlanishlari, ilmiy tadqiqotlarining yunalishlari front va xalq xo'jaligi talablari hamda manfaatlariga moslashtirildi- Bu boradagi ilmiy va tashkiliy ishlarni muvofiklashtirish, ularga rahbarlik qilish sobiq SSSR FA O'zbekistan filiali (O'zFA) va keyinroq, 1943 yil 4 noyabrda uning

asosida tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasi zimmasiga tushdi. Bu akademianing birinchi prezidenti etib T.N.Qori-Niyoziy saylandi. Fanlar akademiyasining tashkil etilishi o'zbek xalqi xayotida muxim tarixiy voqia bo'ldi. Bu akademiya O'zbekiston ilmiy tafakkurining markazi bo'lib qoldi. Shu bilan respublikada ilmiy tafakkurni yanada rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratildi- Bu davrda taniqli matematik olimlar T.N.hori-Niyeziy, T.A.Sarimsoqov, geolog-olimlar M.Abdullayev, faylasuf I.Mo'minov, kimyogar olimlar O.S.Sodiqov, S.Yu.Yunusov, energetik A.N.Askochenskiy va boshqalar samarali izlanishlar olib bordilar. Fanlar akademiyasi tarkibida 22 ta ilmiy muassasa mavjud bo'lib, ularda 818 ilmiy va ilmiy-texnik xodimlar faoliyat ko'rsatdilar. Urush tufayli Moskva, Leningrad, Kiyev, Minsk va boshqa shaharlardan ko'chirib kelingan olimlar o'zbekiston olimlari bilan mahkam aloqada ish olib bordilar. Ularning birgalikdagi sa'y-xarakatlari ilm-fan yuto'qlarini front extiyohlari uchun xizmat qildirishga qaratilgan edi.

Matematika, fizika, mexanika, energetika hamda boshqa mavjud fanlar sohasidagi olim va ilmiy xodimlarning izlanishlari — metalni qayta ishlash, mashinasozlik va mudofa sanoati bosh tarmoqlarining rivojlanishini ta'minladi. Respublika olimlari artilleriya aslohasini mustahkamlash, jangovar samolyotlarning yuk ko'tarish salohiyatini oshirish, mavjud harbiy texnika yaxshilash va yangi turlarini yaratish kabi eng dolzarb amaliy masalalarni hal etdilar.

Urush asoratlari umumta'lim maktablarining holati va faoliyatiga ham qattiq ta'sir qildi: o'qituvchilarning xarbiy xizmatga chaqirilib, frontga yuborilishi oqibatida ularning soni keskin kamayib ketdi, bu o'z navbatida maktablar sonining qisqarishiga olib keldi. Faqat 1942-43 o'quv yilida respublikada 200 ta boshlang'ich va o'nlab o'rta maktablar faoliyati tuhtatildi; turli sabablarga ko'ra o'quvchilarning maktabdan ketib qolishi, maktab yoshidagi bolalarning o'qishga jalb etilmasligi tufayli o'quvchilarning soni tobora kamayib bordi. 360 ta maktab binosi respublikaga ko'chirilgan xarbiy qismlar, kasalxonalar va shu kabilarga berildi. Mavjud maktablarni yoqilg'i bilan ta'minlash qiyinlashdi, yozuv qurollari, darslik va ko'rgazmali qurollar yetishmas, o'quvchilarni kiyim-kechak va poyabzal bilan ta'minlash og'ir bo'lib qolgandi. Bular hammasi maktab ishida o'zining sezilarli izini qoldirdi, o'zlashtirish foizi pasayib ketdi.

Zero maktablar oldida turgan tarbiyaviy masalalarni bajarishga qator tadbiriy ishlar amalga oshirilishi muhim hisoblanadi.

1. Maktab yoshidagi bolalarning zhammasini umumiy tortish ishini davom ettirish;

2. O'quv-tarbiya ishlarini qayta qurish va sifatini yuqori ko'tarish, fan asoslarini yuksak siyosiy-g'oyaviy saviyada o'qitish, o'quvchilarga zaruriy jismoniy tarbiya berish, yoshlarni ijtimoi foydali ishlarda keng katnashini ta'min etish uchun ularga agrotexnika ta'limini berish;

3. Aholi o'rtasida ommaviy mudofa va siyosiy oqartuv ishlarini olib borish;

4. o'quvchilarning korxona va qishlok xo'jaligida mudofa extiyoji uchun qilinadigan mexnatlarini yulga qo'yish kabi masalalri shular jumlasidandir.

Urush davrida o'qituvchilardan hamda barcha maorif xodimlaridan, o'z o'rnida qattiq turib o'quvchilarning o'z vaqtida darsga kechikmasdan kelishini, sababsiz dars qoldirmasliklarini, uyga berilgan vazifalarni to'la bajarishlarini, o'quvchilarning maktabda va maktabdan tashkari ijtimoiy-foydali ishlarga faol jalb qildirish yuli bilan ularda yuqori ahlok malakalarini, mustaxkam irodani, e'tiqodni tarbiyalashlari lozimligini juda ko'p martalab ta'kidlab o'tgan edi. Bunday talabni bekamu-ko'st amalga oshirish o'qituvchilardan avvalambor, ota-onalar bilan yakindan alokada bo'lib hamkorlikda ish olib borishlarini taqozo etadi. Bu metod esa o'z navbatida o'quvchilarni nazoratdan chetda qolmasligini ta'minladi. Natijada har ikki tomonlama kuzatish bolalarning tarbiyasini yaxshilashta olib keldi. Bu esa albatta o'sha davr ruxiyatining jiddiyligini, xar bir insonning xox u katta bo'lsin, xox kichik bo'lsin jamiyatda o'z o'rnini va uz mavqeyi borligini tug'ri tushunishiga katta yordam berdi. Biz urush yillarida maktablardagi qiyinchiliklar hakda gapirar ekanmiz, shaxarlardagi maktablarda o'qish uch smenada olib borilganligini ham tilga olish joiz deb uylaymiz, chunki bu xol tabiiy xolatda talim-tarbiya jarayonini qiyinlashtirishga olib kelgan. Darslar 40 minutga qiskargan. Ashula va rasm darslari umuman o'tilmagan.

Respublikamizda o'zbek maktablarida darslar juda kam olib borildi. Chunki urush boshlanmasdan sal oldin o'zbek yozuvini rus grafikasiga o'tkazish tug'risidagi qonun qabul qilingan edi. Lekin bu qonun amalga oshirilguncha urush boshlanib ketdi. 1941-42 yillarda ko'p hajmda kitoblar chop etilishi ham kuzda tutilgan edi. Afsuski, bu ish ham amalga oshirilmay qoldi. Shunday bo'lishiga qaramay, ilg'or o'qituvchilarning tashabbusi darslarda samarali natijalar bera boshladi. o'qituvchilar og'zaki tushuntirishga katta e'tibor berdilar. Yangi utiladigan dars o'qituvchi tomonidan doskaga yozilar, o'quvchilar uni daftarga ko'chirib olishar edi.

2. Respublika xalq ta'limi uchun urushdan yillarda bir qator jiddiy qiyinchiliklarni yengib o'tishga tug'ri keldi. Urush yillarida ta'lim tizimiga e'tibor berilmadi. Ana shu «odat» urushdan keyingi dastlabki yillarda ham davom etdi.

Urush davrida utishga jalb etilmagan maktab yoshidagi bolalarni urushdan keyingi dastlabki yillarda ta'lim tizimiga tortish juda . muxim masala bo'lib qoldi. Bundan tashkari, urush yillarida ta'lim sifati ham juda pasayib ketgan bo'lib, 20-yillardagi qoloq uslublarda olib borilardi. Bu esa o'quvchilarni o'qishdan bezdirar, o'qishni tashlash va sinfda qolish xollari ko'paymokda edi. Masalan, 1945-46 o'quv yilida O'zbekistan maktablaridagi o'quvchilar soni rejadagi 1 mln.10 mshg kishi o'rniga 823 ming kishidan iborat bo'ldi. Sinfda kolgan o'quvchilar soni ham ko'p bo'lib, 1946 yilda u barcha o'quvchilarning 37%ini tashkil etardi. Ayniksa qiz bolalarni maktabga jalb qilish, ularni o'qishni tugatguncha ushlab turish aloxida muammo sifatida kundalang bo'lib turardi.

O'qituvchi xodimlar, masalasi urushdan keyingi yillardagi eng jiddiy muammolardan biri edi. Chunki malakali o'qituvchilar vatan urushga yuborilgan, ularning ko'pchiligi halok bo'lgandi. Xususan, 1947 yilda respublika buyicha 4 ming o'qituvchi yetishmasdi. Tuman xalq maorif bo'limlari mudirlari, maktab direktorlari va ta'lim buyicha direktor muovnlarning 60%dan ko'progi tegishli

ma'lumotga ega emasdi. 1950 yilda 7125 maktab o'qituvchilarga muxtojlik sezardi.

O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1957 yil 1 oktyabrdagi sessiyasida «O'zbekiston SSR da majburiy yetti yillik ta'limni to'liq amalga oshirish to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi maktablarda ta'lim tizimini takomillashtirishga karatilgan dastlabki kdham bu;di. Yangi konunga kura umumta'lim makhhbi hamma uchun majburiy bo'lgan kamchiliklar barham topmadi. Aksincha, maktab xakikly xayotdan ajralib kolli, o'quvchilarga berilayoggan bilimlar fan-texnika - tarakkiyogi darajasiga turri kelmasdi. Shuning uchun ham 1959 yil margda O'zbekiston Oliy Soveti «Maktab xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish tugrisida» yangi konun qabul qildi. Ammo, sovet mustabit tuzumiga xos bo'lgan boshlangan ishni oxiriga yetkazmaslik odati bu gal ham muammoni xal qilish yulida to'g'anoq bo'lib xizmat qildi, okibatda xalq ta'limida axvol o'zgarmadi.

60-yillar O'zbekistonda «rivojlangan sosializm» bosqichi deb e'lon qilindi. Jamiyat mamlakat rahbariyatidan ijtimoiy-iktisodiy va madaniy- ma'rifiy sohalarda jiddiy sifat o'zgarishlarni amalga oshirishni kutmoqda edi. Birok amalda unday bo'lmadi. Lekin buning o'rniga siyosiy rahbariyat akidaparasglikni, lutgiboz, ommaviy-siyosiy ishlarni avj oldirdi. Xalq ta'lim tizimi ham ana shu «girdobga» tashlandi.

Rasmiy hokimiyat soxta proletar baynalmilalligini amalda kuchaytirish maqsadida maktablarda rus tili va adabiyotini kengroq o'qitishga urg'u berdi. Natijada 60-yillarda O'zbekiston tarixi, o'zbek tili va adabiyoti, chet tili, musiqa va qushiqchilik darslari hajmi keskin qisqardi va ular o'quv rejasida belgilanganidan xaftasiga 16,5 soatga kamayib ketdi. Ulardan bo'shagan soatlarga esa rus tili va adabiyoti fani o'qitildi. Masalan, o'qituvchilar «XIX asr ikkinchi yarmi—XX asr boshlarida o'zbek adabiy-badiiy muxiti», «Milliy madaniy jarayonlar» tug'risidagi mavzularda dars o'tishi lozim butan soatlarda rus madaniyatining «progressiv» ahamiyatini ko'rsatib berishga majbur bo'ldilar. Nihoyatda boy va ko'xna o'zbek xalqi tarixini o'rganishga 52 soat ajratilgan holda boshlang'ich maktablarda rus tili va adabiyoti fanlari uchun 1600 soat ajratilgan.

70-80 yillarda O'zbekistan maktablarida ahvol sifat jihatidan o'zgarmay qolaverdi. Maktablar jahon tajribalaridan, zamonaviy texnika va o'qitish vositalaridai foydalanilmadi. Ularning moddiy — texnika bazasi yaxshilanmadi. To'g'ri, bu yillarda maktablar, o'quvchilar, o'qituvchilar soni yildan-yilga ortib bordi, son ko'rsatgichlari kishini xayratga solar darajasida ortdi. Masalan, O'zbekistonda 1945-46 o'quv yilida jami 4525 maktab bo'lib, ularda qariyb 998 ming o'quvchi o'qigan bo'lsa, 1970-71 o'quv yilida respublikaniyag umumiy ta'lim maktablari soni 7072 taga, ularning o'quvchilari esa 3 mln. 164 ming kishiga yetdi.

Birok, ularning sifat darajasi (ayniksa, qishlok maktablari) ancha past edi. Chunki, ko'klarga ko'tarib maqtalغان «rivojlangan sosializm» bosqichi ham 20-30-yillarda shakllangan «qoldiq prinsipi»ning ijtimoiy oqibatlarini yo'qota olmagan edi. 1970-1980-yillarda xalq ta'limi uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag 11%dan 8%ga kamayib ketdi. Resnublikaning barcha viloyatlaridagi

maktablarning 20-60%i zarur o'quv jixozlari, asbob-anjomlar bilan jixozlanmay kolaverdi, 50%dan ortiq maktablarda issiq ovkat bufetlari tashkil etilmadi, kuni uzaytirilgan guruhlar ishi ayniksa o'lda-jo'lda qoldi. 70-80—yillarda 1-8-sinf o'quvchilarining atigi 8-9%ini bunday guruxlarga jalb etilgan edi, xolos.

Umumta'lim maktablarining faoliyati asosan «rivojlangan sosializm» g'oyasini o'quvchilarga singdirish, ularni «kommunistik ruhda» tarbiyalashdan iborat bo'ldi. «Kommunistik tarbiya» dan ko'zlangan maqsad esa yoshlarni «proletar internasionalizmi» ga, «katta og'aga» sodiqlik, sinfiylik, partiyaviylik ruhida tarbiyalashdan iborat edi. Milliylik esa o'zbek maktablari mazmunidan chiqarila boshlandi. Maktablardagi tarbiya Yevropa tarixi misolida olib borildi. Yevropa madaniyati, tarixi amalda baynalminallik namunasi sifatida talqin etildi.

Maktablarda iktidorli bolalarni o'qitishga e'tibor berilmas edi. Maktab bolalari qalbida ona-Vatan tuyg'usi, ulug' allomalarimiz va ular qoldirgan ma'naviy meros, o'z ona tili, urf-odatlari bilan faxrlanish hissi shakllantirilmasdi. Maktablarda ayniksa ijtimoiy fanlarni o'qitish o'ta siyosatlashtirildi. Ko'zdan kechilayotgan davrda maorif sohasida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, yoshlarni milliy an'analar va ma'naviy madaniyat manbalaridan uzoqlashtirish an'anasi ko'zga tashlanib bordi. Ta'lim va tarbiya ishlariga partiyaviylik va sinfiylik prinsiplari asosida yondashish yoshlarning milliy urf-odatlarini o'rganishiga tusqinlik qildi.

Natijada, o'zbek o'quvchilarida milliy o'zlikni anglash, urf-odat, milliy an'analariga sodiqlik kayfiyatidan ajralish xollari ruy bera boshladi. Maktab o'quvchilarining o'quv rejasidagi soatlarini o'zlashtira olmasligi odatiy xol bo'lib qoldi. Bu ularni paxta va boshqa xo'jaligi ishlariga ko'proq jalb qilinishi bilan izoxlanadi. yilining 3-4 oyi ana shunday majburiy tadbirlar bilan band bo'lishiga ketar edi. Bu esa o'zbek o'quvchisi jahon standartlaridan ortda qoldirib, zamonaviy fan sohalarini o'zlashtirishga imkon bermasdi.

Ikkinchi jaxon urushidagi katta yo'qotishlar oliy ma'lumotli xodimlarning son va sifat jihatidan kamayib ketishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida urumdan keyingi yillardayok oliy ta'limni rivojlantirish zarur ekanligini taqozo etardi.

1950 yilda respublika xalq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlashda 26 ta oliy o'quv yurtlari, shuningdek, 2 ta universitet faoliyat ko'rsatdi. Shu bilan birga 92 ta texnikum o'rta maxsus ta'lim tizimida ish olib bordi. 1950-1953 yillarda respublika oliy o'quv yurtlarida 16600, o'rta maxsus bilim yurtlarida qariyb ming mutaxassis tayyorlandi. Birok, o'zbek qishloqlari va shaxarlaridagi ogir iktioodiy axvol maxalliy aholi yoshlarini oliy maktablarda o'qishga imkon bermas, ulardan yuqori malakali mutaxassis xodimlar tayyorlash ishiga tusqinlik qilardi. Xususan, 1950-1953 yillarda oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarning 33%ini o'zbek millati tashkil qildi xalos.

O'zbek millatiga mansub yoshlarni oliy va o'rta maxsus ta'lim maskanlariga bunchalik kam jalb etilishining yana boshqa o'ziga xos sabablari ham bor edi, albatta. Bulardan birinchisi, o'quv yurtlariga kiruvchi yoshlar o'rta maktablarda ommaviy-siyosiy tadbirlarga, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarga (ayniqsa, qishloq yoshlari) asossiz ravishda ko'plab jalb qilinishi okibatida ular oliy o'quv yurtlariga kira olishlari uchun talab hilinadigan bilimni olish imkoniyatiga ega bo'lmasdilar.

60-yillardan boshlab oliy o'quv yurtlari qoshida maxsus tayyorlov kurslarining tashkil qilinishi va ularga asosan qishloq yoshlaridan jalb qilinishi fikrimizning tug'riligidan dalolatdir. Yana muxim sabablardan biri, oliy o'quv yurtlariga kirish uchun sinov sifatida xorijiy tillardan imtixon quyilishi va talabalarga rus tilida (80-yillardan boshlab) dars o'tilishi edi. Natijada respublika oliy o'quv yurtlarida qishloq yoshlarining salmog'i kamayib ketdi. Chunki, qishloq maktablarida na xorijiy tillar, na rus tili (bu soha o'qituvchilarining yetishmasligi yoki ularning qishloq maktablarida ishlashni xoxlamasliklari natijasida) yetarli darajada, ayrim maktablarda esa umuman o'qitilmasdi. Bu xol oliy maktablarda shaxarlik yoshlarning ko'payib borishiga, qishloqlarda esa oliy ma'lumotli mutaxassislar muammosining yuzaga kelishiga olib keldi.

Ayni paytda, qayd etish lozimki, respublikada yildan-yilga oliy o'quv yurtlari soni ham ortib bordi. Yangi institutlar-Andijon medisina instituti, O'rta Osiyo medisina-pediatriya instituti, Toshkent jismoniy tarbiya-fizkultura instituti, Toshkent aloka va elektrotexnika institutlari ochildi. 1959 yilda respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida 31 ta oliy o'quv yurtlari mavjud bo'lib, ularda 88 ming kishi ta'lim olgan bo'lsa, 1985 yilga kelib oliy o'quv yurtlari soni 42 taga, talabalar soni esa 285,5 ming kishini tashkil qildi. Shuningdek, respublikadagi 249 o'rta maxsus bilim yurtlarida 281,7 ming o'quvchi bilim oldi.

Biroq bo'lar miqdor ko'rsatgichlardagi ayrim siljishlar edi. Lekin masalaning asosiy jihati-oliy ta'lim muassasalarini bitirib chiqayottan mutaxassislarniyag sifati va saviyasi masalasida ko'plab muammolar mavjud edi. «Sosializmning afzalligi»ni «ko'z-ko'z» qilish maqsadida asosiy e'tibor oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning son ko'rsatgichlariga qaratildi. Bu esa mutaxassislarning jahon talablaridan jiddiy ortda qolishiga, xalq xo'jaligi uchun keraksiz mutaxassislarning tayyorlanishiga, mablag'larning bexuda sarflanishiga, mutaxassislardan ishlab chiqarishda samarasiz foydalanishiga olib keldi.

Shu bilan birga, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'quv-tarbiyaviy ishlarni mafkuraviy andozalarga solish kuchaydi; mutaxassislik buyicha asosiy fanlarni o'qitishni takomillashtirish o'rniga barcha oliy o'quv yurtlarida. kommunisgik mafkurani shakllantiruvchi KPSS tarixi, marksizm-leninizm falsafasi, siyosiy iqtisod, ilmiy kommunizm, jamiyatshunoslik fanlarini o'qitishni yanada yaxshilash tug'risida tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. O'quv jarayoni uchun muhim bo'lgan demokratik va ijodiy jihatlar inkor etildi. Natijada oliy ta'lim tizimida ma'suliyatli, tashabussiz, lokayd, «o'rtamiyona» mutaxassislar tayyorlash mexanizmi yuzaga keldi.

Respublikada urushdan keyingi yillarda fan yutuqlari avvalo O'zbekistan Fanlar akademiyasining olimlari, ilmiy xodimlari faoliyati tufayli qo'lga kiritildi. Urush tugagan yili akademiya tarkibida geologiya, fizika-texnika, kimyo, tuproqshunoslik, matematika va mexanika, energetika, iktisodiyot, tarix va arxeologiya, sharqshunoslik, til va adabiyot institutlari hamda boshqa muassasalar bor edi. O'sha davrda akademiya olimlarining kuch-quvvati xalq xo'jaligini tiklash, respublika ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirish, madaniy kurilish sohasida olimlar oshirishga qaratildi. Urushdan keyingi dastlabki O'zbekiston fanlar

akademiyasining yangi institutlari: botanika, zoologiya va parazitologiya institutlari, O'zbekiston ishlab chiqarish kuchlarini laboratoriyalar tashkil qilindi.

Akademiya tashkilotlarining moddiy-texnik mustaxkamlandi. Yangi sohalar buyicha mutaxassislar soni ko'paydi. shunga muvofiq ravishda ilmiy jamoalarning tadqiqotchilik faoliyati istikboli, ilmiy tadqiqotlarning yunalishlari kengaydi. 50-60 — yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibida yadro fizikasi, o'simlik moddalari kimyosi, kibernetika, seysmologiya, elektronika, biokimyo, fiziologiya va biofizika institutlari tashkil qilindi.

Akademiya olimlari fizika-matematika, mexanika, boshqaruv jarayonlari va informatika, kimyo-texnologiya, tuproqshunoslik, biologiya, ijtimoiy-gumanitar fan sohalarida katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Bu yutuqlar akademiya laboratoriyalari va institutlari olimlarining ko'plab avlodlari fidokorona va yukori kasbiy darajada olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasi bo'ldi. Aynan ularning mexnati tufayli keng e'tirof etilgan ilmiy maktablar vujudga keldi, yangi ilmiy yunalishlar rivoj topdi., ilmiy xodimlar tayyorlandi., ilmiy ishlovlar amaliyotga tadbiq etildi. O'zbek olimlari: geologlar Habib Abdullayev, Ibrohim Hamroboyev, biokimyogar Yolkin Turaqulov, kimyogarlar Obid Sodikov, N. Nabiyev, Sobir Yunusov, fizik va matematiklar T. N. Qori-Niyoziy, Toshmuhammad Sarimsaqov, Ubay Oripov, texnika fanlari sohasidagi olimlar Muxammad O'rozboyev, Vosit Qobulov, faylasuf Ibroxim Muminov, tarixchi Yaxyo G'ulomov, pedagog Siddih Rajabov, Iminjon Qodirov va boshqa ko'plab olimlarning nomlari O'zbekistondan tashqarida ham shuxrat qozondi.

Xususan, Siddiq Rajabovning respublikada pedagogika fanini rivojlantirishdagi xizmati katta bo'ldi. U pedagogika fanining eng muxim muammolari ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib respublikamiz xalq maorifining tarqiyoti va bu taraqqiyotning obyektiv qonuniyatlari, xalq maorifining rivojlanish istiqbollari, pedagogika fani metodologiyasi, yoshlar tarbiyasi va xalq pedagogikasiga doir o'nlab asarlar yaratdi.

Siddik Rajabov o'zining butun xayoti va faoliyatini pedagogika fani va ravnaqi uchun bag'ishlandi. U 1937 yili aspiranturani tamomlagach, o'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish institutiga ilmiy xodim va Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika instituta pedagogika kafedrasiga o'qituvchi qilib tayinlandi. Yosh olim ilmiy tadqiqot ishini pedagogik faoliyati bilan qushib olib bordi. Shu yillarda S. Rajabov kechki pedagogika instituti direktorining o'quv ishlari buyicha o'rinbosari lavozimida ham yosh o'qituvchi sifatida mutaxassilar tayyorlashda katta faoliyat ko'rsatdi, o'z ishini puxta bilgan rahbar, yetuk ilmiy xodim va mahoratli o'qituvchi sifatida elga tanildi. Yosh olim matbuotda tez-tez ilmiy, pedagogik, publisistik maqolalari bilan chiqa boshladi. Jumladan, urushgacha bo'lgan davrda S. Rajabovning «Oliy pedagogika o'quv yurtlarining ish sifatini yukori ko'taraylik», «Oliy o'quv yurtlari xayotida muxim davr», «Maktabdan tashkari tarbiyaviy ishlar», «Yan Amos Komenskiyning pedagogik qarashlari», «Imtixonlarning yuqori sifati uchun kurashaylik», kabi ishlari matbuotda e'lon qilindi. Shu yillarda u «XIX asr va XX asr boshlarida Buxoroda maktab va maorif taraqqiyoti ocherki» asarini yozib tamomladi. 1941 yilda ana shu mavzuda nomzodlik dissertasiyasini respublikasida birinchi bo'lib muvaffakiyatli

ximoya qildi. Bu orada u Respublika matbuoti va rahbari idoralarida samarali mehnat qildi.

S.Rajabov 1947 yilda Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika instituti pedagogika kafedrasiga mudir qilib tayinlangandan keyin uning o'z ilmiy pedagogik faoliyatini yanada rivojlantirishga keng imkoniyat yaratildi.

1958 yilda Siddik Rajabovning ilmiy faoliyatida unitilmas voqea sodir bo'ldi. 1961 yilda Siddiq Rajabov O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutiga direktor qilib tayinlandi. Olim mazkur institutga olti yil rahbarlik qildi. Institutni yuqori malakali mutaxassis xodimlar bilan ta'minlash, olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini xayotga maktab amaliyotiga yaqinlashtirish, pedagogik tadqiqotlarni respublika buyicha muvofiqlashtirish ishlariga boshchilik qildi hamda tadqiqot natijalarini o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish buyicha bir qator tadbirlarni amalga oshirdi.

Institutda yangi sektorlar tuzildi. Sektorlar xuzurida laboratoriyalar tashkil etildi. Sektor va laboratoriyalarga ilmiy tadqiqot ishlari yuzasidan tajriba va yetarli malakaga ega bo'lgan xodimlar rahbarlik qila boshladilar.

Bu davrda olim pedagogika fanini chin qalbdan sevgan mutaxassislarni, ko'pgina iqtidorli yoshlarni o'z atrofiga chorladi. Yosh olimlarga hamisha yordam berib keldi. Yoshlarni xar tomonlama qullab-quvvatlash uning xayotiy e'tikodi va turmushining mazmuniga aylanib ketdi. Shu bois 10 dan ortik fan doktorlari, 200 ga yaqin fan nomzodlari bevosita Siddik Rajabovning ilmiy maslahatchiligi va ilmiy rahbarligi asosida dissertasiyalarini muvaffakiyatli himoya qildilar.

1964 yilda S. Rajabovning ilmiy pedagogik faoliyatiga yuksak baholandi, unga «Respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi» unvoni berildi.

S.Rajabov 1966-1990 yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti, «Umumiy pedagogika» kafedrasining katta jamoasiga boshchilik qildi. U kafedra a'zolarining har biriga murabbiy, ustoz edi. Bugina emas, olim o'qituvchi mutaxassislar tayyorlash sohasida fidokorona mehnat qilayotgan hamkasabalari-institutning yetuk olimlari bilan bir qatorda o'rta va oliy ta'limga aloqador juda muammolarni hal qilishda hormay-tolmay faoliyat ko'rsatdi.

Professor S.Rajabovning Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutidagi chorak asrlik uzluqsiz ilmiy-pedagogik faoliyati alohida muhim davr bo'ldi.

U safdoshlari, kasbdoshlari va o'zi mudirlik qilib turgan kafedra a'zolari, shogirdlari bilan hamkorlikda katta ilmiy va tashkiliy-pedagogik muammolarni hal qilishga alohida e'tibor berdi. Birinchi navbatda kafedrani yuqori malakali ilmiy-pedagogik xodimlar bilan ta'minlash, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar sifati va samaradorlini oshirish, qolaversa, kafedra jamoasining ilmiy va metodik saviyasini yuqori ko'tarish kabi masalalar hal qilina bordi. S.Rajabov kafedra yig'ilishlari, nazariy seminarlar, metodbirlashma yig'inlari suhbatlarda ana shu masalalarga alohida to'xtalardi.

Respublikamiz fanini rivojlantirishga bekiyos katta xissa qo'shgan olimlarimizdan yana biri akademik Xabib Abdullayevdir.

Uning geologiya, jumladan, bu fanning petrologiya-metallogenik tarmog'i sohasidagi tadqiqotlari O'zbekistondagina emas, chet mamlakatlarda ham e'tirof etildi. X.Abdullayev 1956-1962 yillarda O'zbekiston fanlar akademiyasining prezidenti lavozimida xizmat qilish bilan birga, yirik ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Yuqori malakali ilmiy xodimlar tayyorlashga aloxida e'tibor berdi. Uning tashabbusi va jonkuyarligi bilan tayyorlangan yuzlab fan nomzodlari va doktorlari fanning yangi yunalishlariga asos soldilar.

Urushdan keyingi yillarda mamlakatda keng ildiz otgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi O'zbekiston faniga, uning milliy ilmiy kadrlar tayyorlash ishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Respublikada o'zbeklar soni ruslarga nisbatan olti baravar ko'p bo'lishiga karamay, 1963 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, ilmiy xodimlar tarkibida o'zbeklar (5,5 mingdan sal ortiq) va ruslar (5,5 mingdan sal kam) nisbati deyarli teng edi. O'zbeklardan 97, ruslardan 96 nafar fan doktorlari ish olib boradi.

Yuqori malakali milliy ilmiy kadrlarni ko'paytirishga xarakat qilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasi rahbarlari millatchilikda ayblandilar. Markazning o'zbekistondagi rus rahbar kadrlari Fanlar akademiyasi prezidenta H.Abdullevning o'zbeklardan fan nomzodlari, doktorlarini ko'paytirishga qaratilgan to'g'ri faoliyatini asossiz keskin tankid qildilar. O'zbekiston Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalari olimlari totalitar targ'ibot sunn'iy ravishda keskinlashtirgan sharoitlarda ishlashga majbur bo'ldilar. Shunga qaramay, olimlar o'z bilim va iktidorlarini o'zbekiston iktisodiyoti, madaniyati va ilmiy-texnik qudratini oshirish ishiga baxshida etdilar.

Urushdan keyingi yillarda respublika oliy o'quv yurtlari Markaz ko'rsatmasi, dasturlari asosida o'quv-tarbiya ishlarini olib bordi. Bu davrda oliy maktabda mutaxassis kadrlar tayyorlash soni jihatdan o'sdi, lekin ularning sifati talab darajasida bo'lmay keldi.

Talabalar doirasi ancha kengaydi. 1960-61 o'quv yilida O'zbekiston oliy maktablarida 100 ming nafar talaba ta'lim olgan bo'lsa, 1970-71 o'quv yilida ularning soni 230 mingga yetdi. Bu davr ichida oliy maktab respublika xalq xujaligi uchun yetkazib bergan Diplomli mutaxassislar soni 2,5 baravar ortgan.

Oliy o'quv yurtlari soni 1940 ychidagi 30 tadan 1970 yilda 38 taga ko'paydi. Xalq xo'jaligining rivojlanishi yangi oliy o'quv yurtlarini ochishni talab qildi. Urushdan keyingi yillarda Toshkent avtomobil yullari instituti, Buxoro ozik-orqat va yengil sanoat texnologiya instituti, Fargona politexnika instituti va boshqa oliy o'quv yurtlari malakali kadrlarga bo'lgan talabni qondirdi. Maorif, sanoat, kurilish, transport, iqtisodiyot, qishloq xujaligi, sog'liqni saqlash, san'at va boshqa sohalarda mutaxassis kadrlar tayyorlandi.

XX asrning 80-yillarida, jamiyatimizning barcha bo'g'inlarida kayta qurish keng quloq yezdi. Uning mazmunida xayotni demokratlashtirish, tezkor iktisodiy islohot, ma'naviy poklanish milliy qadriyatlar va axloqiy g'oyalarning tiklanish muammolarini hal etish zaruriyati yuzaga keldi. Qayta qurishning xal qiluvchi bosqichida jamiyat uchun chetdan tomoshabin emas, balki mamlakat iktisodiy, siyosiy, madaniy xayoti rivojiga javobgar, ma'suliyatli, sog'lom fikrli g'oyaviy-siyosiy dunyokarashi shakllangan shaxs zarur edi.

Shuni hayd etish zarurki, o'zbek maktablari to'ntarishdan so'ng milliy zamindan batamom uzilib qoldi. Qarsakbozlik billan o'qish-o'qitishda Ovrupo , xususan urus tizimini qabul qildik. Ammo bizning avlodlarimiz ongiga, qoniga bu zurma-zurakilik singmadi. Buni bugungi xayot, turmush tarzi ko'rsatib turibdi. Eng achinarli hol shu ediki, ayniqsa, o'tgan yetmish yil ichida Mustabid tuzimning «Yangi» davr «bilimdon» va «zukko» tashkilotchi rahbarlari ming yillik yozuvimizni ham qayta-qayta almashtirib, kimlargadir yaxshi ko'rinmoqchi yoxud o'zini dono xisoblab shuxrat qozonmoqchi bo'ldilarki, natijada maktablarimiz o'quv-tarbiyaviy ishlarda ham xayotiy asoslar va xalq ruxiyatidan deyarli ajralib qoldi, avlod-ajdodlarimizning dunyoviy-xayotiy, axloqiy, ma'naviy, ruxiy xazinasini bo'lgan kitoblar esa umuman o'qitilmay, o'rgatilmay tashlab kuyildi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Jadidchilik harakatining kelib chiqish omillari nimalardan iborat?
 2. Jadidchilik qanday g'oyalarni ilgari surgan?
 3. Turkistonning rivojlanishida jadidchilik harakati qanday ahamiyat kasb etadi?
 4. Mahmudxo'ja Behbudiy ta'lim tizimini rivojlantirishga qanday hissa qo'shdi?
 5. Munavvar Qori qanday g'oyalar bilan maydonga chiqdi?
 6. Abdurauf Fitrat Turkiston o'lkasining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy rivojlanishga qanday hissa qo'shdi?
- O'zbekistonda 1917-1924 yillardagi madaniy-manaviy muhit xususiyatlari nimalardan iborat bo'lgan?
2. Milliy ziyolilarning maktab maorif tizimini isloh qilishdagi sayi-xarakatlarini sharxlab bering?
 3. Mazkur davrda mutaxassis kadrlar tayyorlash ta'limi jarayonidagi ziddiyatli muammolar haqida fikringiz.
 4. 1917-1924 yillarda yaratilgan darsliklar xaqida qo'llanmalarning mohiyatini tushuntiring.
 5. Milliy ziyolilarning maktab maorif tizimini islox qilishdagi sayi-harakatlari sharxlab bering?
 6. Mazkur davrda mutaxassis kadrlar tayyorlash ta'limi jarayonidagi ziddiyatli muammolar xaqida fikringiz.
 7. Dastlabki oliy o'quv yurtlari hamda ta'lim tizimi tarmoqlarini sharxlab bering.
 8. Mazkur davrda o'tkazilgan yozuv islohotlariga Sizning munosabatingiz.
 9. Ikkinchi jahon urushi davrida o'zbekistonda xalq ta'limi va mutaxassis kadrlar tayyorlash jarayoni qay axvolda edi?
 10. O'zbekistonda qachon majburiy yetti yillik ta'lim tuliq amalga oshirildi?
 11. Sakkiz yillik majburiy ta'limga qachon o'tildi?
 12. Fan, madaniyat, maorif sohalarida O'zbekistan Fanlar Akademiyasi olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar xaqida fikr bildiring.
 13. Ikkinchi jahon urushidan so'ng oliy maktablarda milliy kadrlar tayyorlash talab darajasining xolati xaqida fikr bildiring.
 14. XX asrning 70 - yillaridagi xalq ta'lim tizimini sharxlab bering.
 15. Siddik Rajabov faoliyatiga tavsif bering.

16. 80-yillar Respublikamiz xalq ta'limi oldida turgan asosiy masalalar va pedagogik fikrlar.

11-Mavzu: Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni

REJA:

1. O'qituvchilik kasbining jamiyatda tutgan o'rni
2. Pedagogik mahorat tushunchasi
3. Pedagogik ta'sir vositalari haqida umumiy tushuncha.

Inson paydo bo'libdiki, tarbiya jarayoni mavjud, tarbiya paydo bo'lgan vaqtdan beri pedagogik faoliyat uzluksiz davom etib kelmoqda. O'qituvchilik, tarbiyachilik kasbi barcha ijtimoiy tuzumlarda sharaflilik hamda o'ta mas'uliyatli, qiyin va murakkab kasb hisoblangan.

Mustaqil O'zbekistonimizda uzluksiz ta'lim tizimining isloh qilinishi, ya'ni ta'lim standartlari asosida ta'lim va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatiga uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni bosqichma-bosqich muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan o'qituvchi faoliyatiga, uning kasbiy nufuzini oshirishga bog'liqdir. Shunday ekan, sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish uzluksiz ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. O'qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig'ini bajaradi. Shunday ekan, har tomonlama yetuk mutaxassislarini tayyorlashda o'qituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik talablarga javob berishi lozim. O'qituvchi mustaqillik g'oyasiga e'tiqodli, har tomonlama rivojlangan, ilmiy tafakkuri, kasbiga tegishli ma'lumoti bor ya'ni o'z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim va malakalarni egallagan bo'lishi hamda turli pedagogik vaziyatlarni tezda aniqlay bilishi, o'rganishi va baholay olishi zarur.

Bugun pedagogning ma'naviyati, mafkuraviy e'tiqodi va o'quv jarayonini yaxshi bilishi katta ahamiyatga ega.

Birinchidan, pedagog jamiyatning fuqarosi sifatida o'z mavqei va faol o'rnini o'quvchilarga namoyish eta olishi lozim. Xususan, uning jamiyat va o'z jamoasidagi o'rni, tanlagan kasbi, o'qitayotgan predmeti bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, talab va qoidalarga amal qilishi, me'yor va qonunlarni hurmat qilishi lozim.

Ikkinchidan, pedagogning e'tiqodi va bilimdonligi uning yangi bilimlar, o'zi tanlagan sohasidagi yangiliklarga nisbatan qiziqishida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, e'tiqodli va bilimdon pedagog o'ziga xos fikrlash tarzi bilan ajralib tura olishi shart. Chunki, yoshlar Shunday noyob, qaytarilmas, andozasiz fikrlash sharoitidagina mustaqil fikrlashga o'rganadilar va fanni boshqa fanlardan ajrata oladilar.

Bugungi pedagogdan yangicha fikrlash, yangicha munosabatlar talab etilar ekan. Uning bilimdonligi darajasi masalasi ham o'ta muhim.

Bular quyidagilar:

- Ijtimoiy bilimdonlik

Dars mobaynida sinf bilan samarali o'zaro muomala shaklini tashkil eta olish, yoshlar bilan til toptirish va sog'lom ma'naviy muhitni hosil qila olish qobiliyati.

- Uslubiy bilimdonlik-

Barcha bilimlarini, ko'rgan-kechirganlarni yoshlarga tushunarli, ravon tilda yetkaza olishi, ta'lim texnologiyasi va metodlaridan boxabarlik qobiliyati.

- Kasbiy bilimdonlik

O'z fanini va predmeti sohasi bo'yicha chuqur va har tomonlama mukammal bilimlariga ega bo'la olishi, o'z ustida ishlash qobiliyati.

Amaliyotda eng obro'li, bilimdon pedagoglar birinchi navbatda insoniy bilimdonlik sohiblari bo'lishadi va shundaylarni o'quvchilar yaxshi qabul qilishadi. Chunki zamonaviy o'quvchi ko'plab ma'lumotlarga ega, uning psixologiyasi, talab-takliflarini aniq bilib til topisha olgan shaxsgina pedagogik jarayonda katta yutuqlarga erishadi.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy aytganidek, «Muallimning maqsadi mansab uchun kurash bo'lmasligi, bilmagan ilmlarini aytmasligi, o'zini ko'rsatish uchun dars bermasligi, ochko'zlik va johillik qilib, quruq gap sotmasliklari, g'avg'o ko'tarmasliklari lozim». U muallimlikni olijanob va faxrli kasb deb hisoblaydi. Shu sababdan bo'lsa kerak:

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas oning xaqqin ado ming ranj ila.

Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, o'z ishining natijasi bilan mo'jizalar yaratadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

O'qituvchining qobiliyatlari

Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat va zehn, ya'ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik hususiyat bo'lishi ham zarur.

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i lozim:

1. **Bilish qobiliyati.** - Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi, materialni ipidan ignasigacha biladi, unga nihoyatda qiziqadi, ilmiy tadqiqot ishlarini ham bajaradi.

2. **Tushuntira olish qobiliyati** - o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o'quvchilarda mustaqil ravishda to'g'ri fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyati. O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o'quvchilarga etkaza olishi lozim.

Qobiliyatli pedagog o`quvchilarning bilim va kamolot darajasini hisobga oladi, ularni nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini, nimani unutib qo`yganliklarini tasavvur etadi. Qobiliyatli, tajribali o`qituvchi o`zini o`quvchining o`rniga qo`ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo`lgan narsalarning o`quvchilarga tushunilishi qiyin va mavxum bo`lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning shaklini alohida rejalashtiradi.

3. **Kuzatuvchanlik qobiliyati.** - o`quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog`lik bo`lgan psixologik kuzatuvchanlik. Bunday o`qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo`lmagan tashqi belgilar asosida o`quvchining ruhiyatidagi ko`z ilg`amas o`zgarishlarni ham faxmlab oladi. O`quvchilar bunday o`qituvchi haqida: «Qaramayotganga o`xshaydiyu, hamma narsani ko`rib turadi!», «O`quvchining xafa bo`lganligini yoki dars tayyorlamayotganligini ko`zidan biladi!» - deydilar.

4. **Nutq qobiliyati**-nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o`z fikr va tuyg`ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati.

O`qituvchining nutqi darsda hamisha o`quvchilarga qaratilgan bo`ladi. O`qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o`quvchining javobini tahlil qilayotgan yoki qoralayotgan bo`lsa ham, uning nutqi hamisha o`zining ichki kuchi, ishonchi, o`zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi.

O`qituvchining bayoni o`quvchilar fikri va diqatini maksimal darajada faollashtirishga qaratiladi, savollar qo`yib, ularni asta-sekin to`g`ri javob berishga undaydi, o`quvchining diqqatini kuchaytiradi hamda fikrini faollashtiradi. («Mana bu yerga alohida e`tibor bering!», «o`ylab ko`ring!» kabi). Shuningdek, o`rinli qochiriq, hazil, yengilgina istehzo nutqni jonlantirib yuboradi va uni o`quvchilar tez o`zlashtiradilar.

O`qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuz jihatdan erkin, ifodali, emotsional bo`lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Ayrim o`quvchilar tez gapirishga, boshqalari sekin gapirishga moyil bo`ladilar. Biroq o`quvchilarning o`zlashtirishlari uchun o`rtacha, jonli nutq yaxshi natija berishini esdan chiqarmaslik lozim. Shoshqaloqlik materialni o`zlashtirishga halaqit beradi va bolalarni tez charchatib qo`yadi. Haddan tashqari sekin nutq lanjlik va zerikishga sabab bo`ladi. Haddan tashqari keskin va baqiroq nutq o`quvchilarning asabini buzadi, tez toliqtirib qo`yadi. O`qituvchining zaif ovozi yomon eshitiladi. Nihoyatda ko`p takrorlanadigan bir xildagi imo-ishoralar va harakatlar kishining g`ashini keltiradi.

5. **Tashkilotchilik qobiliyati**-birinchidan, o`quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan, o`z ishini uyushtirishni nazarda tutadi.

O`z ishini tashkil etish deganda ishni to`g`ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali o`qituvchilarda vaqtni o`ziga xos his etish-ishni vaqtga qarab to`g`ri taqsimlay olish, belgilangan muddatga ulgurish hususiyati hosil bo`ladi.

Dars davomida kutilmaganda ortiqcha vaqt sarflash hollari ba`zan uchrab turadi. Ammo tajribali o`qituvchi zarur hollarda darsning rejasini o`zgartira oladi.

**6. Obro` orttira olish qobiliyati**-o`quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta`sir ko`rsatish va shu asosda obro` qozona olishdir. Obro` faqat shu asosdagina emas, balki o`qituvchilarning fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va xokazolar asosida ham qozoniladi. Bu qobiliyat o`qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir yig`indisiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qat`iyligi, talabchanligi va xokazolarga), shuningdek, o`quvchilarga ta`lim hamda tarbiya berish mas`uliyatini his etishga, o`zining xaq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni o`quvchilarga etkaza olish kabilarga ham bog`liq.

O`quvchilar qo`pollik qilmaydigan, qo`rqitmaydigan, to`g`ri talab qo`ya oladigan o`qituvchini juda hurmat qiladilar. O`qituvchining bo`shanligi, laqmaligi, savotsizligi va irodasizligini yoqtirmaydilar.

7. To`g`ri muomala qila olish qobiliyati-bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o`zaro munosabatlar o`rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

**8. Kelajakni ko`ra bilish qobiliyati**-o`z harakatlarining oqibatini ko`ra bilishda, o`quvchining kelgusida qanday odam bo`lishini tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonch bilan bog`liqdir.

9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati - o`qituvchi uchun diqqatning barcha hususiyatlari-hajmi, kuchi, ko`chuvchanligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etgan bo`lishi muhimdir.

Diqqatni ayni bir vaqtda taqsimlash qobiliyati o`qituvchilik uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Qobiliyatli, tajribali o`qituvchi materialni bayon qilish mazmuni va shaklini, o`z fikrini (yoki o`quvchining fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o`quvchilarni ko`rib turadi, toliqish, e`tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, intizomsizlik hollarini e`tibordan qochirmaydi, nihoyat o`z xatti-harakatlarini ham kuzatib boradi. Tajribasiz o`qituvchi ko`pincha materialni bayon qilishga berilib ketib, o`quvchilarni e`tibordan chetda qoldiradi; bordiyu o`quvchilarini diqqat bilan kuzatishga harakat qilsa, fikrini jamlay olmaydi.

O`qituvchi yuqorida ko`rsatilgan qobiliyatlardan tashqarii bir qancha ijobiy sifatlarga - aniq maqsadni ko`zlash, qat`iylilik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi sifatlarga ham ega bo`lishi kerak.

O`qituvchining pedagogik mahorati

Pedagogik mahorat- bu o`quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo`naltirish, talabalarda (o`quvchilarda) dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo`lgan faoliyatga moyillik uyg`otishdir.

Pedagogik maqsadning o`ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya`ni pedagog faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog`liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo`naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta`minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o`tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro`yobga chiqaradi.

2. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liq. Bunda pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o'z faoliyati maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o'quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta'kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kelaveradi».

3. Pedagogik (ta'lim-tarbiya) jarayonida o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyatining mantiqini o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarining «o'sib», uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;
- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondoshishi;
- o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining alohida hususiyatlari, ro'y berayotgan voqealarni idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

2. Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. O'quvchilarga pedagogdan tashqarii, atrof muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari ijtimoiy hayot ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

O'quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o'zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

O'quvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi kerak.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo, ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kyechishi uning shaxsi, harakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda

bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali pedagog, uning xatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni o'qituvchi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni o'qituvchi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmashlik lozim.

Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- pedagog shaxsini insonparvarlik yo'nalishiga ega bo'lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo'nalishlari va ideallarining oliy maqsad-barkamol avlod tarbiyalab yetishtirishga yo'naltirilganligi;

- mutaxassislik fanlari, o'qitish metodikasi, pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimga ega bo'lish;

- pedagogik qobiliyatga ega bo'lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan o'qib olish);

- pedagogik texnikani egallash, ya'ni o'z-o'zini boshqara olish, o'zaro ta'sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash.


Pedagogik mahorat o'ziga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, maktab haqidagi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o'qituvchi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi.

Biroq, zamonaviy o'qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi-maxsus bilimlar va malakalar-bolalarni kuzatish, ularning o'sishdagi muhim narsalarni aniqlay olish, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli o'zaro ta'sirini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo'ladi.

Shunday qilib, pedagog-muallim o'z mahoratiga quyidagi bosqichlarda erishishi mumkin:

1. Pedagogika-psixologiya fanlarini chuqur o'rganish.
2. Maxsus fanlar, ularni o'qitilish metodikasini chuqur bilish.
3. Pedagogik amaliyotda faol igshtirok etish va uni samarali o'tkazish.
4. O'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish.
5. O'z ustida mustaqil ishlash, malaka oshirish kurslarida o'qib borish.

BO'LAJAK O'QITUVCHINING PROFESSIOGRAMMASI



Bo`lajak o`qituvchi uchun zarur bo`lgan malakalar

Amaliy-konstruktiv malakalar

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtira

O'quvchi shaxsini jamoa sharoitida
tarbiyalanishining individual rejasini

Har xil rolli o'yinlar orqali o'quvchilar tarbiyasini
muvaffaqiyatli amalga oshirish

Kommunikativ malakalar

O'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar va
jamoatchilik vakillari bilan munosabat va

O'quvchilar jamoasini, qiziqishlarini,
ichki munosabatlarini idora qila bilish


O'quvchilar fikrini tushunish va o'z
fikrini nutq, til vositalari orqali
tushuntira bilish



O'quvchilar bilan yaqin munosa-batda
bo'lish va ularda o'ziga nisbatan mehr-
ishonch, hurmat kabi xislatlarni uyg'ota

Amaliy malakalar

O'quvchilarning jamoatchilik
faoliyatini uyushtira bilish

O'quvchilarga berilgan jamoa
topshiriqlarining bajarilishini nazorat





Pedagogik mahorat tushunchasi

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, uning oldiga juda qisqa muddatda yangicha fikrlovchi, respublika ravnaqi, taraqqiyoti uchun ongli ravishda kurashuvchi yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasi ko'ndalang turdi. Natijada "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qonunlari qabul qilindi. Yetuk mutaxassis va yangicha fikrlovchi shaxslarni shakllantirish uchun chuqur bilimning o'zigina kifoya qilmasligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Barkamol avlod – O'zbekiston kelajagining poydevori" nomli nutqida quyidagicha o'z ifodasini topdi: "Bizga maktabni bitirganlar emas, maktab tarbiyasini ko'rganlar kerak". Bu bilan Prezident bilimlar yig'indisini egallashga emas, balki ularni egallab, turli kasb-hunarlar siri, mahoratini o'zlashtirishga xizmat etuvchi bilimlarni o'rganish lozimligini ko'rsatib berdi.

Savol tug'iladi: Pedagogik mahorat nima o'zi?

Pedagogik mahorat bu – fahm-farosat va chinakkam ilmiy bilimlarning, tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan obro'li rahbarlikning, o'quvchilar qalbining qandayligini his qilish mahorati (empatiya), ichki dunyosi, nozik va zaif bo'lgan bola shaxsiga mohirona, avaylab yondashish, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga boy bo'lgan qobiliyat majmuasidir.

Pedagogik mahoratning tuzilishi

Pedagogik mahorat quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. O'qituvchi faoliyatida insonparvarlikning ustunligi.
2. Pedagogik iste'dod, qobiliyat.
3. Pedagogik texnika (san'at).
4. O'qituvchining shaxsiy intilishi.

1. Pedagogik mahorat nazariyasi va metodikasining ishlab chiqilmaganligi shunga olib keladiki, pedagoglarning har biri o'z-o'zicha, paypaslab ijodiy izlanish olib boradi: bolalar bilan, pedagogik jamoa bilan qanday qilib yaqindan til topishish mumkin? Qanday qilib qisqa muddat ishida bolalar o'rtasidagi munosabatlarning haqqoniy manzarasiga erishmoq mumkin? degan savollarga javob izlaydi.

Bu savollarga beriladigan javoblar har bir mohir pedagogning faoliyati ochun zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, mazkur muammoni hal qilish pedagogdan odatdan tashqari kuch-g'ayrat, qat'iyat, tirishqoqlik, ijodiylikni, o'z faoliyatini to'g'ri baholay bilish, shuningdek, bolalar, tarbiyalanuvchilarga nisbatan insonparvarona munosabatda bo'la olishni talab etadi. Ibn Sino "Tadbiri manzil" asarida bola uchun o'qituvchi tanlayotganda uning to'g'ri so'z, halol, toza-ozoda va bolalarni sevuvchi kishi bo'lishiga e'tibor berish lozimligini ta'kidlaganida o'qituvchining insonparvarlik sifatini nazarda tutgan edi.

2. Har bir insonda u yoki bu kasbga qobiliyat mavjud bo'ladi. Ba'zi taniqli ruhshunoslarning fikricha (F.Gonobolin, N.Kuzmina), pedagoglik kasbi uchun quyidagi 6 xil qobiliyatlar muhim hisoblanadi;

1. O'rta tusha bilish.
2. Tashkilotchilik.
3. O'zini idora eta bilish.
4. Mo'ljallay olish, chamalay bilish.
5. Kuchlilik, zehnlilik.
6. Faoliyatga ijodiy yondashish.

Bularning barchasi tarbiyaviy maqsad mavjud bo'lgan, insonparvarlik nuqtai-nazaridan turib yondashilgan taqdirdagina pedagogik qobiliyat tarkibiga kirishi mumkin.

3. Pedagogik texnika – pedagogik mahoratning asosiy qismlaridan biri bo'lib, u o'qituvchidan o'quvchilar bilan muomala qilganda zarur so'z, gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, eng o'tkir va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda osoyishtalik va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini caqlab qolish imkonini beradi. Haqiqiy pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'qituvchining pedagogik texnika sohasidagi barcha malakalari bir paytda yaqqol ko'rinadi. Nutq, imo-ishora, mimika harakat bilan birga sodir bo'ladi.

Pedagogik texnika pedagogning individual psixik-fiziologik xususiyatlari asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika pedagogning jinsi, yoshi, mijozi, fe'l-atvori, anatomik-psixologik xususiyatlariga ham bog'liq bo'ladi.

Pedagogik texnika malakalarining shakllanish darajasi ma'lum darajada pedagogning umumiy tayyorgarlik darajasini, ya'ni shaxsning pedagogik imkoniyatlarini aks ettiradi. Pedagogning nutqi tartibsiz, qashshoq bo'lsa, o'zi jizzaki bo'lsa, didi past, madaniyatsiz bo'lsa, eng topib gapirgan to'g'ri so'zi ham tarbiyalanuvchilarga ta'sir etmaydi, balki teskari natijaga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ham, tarbiyachi avvalo o'zi tarbiyalangan, o'tirib-turish, suhbatlashish madaniyatini qon-qoniga singdirgan bo'lishi lozim.

Har yigitning aslin bilay desangiz

Ma'rakada o'tirib-turishin ko'ring. (Maxtumdul)

4. O'qituvchining shaxsiy intilishi, munosabati pedagogik mahorat tarkibiy qismlari orasida muhim o'rinni egallaydi. Uning bunday shaxsiy munosabati unda tegishli **bir qolipdagi fikrlar sistemasi** mavjudligi bilan izohlanadi, shu tufayli u ko'p hollarda deyarli avtomatik ravishda ta'sirlarga javob bera oladi. Chunonchi, o'quvchilar bilan albatta **xushmuomalada** bo'lish, **dilkashlik** o'quvchi shaxsiga **prinsipial yondashishning yuqori darajada** bo'lishi, o'zining birorta ham o'quvchisi **yomon emasligi**, buning ustiga **ishonchsiz** bo'lishi mumkin emasligiga ishonch kabilar.

Lekin bunday bir qolipdagi fikrlar salbiy rol o'ynashi ham mumkin. Masalan, hamkasbi o'quvchilar bilan haqiqatda noto'g'ri munosabatda bo'lganda unga qarshi turish o'rniga, uni himoya qila boshlaydi.

O'qituvchining xohish-istagi haqqoniylik va insonparvarlik xarakterida bo'lsagina bunday chekinishlarga yo'l qo'ymasligi mumkin bo'ladi.

Pedagogik faoliyat va mahorat

Pedagogik faoliyat - yoshlarni hayotga, mehnatga, Vatan mudofaasiga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat va jamiyat oldida javob beradigan, bolalarga

ta'lim-tarbiya berish ishi bilan shug'ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan kishilarning mehnat faoliyatidir.

Maktab o'qituvchilarining faoliyati respublikamizda buyuk davlat-jamiatni quruvchi va unda yashab mehnat qiluvchi yetuk, erkin fikrlovchi inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan. O'qituvchining barkamol avlodni tarbiyalash va unda yangi insonga xos sifatlarni tarkib toptirish vazifasi eng oliyjanob, yuksak va shu bilan birga eng sharaflari va murakkab vazifadir. Har bir tarbiyalanuvchi o'z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. Ularni o'qitish va tarbiyalashda ularning ana shu o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda murakkabdir. Bunga insonlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o'zida akz ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim.

O'qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning professiogrammasida o'z ifodasini topadi: 1) O'qituvchining shaxsiy xususiyatlari; 2) O'qituvchining pedagogik-psixologik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar; 3) Maxsus tayyorgarlikning hajmi va tarkibi; 4) Ixtisosga oid metodik tayyorgarlik mazmuni.

Pedagogik mahoratning asosiy poydevorini kasbga doir bilimlar tashkil etadi. Bunday bilimlar mazmuni esa o'qitilayotgan fan mazmuni, metodikasi, pedagogikasi va psixologiyasiga doir bilimlarni o'z ichiga oladi.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida (5-modda): **"Tegishli ma'lumot, kasb tayyorgarligi, boy va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega"**, deb ta'kidlangan.

"Ta'lim to'g'rida"gi Qonun talablarini bajarish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishni, demak, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahoratni shakllantirishni talab etadi.

Xorijiy pedagoglar pedagogik mahorat to'g'risida

"Tarbiya san'ati shunday xususiyatga egaki, - degan edi K.Ushinskiy, - deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba'zilar esa juda oson ish bo'lib tuyuladi - odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo'lsa, unga shunchalik tushunarli va oson bo'lib ko'rinadi. Deyarli buning uchun tug'ma qobiliyat va malaka, ya'ni ko'nikma kerak deb aytadilar: lekin juda kam odam sabr-toqat, tug'ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qiladi".

V.Suxomlinskiy, A.Makarenko, A.Disterverg, L.Tolstoylar ham insonga bilim, ko'nikma va malakalarni singdirishda pedagogik mahoratning roli buyuk ekanligini ta'kidlaganlar.

Masalan, L.Tolstoy haqiqiy o'qituvchi shaxsiga klassik tavsif berib, quyidagilarni yozgan edi: "Agar o'qituvchi faqat o'z ishiga havas qo'ygan bo'lsa, u yaxshi o'qituvchi bo'ladi. Agar o'qituvchiga faqat otasi, onasi kabi havas qo'ygan bo'lsa, u oldingi o'qituvchidan yaxshiroq bo'ladi. Bordi-yu, mujassamlashtirsa, u holda u mukammal o'qituvchi bo'ladi". Kasbiy tayyorgarlikning ahamiyatini yaxshi tushungan A.Disterverg esa: "O'zing bilmagan narsalarni birovlariga o'rgata olmaysan", - degan edi.

Pedagogik mahoratni shakllantirishda o'qish san'atining roli haqida Emil Tage shunday degan edi: "O'qish san'ati o'zganing ko'magi yordamida fikr yuritish san'atidir. O'qish o'zga bilan birgalikda fikrlash, o'zganing fikrini mulohaza qilib ko'rish, o'zimizning fikrlarimizni o'lchash va unga zid fikrlarni xayoldan o'tkazish demakdir".

Andrey Morua esa, A.Navoiy kabi, kasbni kamolga yetkazish haqida gapirib: "Agar inson biror kasbni mukammal egallasa, mehnat unga huzur bag'ishlaydi, baxt keltiradi" deb yozgan edi. Bu haqda A.Navoiy shunday yozgan edi:

Kamol et kasbkim olam uyidan,
Senga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o'tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Buyuk Sharq mutafakkirlari pedagogik mahorat haqida

Quyida biz buyuk sharq mutafakkirlarining pedagogik mahoratga doir ayrim fikrlarini keltiramiz.

Buyuk mutafakkir **Muhammad al-Xorazmiy** "**Al-jabr val muqobala**" nomli asarida pedagoglar faoliyatiga baho berib quyidagilarni yozgan edi: "*Ulardan biri o'zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi va o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi, tabiat sirlarini ochadi, yo'lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganini to'playdigan odam bo'lib, u o'zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishdan mag'rurlanmaydi*". Bu bilan olim pedagogning qiyin muammolarni oson qilib tushintira olish, ijodkorlik kabi mahoratlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Abu Nasr Farobiy o'zining "Baxt saodatga erishuv" nomli asarida ta'lim-tarbiya berish usulini ikki turga bo'ladi: rag'batlantirish va jazolash (majbur qilish). U mazkur usullarni izohlar ekan, o'qituvchining pedagogik mahoratiga ham to'xtalib o'tadi: "***Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo'lib, u tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi. Mana shundan ma'lum bo'ladiki, hukumat va muallim har ikkovi o'z yo'lida, bolalar yoki xalqqa tarbiya beruvchilar, ustod va muallimlardir, Ulardan biri bolalarga mehribonlik va yaxshi so'zlar bilan tarbiya bersa, ikkinchisi majburiy ravishda tarbiyalaydi***" (108-bet). Uningcha, pedagoglik kasbi bilan o'zida 12 tug'ma xislatni mujassamlashtirgan kishilar shug'ullanishi lozim:

1. Barcha organlari mukammal taraqqiy etgan;
2. Barcha masalani tez va to'g'ri tushuna oladigan;
3. Xotirasi kuchli bo'lgan;
4. Zehni o'tkir bo'lgan;
5. Nutqi ravon bo'lgan;
6. Bilish va o'qishga muhabbati kuchli bo'lgan;
7. Ko'zi to'q, pokiza bo'lgan;
8. Haqiqatparvar bo'lgan;
9. G'urur va vijdonli bo'lgan;
10. Pulni sevmaydigan;

11. Adolatli;

12. Qat'iyatli, qo'rqmas va jasur kishilar.

Shu bilan birga u "Ta'lim-tarbiya ahllari ham o'z bilimlarining darajasiga qarab" bir-birlaridan farq qilishlari, ortiq-kam bo'lishlari, ba'zi birlarida kashf, ixtiro quvvati bo'lmasligi, ba'zilarida esa bu quvvatning kamroq bo'lishini ta'kidlaydi (110-b). Farobiy shogirdga nisbatan o'ta qattiq yoki o'ta yumshoq munosabatda bo'lishning zararli ekanligini ham ta'kidlab o'tadi.

Buyuk mutafakkir **Abu Rayhon Beruniy** ta'lim va tarbiyaning tabiatga mosligi, ta'lim va tarbiyada mo'tadillik prinsiplarini asoslagan buyuk pedagogdir.

Beruniy insonni tabiatning bir qismi deb biladi. Tabiatni va jamiyat ilmini o'rganishda *"O'zimni tekshirib ko'rmaguncha ishonmayman"* degan shiorga amal qiladi. U mohir pedagog sifatida pedagogik mahorat masalasida o'zining qator tavsiyalarini ishlab chiqadi: *"O'qituvchini hamma narsaga o'rgatish" san'ati, tabiatga moslik, bolalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish kabilar shular jumlasidandir. Beruniy: "Maqsad vaqtни cho'zish emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik. Chunki doimo bir xil narsaga qaray berish mallollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan-fanga o'tib tursa, turli bog'larga yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi va o'quvchi "Har bir yangi narsada o'ziga yarasha lazzat bor"- deyilganidek, ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi"*, - deb yozgan edi.

Beruniy o'qitish jarayonida quruq yodlashni qoralaydi. U *"Tushunish yodlashdan yaxshiroq va afzaldir"... "Kuzatishning ko'pligi narsalarni yeslab qolish qobiliyatini yaratadi", deb uqtiradi. U o'zining "Osor al-boqiya" asarida "Butun kuchimni yigib, bor imkoniyatni ishga solib, goh eshitish, goh ko'rish va qiyos qilish orqali, bilimim yetganicha u narsani bayon etishga bel bog'ladim"*, deb yozar ekan, har bir pedagogning ham ana shunday sifatlarga ega bo'lishini orzu qiladi.

Buyuk mutafakkir **Abu Ali ibn Sino** o'zining *"Tadbiri manzil"*, *"Tib qonunlari"* kabi asarlarida pedagogik mahoratga doir o'z qarashlarini yozib qoldirgan. Masalan, u *"Tadbiri manzil"* asarida bolaga ta'lim berishni o'qituvchining pokiza, adolatli, farosatli, sog'lom, notiq va o'z kasbining ustasi bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. *"Tib qonunlari"* asarida esa, **o'qituvchining nutq gigiyenasiga doir maslahatlarini bergan: "Uzoq muddat davomida qattiq tovush bilan baqirish juda xavflidir. Chunki baqirish ko'p miqdorda havoni tashqariga chiqarishni talab qiladi (bularning har ikkisi ham) xavflidir". ("Ovozni yo'qotmaslik, nafas olish organini ishdan chiqarmaslik uchun, avvalo o'qishni past ovoz bilan, keyinchalik asta-sekin kuchaytirish lozim, lekin kuchli ovoz bilan o'qish ham uzoq davom etmasligi kerak" (316-B) .**

Yusuf Xos Hojib *"Qutadg'u bilig"* asarida o'g'il-qizga ta'lim-tarbiya beruvchining shaxsi haqida quyidagilarni yozadi:

Murabbiyni yaxshi kishilardan olgin,

O'g'il-qiz pok o'sadi (nomatlub ishlardan) forig' turadi.

O'g'il-qizga bilim va odob o'rgat,

Ikki olam uniki, uning manfaati yetarli bo'ladi.
O'g'ilga barcha san'at-hunarlarini tugal o'rgat,
Bu san'at-hunarlar bilan u mol-dunyo yig'a beradi (164-b).

Burhoniddin Zarnudjiy (1150 y) "**O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma**" asarida bilimlarni tez va puxta o'zlashtirish uslublarini ishlab chiqdi, uningcha: *"O'rganuvchilar zimmasida barcha fanlar orasidan eng muhimlarini tanlash vazifasi turadi. ... Bilimlarga bo'lgan qiziqish shuni talab etadiki, u o'qituvchisiga va o'rganayotgan faniga, kitobiga nisbatan to'la qanoatli bo'lsin, toki muvaffaqiyasizlikni o'zidan yiroqlashtirish, bilimning maxsus bo'limiga nisbatan ham shunday ish tutmoq kerak.*

Bilimlarni chuqur o'zlashtirishning 6 sharti mavjud: aql-farosat, kucnli istak, chidam, oziq-ovqat, o'qituvchi ta'limi va bilim olish uchun yetarli vaqt. Mashg'ulotlar davomida o'qituvchilar muallimdan "bir o'q-yoy" masofada o'tirishsin, shunda o'quvchining o'z o'qituvchisiga hurmati namoyon bo'ladi. ... O'qib-o'rganish uchun eng yaxshi vaqt - yoshlik davri, erta tong va qosh qoraygan payt. Bilim oluvchi ana shu vaqtni samarali tashkil etishga odatlantirilsin, bordiyu unga bir fan zerikarli bo'lsa, boshqasi bilan mashg'ul bo'lsin.

Pedagogik ta'sir vositalari haqida umumiy tushuncha.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish

Pedagogika o'z metodlarinilarini yo'q joydan yaratmaydi. U hayotdan kishilar xulq-atvorining real omillarini, bolalar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarini tanlab oladi, ulardan tarbiyaviy ishda pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari sifatida foydalanadi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasi bolalarning ijtimoiy-foydali faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishga xizmat qiladigan vositalar tizimidan iboratdir. Bu vazifalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, bolalarning xulq-atvorini rag'batlantiradi, qiyin va murakkab vazifalarni quvonch, ijodiy zavq-shavq manbaiga, har bir o'quvchining shaxsiy muddaosiga aylantiradi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari

Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari - **ishontirish, talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikridir.**

O'zaro hamkorlikda ta'sir ko'rsatishning natijasi ishontirishdir. U haqiqiy va soxta turlarga bo'linadi. M.: Kommunizmga ishonish.

Ishonch 3 tarkibiy qismdan iborat: 1. **Bilim**; 2. **Hissiyot**; 3. **Xulq-atvor**. U **tushunish - kechinma - qabul qilish** orqali amalga oshadi.

Ishontirish shakllari quyidagilar: **ma'ruza, bahs, munozara, suhbat, hikoya qilish, dalillash, ko'rsatish (namoyish qilish), shaxsiy namuna.**

Pedagogik talab - ta'lim-tarbiya jarayonida ko'p qo'llaniladigan usullardan biri bo'lib, u tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi shaxsiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli bo'lgan talab bilan jamoani tashkil etish metodi sifatidagi yagona pedagogik talablarni farqlay bilish lozim. Agar yagona pedagogik talablar bolalarning ijtimoiy foydali faoliyatini rag'batlantirish mazmunini, jamoani jipslashtirishda pedagoglar bilan bolalarning harakatlari birligiga erishish yo'llarini ta'minlasa, talab esa xulq-atvor va faoliyat normalarini, bolalarning xatti-harakatlari hamda ishlarida amalga oshirish usullaridan iboratdir.

Istiqbol - ta'sir ko'rsatishning juda ta'sirchan usuli bo'lib, u bolalarning xatti-harakatlarini ular oldiga maroqli, qiziqarli maqsadlar qoyish yo'li bilan ta'minlaydi, bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlari, qiziqish va muddaolariga aylanadi. Bu usul maktab o'quvchilarida shaxsning eng muhim fazilatlaridan biri bo'lgan maqsadga intiluvchanlikni shakllantirishga yordam beradi.

Rag'batlantirish va jazolash - tarbiyaning eng an'anaviy usuli bo'lib, tarbiyalanuvchilar xulq-atvoriga tuzatish kiritishni, ya'ni foydali xatti-harakatlarni qo'shimcha rag'batlantirishni va tarbiyalanuvchilarning nomaqbul xatti-harakatlarini to'xtatishni ta'minlaydi, bunda ularning huquq, burchlarini kengaytirish yoki cheklash, ularga axloqiy ta'sir ko'rsatish yo'lidan foydalaniladi.

Rag'batlantirish va jazolash metodi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi sababli uni qo'llashda juda ehtiyot bo'lish lozim.

Jamoatchilik fikri - ta'sir ko'rsatishning qudratli usuli bo'lib, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini har tomonlama va muntazam rag'batlantirib borishni ta'minlaydi, jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ancha to'liq amalga oshiradi. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullaridan samarali foydalanishning zarur sharti pedagogikaning tarbiyalanuvchilarga bo'lgan munosabatlarining chinakkam insonparvarligidir.

Pedagogik ta'sirning ta'lim-tarbiyadagi o'rni

Respublikamiz istiqbolga erishgan hozirgi davrda shaxsga chuqur, asosli va umumiy talablar qo'iladi, lekin ikkinchi tomondan, shaxsga katta hurmat ko'rsatiladi. Bu shaxsga bo'lgan talablarni va unga bo'lgan izzat-hurmatni birga qo'shish - ikki xil zarur shart bo'lib, pedagogning bolalarga bo'lgan munosabatlarining chinakkam insonparvarligidir. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari o'z tarbiyalanuvchilari taqdiriga beparvo bo'lgan kishilar qo'lida sof kasb-korlik vositalari emas, balki insonlar orasidagi jonli munosabatlar majmuidir.

Umuman, pedagogik ta'sir ko'rsatish usullarini mukammal egallamasdan va undan mohirona foydalanmasdan turib ta'lim-tarbiya sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishib bo'lmaydi.

Ijtimoiy ruhiyat nazariyasida va pedagogik amaliyotda o'zaro fikr almashishda ta'sir ko'rsatish ikki usulda olib boriladi: ishontirish va ta'sir etish. Rus pedagogi Uspenskiy "Odamni tarbiyalashning eng asosiy yo'li ishontirishdir, odamning e'tiqodiga esa faqat ishontirish bilan ta'sir qilish mumkin", degan edi. O'qituvchi faoliyati o'z o'quvchilarini ishontirish va ta'sir etishni talab qiladi. Pedagogning barcha ta'sirlari: tarbiyalanuvchilarning munosabatlari, fikrlari, his-tuyg'ulari, harakatlarini o'zgartirishga va mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'lib, u muhit va tabiatning hamkorligiga ta'sirlanadi. O'zaro hamkorlikda ta'sir

ko'rsatishning natijasi ishonchdir. Ishonch asosida o'qituvchining bilimlar tizimi, dunyoqarashlari, munosabatlari va xulq-atvori shakllanadi.

Ishonch – o'zaro hamkorlikdagi ta'sir etishning natijasi ekanligini ko'ramiz. Ishonch ikki xil, ya'ni haqiqiy va soxta turlarga bo'linadi. Haqiqiy ishonch real borliq hayot talablariga mos bo'lib, u insonni qadrli, obro'li qiladi. "Bolalikka buyuk hurmat-ehtirom bilan qarash lozim", degan Iuvenal (123-b). Inson o'z ishonchini himoya qilish uchun o'limga ham boradi. Soxta ishonch o'zi va birovlarining salbiy tajribasi, qarashlari asosida hosil bo'ladi. O'quvchilardagi soxta ishonchni o'zgartirish uchun o'qituvchi ko'p kuch sarflaydi. U uch yo'nalishda olib boriladi: sinf jamoasida sog'lom ijtimoiy fikrni shakllantirish, qimmatli maxsus individual tajribani yaratish, noto'g'ri ishonchdagi qarash, bilim, tasavvur, tushunchalarni bartaraf etish.

Ishonch odamlarning dil rishtalarini bog'lovchi katta kuch. Buning uchun odam boshqalarga ishonmog'i, ixlos qilmog'i kerak. Halollik, adolat sof vijdonlilik, poklik, so'z va ish birligi ishonchning mezonlaridir. Ikkiyuzlamachilarga, firibgarlarga, munofiqlarga hyech kim ishonmaydi.

Insonda ishonch uchta tarkibiy qismdan tarkib topadi: **bilim - hissiyot - xulq-atvor**. Ishonch quyidagi formula: **tushunish - kechinmalar - o'ziga qabul qilish - bajarish** (o'z faoliyati va atrofida tajribasi) asosida amalga oshiriladi.

Ishontirish yordamida yangi qarashlar, munosabatlar shakllanadi yoki o'zgaradi.

Ishontirish shakllari tubandagilar: munozara, bahs, suhbat, hikoya qilish va namuna.

Ishontirish hamkorlikda ta'sir ko'rsatishda maksimum ta'sirli bo'lishi uchun quyidagi pedagogik talablarga javob berishi kerak.

- ishontirish mazmuni, shakli o'quvchining rivojlanish darajasiga mos bo'lishi (kichik o'quvchilarda ertak, fantastik hikoyalar va boshqa);

- ishontirishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish;

- ishontirish umumlashgan, konkret asoslarga, misollarga, boshlang'ich sinflarda ovozli materiallarga tayanishi;

- ishontirishda o'qituvchi o'zi xabar qilayotgan narsaga o'zi chuqur ishonishi va h.k.

Ishontirishning o'zaro hamkorlikdagi ta'sir ko'rsatish samarasi quyidagi shartlarda yuz beradi:

- o'zaro hamkorlikda ta'sirning kuchi ishontiruvchining obro'siga va voqyeaning mazmuniga bog'liq (o'quvchi o'qituvchiga qanchalik ijobiy munosabatda bo'lsa, shunchalik unga tez ishonadi);

- ishontirishda o'quvchining individual ruhiy holatini hisobga olish;

- ishontirishda ishontiruvchining intellektual hissiy holati bilan ishonuvchining holati mos bo'lishi kerak. Masalan, bola haddan tashqari hayajonlanganda noxush his-tuyg'ular unda hukmronlik qilganda uning xulqidagi kamchiliklarni ko'rsatish orqali ta'sir ko'rsatish samara bermaydi.

Ishontirish metodi ta'sirli bo'ladi qaysiki, fikr, hissiyot va iroda bir butun holda muvofiqlashadi. Ishontirishning samarasi o'qituvchining so'z va ish harakat birligiga ham bog'liq.

Ta'lim va tarbiyada o'qituvchining ishontirishi haqida Ibn Sinoning quyidagi ibratli so'zlari qimmatlidir: "Har bir so'z harakat va mimika bilan tasdiqlanishi, bolalarda hissiyot uyg'otadigan bo'lishi zarur".

Pedagogik ta'sir ko'rsatishda ishontirish metodi bilan bir qatorda ta'sir ko'rsatish metodi ham qo'llaniladi. Uzoq yillar pedagogik jarayonda ta'sir etish tan olinmas edi. Biz xohlasak, xohlamasak ta'sir ko'rsatish elementlari hayotda o'zaro hamkorlikda muhim rol o'ynaydi. So'z yordamida biz o'quvchilarda ziyraklik yoki qo'rquvni, o'ziga ishonch yoki ishonchsizlikni, zerikish, ishonch yoki shubha singarilarni hosil qilamiz.

O'quvchilarga ta'sir qilish so'zning fandagi ma'nosiga qarab emas, so'z va nutq intonasiyasi, aniqligini ifodalovchi hamda ularni mustahkamlovchi imo-ishoralar – yuz, qo'l harakatlari bilan bevosita hissiyotga ta'sir etadi. Bu haqda Makarenko: "... Yuz harakatlarini yaxshi egallamagan, o'z yuzida zarur ma'nolarni bera bilmaydigan yoki o'z kayfiyatini ushlab turolmaydigan kishi yaxshi tarbiyachi bo'lishi mumkin emas", - deb o'rinli ta'kidlagan.

Suxomlinskiy so'zning ta'siri haqida: O'qituvchining so'zi - tarbiyalanuvchining qalbiga ta'sir o'tkazadigan yagona so'z. Tarbiyachilik san'ati - avvalo, gapirish, inson yuragiga murojaat qila olish san'atidir. Men shunga astoydil ishonamanki, ko'pincha katta janjal bilan tugaydigan, maktabda tez-tez sodir bo'lib turadigan mojarolar – o'qituvchilarning o'quvchilar bilan gaplashishni bilmasliklari oqibatidir", - degan fikrlari qimmatlidir.

Pedagogik ta'sirning samarali bo'lish shartlaridan biri tubandagilardir: o'quv materialining mazmuni: ta'sir ko'rsatishda o'qituvchining ta'sir ko'rsatishga bo'lgan munosabati; ta'sirning o'quvchi yosh va individual sifatlariga va ta'sir ko'rsatishdagi holatiga bog'liqligi; o'qituvchining ta'sir ko'rsatish texnikasiga; ta'sir ko'rsatishning asoslangan sifatiga va amalda qo'llash uchun yaratilgan sharoitga va boshqalarga bog'liq.

Ta'sir ko'rsatish turlari

Ta'sir ko'rsatish ko'pincha quyidagi asosga ko'ra klassifikatsiya qilinadi, ular 5 ta turda olib boriladi:

1. **Harakat manbaiga** asoslanib ta'sir ko'rsatish:

a) **boshqa kishi** orqali ta'sir ko'rsatish;

b) **o'ziga-o'zi** ta'sir qilish - ta'sir etish obyekti bilan subyekti mos tushadi.

2. Subektning holatiga asoslanib ta'sir ko'rsatish:

a) **uyg'oq holda** ta'sir ko'rsatish;

b) **uxlagan holda** ta'sir ko'rsatish;

c) **gipoteza holida** ta'sir ko'rsatish (faraziy, taxminiy).

3. Ta'sir ko'rsatuvchining bor yoki yo'qligi, ta'sir ko'rsatish maqsadiga qarab, ongli ravishda, zo'r berish orqali amalga oshiriladi:

a) **oldindan** mo'ljallab ta'sir ko'rsatish;

b) **mo'ljallamaSdan** ta'sir ko'rsatish. Mo'ljallangan ta'sir ko'rsatishda o'qituvchi oldiga qo'yilgan maqsad asosida ruhiy ta'sir ko'rsatishni ongli tashkil etib, o'z oldiga qo'ygan natijaga erishadi. Masalan, o'qituvchi yaxshi o'qigan o'quvchining o'qishdagi ijobiy tomonlarini o'quvchilar oldida maqtaydi va unga kuchli ta'sir etadi. Mo'ljallanmaganda ta'sir ko'rsatuvchi o'z oldiga maqsad qo'ymaydi. Ba'zan o'qituvchi o'zi tushunib yetmay, odatdagidan murakkab bog'lanishda bir o'quvchiga murojaat qilib unga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, sen hamma vaqt shundayсан. Senga biror ishni topshirsam, baribir sen uni uddalay olmaysan, kabi.

c) **o'ziga-o'zi** ta'sir etish ham mo'ljallangan va mo'ljallanmagan. Inson ongli ravishda o'zidagi salbiy sifatlarni yo'qotishga intiladi. Mo'ljallanmaganda esa ongsiz, erkin, o'z xohishicha amalga oshiradi.

4. Ta'sir etish natijasiga qarab ikkiga bo'linadi:

a) **ijobiy**; b) **salbiy**. Ijobiy ta'sirda ijobiy ruhiy sifatlari shakllanadi (odat, qiziqishlar, munosabatlar). Salbiy ta'sir ko'rsatishda salbiy sifatlari shakllanadi. Masalan, tahqirlash, ma'naviyasizlik va h.k.

5. Ta'sir etish mazmuniga qarab farqlanadi:

a) **ochiqchasiga** ta'sir ko'rsatish. Ta'sir ko'rsatishni to'g'ridan-to'g'ri, ochiqchasiga ta'sirlanuvchi biror aniq harakatga da'vat etadi. Masalsn, bundan keyin hyech qachon chekmaysan;

b) **yashirin** holda ta'sir ko'rsatish. Ta'sir ko'rsatishda maqsad yashirinadi, to'g'ri aytilmaydi, u yoki bu mo'ljallangan ta'sir harakat orqali amalga oshiriladi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatishning shakllari

Maktabda pedagogik ta'sir etishning tubandagi shakllari qo'llaniladi.

I. Bevosita oldindan mo'jallab ta'sir etish (bu to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etish deyiladi) qaysiki komanda, buyruq va murabbiy ta'sir etish qo'llaniladi.

Buyruq va komanda o'quv-tarbiyaviy jarayonda tubandagi turlarda qollaniladi:

1. **Ogohlantiruvchi** yoki **yo'naltiruvchi** shaklda. Bunda vazifa qisqa vaqtda bajarishga da'vat qilinadi. Masalan, Diqqat! Tayyorlaning!

2. **Bajaruvchi shaklda**. Masalan, to'g'irlanang! Smirno! Stop!

3. **Ta'qiqlovchi shaklda**. Masalan, To'xta! Tugat! Bas!

4. **Namuna asosida** bajariladi. Masalan, men shunday bajarsam, sen han shunday bajar. Validek bajar. Murabbiy ta'sir ko'rsatish shakli. Masalan, "Sen yaxshi o'qiy olishing mumkin. Bugun sen uch soat dars tayyorlaysan" kabi.

II. Bilvosita ta'sir ko'rsatish o'quvchiga ta'sir ko'rsatishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bilvosita ta'sir ko'rsatishning tubandagi shakllari mavjud shama shaklida (o'qituvchiga jamoat isnlariidagi faolligi uchun uni qo'llab-quvvatlaydi". "Mabodo, sen charchamadingmi?" ta'sir ko'rsatishning bilvosita ma'qullashi).

Ta'sir ko'rsatishning pedagogik ta'sir texnikasi

Ta'sirning samarasi, ta'sir ko'rsatuvchining ovoz tuzilishi, qarashlari (aft-bashara holati), harakatlarning uzviyligiga bog'liq murabbiyning ta'sir ko'rsatuvchiga ko'rsatgan ta'siri qaysini so'z bilan ta'sir ko'rsatish mazmuni uning

intonasiyasini, imo-ishorani, yuz, aft harakatlarini qo'llab-quvvatlaganda kuchli bo'ladi. Bular mazmunga zid bo'lmasligi kerar.

To'g'ri aloqa uslubini shakllantirishda o'zini tuta bilish, o'zini bilish, haqqoniy bo'lish boshqalar tarbiyasiga ijodiy yondashish, pedagogik texnikani rivojlantirish, hazilni sezish singari sifatleri muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda albatta o'qituvchi doimo o'z o'quvchilarini xizmat qilishi va ular shaxsini himoya qilishi shart.

12-Mavzu: Pedagogik texnika va o'qituvchi mahoratini takomillashtirish yo'llari

REJA:

1. Pedagogik texnika tushunchasi va uning tuzilishi
2. O'qituvchi nutqi - pedagogik mahorat ko'zgusi sifatida
3. Pedagogik muomala va uning funksiyalari

Ustoz - pedagoglar erishgan muvaffaqiyatlarning sirini bilishga harakat qilar ekanmiz, biz ularning pedagogik ta'sir usullaridan ustalik bilan foydalangan holda turli-tuman amaliy ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni ustalik bilan hal etishlariga guvoh bo'lamiz. Bunda muhim rolni maxsus ko'nikmalar egallaydi: o'quvchilarni ijrmoiy foydali o'quv faoliyatiga safarbar eta bilish, muammo qo'ya bilish, jamoa va alohida shaxs bilan til topish, kuzata bilish, o'z kechinmalarini boshqacha bilish: ovoz, nutq, mimika, harakatlarini erkin boshqara bilish va h.k.

Pedagogik texnika - o'qituvchi faoliyatining botiniy mazmunini hamda zohiriy ifodasining garmonik birligidan iboratdir. Pedagog mahoratining ma'naviy madaniyati hamda pedagogik jihatdan maqsadga muvogiq bo'lgan zohiriy ifodasi sintezidan iboratdir. (N.N.Tarasovich)

Shunday qilib texnika - usullar majmuasidir. Uning vositalari esa - nutq va muloqot vositalaridir. "Pedagogik texnika" tushunchasi o'z ichiga 2 guruh tarkibiy elementlarni oladi:

1. O'qituvchining **odob-axloqiy ko'nikmalari** bilan bog'liq bo'lgan elementar: o'z jismini (mimika, pantomimika) boshqara bilish; his-tuyg'u, hayajon, ta'bini boshqara bilish (ortiqcha ruhiy zo'riqishlardan osonlik bilan xalos bo'la olish, ijobiy muhitni to'g'richa bilish): diqqat qila bilish, kuzatuvchanlik, tasavvurning kengligi; nutq texnikasi (nafas, ovozni boshqarish, diksiya, nutq tezliqi (temp)).

2. **Shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsata bilish texnikasi** ta'lim-tarbiyaning texnologik tomoni bilan bog'liq bo'lib, bularda: didaktik, tashkiliy, ijodiylik, muomala ko'nikmalari; talab qila bilish, pedagogik muloqotni boshqara bilish, jamoatchilik ijodiy faoliyatini tashkil eta bilish va boshqalar kiradi.

Quyida biz pedagogik texnikaning, pedagogning odob-axloqi bilan bog'liq bo'lgan jihatlarini qarab chiqamiz.

Pedagogik maqsadga qaratilganlik va pedagogning tashqi qiyofasi. Tarbiyachining tashqi qiyofasi estetik jihatdan ko'rimli bo'lishi lozim. O'qituvchi juda ham bashang va juda ham pala-partish kiyinmasligi lozim.

Uning tashqi qiyofasi kiyim-kechaklari – tarbiyachi shaxsini shakllantirish vazifasini hal etishga bo'ysindirilgan bo'lishi lozim. Zamonaviy kiyinish normalaridan keyinda qolmagan holda u o'rtacha me'yorga amal qilgani tuzuk. Tarbiyachining estetik did bilan kiyinishi, uning o'zini erkin tuta bilishi, nutqi, mimik va pantomimik harakatlariga mos bo'lishi lozim. Chunki uning har bir harakati: auditoriyaga qay tahdidda kirishi, stulda qanday o'tirishi, yurish-turishi – barchasi tarbiyalanuvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. U o'zini xotirjam, jiddiy, o'rni kelganda esa bolalarning yoshiga mos ravishda xushchaqchaq tuta bilsa, tarbiyalanuvchilarga ta'siri talab darajasida bo'ladi.

Emosional holatni boshqarish. Boshlovchi pedagog birinchi marta o'zini juda ishonchsiz sezadi. O'ziga qarab turgan ko'zlarning taz'yiqli natijasida uni titroq bosadi, nutqi uzuq-yuliq, pala-partish, o'zini yo'qotib qo'yadi. (chunki u o'z ustidan kulishlaridan qo'rqadi). Bularning barchasi o'qituvchidan bo'lajak mashg'ulot oldidan o'zini ruhiy fiziologik jihatdan tayyorlashni, muloqot paytida o'z emosional holatini boshqara bilishni talab etadi.

O'z-o'zini boshqarish qobiliyatini aniqlash uchun B.M.Cherniy tuzgan testdan foydalanish mumkin:

“Ha yoki yo'q” so'zlari bilan hissiyot-holatingizga tegishli bo'lgan savollarga javob bering:

- Har doim xotirjam, toqatlimisiz?
- Sizning ta'bingiz har doim tuzukmi?
- Auditoriyada mashg'ulot o'tayotganda, unga diqqat va sarajomlik sizni tark etmaydimi?
- Siz o'z his-hayajoningizni boshqara olasizmi?
- Siz o'z o'rtoqlaringiz va yaqinlaringizga nisbatan diqqat e'tiborli va mehribonmisiz?
- Siz o'rganish kerak bo'lgan materialni yengil o'zlashtira olasizmi?
- Sizda o'zingiz xalos bo'lishni istagan salbiy odatlar yo'qmi?
- Siz qaysidir vaziyatda o'zimni noto'g'ri tutdim, deb afsuslanasizmi?

“Ha va yo'q” javoblarini hisoblab, xulosa chiqarish mumkin. Agar barcha javoblar ijobiy bo'lsa, vazminlik, o'z-o'zini boshqara bilish, yoki o'ziga ortiqcha baho berishni ko'rsatadi. Agar barcha javoblar yoki ularning ayrimlariga salbiy javob to'g'ri kelsa, bu kishining notinchligi, o'ziga ishonchsizligi, o'ziga tanqidiy qarashidan dalolat beradi. Aralash javoblar (“Ha” ham “yo'q” ham) o'z nuqsonlarini ko'ra bilishni ko'rsatadi, bu esa o'z-o'zini tarbiyalash tomon birinchi qadamdir.

O'z-o'zini boshqarish usullari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- yaxshilik, mehribonlik va optimizimni tarbiyalash;
- o'z xulq-atvorini nazorat qilish (mushak zo'riqlishi, harakat tezligi, nutq, nafas olish);
- faoliyatda dam olish (mehnat, musiqa, kitobxonlik, yumor, imitasion o'yinlar).

Navbatdagi usullar organizmning faoliyatini nazorat qilishga asoslanadi. Xususi qayg'urishlar chuqurligini o'zgartirish mumkin. Buning uchun tashqi

ta'sir zarur bo'ladi. Bunga nazoratni nimaga qaratish lozim? Albatta mimika, suyak muskullari, nutq tezligi, nafas olishni mo'tadillashtirish lozim bo'ladi.

Jismoniy va ruhiy jihatdan organizmni bo'shashtirish uchun autogen mashqlar (psixik o'z-o'zini boshqarish) o'ziga xos psixofizik gimnastik mashqlar bo'lajak o'qituvchi uchun nafas olish va nutq ohangini tarbiyalashda xizmat qiluvchi mashqlar qatoridan joy olmog'i lozim. Psixik o'z-o'zini boshqarish o'z tarkibiga **relaksasiya** (bo'shashuv holati) va kasbiy zarur bo'lgan sifatlarni egallash uchun o'z-o'zini ishontirish formulalaridan foydalanishni qamrab oladi. Buning uchun chordona qurgan holda maxsus formulalar yordamida og'irlik va issiqlik sezgisini organizm a'zolari - qo'l-oyoqda hosil qilish, muskullarni bo'shashtirish, tinchlanishni mashq qilish mumkin. Shundan so'ng quyidagi formula asosida quyidagilarni ovoz chiqarib aytib o'z-o'zini u yoki bu faoliyatda safarbar etish mumkin:

“Men xotirjamman. Darsimni yaxshi o'tyapman. Talabalar yaxshi tinglashyapti. O'zimni erkin his etyapman. Men darsga yaxshi tayyorlanganman. Dars qiziqarli. Talabalarning barchasini bilaman va ko'ryapman. Men darsni yaxshi o'taman. Mening darsimga talabalar qiziqishadi. Men o'zimga ishonaman, kuchliman. Men o'zimni yaxshi tuta olaman. Ruhiyatim yaxshi. O'qitish qanday yaxshi. Talabalar meni hurmat qilishadi, tinglashadi va mening talablarimni ijro etishadi. O'qituvchilik kasbi menga yoqadi. Men - o'qituvchiman!”

Biroq pedagogik faoliyatning boshida ro'y beradigan qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun katta bardosh, iroda, sabr-toqat talab etilishini yoddan chiqarmaslik lozim.

Pantomimika. Gavda, qo'l va oyoqning harakatiga - **pantomimika** deyiladi. Pantomimikadan mohir pedagoglar o'z fikrlarining asosiy o'rnini ta'kidlash, obraz yaratish maqsadida foydalanadilar. O'qituvchi dars paytida o'quvchilar oldida to'g'ri turish malakasini egallashi kerak (oyoqlar oralig'i 12-15 sm, bir oyoq biroz oldinga tashlangan holda). Uning barcha harakatlari nazokatli, oddiy va tabiiyligi bilan ajralib turishi lozim. Gavdani tutish estetikasi salbiy odatlardan xoli bo'lishni talab etadi: orqa-oldga tomon chayqalish, bir oyoqdan ikkinchisiga og'irlikni tashlash, stul suyang'ichini tutish, qo'lda darsga aloqasiz buyumlarni aylantirish, bosh qashish, burun qoqish, quloq kavlash va h.k.

Uning imo-ishoralari aniq tushunarli, ma'noli bo'lmog'i lozim. Imo-ishoralar tasviriy va psixologik turlarga bo'linadi. Tasviriy ishoralar fikr yo'nalishini tasavvur etish, chizib berish uchun xizmat qiladi. Eng muhimi psixologik testlar bo'lib, ular his-hayajon, tuyg'ularni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, o'qituvchi to'g'ri javobdan mamnunligini boshini 3 marta ohista pastga egish orqali, javobdan qoniqmaganligini esa boshini ikki tomonga “sarak-sarak” qilib chayqash orqali ifodalashi mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, ishoralar aytilmoqchi bo'lgan fikr to'g'risida oldindan ogoh etish uchun ishlatiladi, aytilgan fikrdan keyin ularni qo'llashning foydasi yo'q. O'quvchilarga aytiladigan fikr ta'sirini oshirish uchun oldinga qarab yurish, ularga dam berish uchun esa orqaga qaytish lozim.

Mimika. O'z fikri, hissiyoti, ruhiy holatini ifodalash san'atiga - **mimika** deyiladi. Ba'zan o'qituvchi yuz ifodasi u aytmoqchi bo'lgan so'zdan ham ko'ra

kuchli ta'sirga ega. Imo-ishora va mimika axborotning emosional ta'sir kuchini oshirib yaxshi qabul qilishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilar o'qituvchining fikrini uning yuz ifodasidanoq bilib oladilar. Shuning uchun ham o'qituvchi o'z kechinmalarini yashira olish ham lozim. Yuz harakatlari faqatgina o'quv tarbiya maqsadida qo'llanilishi lozim.

Yuz ifodasi butun qiyofa kabi o'zga ishonch, xayrixohlik, hukm, norozilik, xursandlik, faxrlanish, loqaydlik, qiziquvchanlik, xafalik kabilarni ifodalay olishi lozim. Insonning barcha hissiyotlari uning tabassumida mujassamlashgan bo'ladi, u kishining ma'naviy sog'lomligi va axloqiy qudratini o'zida ifodalaydi. Mimikani ifodalovchi detallar - qosh va ko'zdir. Qoshning yuqoriga ko'tarilishi hayratlanishni, chimirilishi - diqqatni to'plashni, qimirlatmasdan turish-xotirjamlikni, loqaydlikni, tez harakatga kelishim - tang qolishni ifodalaydi.

Ko'z kishining eng ta'sirchan organidir. O'qituvchi o'z yuz tuzilishining imkoniyatlarini yaxshilab o'rganib chiqishi lozim. U har bir xodisaga nisbatan o'z ko'z qarashlari bilan o'zining ijobiy, salbiy, betaraf munosabatini ifodalay bilishi lozim. Uning ko'zi "olma-kesak" termasligi, yoki "baliq ko'z" bo'lmasligi lozim.

Mana masalan, quvonchli holatni ifodalovchi belgilar: tabassum, ko'z yashnaydi, haddan tashqari imo-ishoralar, so'zamollik, boshqalarga yordam berish istagi ko'zga tashlanadi.

Qo'rquv belgilari: ko'zlar katta-katta ochilgan, gavda shalpaygan, qoshlar biroz ko'tarilgan, ovoz titraydi, ko'z olma-kesak teradi, harakatlar shiddatli, gavda titraydi.

O'qituvchining nazari o'quvchilarda bo'lishi lozim. Ular orasidagi ko'z aloqasi mashg'ulotlar davomida mustahkamlanib borishi kerak. Biroq shuni ham unutmaslik lozimki, katta yig'in, mitinglarda so'zga chiqqanda bunday aloqadan voz kechish lozim. Chunki ko'pchilik tomonidan hosil bo'ladigan biomaydon notiqqa salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham olomonga xuddi devor yoki gulzorni kuzatgan kabi nazar tashlagan maqsadga muvofiq bo'ladi: olamon biomaydoni notiqqa salbiy ta'sir ko'rsata olmaydi.

IV.

V. O'qituvchi nutqi - pedagogik mahorat ko'zgusi sifatida

VI. Olimlarning hisoblashlariga ko'ra o'quv uchun ajratilgan vaqtning taxminan $\frac{1}{4}$ - $\frac{1}{2}$ qismi o'quvchilarning o'qituvchi nutqini eshitishlari va tushunishlari uchun sarflanadi. Demak, o'quv materialining o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishi o'qituvchi nutqining kamoloti va yorqinligiga bog'liq ekan.

Haqiqatan ham, A.Avloniy ta'kidlaganidek "So'z insonning daraja va kamoli, ilm va fazlni ulug'lab ko'rsatadurg'on tarozisidir. Aql sohiblari kishilarning fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilir". Ayniqsa, o'quvchilar o'qituvchi talaffuzi, nutq texnikasiga katta e'tibor beradilar. Duduq, kirish, tovushga taqlid kabi so'zlarning, masalan "aytaylik", "xo'sh", "anaqa", "o'tga-bo'tga", "demak" kabi so'zlarning o'rinsiz ravishda ko'p takrorlanishi o'quvchilarning ensasini qotiradi. Bunday hol faqat o'rta maktab o'qituvchilari va o'quvchilari orasidagina emas, balki oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilari orasida ham uchrashi achinarli holdir. Masalan, sobiq ittifoq davridagi SamD Uning bir o'qituvchisi (muayan sabablarga ko'ra u

kishining ismini aytmadik) bir juft ma'ruza davomida 82 marta hyech bekorga "xo'sh" va 172 marta "demak" so'zini ishlatgan. Bunday hol o'quvchi va talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarni so'ndiradi.

Kishining ovozi, tabiati o'zgaras degan fikrlarga qo'shilib bo'lmaydi. Hozirgi zamon fiziologiya faninig dalolat berishicha ovoz sifatini mutlaqo o'zgartirish mumkin. Bu tarixiy faktlar bilan ham isbotlangan. Masalan, buyuk notiq Demosfen o'z duduqligini mashq qilish tufayli yengib Qadimgi Rimning buyuk notig'iga aylangan.

Hozirgi kunda nutq texnikasiga doir mashqlar tizimi ishlab chiqilgan. Bu tizim teatr pedagogikasi tajribalariga tayanadi hamda nutq paytida to'g'ri nafas olish, tanaffus va diksiyani so'zlash kabi ko'nikmalar o'quv-metodik majmuasidan tashkil topgandir. Mazkur tizimni o'zlashtirgan istalgan o'qituvchi o'z nutqi orqali o'quvchilarda o'zi istagan bilim, ko'nikma va malakalarni singdira oladi, tarbiyalay oladi.

Nutqni boshqarishning ilmiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

1. To'g'ri nafas olish.
2. Talaffuz va diksiyani sozlash.
3. Nutq, talaffuz, diksiyani pantomimik va mimik harakatlar bilan uyg'unlashtirish (teatr pedagogikasi tajribasi asosida).

To'g'ri nafas olish

Nafas faqatgina insonning tirikligini ta'minlabgina qolmasdan nutqning kuch beruvchi bazasi bo'lib ham hisoblanadi. Nutq hosil qiluvchi nafas **Fonatika** deb ataladi (grekcha **fono** - **tovush**). Hayotda muomala dialogik tarzda kechishi nafas olishda ko'p qiyinchilik tug'dirmaydi. Biroq dars paytida esa bir oz boshqacharoq: o'qituvchi uzoq vaqt gapirishiga to'g'ri keladi, mashqsiz nafas olish shunda o'zini namoyish qiladi: nafas olish qiyinlashishi tomir urishni tezlashishi, yuz qizarishi kuzatiladi.

Nafas olish jarayonida qanday muskullar ishtirok etishiga qarab nafas olishning 4 xil tipi farqlanadi.

Yuzaki nafas - olish yelkani ko'taruvchi va tushiruvchi, ko'krak qafasning yuqori qismini harakatga keltiruvchi muskullar ishtirokida hosil bo'ladi. Bu yuzaki nafas hosil qiladi, o'pkaning faqat yuqori qismigina faol harakat qiladi.

Ko'krak nafasi - qovurg'alar oralig'i muskullari yordamida hosil qilinadi. Ko'krak qafasining ko'ndalang qismi o'zgarishga uchraydi. Diafragma deyarli harakatsiz, natijada nafas chiqarish kuchsiz.

Diafragma orqali nafas olish - ko'krak qafasining ko'ndalang o'zgarishi hisobidan sodir bo'ladi. Diafragma qisqaradi (bunda qovurg'alar oralig'idagi nafas muskullari qisqaradi, biroq ozroq).


Diafragma qovurg'a orqali nafas olish diafragmalarning to'g'ridan-to'g'ri va ko'ndalang ravishda qisqarishi, qovurg'alararo nafas olish muskullarining qisqarishi natijasida yuzaga keladi. Bu nafas olish eng to'g'ri bo'lib, undan nutq tovushini hosil qilish uchun foydalaniladi.

Ko'krak qafasining kengayishi nafas chiqarish natijasida faol ishga kirishgan qovurg'alararo muskullarning harakati o'pka kengayadi va havo bilan to'ladi. Shunday savol tug'iladi - nafas olish qanday sodir bo'ladi?


Ko'krak qafasi diafragmasi qisqaradi va ko'tariladi hamda ko'krak qafasining yuqorisiga ta'sir etadi, bu vaqtda qovurg'alar pastga tushadi, natijada ko'krak qafasining ko'ndalang hajmini kichraytiradi. Ko'krak qafasining umumiy hajmi qisqarishi natijasida bosim ko'payadi va havo tashqariga chiqadi.

Oddiy nafas burun orqali sodir bo'ladi: u vaqt jihatidan qisqa va ravondir. Oddiy nafasning formulasi: nafas olish, chiqarish, pauzadan iborat.

Buni shunday tasavvur etish mumkin:



Bunday nafas olish esa nutq uchun yetarli emas. Nutqda nafas chiqarish nafas olishga nisbatan cho'ziqroqdir.



Nutq tovushlari nafas chiqarish jarayonida yuzaga keladi. Shuning uchun ham diafragma, bel hamda qovurg'alararo muskularni rivojlantirishga doir mashqlar mavjiud. Masalan: yonboshlagan holda burun orqali chuqur nafas olish. Bunda havo o'pkaning pastki qavatida saqlanishiga e'tibor bermoq darkor. Havoni har doim pastga tomon yo'llash lozim.

Talaffuz hamda diksiyani sozlash

Ha, ba'zi o'qituvchilarning ovozi tabiatan berilgan. Biroq har qanday ovoz maxsus mashqsiz vaqt o'tishi jarayonida buzila boshlaydi. Har bir kishining ovozi o'zigagina xos: kuchli qattiq va ohangdordir.

Ovoz apparati 3 qismdan: **generatorli, yenergetik, rezanotorlik xususiyatiga** ega.

Ovoz generatsiyasi ovoz tugunchalari og'iz bo'shlig'idagi to'siqlarda hosil bo'ladi, natijada shovqinli tovushlar yuzaga keladi.

Rezanator tizimida xalqum, burun-xalqum, og'iz bo'shlig'i, nutq ritmi va dinamik rivojlanishni ta'minlaydi.

Energetik tizimda tashqi nafas olish bilan bog'liq bo'lib, havo to'lqinlari va miqdorini tashkil etadi, tovushning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Pedagog nutqi kuchli, uzoq masofaga yetib boradigan o'zgaruvchan, diapazonli (ovoz hajmi), tembri (ulug'lik, yorqinlik) bo'lishi talab etadi.

Maxsus ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, past ovozda tushuntirish yuqori ovozda nisbatan samaraliroq o'zlashtirilgan ekan.

Ovoz buzilishlari 4 sababga ko'ra sodir bo'lishi aniqlangan:

1. Har kungi ovoz **zo'riqishi**.
2. Ovoz apparatlarining **zaifligi**.

3. **Gigiyena** qoidalarini bilmaslik.

4. Ovoz apparatining **tug'ma zaifligi**.

Ovoz apparatining zo'riqishi natijasida ovozning buzilishi o'qituvchilar orasida **50 %** ni tashkil etadi - bu baland ovoz bilan gapirishning oqibatidir. O'qituvchining ovozini ehtiyot qilishi haqida **Abu Ali Ibn Sino** "**Tib qonunlari**"da asarida shunday yozadi: "Ovozni yo'qotmaslik, nafas olish organlarini ishdan chiqarmaslik uchun, avvalo o'qishni past ovoz bilan, keyinchalik esa asta-sekin kuchaytirish lozim, lekin kuchli ovoz bilan o'qish ham uzoq muddat davom etmasligi lozim" (316-b). U yana davom etib yozadi: "Uzoq muddat davomida qattiq tovush juda xavflidir. Chunki baqiriq ko'p miqdorda havoni ichga tortishni talab qilib, uzoq muddat tovush chiqarib turish esa ko'p miqdordagi havoni tashqariga chiqarishni talab qiladi (bularning har ikkisi ham xavflidir)" - degan edi.

Diksiya. Talaffuzning aniqligi, ravshanligi. Diksiya bu har bir so'z, jumlaning aniq talaffuz etishidir. Talaffuzning aniqligi nutq apparatining sofliqi, ya'ni sozlanganligiga bog'liq. Nutq hosil qilishda til, lab, yumshoq tanglay, kichik til, pastki jag' faol qatnashadi. Shuning uchun ularni mashq qildirish darkor. Buning uchun maxsus artikulasiya gimnastikalaridan foydalanish mumkin. Bunday mashqlar nutq apparatini sozlaydi, har bir tovushni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatadi. Masalan, tilning chuchukligini mashq orqali tuzatish mumkin. Buning uchun til yuqori tanglay ostiga qattiq bosiladi. Gugurt cho'pi bilan talaffuz qilish orqali ham bunday natijaga erishsa bo'ladi.

Nutq, talaffuz diksiyasini pantomimik va mimik harakatlar bilan uyg'unlashtirish

Nutqning cho'ziqligi, davomiyligi alohida so'zlarning talaffuzi, uning ritmik tezligini tashkil etadi. Uning tezligi o'qituvchining individual xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, V-XI sinflarda 1 minutda 60 so'z, X sinflarda 75 so'z bayon qilinganda o'quvchilarning yaxshi o'zlashtirishga erishishi aniqlangan.

O'quv materiallarining murakkab qismi, bo'limlarini asta-sekinlik bilan, qolganlarini esa ritmik tezlik bilan uyg'unlikda tushuntirilishi lozim. O'quvchi qanchalik hayajonlansa, o'qituvchi shuncha sekin va xotirjam vaziyatda gapirishi katta samara beradi. Nutq jozibadorligi va boyligini oshirish uchun maxsus mashqlardan foydalanish tavsiya qilinadi. Bular: nafas olishni tashkil qilish, talaffuzini o'rganish, nutq sur'atini boshqarish, ovoz bog'lanishlarini mustahkamlash va boshqalardir. O'qituvchi nutqi tiniq, mazmunli, jarangli, aniq, o'quvchilar diqqatini o'ziga tortadigan, fikrlashga da'vat etuvchi, o'quvchini to'liqlantiruvchi, uning uyqusini keltirmaydigan bo'lishi lozim.

Agar nutq tezligiga **ritm** deyilsa, uning cho'ziq yoki qisqalik jihatdan muayyan o'lchovga egaligiga **vazn** deyiladi. Masalan, she'riy asarlarning vazni: **aruz, barmoq, oq she'r** kabilar.

O'qituvchi o'z nutqini, talaffuz va diksiyasini pantomimik, mimik harakatlar bilan uyg'unlashtira olsa va shuning bilan birga chuqur kasbiy bilimlar zahirasiga ega bo'lsa, bunday o'qituvchini mohir usta, ustoz o'qituvchi deb atash mumkin.

Pedagogik muomala va uning funksiyalari

Ba'zi o'qituvchilar borki, ular nihoyatda kuchli bilim, yaxshigina nutqqa ega bo'lishadi, biroq o'quvchilar bilan muomala qila bilishmaydi. Ularda o'qituvchini eshitish sabr-toqat malakasi yetishmaydi.

Maktabda 2 ta bosh **figura - o'qituvchi** va **o'quvchi** mavjud bo'lib, butun ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyati ana shu kishilarning muomala madaniyati darajasiga bog'liq. Biroq, hozirgi maktab, ta'lim-tarbiyani demokratiyalashtirish jarayoni bajarayotgan birdavrda ham, biz avtoritar-byurokratik, imperativ yondashuvni ko'ramiz.

Sakkiz yillik maktab direktori "Men o'quvchilar bilan yolg'iz kurashmoqdaman, lekin ular bilan hamma kurashishini istayman", deb javraydi, natijada bolalardagi nuqsonlarga emas, balki ularning o'zlariga qarshi kurash boshlaydi. Masalan, sharmanda qilishga bag'ishlangan lineyka, qasam ichirish, ota-onalar orqali siquvga olish va h.k. Natijada ikki bir-biriga qarshi turuvchi o'quvchilar va o'qituvchilar lageri yuzaga keladi. Umumiy maqsadlar emas, balki shaxsiy qiziqishlar uchun kurash avj oladi.

Hozirgi istiqlol va demokratiya sharoitida ta'lim-tarbiya jarayonini, ongli fikrlay oladigan vatan va shaxsiy manfaatlari oldida mas'uliyat sezadigan fuqaroni tarbiyalash maqsadiga bo'ysunadi.

O'zaro qarama-qarshilik emas, balki hamkorlik, insonparvarlik bilan sug'orilgan munosabatlar - maktabda sermahsul muomala madaniyatini yo'lga qo'yish orqaligina yuqoridagi maqsadga erishish mumkin.

Bu jarayonni shartli ravishda quyidagicha tasavvur etish mumkin.

Jamiyat	Maktab
Jamiyatni yangilash.	Pedagogik jarayon ishtirokchilari orasidagi munosabatlarni insonparvarlashtirish.
Demokratiyalashtirish.	Hamkorlik: O'qituvchi-o'quvchi. O'qituvchi - pedagogik jamoa. O'quvchi - o'quvchi.
Xo'jayinlik tarbiyasi.	Har bir o'quvchining shaxsiy mas'uliyati, har tomonlama rivojlanish.

Hamma narsa o'qituvchining o'quvchilar bilan mohirona maqsadga muvofiq munosabatlarni o'rgatishga bog'liq, chunki bunday munosabatlar o'z navbatida ijodiy muloqotni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ko'pchilik **25 % o'qituvchi** o'zining maktabdagi yetakchilik rolini anglamaganligi uchun hamma aybni o'quvchilarning "tarbiasizligi" ga to'nkaydi.

Muomala - pedagogik faoliyatning muhim kasbiy quroli bo'lib, olimlar A.A.Kovalev, N.B.Kuzmina, U.A.Kan-Kalik, A.A.Leontyev, A.N.Mudrik, A.U.Sherbakovlar muomalaning o'qituvchi faoliyatida muhim rol o'ynashini isbotlashgan.

Pedagogik muomala - bu o'qituvchining o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari paytdagi qulay psixologik holat yaratish maqsadida olib boradigan kasbiy muloqoti.

Pedagogik muomala ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida quyidagi funksiyalarga ega: shaxsni anglash, axborot almashuv, faoliyatni tashkil etish, rol almashtirish, hamdardlik, o'z qadrini bilish, ishtirokchilarni almashtirish, kechinmalar hosil qilish, o'zida ishonchni shakllantirish va hakoza.

Axborotlarning almashinish funksiyasi materiallarning va ma'naviy sifatlarni almashtirish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonni rivojlantirish, ichki ijoboy o'zgarishlarni hosil qilish, hamkorlikda bilishga oid qidiruv hamda ongli fikrlashga zarur sharoit yaratadi. .

Pedagogik muomala tuzilishi. 1) Pedagog tomonidan sinf bilan bo'ladigan muomalani modellashtirishi (pragnostik bosqich).

2) Dastlabki o'zaro faoliyatga kirishuvdanoq bevosita muomalaga kirishuv (kommunikativ hukum).

3) Pedagogik jarayonda muomalani boshqaruv.

4) Kelajakdagi faoliyatni inobatga olgan holda qo'llanilgan muomala sistemasi va modellashtirishni tahlil qilish.

Noto'g'ri pedagogik muomala o'quvchilar qo'rquvini, ishonchsizligini, diqqati, xotirasini bo'shashtiradi, bilish qobiliyatini pasaytiradi, mustaqil fikrlashni susaytiradi va salbiy xulq-atvorini shakllantiradi. Natijada o'quvchida o'qituvchi va predmetga nisbatan munosabat shakllanadi. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligidagi uning samaradorligini ta'minlaydi. A.S.Makarenko o'qituvchi va o'quvchilarning munosabatlarida asosiy narsa talabchanlik va hurmat bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlagan. Suxomlinskiy quyidagi mahoratni o'qituvchi "Maktab partalaridan aytilgan har bir so'z o'ylantiradigan donishmandona, maqsadga yo'naltirilgan, to'la ma'noli bo'lmog'i kerak".

O'qituvchi munosabatida uslublar

Muloqotni 2 qismga bo'lish mumkin: ya'ni muomala va hamkorlikdagi harakatdan tashkil topadi. Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatadiki, o'qituvchilar doimo o'z o'quvchilari bilan emosional - turg'un munosabatlarda bo'lganlari o'qishda, xulq-atvorida nuqsonlarni osoyishtalik bilan - teng va ishonch asosida hal etadi.

O'quvchilar bilan qo'pol muomalada bo'lgan o'qituvchilar esa o'quvchilar ishonchini yo'qotadi, tilyog'lamalik, o'zini ko'rsatish, sinfda masxaraomuz qiliqlarni shakllantirishga sharoit yaratadi. Bular o'quv-tarbiyaviy jarayonga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotchilar o'qituvchining sinf jamoasi bilan munosabatlarida 3 ta uslub mavjudligini ta'kidlaydi: 1. **Barqaror ijobiy** (turg'un); 2. **Faol - ijobiy**; 3. **Barqaror bo'lmagan** (turg'un bo'lmagan) uslub.

O'qituvchilarning o'quvchilar bilan bo'ladigan uslublarini A.A.Leontyev xulosalab, beqaror o'ta salbiy uslubda bo'lganlari o'zlariga salbiy munosabatni yuzaga keltirishni ta'kidlaydi. Bunday o'qituvchi maktabga va jamiyatga ziyon keltiradi. Muomalada o'qituvchilarning ish uslublari 3 xil bo'ladi:

1. **So'zsiz buysunishga asoslangan** uslub.

2. **Demokratik** uslub.

3. **Ko'ngilchanlik** uslubi.

V.A.Kan-Kalik aloqa uslublarini tubandagilarga ajratib ko'rsatadi:

- **hamkorlikdagi** ijodiy faoliyat asosidagi uslubi;
- **do'stlikni xush ko'rish** asosidagi aloqa uslubi;
- **masofa saqlash** asosidagi aloqa o'rnatish uslubi;
- **do'g'lash, qo'rqitish** asosida aloqa o'rnatish uslubi;
- **hazil yoki o'yin** asosida aloqa o'rnatish uslubi;

Sh.A.Amonashvili do'stlik asosida aloqa uslubi haqida shunday g'oyani ifodalaydi: ("Agar bola bizdan uzoqlashsa qanday qilib uni tarbiyalaymiz?").

"Faqat ma'naviy birlik - bundan boshqa hech narsa bu birlikni buzishi mumkin emas".

"Baqirish - insoniy munosabatlar madaniyati yo'qligining yaqqol ko'rinib turgan belgisidir. O'qituvchining baqirishi bolani dovdiratib, garang qilib qo'yadi" - degan edi Suxomlinskiy.

O'qituvchi munosabatlarida xushmuomalalik

Takt so'zma-so'z tarjima qilinganida dahldorlik, aloqadorlik, taalluqlilik ma'nosini bildiradi. **Xushmuomalalik** ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik munosabatlarini tartibga solishga yordam beruvchi axloqiy mezon.

Xushmuomala xulq-atvorli pedagog insonparvarlik prinsipiga asoslanib, eng murakkab vaziyatlarda ham insonni hurmat qilish asosida ish tutadi. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida **"ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi"** ta'kidlangan.

Pedagogik xushmuomalalik pedagogning kasb sifati ya'ni mahoratining bir bo'lagidir. Pedagogik nazorat umumiy nazoratdan farqlanib, o'qituvchi shaxsining asosiy sifati bo'lib balki o'quvchiga to'g'ri malakali yondoshishni nazarda tutadi. Shunday qilib, pedagogik xushmuomalalik - o'qituvchining maqsadga muvofiq o'quvchiga ta'sir ko'rsatish mahoratini belgilab beradigan, samarali uslubiy aloqasidir.

K.D.Ushinskiy *"Maktabda hazilga yo'l qo'yishni jiddiy hukm surishi lozim, ammo hamma ish hazilga, ermakka, sertakalluflikka, adolat tirnoq ostidan kir izlashga, yaxshilik, muloyimlikka, tartib bachkanalikka aylanib ketmasligi, eng muhimi doimo aqliy faoliyat hukmron bo'lishi kerak"*, - deb ta'kidlagan edi.

O'qituvchining o'quvchilarga qo'yadigan talablari me'yoridan ortiq bo'lsa, teskari natijalarni me'yoridan ortiq ko'ngilsizlik esa salbiy natijalarni keltirib chiqarishi mumkin. O'qituvchi o'quvchini hurmatlab buni o'quvchilarga ko'rsata olish zarur. Hurmat qilish ochiq ko'ngillikni, erkalatishni, talabchanlikni inkor etmaydi, aksincha uni kuchaytiradi. Talabchanlik o'quvchi yoshining o'rtiq bo'lishi bilan orttirib boriladi.

Darsda pedagogik xushmuomalalik

O'quvchilar bilan o'qituvchi o'rtasidagi tushunmasligining asosiy sabablaridan biri - o'qituvchining xushmuomala emasligi ya'ni o'quvchilarning tashqi ko'rinishi, aqliy rivojlanishi, qobiliyatlariga qo'pol ravishda e'tiroz bildirishlari natijasida ro'y beradi. Ba'zi o'qituvchilar sinfda, ko'chada, qayerda bo'lmasin o'quvchilarni ogohlantiradi. O'qituvchining xushmuomalaligi darsning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi kerak. Asosiy e'tiborni o'quvchilar uy vazifalarini tekshirish va baholashga qaratishi lozim.

Bunda o'qituvchining nazorati mohirlik bilan ularning javoblarini tinglashi, mazmuni shakli, duch keladigan qiyinchiliklari va boshqalar. O'qituvchi o'quvchining javobidan kulimsirashi, yuz-qo'l harakatlarini o'zgartirishi, boshni irg'ashi, izoh berishi, javobni bo'lishi maqsadga muvofiq emas.

Pedagogik xushmuomalalikni o'zgartirish shartlari

Pedagogik xushmuomalalik o'qituvchining ma'naviy yetuklik darajasi, qaysiki o'z ustida ishlab, maxsus bilimlarini orttirib borishi va o'quvchilar bilan xushmuomalalik qilish ko'nikmalarini shakllanirishni talab qiladi. U avvalo yoshlar ruhiyati va hozirgi zamon o'quvchilarining xususiyatlari haqida pedagogik ma'lumotga ega bo'lishini talab etadi. (Albatta o'quvchilarga ko'rsata olish, bolalarning ichki xulq-atvori).

Albatta o'quvchilarning ta'sir ko'rsatuvchi ko'nikma va bilimlar, o'qituvchi uchun juda zarur. Bular quyidagilardir:

- Bolalarni sevisht, uni o'quvchilarga ko'rsata olish, bolalarning ichki xulq-atvorini mohiyatini ko'ra olish, sezish, vaziyatni mo'ljallat qila olish: o'quvchilarga maqsadli ta'sir ko'rsatish usullarini tanlash, bolalar bilan suhbatlashish va hakoza.

VII. O'qituvchining vositachilik qobiliyatini rivojlantirish

VIII. O'qituvchida to'g'ri aloqa usullarining ta'minlanishi, pedagogik odobni saqlashi, har qanday faoliyatda uning vositachilik qobiliyat - ko'nikmalarini rivojlantirish talab qiladi.

A.S.Makarenko o'qituvchining vositachilik qobiliyatini rivojlantirishda muomalaning iltimos shakli haqida "Iltimos qilish muomalaning boshqa turlaridan shu bilan farq qiladigan, ishni bolaning batamom o'z xohishiga qo'yib beradi. Iltimos xuddi shunday bo'lishi ham kerak. Bu iltimosni shunday ifoda qilish kerakki, bola uni birovning majbur qilish, orqasida emas, balki o'z ixtiyori bilan bajarayotgandek his qilish"- degan edi.

A.N.Leontyev o'qituvchining vositachilik qobiliyatlariga keng tavsif beradi:

1. O'quvchining ijtimoiy o'qish qobiliyatini bilishi;
2. O'quvchining tashqi belgilaridan uning ruhiy holatini tushunish;
3. O'zini o'quvchilar bilan aloqa qilishga yo'llash;
4. O'quvchilar bilan nutql va so'zsiz bog'lanish orqali nutqli aloqani samarali tashkil etish.

Eng muhimi pedagogik jarayonda o'zaro hamkorlik asosida o'quvchilar bilan aloqa qilish qobiliyatlarini yo'lga qo'yishi va tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu muammolarni takomillashtirishda A.B.Dobrovich, V.Leviyev, V.A.Kan-Kalik singari mualliflarning asarlari yordam beradi.

Yosh o'qituvchilarga maslahatlar

1. O'quvchilar bilan aloqa bog'lashga jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib talablar qo'yib borish.

2. O'quvchilar bilan samarali o'zaro hamkorlik qilish uchun o'z shaxsini ular bilan teng qo'yishi.

3. O'qituvchi va o'quvchilararo munosabatlarda o'zaro hurmatga asoslangan maqsadli aloqa o'rnatishi lozim. O'qituvchi har bir o'quvchi shaxsini hurmat qilishi, o'z tengdoshlari orasida o'ziga ishonch hosil qilishi va o'quvchilarda yaxshi sifatlarini rivojlantirishi muhim.

4. O'qituvchi ba'zan o'z mavqyeini, imkoniyatini, g'amxo'rligini namoyish qilishi ham zarur.

5. O'qituvchining o'quvchilar bilan aloqasining samarasi doimo o'quvchilar nutq faoliyatini o'stirish, o'z nutqini rivojlantirish, foydasiz vaqt sarfini kamaytirish, aloqalar sonini ko'paytirish (savol, javob) asosida olib borilsa maqsadga muvofiq.

6. Arzimaydigan kamgina muvaffaqiyat uchun bolalarni saxiylarcha maqtash zarur (o'quvchilar jamoasida maqtash, kamchiliklarni esa o'quysnining o'ziga alohida aytish).

7. Agar siz o'quvchilar bilan ishni boshlaganingizdan keyin ham umidli o'zgarishlar bo'lmasa ham, ularga o'zlarining kamchiliklarni va e'tirozingizni aytmasligingiz darkor. Sizning asosiy vazifangiz - o'z mo'ljalingizga ota-onalarni yo'ldosh qilishga va hamfikir bo'lishga qaratilish kerak.

8. Yosh o'qituvchi o'quvchi yoki ota-ona bilan o'zaro bir fikrga kela olmaslik malakasi yetishmasligi yoki bir masala to'g'risida bir fikrga kela olmasligi, yo malakasiz suhbatlar asosida samaraga erisha olmaydi. Shuning uchun suhbat ikki tomonga ham qiziqarli bo'lishi va vazifani ham o'qituvchi o'zi hal etishi kerak.